

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GWARDIYASI
HARBIY-TEXNIK INSTITUTI**

M.X. RUSTAMBAYEV

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JINOYAT HUQUQI
KURSI**

II TOM

**UMUMIY QISM
JAZO HAQIDA TA’LIMOT**

Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik
(2-nashr, to’ldirilgan va qayta ishlangan)

TOSHKENT

UO‘K – 343.24(575.1)
KBK - 67.408(50’)
R-92

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti kengashida ma’qullangan. 2018 yil 29 iyundagi 9-sonli bayonnoma

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. 2018 yil 15 avgustdagi 718-sonli buyrug‘i

Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta’limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 335 bet.

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga 2018 yil 1 noyabrgacha kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartishlar inobatga olingan holda tayyorlangan. Unda amaldagi qonun hujjatlari, tergov va sud amaliyoti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari asosida jinoyat huquqining Umumiy va Maxsus qismi masalalari yoritilgan.

Darslik besh tomдан iborat. Birinchi va ikkinchi tomlar JKning Umumiy qismiga bag‘ishlangan. Birinchi tomida jinoyat qonuni va jinoyat to‘g‘risidagi ta’limot masalalari yoritilgan. Ikkinchisida jazo, javobgarlik va jazodan ozod qilish, jinoyat-huquqiy ta’sirning boshqa choralari yoritilgan. Uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi tomlar JKning Maxsus qismi normalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun javobgarlik masalalariga bag‘ishlangan. Muallif tomonidan barcha jinoyatlar tarkibining belgilari tahlil qilingan, ularni kvalifikatsiya qilish masalalari, o‘xshash jinoyatlar tarkiblarini farqlash muammolari ko‘rib chiqilgan.

Darslik yuridik oliy o‘quv muassasalari bakalavr va magistr lari, Bosh prokuratura Akademiyasi tinglovchilari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti kursantlari, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi tinglovchilari, o‘qituvchilarga mo‘ljallangan, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari va jinoyat huquqi muammolari bilan qiziquvchi shaxslar tomonidan foydalanilishi mumkin.

Taqrizchilar:

Abdurasulova K.R. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi “Kriminologiya” kafedrasi boshlig‘i, yu.f.d., professor

Mirazov D.M. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik Instituti “Sohaviy huquqiy fanlar” kafedrasi boshlig‘i, yu.f.d., dotsent

ISBN 978-9943-5559-2-1

© Rustambayev M.X., 2018

© O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik Instituti, 2018

MUNDARIJA

I BOB. JAZO TUSHUNCHASI VA UNI QO‘LLASH MAQSADLARI.....	6
1-§. Jazo tushunchasi va uning belgilari	6
2-§. Jazo maqsadlari	13
«Jazo tushunchasi va uni qo‘llash maqsadlari» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar.....	15
Qo‘shimcha adabiyotlar.....	16
Rahbariy adabiyotlar.....	16
Ilmiy maqolalar.....	17
II BOB. JAZO TIZIMI VA UNING TURLARI	21
1-§. Jazo tizimi, turlari va ularning tasniflanishi.....	21
2-§. Jarima	27
3-§. Muayyan huquqdan mahrum qilish.....	31
4-§. Majburiy jamoat ishlari	36
5-§. Axloq tuzatish ishlari	37
6-§. Xizmat bo‘yicha cheklash	45
7-§. Ozodlikni cheklash.....	50
8-§. Intizomiy qismga jo‘natish.....	53
9-§. Ozodlikdan mahrum etish	56
10-§. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish	70
11-§. Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish	73
«Jazo tizimi va uning turlari» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar.....	76
Qo‘shimcha adabiyotlar.....	77
O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar	77
Илмий мақолалар.....	78
III BOB. JAZO TAYINLASH	80
1-§. Jazo tayinlashning umumiy asoslari	80
2-§. Jazoni yengillashtiruvchi holatlar	89
3-§. Jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar.....	107
4-§. Yengilroq jazo tayinlash	124
5-§. Aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganida jazo tayinlash.....	130
6-§. Tamom bo‘lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash.....	132

7-§. Bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlash	135
8-§. Bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash	144
9-§. Jazolarni qo‘shishning hisoblash qoidalarini	151
10-§. Ushlab turish, qamoqqa olish yoki uy qamog‘i vaqtini hisobga olish qoidalarini	153
11-§. Jazo muddatlarini hisoblash	156
«Jazo tayinlash» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar	157
Qo‘shimcha adabiyotlar.....	157
O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar	157
Ilmiy maqolalar.....	158
IV BOB. JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH	160
1-§. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi va turlari.....	160
2-§. Javobgarlikka tortish muddatining o‘tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish.....	162
3-§. Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo‘qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish	175
4-§. Aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish	179
5-§. Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish	183
6-§. Kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish	187
7-§. Amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish	189
«Javobgarlikdan ozod qilish» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar.....	194
Qo‘shimcha adabiyotlar.....	196
Ilmiy maqolalar.....	196
V BOB. JAZODAN OZOD QILISH. SUDLANGANLIK	197
1-§. Jazodan ozod qilish tushunchasi va turlari.....	197
2-§. Jazoni ijro etish muddati o‘tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish	199
3-§. Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish	205
4-§. Aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish	208
5-§. Shartli hukm qilish	211
6-§. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish.....	225
7-§. Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish	234
8-§. Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotish oqibatida jazodan ozod qilish...	241

9-§. Amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish	245
10-§. Sudlanganlik tushunchasi va uning jinoyat-huquqiy ahamiyati	251
11-§. Sudlanganlik holatining tugallanishi va uning olib tashlanishi	256
«Jazodan ozod qilish. Sudlanganlik» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar	260
Qo'shimcha adabiyotlar.....	262
O'quv qo'llanma, maxsus adabiyotlar.....	262
Ilmiy maqolalar.....	262
VI BOB. VOYAGA YETMAGANLAR JAVOBGARLIGINING	
XUSUSIYATLARI.....	264
1-§. Voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikka tortish va ularga jazo tayinlash xususiyatlari.....	264
2-§. Jazo tizimi va turlari.....	268
3-§. Voyaga yetmaganlarga jazo tayinlash.....	280
4-§. Voyaga yetmaganlarni majburlov choralari qo'llagan holda javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish.....	286
5-§. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish.....	298
«Voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar.....	303
Qo'shimcha adabiyotlar.....	304
O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar	304
Ilmiy maqolalar.....	305
VII BOB. TIBBIY YO'SINDAGI MAJBURLOV CHORALARI.....	306
1-§. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tushunchasi va maqsadlari	306
2-§. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashning umumiy asoslari.....	310
3-§. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari turlari	316
4-§. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlash.....	320
5-§. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari muddatini uzaytirish, o'zgartirish va bekor qilish	325
6-§. Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka yo'liqqan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash	330
«Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar.....	333
Qo'shimcha adabiyotlar.....	334
O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar	334
Ilmiy maqolalar.....	335

I BOB. JAZO TUSHUNCHASI VA UNI QO‘LLASH MAQSADLARI

1-§. Jazo tushunchasi va uning belgilari

Jazo – jinoyat huquqining markaziy institutlaridan biridir, chunki u jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning yetakchi shaklidir. Jinoiy javobgarlikni amalga oshirish vositasi sifatida nafaqat jazo choralari, balki boshqa xil jinoyat-huquqiy (tibbiy, tarbiyaviy yo‘sindagi majburiy choralar, shartli hukm va sh.k.) ta’sir choralari qo‘llanishi bois, jinoiy javobgarlik jazodan farqli o‘laroq, yanada kengroq va ixchamroq yuridik kategoriya ekanligini ta’kidlash lozim. Bir tarafdin jazo – shaxs tomonidan jinoyat sodir etilishining mantiqiy oqibatidir, boshqa tarafdin esa, JK tomonidan himoya qilinayotgan ijtimoiy munosabatlarni tiklashning bir vositasidir ham. Aynan jinoyatlar uchun jazo tayinlanishi jinoyat qonunini ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatish vositasiga, huquqiy normalarni shaxs, jamiyat va davlatni huquqqa xilof tajovuzlardan himoya qilishning amaliy vositasiga aylantiradi.

Jinoiy javobgarlikning samaradorligi haqidagi masala jazoning samaradorligi masalasiga jiddiy ta’sir qiladi. «Jazoning samaradorligini ijtimoiy ongga va sudlangan shaxsga ta’sir etish oqibatida jazo maqsadlarini amaliy jihatdan yuzaga chiqarish (erishish darajasi) deb ta’riflash mumkin. Jinoyat, jinoyat-ijroiya, jinoyat-protsessual qonunchilik hamda mazkur qonunlarning jinoyatchilikka qarshi kurashda qo‘llanish amaliyoti jamiyat rivojlanishining obyektiv qonuniyatlariga va ijtimoiy munosabatlarning barcha yig‘indilariga eng yuqori darajada muvofiq kelgan taqdirda jazoni eng yuqori samaradorlikka erishilgan deb hisoblash mumkin».

O‘z navbatida, jazo samaradorligi uni belgilash xususiyatlariga to‘g‘ri proporsional nisbatdadir, chunki jazo mohiyati va uning o‘rni qanchalik darajada aniqroq anglanilsa, jinoyatni sodir etgan shaxslarga nisbatan muvofiq ta’sir ko‘rsatish usullarini va uslublarini tanlash shunchalik muvofiq darajada yuqori samarali bo‘ladi va, demak, jinoyat qonunchiligining ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtirish jarayoniga ta’sir ko‘rsatishi ham ortib boradi.

JK 42-moddasi jinoiy jazoning butun tizimi uchun jiddiy asoslovchi ahamiyatga egadir, chunki mazkur modda davlat tomonidan ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatishning tanlanadigan va jazo sifatida tan olinadigan usulni qonuniy tarzda ta'minlaydi. Jazolash tushunchasi va maqsadlarining qonun normasida ta'riflanishi nafaqat jinoyat qonunining qo'llanishidagi bir xillikka, balki yuridik mahoratning mukammallashuviga va shu orqali jinoyat qonuni rivojlanishining tadrijiyligiga, tizimlilikiga va ilgarilab borishiga ham sababchi bo'ladi.

Tarkib nuqtai nazaridan, JK 42-moddasi ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, ulardan birinchisida jazo tushunchasi keltirilgan, ikkinchisi esa uning maqsadlarini belgilaydi. Ko'rib chiqilayotgan normani mana shunday yo'sinda talqin etish ko'rsatilgan unsurlarni aniq chegaralash uchun va shu orqali jazoning mohiyati va o'rnini anglashda qiyinchiliklarga duchor bo'lmaslik uchun imkon beradi.

NOTA BENE !

Jazo – jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir (JK 42-moddasi 1-qismi).

Ya'ni, jazo qonun tomonidan uning jiddiy belgilariga ishora qilish yo'li bilan belgilanadi; mazkur belgilar yig'indisining mavjudligi u yoki bu ta'sir ko'rsatish usulini jinoiy jazo sifatida ko'rib chiqish uchun imkon beradi. Bunda u yoki bu ta'sir ko'rsatish usulining jazo sifatida tan olinishi uchun uning istisnosiz barcha belgilarga muvofiq kelishi talab qilinadi, ya'ni ulardan hech bo'lmasa bittasining mavjud emasligi buning uchun to'sqinlik qiladi.

Shunday qilib, jazo:

- davlat tomonidan joriy etilgan majburlov chorasi bo'lishi kerak;
- u faqat sud tomonidan tayinlanishi shart. Bunda jazoni tayinlash sud tomonidan, albatta, hukm chiqarish yo'li bilan amalga oshirilishi kerak;

- jinoiy jazoning qo‘llanishi uchun xulqning boshqa ko‘rinishi emas, balki jinoyatni sodir etish asos sifatida xizmat qilishi kerak;
- jazo faqat jinoyatni sodir etganligi isbotlangan shaxsga nisbatan tayinlanishi (ya’ni, shaxsiy xususiyatdagi chora bo‘lishi) kerak;
- jazo mahkum shaxsning muayyan huquqlaridan mahrum etilishi yoki cheklanishi bilan ifodalanishi kerak;
- muayyan huquqlardan mahrum etish yoki cheklash hollari faqat jinoyat qonuni tomonidan nazarda tutilishi shart.

Jinoiy jazo birinchi navbatda chora sifatida, ya’ni muayyan miqdor va sifat belgilariga ega bo‘lgan ta’sir etish vositasi deb e’tirof etiladi.

Jazoning chora sifatidagi **sifat belgilari** ta’rifida ta’sir ko‘rsatish usulining mazmundorlik tomoni, ya’ni uning turi anglanadi (masalan, jarima ko‘rinishidagi jazoning sifat ta’rifi pulni undirishda ifodalanadi). **Miqdor jihatidan** ta’riflash u yoki bu usulni qo‘llash chegaralarini (masalan, jarimaning miqdoriy ta’rifi sifatida uning miqdori, ozodlikdan mahrum etish holida jazoni o‘tash muddati va sh.k. belgilarni) qamrab oladi. Qonun tomonidan belgilangan jazoning mazkur ta’rif belgilaridan chetga chiqishga hech kim haqli emas. Faqat jazo doirasida chora sifatida sud jinoyat qonuni asosida, jazo muddatlari va tartibini belgilagan holda, miqdoriy, ba’zan esa sifat chegaralarda muayyan aniq bir shaxsga nisbatan jazo chorasi qo‘llanilishini belgilashga haqlidir.

Jazo sifatida faqat **majburlov xususiyatdagi** choralar, ya’ni har kimning ixtiyoridan qat’i nazar, xususan ushbu choralar qo‘llanilayotgan shaxsning ham, boshqa shaxslarning (masalan, jazoni ijro etish organlarining xizmatchilari bo‘lgan va shuningdek, korxonalar, muassasa, tashkilotlarning va boshqa mansabdor shaxslarning) ixtiyoridan qat’i nazar ijro etish uchun majburiy bo‘lgan choralar tan olinishi mumkin. Bunda jazolanuvchi shaxsning unga nisbatan qo‘llanilayotgan jazo choralariga subyektiv munosabatda bo‘lishi mazkur choralarning majburlov xususiyatda bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatmasligini inobatga olish lozim. Xususan, mahkum etilgan shaxs jazoni o‘zi ixtiyoriy tarzda (masalan, jarimani ixtiyoriy to‘lash) o‘tashi ham, jazo uning ixtiyoriga qarshi (masalan, uni ozodlikdan mahrum etish va sh.k.) yo‘sinda ijro etilishi ham

mumkin va bu jazoning albatta ijro etilishini, ya'ni uning majburlov xususiyatini bekor qilmaydi.

Jinoiy jazoning majburlov xususiyati uning nafaqat mahkum tomonidan, balki har qaysi boshqa subyektlar, xususan, jazoni ijro etish organlarining xodimlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning ma'muriyatlari tomonidan albatta ijro etilishini talab qiladi. Shu bilan bir vaqtda, shunday xususiylik belgisi asosida ijro etilishi so'zsiz majburiy bo'lmaydigan, balki qandaydir subyektiv omillarga bog'liq bo'lgan (o'z aybiga iqrор bo'lishni) boshqa xil ta'sir ko'rsatish choralari qatoriga qo'shib bo'lmaydi; jumladan, ishontirish, tarbiyaviy choralar va shu kabi usullarni jazo sifatida ko'rib chiqish mumkin emas.

Ijtimoiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatish usulini jazo sifatida tan olish uchun albatta quyidagi shartga, ya'ni **majburlov davlat tomonidan qo'llanilishiga** amal qilish lozim.

Jazoni qo'llash bu xususiy shaxslarning yoki jamoat tashkilotlarining yoxud ularga teng tarzda turli xil korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqi emas, balki davlatning alohida vakolatidir. Faqat O'zbekiston Respublikasi nomidan, uning tomonidan vakolat berilgan organlar jinoiy jazoni ijro etish huquqiga egadirlar; bunga muvofiq organlar o'z nomidan emas, balki JK 42-moddasi 1-qismida bayon etilgan holatlardan to'g'ridan-to'g'ri kelib chiqqan holda davlat nomidan harakat qiladilar. Majburlov choralari boshqa xizmat tarkiblari, shu jumladan (jinoiy jazoni ijro etish huquqiga ega bo'lmagan) davlat organlari hamda boshqa xil tuzilmalar tomonidan amalga oshirilgan taqdirda, bunday choralar jinoiy jazo sifatida tan olinishi mumkin emas. Shu bilan bir vaqtda, bularga o'xshash tuzilmalar rahbarlari qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka, shu jumladan jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak.

Jazoni tayinlash, ya'ni Jinoyat kodeksining Maxsus qismi moddasiga muvofiq sanksiya doirasida jazoning aniq turini va me'yorini tanlash faqat sudning alohida huquqini tashkil etadi. **Faqat sud** davlat hokimiyatining alohida tarmog'i sifatida jinoyatni sodir etganlik uchun jazoni tayinlash huquqiga egadir. Davlat hokimiyatining har qanday boshqa organlari, shu

jumladan, ijro etuvchi yoki qonun chiqaruvchi organlar bunday vakolatlarga ega emas (JPK 12-moddasi).

Shu bilan bir vaqtda jazoni tayinlash huquqiga har qanday sud organi emas, balki vakolatli sudlar, ya'ni **jinoyat ishlari bo'yicha sudlar** ega ekanligini ta'kidlash lozim (JPK 28-moddasi).

Jazoni tayinlash sud tomonidan maxsus hujjatni – **hukmni**, ya'ni jinoyat ishini faqat sud tomonidan ko'rib chiqish oqibatida qabul qilinadigan alohida qaror turini chiqarish yo'li bilan amalga oshiriladi. Hukm jinoyat ishini asl mazmuni bo'yicha hal qiladi, chunki unda sudlanuvchi shaxsning aybdorligi yoki aybdor emasligi masalasi hal etiladi, jazoning aniq turi va miqdori tayinlanadi, shaxsni aybdor yoki aybdor emas deb tan olinishidan kelib chiqadigan boshqa xil huquqiy oqibatlar belgilanadi. Shu tarzda hukm jinoyat ishlari bo'yicha sudlovning alohida ko'rinishi sifatida chiqadi va mazkur tartib qonunda ko'rsatilgan muayyan talablarga javob berishi shart. Mazkur tartibga amal qilmaslik jinoyat ishining umuman olganda, oqibatda huquqqa xilof tarzda hal qilinishiga va xususan, tayinlangan jazoning huquqqa xilofligiga olib keladi. Bunday taqdirda, tahlil qilinayotgan modda holatlaridan kelib chiqish asosida, tayinlangan jazo umuman jazo sifatida e'tirof etilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi sudi hukmni e'lon qilish bilan davlat nomidan harakat qiladi (JPK 454-moddasi). Jazo davlat nomidan tayinlanadi – shu vosita orqali sud jinoyatchiga va uning qilmishiga davlat tomonidan berilgan salbiy bahoni ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda jazo oshkoralik xususiyatiga ega ekanligini ta'kidlash kerak.

Jazoning qo'llanishi uchun faqat jinoyatning sodir etilishi asos bo'ladi. Jinoyat belgilariga muvofiq kelmaydigan boshqa xil harakatning amalga oshirilishi ko'rinishida jinoiy jazoga tortish mumkin emas. Shu sababdan jazo sifatida bir-biriga o'xshash ma'muriy jazo choralari (masalan, jarima, ma'muriy qamoq, muayyan huquqdan mahrum qilish va boshq.) va ularga teng tarzda intizomiy javobgarlikka tortish choralari ham jazo sifatida tan olinmaydi. Shunday qilib, jinoiy jazo jinoiy harakatning huquqiy oqibatidir.

Jinoiy jazo alohida **shaxsiylik xususiyatiga** egadir va faqat jinoyatni sodir etganlikda aybdor deb topilgan shaxsga nisbatan qo‘llanadi. Shaxs jinoyatni sodir etganligi faqat fosh qilingan va uning aybi isbotlangan taqdirdagina uni jinoyat qonunida tegishli jinoyat uchun nazarda tutilgan muayyan jazoga mahkum etish mumkin bo‘ladi. Mana shunda JK 9-moddasida belgilangan ayb uchun javobgarlik tamoyili o‘z ifodasini topadi. Aybsiz shaxsga jazoni tayinlash mumkin emas va agarda sud muayyan bir shaxsning aybini aniqlay olmasa, bunday shaxsni jazolash mumkin bo‘lmaydi.

Qonunning faqat sud hukmida jinoyat sodir etishda aybdor ekanligi aniqlangan shaxsga nisbatan jazo qo‘llanishi mumkinligi to‘g‘risidagi qoidasi jazoning shaxsiyligi xususiyatidan darak beradi. Boshqacha qilib aytganda, sodir etilgan jinoyat uchun majburlov choralari davlat tomonidan faqat jinoyatchining o‘ziga nisbatan qo‘llanadi. Jazoga xos bo‘lgan mahrum etishlarni va cheklashlarni, hattoki aybdor qandaydir yo‘l bilan munosib jazoni olishdan qochib ketgan taqdirda ham, uning jamoasi, oilasi yoki unga yaqin kishilari zimmasiga yuklatish mumkin emas.

Jazo uchun zarur bo‘lgan shaxsiylik xususiyatining mavjud emasligi, jumladan, mulkni musodara qilishni jazo turlaridan chiqarib tashlashni talab qildi¹.

Jazoning mazmuni jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsning **huquq va erkinliklaridan mahrum qilish yoki ularni cheklash** bilan ifodalanadi. Bunda ko‘rsatilgan majburlov choralarning uslublari o‘rtasidagi farqlar ularning hajmida namoyon bo‘ladi. Xususan, huquqlardan va erkinliklardan mahrum qilgan taqdirda davlat mahkumlarning muayyan bir huquqdan yoki erkinlikdan foydalanishlarini (masalan, muayyan lavozimni egallash huquqini, harakatlanib yurish erkinligini va boshq.) to‘liq hajmda to‘xtatib qo‘yadi. Huquq va erkinliklarni cheklash holida ulardan faqat qisman foydalanish ro‘y beradi (masalan, axloq tuzatish ishlarida ish haqidan o‘z ixtiyoriga ko‘ra foydalanish huquqi).

¹ Как отмечалось, в результате применения конфискации наказывался не только преступник, но также и члены его семьи, невиновные в содеянном. (См.: Каримов И.А. Справедливость – в приоритете закона: Доклад на VI сессии Олий Мажлиса Республики Узбекистан второго созыва от 29 августа 2001 г. // За безопасность и мир надо бороться. – Том 10. – Т.: «Ўзбекистон», 2002. – С. 26-50).

Muayyan bir ta'sir ko'rsatish usulining jinoyat qonuni mazmunida jazo sifatida tan olinishi uchun davlat tomonidan qo'llanadigan ayni majburlov chorasi JKda jazo sifatida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bo'lishi talab etiladi. Qonunga muvofiq, ko'rsatmasi keltirilmagan jazo turi yo'q. Shu sababdan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari, tarbiyaviy yo'sindagi majburlov choralari va boshqa xil ta'sir ko'rsatish usullari, garchi ular jazo choralariga (masalan, ma'muriy jazo choralari, jinoiy-protsessual majburlov choralari) o'xshagan bo'lsa-da, jazo turlari sifatida tan olinishi mumkin emas.

Aniq ta'sir ko'rsatish chorasining jazo sifatida nazarda tutilganligining belgisi, birinchidan, mazkur jazo chorasi JKda umuman nazarda tutilgan bo'lishini talab qiladi. Ikkinchidan, shu jazo chorasi sodir etilgan jinoiy harakat uchun javobgarlikni belgilaydigan Kodeks moddasining sanksiyasida nazarda tutilgan bo'lishini talab qiladi.

Bunda aniq jinoyat turi uchun jazo tayinlashda, sud qonunda nazarda tutilganidan og'irroq jazo turini tayinlay olmasligini va shu bilan bir vaqtda JK tegishli moddasi sanksiyasida nazarda tutilgan eng kam jazodan ham kamroq yoki shu moddada nazarda tutilmagan boshqa yengilroq jazo turini tayinlashi mumkin ekanligini nazarda tutish lozim.

Jazoda huquq va erkinliklardan mahrum qilishning yoki ularni cheklashning hajmi va xususiyati nafaqat Jinoyat kodeksi normalari tomonidan, shuningdek, Jinoyat-ijroiya kodeksi tomonidan ham muvofiqlashtirilayotganligini aytish kerak. Biroq, jazo mazmuni chegaralarini va asosiy belgilarini hamda uning turlarini o'rnatadigan JKdan farqli o'laroq, JIK jazo mazmunini faqat to'ldiradi va jazo choralarini hamda uni ijro etish qoidalarini aniqlaydi.

Jazo mazmunini uning mohiyatidan farqlay olish lozim.

Jinoiy jazoning mazmunini tashkil etadigan muayyan darajadagi huquqiy cheklov (jinoyatni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsni huquqlardan va erkinliklardan mahrum qilish yoki cheklash) jazoning jazo elementi deb nomlanuvchi qismining mazmunini aks ettiradi. Jazo o'z mohiyati bo'yicha, garchi aynan shuning o'zi uning tub maqsadi bo'lmasa ham, aslida jazodir, chunki u mohiyatiga ko'ra, aybdorga azob-uqubatlarni

keltirish xususiyatiga ega. Shuning o‘zi bilan davlat majburlovi choralarida sodir etilgan harakat uchun jazo elementi mujassamlanadi. Shu bilan bir vaqtda jazo jazo qo‘llashning **maqsadi** emas, balki faqat unga xos bo‘lgan **ajralmas qismidir**, boshqacha qilib aytganda, huquqlardan va erkinliklardan mahrum qilishlar va cheklashlarning qo‘llanishi, ularning maqsadlaridan qat’i nazar, qonunga xilof ravishda sodir etilgan qilmishning oqibati o‘laroq jazo sifatida namoyon bo‘ladi.

2-§. Jazo maqsadlari

Jinoyat-huquqiy nazariya va huquqni qo‘llash amaliyoti tomonidan ishlab chiqilgan jazo maqsadlari JK 42-moddasi 2-qismida quyidagi mazmunan boyitilgan ko‘rinishda belgilangan, ya’ni: «Jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to‘sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadlarida qo‘llanadi».

NOTA BENE !

Jazo maqsadi – bu davlat tomonidan jazoni qo‘llash vositasida erishishga intilayotgan yakuniy natijadir.

Jazoni tanlash va uning qo‘llanishidan ko‘zlanayotgan maqsad normativ-huquqiy natijalarning aks ettirilishi amaliyotning bir xil yo‘sinda kechishiga va shuningdek, jinoyat qonunining tizimli va tadrijiy rivojlanishiga sababchi bo‘ladi. Har bir jazo, jinoyatchiga tayinlangan alohida jazo ko‘rinishi hamda shunga teng tarzda davlat majburlovi chorasi sifatida namoyon bo‘lib, qonunda belgilangan maqsadlarga albatta bo‘ysunishi kerak. Bunda jazoning belgilangan maqsadlarga muvofiq kelishi shartiga ularga har bir aniq holatda amal qilish uchun imkoniyat yo‘qligi ta’sir qilmaydi, chunki jazo maqsadlari – bu kutiladigan, lekin har doim ham erishish imkoniyati kafolatlanmaydigan natijadir.

Shunday qilib, jazoning amaliy jihatdan qo‘llanishi quyidagilarga, chunonchi:

– mahkumning tuzalishiga;

- jinoiy faoliyatni davom ettirish uchun to‘sqinlik qilishga;
- mahkumlar hamda boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga yo‘naltirilishi kerak.

Mahkumni axloqan tuzatish jazoning mustaqil maqsadi bo‘lib, jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan jazoni qo‘llash vositasi orqali mahkumda qonunga itoatkor xulq-atvorni, insonga, jamiyat, mehnat, jamiyat turmushi qoidalari va an‘analariga hurmat munosabatini shakllantirishga intilishdan iboratdir (JIK 7-moddasi). Shunday yo‘sinda, davlat majburlovi choralarning qo‘llanishidagi axloqni tuzatish jinoyatchiga nisbatan jazoning tarbiyaviy ta‘siridir; mazkur ta‘sir shaxsga g‘ayrihuquqiy harakatni sodir etish uchun imkon bergan yoki unga sababchi bo‘lgan shaxsdagi ba‘zi shunday xususiyatlarning o‘zgarishida namoyon bo‘ladi (masalan, jazolanmasdan qolish hissi, zaruriy diqqat-e‘tiborni ko‘rsatmaslik va sh.k.).

Jinoiy faoliyatni davom ettirishga to‘sqinlik qilish jazoning maxsus maqsadi sifatida shaxsni, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, xususiy mulk, tabiiy muhit, tinchlik, insoniyat xavfsizligini himoya qilish yo‘lidagi Kodeks vazifalarining xususiy tarzda namoyon bo‘lishini tashkil etadi. Jazoni belgilash yoki qo‘llash orqali davlat kelajakda jinoiy faoliyatni sodir etish mumkinligiga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qiladi.

Jazoni qo‘llashda jinoiy faoliyatni davom ettirishga to‘sqinlik qilish nafaqat mahkum etilgan shaxs uchun, balki mahkum bilan birgalikda jinoiy faoliyatni amalga oshirgan boshqa shaxslar uchun ham keyinchalik shunga o‘xshash faoliyatni amalga oshirish imkoniga yo‘l qo‘ymaslikda (masalan, uyushgan jinoiy guruh a‘zosiga majburlov choralarning qo‘llanishi orqali mazkur guruhni keyinchalik ham g‘ayrihuquqiy qilmishlarni amalga oshirish imkonidan mahrum qilish) namoyon bo‘lishi mumkin.

Yangi jazo chorasini o‘rnatish va mavjud jazo choralari qo‘llash orqali vakolatli davlat organlari uni **yangi jinoyatlarning oldini olish** talablariga bo‘ysundiradilar, ya‘ni jazoning qo‘llanishi preventiv (oldini

olish) ahamiyatiga ega bo'lishi kerak. Bunda jazoning qo'llanishi maxsus va umumiy prevensiya maqsadlarini ko'zlayotganligi qonun darajasida ko'rsatiladi.

Maxsus prevensiya sudlangan shaxs tomonidan yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishdan iborat. Maxsus oldini olish maqsadini amalga oshirishni ta'minlash orqali sud qonun asosida va JK tegishli moddasi sanksiyasi doirasida mahkum uchun jazo turini va miqdorini qat'iy darajada belgilaydi. Ayni shu maqsadga erishish uchun shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyatga davlatning munosabat bildirish tezkorligi ham ahamiyatlidir. Jazolanish muqarrarligi va qo'llanish tezkorligi uning shafqatsizligidan ko'ra maxsus prevensiya maqsadi uchun samaraliroqdir.

Jazoni qo'llashdagi **umumiy prevensiya** maqsadi muayyan sudlangan shaxs uchun muayyan jazo turini va miqdorini belgilashda, davlat shu yo'l orqali jamiyatning boshqa a'zolarini g'ayriqonuniy qilmishlarni sodir etishdan ogohlantirishga intilishidan iboratdir. Umumiy ogohlantirishdagi jinoiy qilmishlarni sodir etishdan tiyib turuvchi asos bunday shaxslarning jinoyatning ko'ngilsiz oqibatlari haqidagi tasavvuri bilan, ya'ni har bir jinoiy qilmish uchun jinoiy javobgarlik belgilanganligi, jazoning qattiqqo'lligi darajasi jinoyatning og'irligi darajasi bilan belgilanishi, jinoyat sodir etilgan taqdirda javobgarlikning amaliyligi va muqarrarligi bilan shartlanadi. Bunda JKda mujassamlangan jazo tahdidining amaliyligi faqat uning qo'llanishi holatida namoyon bo'lishini nazarda tutmoq lozim. Bunday hollarda, beqaror unsurlar jazoni o'zlari uchun salbiy oqibatlari bilan zararli bo'lgan jinoyatning muqarrar oqibati sifatida qabul qiladilar.

«Jazo tushunchasi va uni qo'llash maqsadlari» mavzusi bo'yicha yakuniy savollar

1. Jinoiy jazo deganda nimani tushunish kerak? Mazkur jinoyat-huquqiy toifa jinoiy javobgarlikdan nima bilan farq qiladi?
2. Jazoning xususiyatlari qanday? Ularning yig'indisini aniqlash shartmi?
3. Jazolashning mazmuni va mohiyati nimalardan iborat?

4. Jinoiy jazoning oshkoralik xususiyatlari nima bilan ifodalanadi? Jinoiy jazoning oqibatlarini qanday bo‘ladi?
5. Jazolash va tibbiy hamda tarbiyaviy choralarini qo‘llash tushunchalari bir-birlariga muvofiq darajada o‘xshaydimi?
6. Jinoiy jazoning maqsadlari qanday? Jazolashni va qayta tarbiyalashni bir-biriga tenglashtirish mumkinmi?
7. Mahkum shaxs axloqining tuzalishi deganda nimani tushunish kerak?
8. Jazoni qo‘llashda jinoiy faoliyatga to‘sqinlik qilish nimalarda ifodalanadi?
9. Maxsus prevensiya nimalardan iborat?
10. Umumiy prevensiya nimalardan iborat?

Qo‘shimcha adabiyotlar

Rahbariy adabiyotlar

Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2016.– 48 b.

Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.– 32 b.

Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 104

Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilingan kunning 25-yilligi munosabati bilan bo‘lib o‘tgan tantanali marosimdagi “Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir” nomli nutqidan //’ Xalq so‘zi. 2017-yil 7 dekabr. 247 (6741)-son.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. 2017-yil 23-dekabr. 258 (6952)-son.

O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar

Дементьев С.Р., Дьяченко Р.А., Трахов А.И. Уголовное наказание: содержание, виды, назначение и исполнение. – Краснодар: 2000. – 31 Б.

Дигарь А.Л. Уголовное наказание: эволюция и перспективы видов наказаний. – Краснодар: 2001. – 167 Б.

Дуюнов В.К. Проблемы уголовного наказания в теории, законодательстве и судебной практике. – Курск: РОСИ, 2000. – 504 Б.

Зубкова В.И. Уголовное наказание и его социальная роль: теория и практика. – М.: «НОРМА», 2002. – 304 Б.

Медведева Н.Т. Идеи позитивной школы и их отражение в уголовном законодательстве России. – Рязань: Академия права и управления. 2001. – 271 Б.

Никонов В.А. Уголовное наказание. Поиск истины. – Тюмень: 2000. – 88 Б.

Старков О.В., Милуков С.Ф. Наказание: уголовно-правовое и криминологический анализ. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001. – 560 Б.

Ilmiy maqolalar

Алламуратов А.Т., Холикулов У.Ш. «За» и «Против» смертной казни // Инсон ҳуқуқларини судда ва суддан ташқарида ҳимоя қилиш. Илмий-амалий анжуман тўплами. — Т.: 2005. – 15–18-б.

Кабулов Р. Новое в уголовном законодательстве по борьбе с преступностью // Ж. Ўзбекистонда ҳуқуқ фанини ривожлантиришнинг назарий ва амалий муаммолари. 2004. – 201–204-б.

Крутько О. Смертная казнь и проблема гуманизма // Ёш олимлар илмий мақолалари тўплами. – Т.: ТДЮИ, 2002. № 2. – 111–119-б.

Крутько О. Смертная казнь как мера наказания за умышленное убийство и общественное мнение // «Инсон ҳуқуқларини суд ва

суддан ташқарида ҳимоя қилиш муаммолари» мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари. – Т.: ТДЮИ. 2005. – 111–115-б.

Матмуратов Б.Ж. Либерализация уголовного наказания – надежная законодательная база для построения подлинного гражданского общества, правового государства // Суд-ҳуқуқ ислоҳоти назарияси ва амалиёт мавзусида халқаро илмий-амалий конференция. 12 декабрь 2001 й. – Т.: ТДЮИ, 2001. – 16–17-б.

Нарбутаев Э.Х. Востребована ли сегодня юридическая наука // Ж. Ҳуқуқ-Право-Law. 2005. № 3. – 45–49-б.

Нарбутаев Э.Х. К вопросу о реформировании системы уголовной юстиции // Ж. Ҳуқуқ-Право-Law. 2003. № 4. – 32–36-б.

Нарбутаев Э.Х., Кабулов Р., Ботиров Г.К. Развитие гуманистических основ действующей системы уголовно-правового воздействия // Ж. Ҳуқуқ-Право-Law. 2004. – 35–38-б.

Нарбутаев Э.Х. О концепции либерализации юридической науки // Ж. Ҳуқуқ-Право-Law. 2003. № 3. – 29–34-б.

Нарбутаев Э.Х. Общественное мнение и совершенствование уголовного законодательства // Ж. Конституция ва инсон манфаатлари. 1997. № 3. –176–178-б.

Нарбутаев Э.Х. Проблемы совершенствования правотворческого процесса // Инсон манфаатлари: қонун ҳужжатларини тайёрлашни такомиллаштириш муаммолари. Конференция материаллари. — Т.: 1998. – 52–55-б.

Нарбутаев Э.Х. Развитие гуманистических основ уголовно-правовой науки // Ж. Ҳуқуқ-Право-Law. 2004. № 2. –27-б.

Нарбутаев Э.Х. Уголовная политика: исходные критерии построения. // Ж. Ҳуқуқ-Право-Law, 2004. № 5. – 73–77-б.

Нуримбетов А., Абдурасулова К.Р. Уголовное наказание и возможности его дальнейшей либерализации // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2004. №2 (18). –21–23-б.

Одилкорыев Х.Т., Тультеев И.Т. К вопросу о состоянии и перспективах гуманизации уголовной политики в Республике Узбекистан // Суд-ҳуқуқ тизимини либераллаштириш ҳозирги

босқичдаги демократик ислохотларнинг асосий йўналиши. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Т.: 2002. 32–37-б.

Рустамбаев М.Х. К вопросу о гуманизации санкции в уголовном законодательстве Республики Узбекистан (часть вторая) // Ж. Именем закона. 2000. № 2—3. – 85–88-б.

Рустамбаев М.Х. К вопросу о смертной казни // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. 2005. № 4 (26). – 37–40-б.

Рустамбаев М.Х. Современное состояние и перспективные задачи судебно-правовой реформы в Республике Узбекистан // Материалы международной научно-теоретической конференции. «Современные проблемы борьбы с преступностью», посвященной 70-летию профессора Каиржанова Елегена Изтлеувича – Т.: ТДЮИ. 2003. – 28–37-б.

Рустамбаев М.Х. Судебно-правовая реформа в Республике Узбекистан // Материалы международного симпозиума на тему: «Правовые и структурные преобразования в XXI веке в странах Центральной Азии». 16–17 февраля 2002 года. Университет Нагоя, Япония. – 13–14-б.

Salayev N.S. “Challenges to use Alternative Jail Sentences to promote Prevention of Crime” // International Journal of Research, – India, February 2017. – P. 161-164. (Impact Factor №12-Index Copernicus-5.60).

Salayev N.S. “Differentiation, individualization, execution of criminal punishments and its goals: way to succes” // Materials of the XIII International scientific and practical conference, “Trends of modern science - 2017”, 30 May- 07 June, 2017 on Law. History. Political science. – P. 26-31.

Салаев Н.С. Criminal Punishment: the Attempt of Social and Philosophical Understanding // Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана.– 2016. № 4. – Б. 58-60.

Салаев Н.С. Жиноий жазо: ижтимоий фалсафий тушунишга уриниш // Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана. – 2016, № 4. – Б. 58-60.

Салаев Н.С. Государственная пенитенциарная политика на современном этапе развития: попытка нового осмысления цели наказания и его исполнения // Федеральная служба исполнения наказаний Академия права и управления Уголовно-исполнительное право // Научный журнал, 2017 Т. 12 № 2. – Б. 46-51.

II BOB. JAZO TIZIMI VA UNING TURLARI

1-§. Jazo tizimi, turlari va ularning tasniflanishi

JK 43-moddasida mujassamlangan jazolar tizimining normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlanishi butun jinoiy jazolar instituti uchun strategik ahamiyatga egadir. Tizimning bunday mavqega ega ekanligi uning qonun ijodkorligi va qonunni qo'llash faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi bilan, jazoning tayinlanishi, qo'llanishi va ijro etilishi masalalariga muayyan darajada daxldor bo'lgan jinoyat qonuniga murojaat qilinganida mazkur moddaning holatlarini majburiy tartibda inobatga olish sharti bilan bog'liqdir. Shunday qilib, jazolar tizimini Jinoyat kodeksining alohida moddasida mustahkamlashning maqsadi qonun chiqaruvchini jinoyat qonunini izchil va tizimli yo'sinda rivojlantirish yo'liga qaratishga, qonunni qo'llovchi organlarni esa qonunni bir xilda amalga oshirish yo'lini tanlashga qaratilgandir.

JK 43-moddasida keltirilgan jazo tizimining o'zi qonuniylik, ayb uchun javobgarlik, odillik va insonparvarlik prinsiplariga asoslanganligini, ularning predmetli ifodasining tasviri ekanligini nazarda tutish lozim.

Jazo tizimining tarkibiy elementlari sifatida davlat majburlovining faqat alohida elementlari chiqadi va davlat ularning qo'llanishiga mahkum axloqining tuzalishiga erishish, jinoiy faoliyatning davom ettirilishining oldini olish va shuningdek, umumiy hamda maxsus prevensiya maqsadlarini bog'laydi.

Jazo tizimining elementlari o'zaro bog'liq, o'zaro aloqador va bir-birlarini to'ldirib turadi. Tizimning mazkur belgisi jazolar samaradorligiga erishish masalasining yechimiga ko'p jihatli yondashuvni isbotlaydi, ya'ni qo'yilgan maqsadlarga erishish qandaydir biror xil majburlov chorasini tanlash bilan bog'lanmay, balki mahkumlarga choralar majmuasi bilan ta'sir ko'rsatish imkoniyati vositasida amalga oshiriladi. Amalda bu JK Maxsus qismi moddalaridagi muayyan muqobil sanksiyalarida va shuningdek, qo'shimcha jazo choralari belgilashda va qo'llanishida o'z ifodasini topadi.

Tizimga kiruvchi davlat majburlovi choralarining ro'yxati Qoyat darajada to'liq bo'lib, kengaytirilgan yo'sinda talqin qilinmaydi. Shunday qilib, JK 43-moddasida ko'rsatilmagan jazo turlari JK Maxsus qismining alohida moddalaridagi sanksiyalar tarkibiga kiritilmaydi, kiritilganlari esa qo'llanmaydi. Bundan tashqari, tizim ro'yxatida jazo turlarining batafsil keltirilganligi, qonunni qo'llovchi organlarga, shu jumladan, sudga, jazo choralari sifatida ko'rib chiqilayotgan modda tarkibida nazarda tutilmagan davlat majburlovi choralarini qo'llashga yo'l qo'ymaydi.

Tizim tarkibida jazo turlarining joylashishi ularning nisbatan og'irligiga bog'liq, bunda ular eng yengil jazodan eng og'ir jazoga yo'nalish tartibida joylashtiriladi. Shuning bilan jazolardan qaysi biri nisbatan yengil va qaysi biri og'irroq deb hisoblanishini qonunning o'zi belgilaydi, bu esa moddalardagi sanksiyalarni tuzishning yuridik mohiyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi va bundan tashqari, jinoiy jazoning maqsadlariga erishish uchun muayyan darajada sudlarni davlat tomonidan majbur etishning yengilroq choralarini qo'llashga yo'naltiradi. Xususan, «Sudlar ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, shuningdek, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan va jamiyatdan ajratmagan holda axloqan tuzatilishi mumkin bo'lgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlash uchun qonunda mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlardan to'liq foydalanishlari kerak.

Qonun normasi sanksiyasida alternativ jazolar mavjud bo'lganda hukmda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jazoni qo'llash zarurligi to'g'risidagi masala muhokama etilishi shart».

NOTA BENE !

Jazo tizimi ularning nisbiy og'irligini inobatga olgan holda, yengilidan og'iriga qarab qat'iy belgilangan tartibda joylashtirilgan, yagonaligi, o'zaro bog'langanligi hamda bir-birini to'ldirganligi bilan ajralib turadigan davlat majburlov choralari (tizim elementlari)ning tadrijiy va to'la-to'kis ro'yxatini tashkil etadi.

Har qanday tizim kabi jazolar tizimi kichik tizimlarni, ya'ni turli xil asoslar bo'yicha toifalashtiriladigan va muayyan darajama-daraja bevosita bo'ysunish tartibida bo'lgan jazo turlarini qamrab oladi.

NOTA BENE !

Jazo turi – bu o'z mazmuni va nomlanishi bilan ajralib turadigan, qonunda nazarda tutilgan jinoiy javobgarlikni amalga oshirishning aniq ko'rinishdagi shaklidir.

Jazo tizimi tarkibiga quyidagi jazo turlari, chunonchi:

- jarima;
- muayyan huquqdan mahrum qilish;
- majburiy jamoat ishlari
- harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish;
- axloq tuzatish ishlari;
- xizmat bo'yicha cheklash;

– *qamoq («d» bandi O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 martdagi O'RQ-421-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2017., №13, 194-modda.)* ;

- intizomiy qismga jo'natish;
- ozodlikdan mahrum qilish;
- umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazo turlari kiradi.

«Jazo turini jazo **me'yori** bilan almashtirish kerak emas. Jazo me'yori sud tomonidan mahkum etilgan shaxsga hukmda tayinlangan jazo turini bildiradi, shunday qilib, gap jinoyatning aniq turi va aniq belgilangan me'yorlarda (muddatda)gi jazo to'g'risida boradi. Bu sud jazoni shaxsga loyiq tarzda belgilaganligini, sodir etilgan jinoyat ishining og'irlik darajasi va shaxsning jinoiy xususiyatlari nisbatlashtirganligini; sud tomonidan jinoiy harakatning nafaqat sifat, balki miqdoriy belgilari ham ta'riflanganligini va shuningdek, jinoyatni sodir etgan aybdor shaxsga nisbatan qaysi jazo turi tayinlanganligi va qay me'yorda «o'lchab berilganligi» hukmda aks ettirilishini bildiradi».

Ko'rsatilgan jazo turlarini birlashtirib turgan kichik tizimlar turli xil asoslar bo'yicha tasniflanishi mumkin.

Masalan, qo'llanish va ijro etish mustaqilligi darajasi bo'yicha, ya'ni boshqacha qilib aytganda yuridik mavqe nuqtai nazaridan, jazo turlari uch xil kichik tizimlarga, chunonchi: **asosiy, qo'shimcha va aralash** kichik tizimlarga bo'linadi, bular esa ham asosiy, ham qo'shimcha jazo tizimlari sifatida e'tirof etilishi mumkin. Mazkur bo'linish davlat majburlovining aniq chorasini u yoki bu g'ayriqonuniy qilmishni sodir etishda aybdor shaxsga nisbatan jazo qo'llanishidagi jazo maqsadlari samaradorligiga turli darajada ta'sir ko'rsatishidan kelib chiqadi. Xususan, qonun chiqaruvchi va sudlar jazoni o'zining maqsadlariga erishishni ko'proq darajada asosiy jazo turlarining qo'llanishi bilan bog'laydilar. Qo'shimcha jazolar esa yordamchi xususiyatlarga ega bo'lib, qo'llanayotgan davlat majburlovi choralarning shaxsiylanishiga sababchi bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda, aralash toifadagi jazolar, aniq vaziyatlarga bog'liq holda, ham asosiy, ham yordamchi ahamiyatga ega bo'lishlari mumkin va shu munosabat bilan, muayyan hollarda ular yo asosiy yoki qo'shimcha jazo deb tan olinishi mumkin.

Jazolarning yuqorida ko'rsatilgan kichik tizimlarga bo'linishi katta amaliy ahamiyatga egadir. Masalan, **asosiy turdagi jazolar**, ya'ni jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum qilish, umrbod ozodlikdan mahrum qilish – bularning barchasi faqat mustaqil jazo turlari sifatida tayinlanishi mumkin va ularni davlat majburlovining boshqa choralariga qo'shib tayinlash mumkin emas. Ularning o'ziga xosligiga quyidagi xususiyatlar kiradi, chunonchi: JK maxsus qismidagi tegishli moddalari sanksiyalarida ular har doim ko'rsatiladi; modda sanksiyasida ko'rsatilmagan boshqa xil asosiy jazoning tayinlanishi, JK 57-moddasining holatlariga muvofiq, faqat yengilroq jazo turlarining qo'llanishi va JK 74-moddasi tartibida jazoning ijro etilmagan qismini yengilroq jazo turi bilan almashtirish hollarida ruxsat etiladi.

Bundan tashqari, alohida hollarda uch yildan ortiqroq muddatga ozodlikdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari o'rniga, sud JK 47-moddasining 2-qismiga muvofiq, xuddi shu muddatga xizmat bo'yicha cheklash jazo turini qo'llashi mumkin.

Qo'shimcha jazolar, ya'ni harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish kabi jazo choralari davlat majburlovining asosiy choralariga qo'shiladi va mustaqil tarzda qo'llanishi mumkin emas. Bunda, ularni tayinlash JK maxsus qismining muayyan moddasidagi sanksiyada shunday jazo turining mustahkamlanishi bilan bog'liq emas, ya'ni Oliy sud instansiyasining tavsiyasidan kelib chiqqan holda, uni har qanday holatda tayinlash mumkin¹.

Aralash toifadagi jazo turi, ya'ni JK maxsus qismining muayyan moddalarida keltirilgan sanksiyalar tuzilishiga bog'liq holda muayyan huquqdan mahrum qilish jazolari ham asosiy, ham qo'shimcha jazo turlarini tashkil etishi mumkin va ular tegishli toifa jazoni tayinlash qoidalari bo'yicha qo'llanishi mumkin. Shu bilan bir vaqtda, jazoning aralash xususiyatga ega bo'lishi, uni qo'llash qoidalarining aralash xususiyatiga ega bo'lishini anglatmaydi. Xususan, muayyan huquqdan mahrum qilishni, agarda u qonunda asosiy turdagi jazo deb ko'rsatilgan bo'lsa, uni qo'shimcha jazo sifatida qo'llashga yo'l qo'yilmaydi². Masalan, xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuvlar, telegraf xabarlar va boshqa xabarlarning sir saqlanish tartibini buzishda (JK 143-moddasi) aybdor shaxsga nisbatan, unga mazkur modda sanksiyasida nazarda tutilgan boshqa turdagi jazo tayinlanganligi hollarida ham, uni muayyan huquqdan mahrum qilish ko'rinishida asosiy toifa jazo tayinlanganligi hollarida ham, unga nisbatan muayyan huquqdan mahrum qilish ko'rinishidagi jazo chorasini qo'shimcha jazo sifatida tayinlanishiga yo'l qo'yimaslik kerak. Ayni masalaning boshqacha yo'l bilan hal qilinishi JK tamoyillariga, xususan adolat va qonuniylik tamoyillariga muvofiq

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 40-банд // Тўплам, 2-жилд. – 236-б.

² Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарорининг 41-банди 2-хатбошисига мувофиқ, «агар муайян ҳуқуқдан маҳрум қилиш тарикасидаги жазо Жиноят кодексининг Махсус қисми моддаси санкциясида назарда тутилмаган бўлса, у ЖКнинг 45-моддасида белгиланган асослар ва доирада, қабул қилинган қарор ҳукмида асослантирилган ҳолда қўлланилиши мумкин» // Тўплам, 2-жилд. – 237-б.

kelmaydi, chunki qonunga xilof ravishda jinoiy javobgarlik me'yorining ortib ketishini keltirib chiqaradi.

Qo'shimcha turdagi jazolardan birining qo'llanishi boshqa toifa jazo turining qo'llanishiga to'sqinlik qilolmasligini inobatga olish lozim. Masalan, agar aybdorga nisbatan qo'shimcha jazo sifatida uni harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish jazo turi qo'llangan bo'lsa, bu holda, uni shuningdek, muayyan huquqdan mahrum qilish ham qo'llanishi mumkin. Biroq bu holda, yuqorida ta'riflangan muayyan huquqdan mahrum qilish ko'rinishidagi jazo turining qo'llanishiga to'sqinlik qiluvchi sharoitlarning mavjud emasligini aniqlash zarur bo'ladi.

O'zlarining har tomonlamalik darajasiga bog'liq holda jazolar ikki kichik tizimga bo'linadi, bular: amalda har qaysi mahkumga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan **umumiy** jazolar va faqat muayyan shaxslarga (maxsus toifadagi subyektlarga; unvonlarga, mukofotlarga ega bo'lgan shaxslarga va sh.k.) nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan **maxsus** jazolar kichik tizimlaridan iborat. Xususan, qonunning (**JK 43-moddasi 3-qismi**) to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmasiga muvofiq, xizmat bo'yicha cheklash yoki intizomiy qismga jo'natish jazo turlari faqat maxsus subyektlarga, ya'ni harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llanishi mumkin va buni davlat majburlovi mazkur choralarining ijro etilishi xususiyati shartlaydi.

Jazoning og'irligiga ko'ra **ozodlikdan mahrum qilish (cheklash) bilan bog'liq bo'lgan** jazolar (ozodlikni cheklash, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum qilish, umrbod ozodlikdan mahrum qilish) va **ozodlikdan mahrum qilish (cheklash) bilan bog'liq bo'lmagan** (jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash) jazo turlariga bo'linadi.

Mahkum shaxsga ta'sir ko'rsatish xususiyatlariga qarab, **axloq tuzatish** – **mehnat ta'siri** bilan bog'liq (majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum qilish, umrbod ozodlikdan mahrum qilish) va **shunday ta'sir bilan bog'liq bo'lmagan** (jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish) jazo turlari farqlanadi.

Va nihoyat, jazo davomiyligi bo'yicha, jazolar **bir paytli**, ya'ni ijro etish muddati ko'rsatilmaydigan (jarima, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish) va **muddatli**, ya'ni ijrosi muayyan muddatga tayinlanadigan (muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum qilish, umrbod ozodlikdan mahrum qilish) jazolarga bo'linadi.

Bir paytli jazolar kichik tizimini ajratib chiqarish unga kiritilgan barcha jazo turlari muayyan vaqt doirasi chegaralarida davomiylikka ega emasligini mutlaqo bildirmaydi deb aytish mumkin emas. Xususan, «qonunga muvofiq jazo tariqasida tayinlangan jarimani mahkum hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab uch oy, voyaga yetmagan mahkum esa olti oy mobaynida ixtiyoriy ravishda to'lashi lozim. Biroq sud, mahkumning moddiy ahvolini inobatga olib, JPK 533-moddasining ikkinchi qismiga asosan hukmning ushbu qismi ijrosini olti oygacha kechiktirishi yoki bo'lib-bo'lib to'lash masalasini hal qilishi mumkin».

2-§. Jarima

Davlat tomonidan majburlov chorasi sifatida **jarima to'lovi** mahkumlarning mulkiy huquqlarini cheklashdan iborat bo'lib, jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga iqtisodiy jihatdan ta'sir ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Aynan shu sababga ko'ra jazoning mazkur turi JKda nazarda tutilgan jazolar ichida eng yengili deb tan olinadi.

NOTA BENE !

Jarima – sud tomonidan JKda belgilangan chegaralar doirasida va jinoyatni sodir etish paytiga qadar qonunchilikda belgilangan eng kam oylik ish haqining muayyan miqdoriga muvofiq keladigan me'yorda davlat foydasiga majburiy undiriladigan pul to'lovidir.

Qonun chiqaruvchi va sud amaliyoti jarimaning qo'llanishini jazo maqsadlariga erishishning samarali choralaridan biri deb hisoblaydilar. Shu munosabat bilan Oliy sud instansiyasi sudlarga «jarima jazosini

nafaqat ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar, balki og'ir jinoyatlar sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatan ham, agar bu jazo qonun sanksiyasida nazarda tutilgan bo'lsa, kengroq qo'llash»ni tavsiya etadi.

JK 44-moddasi 1-qismi holatlaridan kelib chiqqan holda, faqat **pulni undirish** jarima deb hisoblanadi. Shunday qilib, davlat tomonidan majbur qilishning shu chorasini qo'llashda, sud o'z hukmida mahkum shaxsga nisbatan tayinlangan nafaqat eng kam oylik ish haqi miqdorlari umumiy sonini, balki undirilayotgan pul to'lovining mutlaq ifodasi me'yorini ham aniq ko'rsatishi shart. Bunda jarimaning pul bilan ifodalanishini hisoblab chiqish, shaxs tomonidan jinoyatni sodir etish paytida mavjud bo'lgan eng kam ish haqi miqdori asosida amalga oshirilishini nazarda tutish lozim.

JK 44-moddasi 2-qismida jarimaning pastki va yuqori chegaralari eng kam oylik ish haqining besh baravaridan olti yuz baravarigacha bo'lgan miqdorlari belgilangan. Mazkur chegaralar, JK maxsus qismi tegishli moddasining sanksiyasi doirasida sud tomonidan aybdor uchun tayinlanishi mumkin bo'lgan jazo chegaralarini tashkil etadi (masalan, **mehnat qilish huquqini buzganlik uchun** eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravarigacha miqdorda bo'lgan jarima bilan jazolanadi – 148-moddasi). Xususan, modda sanksiyalarida jarimaning eng kam miqdori ko'rsatilmagan hollarda (masalan, mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish eng kam ish haqining yigirma besh baravarigacha bo'lgan miqdordagi jarima bilan jazolanadi – JK 149-moddasi), uning quyi chegarasiga amal qilishga alohida e'tiborni qaratish zarur. Bunday hollarda jarimaning eng kam miqdori eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan kam bo'lmasligi kerak, chunki JK 44-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan jarimaning chegaralari umummajburiy xususiyatlarga ega va garchi sud, JK 57- moddasiga muvofiq tarzda yengilroq jazoni tayinlaydigan bo'lsa ham, qonunda belgilangan chegaralardan chiqadigan jazoni mahkumga tayinlashga haqqi yo'q.

JK Maxsus qismi muayyan moddasining sanksiyasiga muvofiq, jinoyatni sodir etgan aybdor shaxs uchun sud tomonidan jarimaning tayinlanishida, sodir etilgan jinoyat og'irligining darajasidan va

mahkumning moddiy ahvolidan kelib chiqqan holda jarima miqdori belgilanishi kerak. Oliy sud instansiyasining ko'rsatmasiga binoan, «jarima tariqasidagi jazoni tayinlash va miqdorini belgilashda sud, odatda, uning amalda to'лана olinishi imkoniyatidan kelib chiqishi lozim. Bunda, chunonchi, sudlanuvchining moddiy ahvoli, shuningdek, qaramog'ida voyaga yetmagan farzandlari, kekxa ota-onasi borligi va h.k.lar inobatga olinishi lozim».

Mahkumning moddiy ahvolini baholashda quyidagilar, chunonchi:

- mahkumning qonun tomonidan taqiqlanmagan har qanday manbalardan olinadigan daromadlarining miqdori; xususan, shular jumlasiga kiradigan mehnat uchun to'lovlar, mulkchilik daromadlari va shularga teng tarzdaagi tadbirkorlikdan olinadigan foyda ko'rinishidagi daromadlar;

- mulkchilik huquqi yoki xo'jalik yuritish huquqi va shularga teng tarzda ijara huquqi asosida aybdorga qarashli mulkning mavjudligi;

- muayyan shaxslarning, masalan voyaga yetmagan bolalarning mahkumning qaramog'ida bo'lishi;

- mahkumning o'z mulkini uchinchi shaxslar ixtiyoriga topshirish majburiyatlari mavjudligi; masalan, mahkum zimmasidagi alimentlarni to'lash, hayotga va salomatlikka keltirilgan zararni qoplash; soliqlar, byudjet hamda boshqa xil majburiy to'lovlarni amalga oshirish majburiyatlarining mavjudligi kabi omillar inobatga olinishi lozim. Shu bilan bir vaqtda yuqorida keltirilgan ro'yxat to'liq emas va sud jarimaning aniq miqdorini tayinlashda jarima miqdoriga ta'sir etuvchi boshqa jihatlarni inobatga olishga haqlidir.

JK Maxsus qismi tegishli moddasi tarkibidagi sanksiya doirasida tayinlanadigan jarimaning aniq miqdorini belgilash to'g'risidagi masalani hal qilishda jarima me'yori jazoni shaxsiylashtirish uchun imkoniyat beruvchi mezon ekanligi jihatiga sud alohida e'tibor qaratishi kerak. Shu munosabat bilan jarimaning aniq miqdorini tanlash, bir vaqtning o'zida, mahkumni qashshoq qilmay, mazkur jazoning ijro etilishini va shu bilan bir vaqtda jarimani pul to'lash orqali jamoatchilikning noroziligidan qutulish vositasiga aylantirmaslikni ta'minlashi kerak.

Jarima hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab bir oy mobaynida to‘lanishi kerak¹. Aks holda, mazkur jazo turini ijro etishdan mahkumning bosh tortishi to‘g‘risidagi masala sud tomonidan hal qilinishi lozim. Jarima to‘lovining ijro etishdan bosh tortilishi dalili sud tomonidan quyidagi shartlarga binoan, ya’ni:

– jarimani ixtiyoriy ravishda, sud tomonidan uzrli deb tan olinmagan sabablarga ko‘ra to‘lanmaganligi;

– mahkumning o‘z daromadlarini va boshqa xil mulkini yashirganligi munosabati bilan, O‘zbekiston Respublikasining «Sud qarorlarini va boshqa organlarning qarorlarini ijro etish to‘g‘risida»gi Qonuni²ga muvofiq, mazkur jazoni majburan ijro etish mumkin bo‘lmaganligi qayd qilinishi lozim.

Uzrli sabablarga (jarimani to‘lash uchun pul vositalarining mavjud emasligi, xastalik, uzoq muddatli xizmat safari va boshq.) ko‘ra va shuningdek, agar **JPK 533-moddasi tartibida** sud tomonidan jarima to‘lovini amalga oshirish muayyan muddatgacha **cho‘zilgan** yoki **uni qismlarga bo‘lib to‘lash qarori chiqarilgan** hollarda mazkur to‘lovning amalga oshirilmaganligi jazoni ijro etishdan bosh tortish deb tan olinmaydi³.

Daromadlarni yashirish deb, mahkum tomonidan, o‘zi oladigan daromadlar miqdori va tarkibi masalasida jazoni ijro etish organlarini aldashga qaratilgan harakatlar tan olinishi kerak. Xususan, bunday yashirish daromadlarning muayyan qismi yoki ayrim daromadlarning boshqa shaxslar nomiga rasmiylashtirilishi, ish haqi to‘g‘risidagi hujjatlarning qalbakilashtirilishi yoxud yo‘q qilinishi va boshqalar bilan ifodalanishi mumkin. Majburiy undirish chorasi qo‘llanishi mumkin

¹ Qarant: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 16-банд, 2-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 229-б.

² Ушбу Қонуннинг 5-моддаси 2-бандига кўра, жиноят ишлари бўйича судларнинг ҳукмлари, ажримлари ва қарорларининг мулкий ундиришга оид қисми, шунингдек жарима тариқасидаги жазони назарда тутувчи ҳукмлари, ажримлари ва қарорлари ижро этилиши лозим, Қонуннинг 45-моддасига мувофиқ эса, ихтиёрий равишда ижро этиш учун суд ижросиси томонидан белгиланган мuddатнинг ўтганлиги мажбурий ижро этиш чораларини қўллаш учун асос бўлади (Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 29 августдаги «Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тўғрисида»ги 258-П-сон Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2001 й., 9–10-сон, 169-модда).

³ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарорининг 17-банди 2-хатбошисига мувофиқ, бундай ҳолатда ЖКнинг 44-моддаси 3-хатбошисида белгиланган жазо ижросидан бош тортиш мuddатларининг ҳисобланиши жазо ижросини чўзиш (хатбошиларга бўлиб ижро этиш) мuddатининг тугашидан кейин бошланади // Тўплам, 2-жилд. – 230-б.

bo'lgan **mulkni yashirish**, mazkur mulkni ijro organiga noma'lum bo'lgan yerga ko'chirishni, uni noqonuniy tarzda sarflashni, mulkni yoki unga bo'lgan mavjud huquqlarni begonalashtirish va boshqa xil noqonuniy harakatlarni bildiradi.

Mahkum tomonidan jarimani to'lashdan bosh tortish dalilining aniqlanishi yoki majburiy ijro uchun belgilangan muddat davomida qarzdor mulkiga nisbatan undirish chorasi qaratilishi mumkin bo'lganida ushbu mulkni undirish imkoniyatining mavjud emasligi holatida va shunga teng tarzda to'lov muddatining tugashigacha jarimaning to'lanmaganligida yoki jarima to'lovini qismlarga bo'lib to'lash shartlarini buzish holatida mazkur mahkumga nisbatan hukmni chiqargan sud **JK 44-moddasi 3-qismida** bayon etilgan qoidalarga muvofiq tarzda, to'lanmagan jarima miqdorini majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum etish choralari bilan almashtirishi mumkin. «Bu holda majburiy jamoat ishlarining ikki yarim soati eng kam oylik ish haqining bir baravari miqdoridagi jarimaga tenglashtirilib, to'rt yuz sakson soatdan ko'p bo'lmagan muddatga, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash, yoxud ozodlikdan mahrum etish choralarining har bir oyi eng kam oylik ish haqining o'n olti baravaridagi jarimaga tenglashtirilib, uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga tayinlanadi» (JK 44-moddasi 3-qismi). Bunda to'lanmagan jarima miqdorini yuqorida ko'rsatilgan jazolarning faqat bitta turiga almashtirish uchun yo'l qo'yiladi, ya'ni uni yuqorida sanab o'tilgan jazolarning bir nechasi bilan almashtirish mumkin emas. Shu bilan bir vaqtda, to'lanmagan jarimaning boshqa qismiga nisbatan mahkumning yangidan ijro etishi shart bo'lgan holda, mazkur jarimaning faqat bir qismini boshqa jazo turi bilan almashtirib bo'lmaydi.

3-§. Muayyan huquqdan mahrum qilish

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazo chorasi sifatida yaqqol ifodalangan preventiv xususiyatga egadir. Mazkur jazoning qo'llanishi asosiy jihatdan, egallagan lavozimi yoki amalga oshiriladigan faoliyati bilan bog'liq holda mavjud imkoniyatlarni suiste'mol qilish bilan bog'liq

bo'lgan jinoyatlarni sodir etadigan shaxslar tomonidan mazkur jinoyatlarni qayta sodir etilishining oldini olish zaruriyati bilan shartlanadi.

NOTA BENE !

Muayyan huquqdan mahrum qilish sud tomonidan tayinlangan muddat davomida aybdorning sodir etgan jinoyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarda u yoki bu mansabni egallashni yoxud u yoki bu faoliyat bilan shug'ullanishini taqiqlashdan iboratdir.

JK 45-moddasi 1-qismi mazmuni bo'yicha, muayyan huquqdan mahrum qilish ko'rinishidagi jazo chorasini tayinlashda taqiqlash faqat **muayyan lavozimni** egallashga yoki **muayyan faoliyatni** amalga oshirishga taalluqli bo'ladi.

Muayyan lavozimni egallashning taqiqlanishi mahkumning mazkur lavozimdan (ya'ni, hukmni chiqarish paytiga qadar mahkumning ayni lavozimni egallashni davom ettirishi shartida) ozod qilinishini va shunga teng tarzda boshqa korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda mahkum tomonidan mazkur lavozimni egallash huquqining cheklanishi bilan bog'liqdir. Qonunning mazmuniga muvofiq, mahkum muayyan lavozimni (masalan, hisobchi, ombor mudiri va sh.k.) yoki qandaydir vazifani amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan bir qator lavozimlarni egallash huquqidan mahrum bo'lishi (masalan, moddiy javobgar lavozimlarni egallash huquqidan mahrum qilish) mumkin. Lekin, u holda ham, bu holda ham mahkum egallash huquqidan mahrum bo'layotgan lavozimlar sud hukmida aniq belgilangan bo'lishi kerak.

Shu bilan bir vaqtda, muayyan huquqdan mahrum qilish ko'rinishidagi jazo turi mahkumni xalq xo'jaligining u yoki bu tarmog'ida ishlash huquqidan mahrum qilmasligini ta'kidlash lozim.

Xususan, sud mahkumning savdo sohasida moddiy javobgar lavozimlarni egallashini taqiqlashi mumkin, biroq uning mazkur sohadagi boshqa lavozimlarda ishlashini man qilishga haqli emas.

Muayyan faoliyatni amalga oshirishning taqiqlanishi mahkumni qandaydir nisbatan doimiy ish, masalan, kasbiy faoliyat bilan va shuningdek, hordiq chiqarish, tadbirkorlik faoliyati hamda sh.k. sohalardagi ishlar bilan band bo'lishi huquqidan mahrum etishdan iborat. Bunda, qonun mazmuniga muvofiq tarzda, mahkumning sud hukmida, shuningdek, aniq belgilangan muayyan faoliyat turidan mahrum qilinishi mumkinligini ta'kidlash zarur. Shu bilan bir vaqtda mazkur taqiqlash faqat qonuniy faoliyat turlariga nisbatan amalga oshirilishi mumkin; sud o'z hukmida mahkumni jinoiy faoliyatni amalga oshirish huquqidan mahrum qila olmaydi, chunki mazkur shaxs ayni faoliyatni amalga oshirish huquqiga umuman haqli emas va mana shunday jazo chorasi mazmunsiz va bema'ni chora bo'lib qoladi (masalan, mahkumga giyohvand moddalar, ularning analoglarini sotish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishni man etishga yo'l qo'yish mumkin emas).

Jinoyatni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxs u yoki bu lavozimni egallash huquqidan mahrum etilishi yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin. Shaxs uchun shu ikkala huquqlarni amalga oshirish imkoniyatini taqiqlashga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

JK 45-moddasi 2-qismidagi holatlarga muvofiq, muayyan huquqdan mahrum qilishni faqat aybdor deb topilgan shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat mazkur shaxsning egallab turgan lavozimi bilan yoki uning faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan hollarda jazo chorasi sifatida qo'llash mumkin. Shu munosabat bilan Oliy sud Plenumining tushuntirishi bo'yicha, «aybdor o'zi egallagan lavozim yoki xizmat faoliyati bilan bevosita bog'liq holda jinoyat sodir etgan har bir holda, sud jinoyatning xususiyatidan kelib chiqib, mahkumni u yoki bu mansabni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish masalasini muhokama qilishi shart. Bunday jazoni tayinlash paytida hukmning qaror qismida sudlanuvchi shug'ullanishi mumkin bo'lmagan mansab xarakteri yoki faoliyat turi aniq ko'rsatilishi kerak.

Hukm chiqarilayotgan paytda mahkum jinoyat sodir etilishi bilan bog'liq bo'lgan mansabni egallamasligi yoki faoliyat turi bilan

shug‘ullanmasligi holati qo‘shimcha jazo qo‘llash uchun to‘siq bo‘lmaydi»

Agarda sodir etilgan jinoyat o‘zining xususiyatlari bo‘yicha shaxsning egallab turgan lavozimi yoki uning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmasa, bu holda mazkur shaxs ayni shu lavozimni egallash huquqidan yoki mazkur faoliyatni amalga oshirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas.

Jazo chorasini muayyan faoliyatni amalga oshirish huquqidan mahrum qilish ko‘rinishida tayinlash holatida sudlar mahkumning hayot kechirishini ta‘minlovchi tizimda uning amalga oshirayotgan faoliyatining o‘rniga, shuningdek, darajasiga e‘tiborni qaratishlari lozim. Xususan, agar amalga oshirilayotgan faoliyat mahkumning asosiy daromad manbai (masalan, ov qilish) bo‘lsa, mazkur jazo turini tayinlashga yo‘l qo‘yilmasligi kerak. Xuddi shunday tarzda sud ko‘rib chiqayotgan davlat majburlovi chorasini ma‘lum bir shaxslarning yagona kasbiy faoliyati (masalan, tadbirkorlik faoliyati, transport vositalarini boshqarish va sh.k.) bo‘lgan faoliyat turlarining sohiblari bo‘lgan shaxslarga nisbatan tayinlanishining maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi masalalarni muhokama qilishi zarur bo‘ladi.

Muayyan huquqdan mahrum etish – bu **muddatli jazo chorasi** bo‘lib, uning mohiyati nafaqat mahkumni muayyan vazifalarni bajarishdan chetlatishdan, balki uni hukmda belgilangan muddat davomida u yoki bu lavozimlarni egallash huquqidan mahrum qilish yoxud u yoki bu faoliyat bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum qilishdan iborat.

Shuningdek, uni hukm bilan belgilangan muddat davomida u yoki bu lavozimlarni egallash yoxud u yoki bu faoliyat turi bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum etishdan ham iborat bo‘ladi, buning maqsadi uni tegishli lavozim yoki faoliyat bilan shug‘ullanish bilan bog‘liq bo‘lgan yangi shunga o‘xshash jinoyatni sodir etish imkoniyatidan amalda mahrum etishdir.

JK 45-moddasi 2-qismidan kelib chiqib, muayyan huquqdan mahrum etish bir yildan besh yilgacha bo‘lgan muddatga asosiy jazo sifatida va bir yildan uch yilgacha bo‘lgan muddatga qo‘shimcha jazo sifatida belgilanadi.

Muayyan huquqdan mahrum etish shaklidagi jazoning belgilangan muddati ko'rsatilmaganligi jinoyat qonunining noto'g'ri qo'llanishi sifatida qaraladi va hukmning bekor qilinishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Avval qayd etilganidek, muayyan huquqdan mahrum etish – jazoning aralash turi bo'ladi, ya'ni u ham asosiy jazo shaklida, ham qo'shimcha jazo shaklida bo'lishi mumkin. Shuni nazarda tutish lozimki, ushbu jazoni asosiy jazo sifatida qo'llash faqat u JK maxsus qismining tegishli moddasi sanksiyasida ko'rsatilgan holatlarida mumkin bo'ladi. Muayyan huquqdan mahrum etishning qo'shimcha jazo sifatida belgilanishi esa **JK 45-moddasi 3-qismiga** muvofiq, har qanday holatda, hatto uning qo'llanishi JK maxsus qismining tegishli moddasi sanksiyasida ko'rsatilmagan holatlarida ham mumkin bo'ladi. Bunda shu turdagi jazoning qo'llanishi albatta hukmning asoslovchi qismida JK 45-moddasi 3-qismiga havola qilingan holda tavsiflanishi lozim. Ayni paytda muayyan huquqdan mahrum etishning moddaning sanksiyasida u asosiy jazo sifatida nazarda tutilgan holatlarda qo'shimcha jazo sifatida belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jazoning ushbu turi, birinchi navbatda jinoiy faoliyatning davom ettirilishga to'sqinlik qilish, uni maxsus oldini olish maqsadlariga erishishga qaratilgan. Aynan shuning uchun uni ijro etish muddatlarini hisoblash jinoyat qonuniga muvofiq sudlangan shaxsning ozodlikda bo'lishi paytida, ya'ni u jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan asosiy jazoga hukm qilinganda hisoblanadi. Shu tufayli **JK 45-moddasi 4-qismi** «Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish yoki intizomiy qismga jo'natish jazosiga qo'shimcha jazo tariqasida tayinlangan bo'lsa, asosiy jazoning butun muddatiga, bundan tashqari sud hukmi bilan tayinlangan muddatga joriy etiladi. Bu jazo boshqa asosiy jazolarga qo'shimcha jazo tariqasida tayinlanganda va mahkum shartli hukm qilinganda uning muddati hukm qonuniy kuchga kirgan vaqtdan boshlab hisoblanadi», deb belgilaydi.

Jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan asosiy jazoni o'tashdan bo'yin tovlab, ular ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lgan davlat

majburlov choralari bilan almashtirilgan holatlarda muayyan huquqdan mahrum etishning ijro etilmagan muddati jamiyatdan ajratish bilan bog‘liq bo‘lgan jazoni o‘tash muddati tugagan paytidan boshlab hisoblanishi lozim.

4-§. Majburiy jamoat ishlari

Majburiy jamoat ishlari jazolarning asosiy turlaridan sanaladi, bu jazo O‘zbekiston jinoyat qonunchiligida ilgari ma‘lum bo‘lmagan yangi jazo turi bo‘lib hisoblanadi.

Majburiy jamoat ishlari Jinoyat kodeksi maxsus qismining moddalarining sanksiyasida bevosita ko‘rsatilganda tayinlanishi mumkin. Majburiy jamoat ishlari Jinoyat kodeksi maxsus qismining moddalarini sanksiyasida nazarda tutilmagan bo‘lsa, yengilroq jazo tayinlash uchun asoslar mavjud bo‘lganda Jinoyat kodeksi maxsus qismining moddalariga muvofiq tayinlanishi mumkin.

NOTA BENE !

Majburiy jamoat ishlari maxkumga moddiy ta‘sir o‘tkazish bilan bog‘liq jazo turiga taaluqli bo‘lib, shu bilan birgalikda uni ma‘lum bir darajada erkinligini cheklaydi. Mazkur jazo turi maxkumni haqto‘lanmaydigan majburiy jamoat ishlariga jalb qilishdan iborat.

Agarda mahkum ishlayotgan yoki o‘qiyotgan bo‘lsa, majburiy jamoat ishlari ishdan yoki o‘qishdan bo‘sh vaqtda o‘taladi.

Majburiy jamoat ishlarining turi va joyi mazkur jazoning ijrosini nazorat qiluvchi organlar tomonidan belgilanadi.

Maxkum turli majburiy jamoat ishlarini (ko‘cha, jamoat joylarini tozalash, ekinlar ekish, yerlarni qazish, santexnik, bo‘yash, qurilish va h.k.) bajarishga majbur bo‘lishi mumkin.

Majburiy jamoat ishlarini bajarishga xukm qilingan maxkum u yoki bu ishni bajarish qoidalariga rioya qilishi, ishga jalb qilingan davrda ularga yuklatilgan ishni xalol va vijdonan bajarishlari shart.

Jinoyat kodeksining 45¹ –**moddasi 4-qismda** majburiy jamoat ishlari qo‘llash mumkin bo‘lmagan shaxslar toifasi belgilangan:

- a) pensiya yoshiga yetgan shaxslarga;
- b) o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxslarga;
- v) homilador ayollarga;
- g) uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarga;
- d) birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga;
- e) harbiy xizmatchilarga;
- y) chet el fuqarolariga;
- j) O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan shaxslarga.

Mahkum jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlagan taqdirda, sud majburiy jamoat ishlarining o‘talmagan muddatini majburiy jamoat ishlarining to‘rt soatini ozodlikni cheklashning yoki ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga tenglashtirgan holda hisoblab, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi. Jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlanilgan vaqt jazoning o‘talgan muddatiga qo‘shib hisoblanmaydi.

Majburiy jamoat ishlari pensiya yoshiga yetgan shaxslarga, o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxslarga, homilador ayollarga, uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga, harbiy xizmatchilarga, chet el fuqarolariga va O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

5-§. Axloq tuzatish ishlari

Axloq tuzatish ishlari jinoiy jazoning eng ko‘p tarqalgan turlaridan biridir, bu ularning jinoiy jazo maqsadiga erishish jarayoniga ta’sirchan bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Ularning mohiyati shundan iboratki, jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga jamiyatdan ajratmagan holda, asosan, avvalgi ish joyida va doimiy yashash joyida axloq tuzatish, mehnat va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatiladi. Natijada mahkum ijtimoiy foydali aloqalarini yo‘qotmaydi va shu bilan birga jinoiy jazoning muayyan ta’sirini boshidan kechiradi. Bularning hammasi birgalikda jazoning ushbu turini sudlangan shaxslarni samarali tuzatish shakliga aylantiradi.

NOTA BENE !

Axloq tuzatish ishlari mehnatga layoqatli sudlangan shaxs ish haqining muayyan foizi miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda uni mehnatga majburan jalb qilishdan iborat bo'lib, jazo sudning hukmiga muvofiq, mahkumning o'z ish joyi yoki mazkur jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o'taladi.

Davlat majburlovining mazkur chorasi faqat asosiy jazo sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni u faqat axloq tuzatish ishlari shaklidagi jazo JK maxsus qismi tegishli moddasining sanksiyasida bevosita nazarda tutilgan hollarda qo'llanishi mumkin. Ayni paytda axloq tuzatish ishlari shunday ko'rsatma bo'lmagan holda ham tayinlanishi mumkin, basharti:

sudlangan shaxs jarimani ijro etishdan bo'yin tovlasa, uning ijro etilmagan qismi JK 44-moddasi 3-qismi hamda 82-moddasi 2-qismiga muvofiq axloq tuzatish ishlariga almashtirilishi mumkin;

axloq tuzatish ishlari JK 57-moddasining qoidalariga muvofiq yengilroq jazo tayinlash tartibida tayinlangan bo'lsa;

ushbu jazo chorasi JK 74-moddasining qoidalariga muvofiq jazoni yengilroq'i bilan almashtirish tartibida ozodlikdan mahrum etishning o'talmagan qismi o'rniga qo'llangan bo'lsa.

JK 46-moddasi 1-qismiga muvofiq, axloq tuzatish ishlari mahkumning albatta mehnatga jalb etilishini talab etadi. Ya'ni, bunday jazo obyektiv holatlar tufayli mehnat faoliyatini amalga oshira olmaydigan shaxslarga qo'llana olmaydi. Bunda shaxslar doirasi JK 46-moddasi 3-qismida ko'rsatilgan, ya'ni axloq tuzatish ishlari pensiya yoshiga yetganlarga, mehnatga qobiliyatsizlarga, homilador ayollarga va uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarga va harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llanilmaydi. Ushbu shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilgan holda sud ularga nisbatan qonunda nazarda tutilgan boshqa davlat majburlov choralarini qo'llashi lozim. Mazkur holatlar jazoni o'tash muddati mobaynida yuzaga kelgan holatlarda esa (masalan, sudlangan shaxs nafaqaga chiqdi yoki nogironligi tufayli mehnatga layoqatsiz bo'lib qoldi) sud mahkumning o'zi yoki jamoat birlashmasi yoki jamoaning iltimosnomasiga binoan, shuningdek,

ichki ishlar idoralarining taqdimnomasiga binoan unga axloq tuzatish ishlarini yengilroq jazo chorasiga almashtirishi mumkin yoki JK 75-moddasiga muvofiq jazoni o'tashdan ozod etishi mumkin.

JK 46-moddasi 1-qismining qoidalaridan, shuningdek, axloq tuzatish ishlari sudning hukmiga muvofiq, mahkumning o'z ish joyi yoki mazkur jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o'tashi mumkinligi kelib chiqadi. Oliy sud Plenumining qaroriga muvofiq, «Axloq tuzatish ishlari, odatda, ish joyida o'tash sharti bilan tayinlanishi lozim. Shu bilan birga, shaxs o'z kasb yoki xizmat vazifasini bajarish bilan bog'liq holda jinoyat sodir etib, uning oldingi ish joyida qoldirilishi jazoning tarbiyaviy ahamiyati pasayishiga olib kelishi mumkin bo'lsa, axloq tuzatish ishlarini ushbu jazo ijrosini amalga oshiruvchi organ tomonidan belgilangan joyda o'tash tayinlanishi mumkin»¹.

Bunda shuni ham nazarda tutish lozimki, JK 46-moddasi ma'nosida «ish» tushunchasi bilan faqat mehnat shartnomasi bo'yicha mehnat faoliyati qamrab olinmaydi, u shuningdek, mustaqil tashabbuskorlik faoliyatini (xususiy tadbirkorlikni) va fuqarolarning boshqa har qanday bandligini qamrab oladi².

Shu munosabatda axloq tuzatish ishlarini o'tash joylari O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi amal qiladigan turli mulkchilik shaklidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, shuningdek, faoliyati boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadigan boshqa muassasalar va tashkilotlar bo'lishi mumkin, masalan, O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 14 apreldagi 763-I-sonli «Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 maydagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida» gi³ 328-sonli qonuni va boshqalar.

Avvalgi ish joyida o'taladigan axloq tuzatish ishlari tarzidagi jazoni tayinlash mazkur jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan

¹ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 20-банд, 1-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 231-б.

² «Бандлик» тушунчаси тўғрисида қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 1 майдаги «Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида»ги 616-I-сон Қонуни, 2-модда // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 5–6-сон, 97-модда.

³ Ўзбекистон Республикаси "Қонун ҳужжатлари тўплами", 2012 й., 18-сон, 201-м; "Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис палаталарининг ахборотномаси", 2012 й., 5-сон, 133-м.

boshqa joylarda o‘taladigan axloq tuzatish ishlariga qaraganda yengilroq jazo bo‘ladi. Bundan tashqari, jazoning ushbu turi ko‘pgina holatlarda sudlangan shaxslarni tuzatish uchun samaraliroq bo‘ladi, chunki avvalgi ijtimoiy aloqalarning tuzalish jarayoniga faol ta‘sir etishining imkoniyatini beradi. Shu tufayli, sudlar jazo sifatida avvalgi ish joyida o‘taladigan axloq tuzatish ishlarini ancha kengroq tayinlashlari lozim. Ayni paytda, avval qayd etilganidek, sudlar xizmat yoki kasbiy vazifalarini bajarishi munosabati bilan jinoyat sodir etgan shaxslarga, ularni avvalgi ish joyida qoldirish jazoning tarbiyaviy va ogohlantiruvchi ahamiyatini kamaytirishga olib kelishi mumkin bo‘lgan hollarda, ushbu qaralayotgan jazoni ish joyida o‘taladigan holda tayinlashga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

Qonunning mazmuniga ko‘ra, mazkur jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o‘taladigan axloq tuzatish ishlari tarzidagi jazo, shuningdek, hukm chiqarilgan paytiga kelib doimiy ish joyiga ega bo‘lmagan shaxslarga ham albatta tayinlanishi lozim. Bunda ushbu shaxslar ushbu ish joyiga ko‘ra mehnat faoliyatidan voz kechishi mumkin emas. Bu holda sudlangan shaxs o‘z tashabbusiga ko‘ra axloq tuzatish ishlari ijro etilishini nazorat qiluvchi ichki ishlar idoralarining jazoni ijro etish inspeksiyasining dastavval yozma ruxsatisiz mehnat munosabatlarini to‘xtatish huquqiga ega bo‘lmaydi.

Shuni qayd etish lozimki, qaralayotgan jazoni tayinlash ayni paytda egallagan lavozimidan chetlashtirish yoki bo‘shatish bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Sudlanish holatining o‘zi shaxsni ishdan bo‘shatish yoki boshqa ishga o‘tkazish uchun sabab bo‘la olmaydi. Lavozimidan chetlashtirish faqat sud hukmiga ko‘ra yoki muayyan huquqidan mahrum etish tarzidagi jazo tayinlanishi tufayli yoki sodir etgan jinoyati egallab turgan lavozimi bilan bog‘liq bo‘lgan holda, amalga oshirilishi mumkin. Ayni paytda, sudlangan shaxsga mehnat qonunchiligining qoidalari to‘liq ravishda taalluqli bo‘ladi, shuning uchun uni egallagan lavozimidan bo‘shatish va boshqa ishga o‘tkazish ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra amalga oshirilishi ham mumkin.

Shuningdek, axloq tuzatish ishlarining ijro etilishi yashash joyining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Mahkum shaxslar o‘z yashash joyi

mintaqasida jazo o'taydilar, bunda ma'muriy-hududiy birlik emas, ishlarni o'tash manzilining mahkum shaxsga avvalgi joyida, oilasi bilan aloqasini uzmaganda holda yashashga imkon beruvchi joylashuvi tushuniladi.

Axloq tuzatish ishlari tarzidagi jazoning majburiy sharti shu vaqt davomida mahkum shaxs ish haqining muayyan bir qismini davlat foydasiga ushlab qolish bo'ladi. Ushbu turdagi jazo tayinlanganda o'z hukmida sud albatta ushlab qolish miqdorini belgilashi lozim, busiz u qonunga mos kelmaydigan deb tan olinadi va bekor qilinishi lozim bo'ladi.

Ish haqidan ushlab qolish miqdori JK 46-moddasi 1-qismiga muvofiq, olingan ish haqi miqdoridan foiz nisbatida, o'n foizdan o'ttiz foizgacha miqdorda belgilanadi. Shuni qayd etish lozimki, davlat foydasiga hisoblab o'tkazilishi lozim bo'lgan ish haqining aniq qismini belgilashda sud qonunning jazoni individuallashtirish yuzasidan talablariga tayanishi kerak. Ish haqidan ushlab qolishning muayyan foizini belgilamay turib, uning miqdori, jarimani tayinlash vaqtidagidek, ham jazodan qochish vositasiga, ham mahkum shaxsni xonavayron etish vositasiga aylanmasligini inobatga olish lozim hamda ushbu ish haqi foizining miqdori mahkum oilasining moddiy yashash sharoitlarida qanday aks etishini to'g'ri baholashi lozim. Shu maqsadlarda sudlar, chunonchi, sudlanuvchilarning, ayniqsa voyaga yetmaganlarning moddiy sharoitlarini aniqlashi lozim.

Jinoyat kodeksining bir necha moddasi bo'yicha axloq tuzatish ishlari tayinlanayotganda, jazo muddati va ish haqidan chegirma miqdori har bir modda bo'yicha alohida, so'ngra esa, ularning majmui bo'yicha belgilanadi. Bunda jazoning uzil-kesil muddati va chegirma miqdori JK 46-moddasida belgilangan chegaradan oshishi mumkin emas.

Sudlangan shaxsning ish haqidan sud tomonidan belgilangan miqdorda foiz ushlab qolish axloq tuzatish ishlarining butun muddati mobaynida asosiy ish joyida har oyda amalga oshiriladi. Ularni bir vaqtning o'zida amalga oshirish mumkin emas. Bunda ushlab qolish ish haqining butun miqdoridan, ushbu miqdordan soliqlar va boshqa to'lovlar chegirilmagan holda, sudlangan shaxsga ijro hujjatlari bo'yicha talablar mavjudligidan

qat'i nazar, amalga oshiriladi. Sudlangan shaxs ish haqidan ushlab qolish amalga oshirilganda uning pul va «tabiiy» qismlari hisobga olinadi.

Ayni paytda nafaqalardan, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urtalash tartibida olinadigan hamda ish haqi tizimida nazarda tutilmagan nafaqalardan, shuningdek, sudlangan shaxsning mulkiy daromadidan ushlab qolish amalga oshirilmaydi.

Ushbu jazoni bajarish davrida sudlangan shaxsning moddiy ta'minlanganligi jiddiy yomonlashgan holda, jazoni ijro etish inspeksiyasi, mahkum shaxsning o'zi, shuningdek, shaxs o'z jazosini o'tayotgan korxonaga, muassasa yoki tashkilotning ma'muriyati sudga ushlab qolish foizini kamaytirish yuzasidan iltimosnoma bilan murojaat qilishi mumkin. Bu masala bo'yicha qaror sudlangan shaxsning barcha daromadlarini hisobga olgan holda chiqariladi.

Axloq tuzatish ishlarining muddati ularning majburiy elementlaridan biri bo'lib, sud hukmida ularning muddati to'g'risida ko'rsatmaning yo'qligi jinoyat qonunchiligining hukmini bekor qilishga olib keluvchi buzilishi bo'ladi. Shu munosabatda sudlar axloq tuzatish ishlarining muddatini albatta ko'rsatishi lozim va shu muddatning JK 46-moddasi 2-qismida belgilanganligi hamda olti oydan uch yilgacha muddatga tashkil etishini nazarda tutishi kerak. Shuning uchun tegishli moddaning sanksiyasida jazoning eng kam muddati ko'rsatilmagan yoki eng past chegarasidan pastroq jazoni qo'llaganda sudlar axloq tuzatish ishlarini olti oydan kamroq muddatga tayinlashi mumkin emas.

Ayni paytda, avval aytilgani kabi sudlar axloq tuzatish ishlarining muddati jazoni individuallashtirishning muhim vositasi ekanligini hamda uni tayinlashda qilmishni, shuningdek, aybdor shaxsini tavsiflovchi holatlarni hisobga olishi lozim.

Axloq tuzatish ishlarining muddati sudlangan shaxs ishlagan va uning ish haqidan ushlab qolish amalga oshirilgan yillar, oylar va kunlar bilan hisoblanadi. Sudlangan shaxsning ishlagan kunlari soni sud tomonidan belgilangan jazoni o'tash muddatining har bir oyiga to'g'ri keladigan ish kunlari sonidan kam bo'lmasligi lozim. Agar sudlangan shaxs belgilangan kunlar sonini ishlamagan bo'lsa va jinoiy jazo o'tash Kodeks bilan

ishlamagan kunlarini jazo o'tash muddatiga kiritib hisoblash uchun belgilangan asoslar bo'lmasa, axloq tuzatish ishlarining o'talishi to sudlangan shaxs tomonidan belgilangan ish kunlarini ishlab bo'lgunicha davom ettiriladi. Jamlangan ish vaqtini hisoblash qo'llanadigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ishlaydigan sudlangan shaxslarning jazoni o'tash muddati hisob davri uchun ish vaqtining ish soatlarining normal sonidan oshmagan davomiyligidan kelib chiqib hisoblanadi.

Axloq tuzatish ishlarini o'tash muddatiga, shuningdek, sudlangan shaxs ishlamagan, lekin qonunga muvofiq unda ish haqi saqlanib qolgan vaqt, shuningdek, u ishsiz deb tan olingan vaqt kiritiladi (JIK 30-moddasi 1-, 2-, 4-moddalari).

Axloq tuzatish ishlarining muddatini to'g'ri hisoblash sudlangan shaxsning jazoni ijro etishdan bosh tortganida yoki hukmlar jami bo'yicha jazoni tayinlashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

JK 46-moddasi 4-qismi sudlangan shaxsning ularni ijro etishdan bo'yin tovlagan holda axloq tuzatish ishlarini almashtirishni nazarda tutadi. Xususan, «agar shaxs sud tomonidan tayinlangan axloq tuzatish ishlari muddatining jami bo'lib o'ndan bir qismidan ko'prog'ini o'tashdan bo'yin tovlasa, sud axloq tuzatish ishlarining o'talmagan muddatini xuddi shu muddatga ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi. Jazoni o'tashdan bo'yin tovlagan vaqt jazoning o'talgan muddatiga qo'shib hisoblanmaydi». Ya'ni, axloq tuzatish ishlarini faqat bitta jazo turi – ozodlikdan mahrum etish bilan almashtirishga yo'l qo'yiladi. Bunda shuni hisobga olish lozimki, almashtirish to'liq amalga oshirilishi lozim, ya'ni ijro etilmagan jazoning faqat bir qismini almashtirish va ayni paytda boshqa qismining ijro etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jarima jazosini ijro etganlik uchun jazoni almashtirish tartibida tayinlangan axloq tuzatish ishlarini o'tashdan bo'yin tovlagan holatda jazoni ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum etishga almashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Qonunning axloq tuzatish ishlari muddatining jami bo‘lib o‘ndan bir qismidan ko‘prog‘ini o‘tashdan bo‘yin tovlaganda jazoni almashtirishga yo‘l qo‘yilishi yuzasidan ko‘rsatmasi shuni bildiradiki, sudlangan shaxs jazoni ijro etishdan bo‘yin tovlagan davrni belgilashda sud va jazoni ijro etish organlari uzluksizlik mezonini bilan bog‘langan bo‘lmaydi. Ya‘ni, axloq tuzatish ishlaridan bo‘yin tovlash mazkur jazoni o‘tashning butun davri mobaynida vaqt-vaqti bilan amalga oshirilishi mumkin, bu uning ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum etish bilan almashtirilishiga ta‘sir etmaydi.

Sudlangan shaxs axloq tuzatish ishlarini o‘tashdan bo‘yin tovlashi masalasini hal etishda u qasddan bo‘lishi, aynan jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlashga qaratilgan bo‘lishi lozimligini hisobga olish kerak. Ayni paytda uning uzrli bo‘lmagan sabablar tufayli yuzaga kelishi ham bo‘yin tovlashning majburiy sharti bo‘ladi. Tashqi tomondan shaxsning axloq tuzatish ishlarini o‘tashdan bo‘yin tovlashi quyidagilar shaklida namoyon bo‘lishi mumkin: hisobga olingan paytidan boshlab yoki avvalgi ishidan ketgan paytidan boshlab belgilangan muddat ichida uzrli sababsiz ishga kirmaslik; yangi yashash joyiga ko‘chib kelganidan keyin belgilangan muddat ichida uzrli sababsiz axloq tuzatish ishlarining qo‘llanishini nazorat qiluvchi idoraga kelmaslik; belgilangan jazo muddati mobaynida muntazam ishga kelmaslik yoki ishga mast holda kelish va hokazolar.

Axloq tuzatish ishlarini ozodlikdan mahrum etishga almashtirish JPK 539-moddasi tartibida sudya tomonidan ichki ishlar organlarining taqdimnomasi bo‘yicha yoki jamoat birlashmasi yoki jamoaning iltimosnomasiga binoan amalga oshiriladi.

Shuni qayd etish lozimki, sudlangan shaxsni ozodlikdan mahrum etish joylariga jazoni keyingi o‘tashi uchun yuborish masalasini hal etishda sud axloq tuzatish ishlarining qo‘llanishini nazorat qiluvchi idora tomonidan ushbu jazoning ijro etilishini ta‘minlash yuzasidan amalga oshirilgan choralari to‘g‘risida, sudlangan shaxsning qonunchilik talablariga muvofiq jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlash uchun javobgarlik to‘g‘risida ogohlantirilganligi haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lishi lozim.

«JPK 541–542-moddalariga muvofiq, axloq tuzatish ishlarining o‘talmagan muddatini ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum etish bilan almashtirish to‘g‘risidagi ishlar sud majlisida, odatda, sudlangan shaxsning ishtirokida ko‘rilishi lozim. Bu masala mahkum yashirinib yurganligi yoki sudga kelishdan bo‘yin tovlaganligi to‘g‘risida ishonchli ma’lumotlar ishda mavjud bo‘lgan holdagina uning ishtirokisiz hal etilishi mumkin»¹.

Axloq tuzatish ishlarining o‘talmagan muddatini ozodlikdan mahrum etish bilan almashtirish sud hukmini ijro etish tartibida amalga oshirilishini inobatga olgan holda, sudlangan shaxs jazoni almashtirishda aynan axloq tuzatish ishlari tarzida jazo tayinlangan shaxs sifatida qaralishi lozim. Bu uning ozodlikdan mahrum etish bilan almashtirilgan jazoni o‘talishi ushbu shaxs sodir etgan jinoyatining og‘irligidan, shuningdek, jinoyatda retsidiv mavjudligidan qat’i nazar, manzil-koloniya-sida amalga oshirilishi lozimligini anglatadi.

6-§. Xizmat bo‘yicha cheklash

Xizmat bo‘yicha cheklash maxsus jazo turi bo‘lib, JK 47-moddasi 1-qismiga muvofiq, faqat subyektlarning cheklangan doirasiga – ofitserlar tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchi va harbiy xizmatni kontrakt bo‘yicha o‘tayotgan harbiy xizmatchilarga nisbatan qo‘llanadi. Boshqa shaxslar, shu jumladan harbiy chaqiruv bo‘yicha xizmat o‘tayotgan harbiy xizmatchilar ushbu jazo turining qo‘llanadigan subyektlari sifatida qaralishi mumkin emas.

NOTA BENE !

Xizmat bo‘yicha cheklash ofitserlar tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchi va harbiy xizmatni kontrakt bo‘yicha o‘tayotgan harbiy xizmatchini sud hukmida ko‘rsatilgan muddat davomida muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilib, pul ta’minotining muayyan foizi bo‘lgan miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolishdan iboratdir.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 23-банд, 1-хатбоши.

Mazkur qonunga muvofiq, **harbiy xizmatchilar** – bu haqiqiy harbiy xizmatda bo‘lgan shaxslardir.

O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda gi «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida» gi Qonuni 4-moddasiga muvofiq:

«Harbiy xizmatning quyidagi turlari belgilanadi:

- muddatli harbiy xizmat;
- safarbarlik chaqiruv rezervida harbiy xizmat o‘tash;
- kontrakt bo‘yicha harbiy xizmat o‘tash;
- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatni o‘tagan rezervistlarning xizmati.

Tinch davrda oddiy askar va serjantlik tarkibining lavozimlarida muddatli harbiy xizmat o‘tashga, shuningdek, safarbarlik chaqiruv rezervida harbiy xizmat o‘tashga erkak jinsidagi o‘n sakkiz yoshdan yigirma yetti yoshgacha bo‘lgan, sog‘liq darajasiga ko‘ra Qurolli Kuchlarda xizmat o‘tashga yaroqli bo‘lgan fuqarolar chaqiriladi»¹. Harbiy xizmat boshlanishi deb fuqaroning harbiy qism shaxsiy tarkibining ro‘yxatlariga kiritilgan kuni, harbiy xizmatning tugashi deb harbiy xizmat muddatining tugagan kuni tan olinadi.

Qurolli Kuchlarning oddiy askar va boshliq tarkibiga kiruvchi shaxslaridan tashqari, quyidagi shaxslar harbiy xizmatchi hisoblanadi:

- Favqulodda Vaziyatlar Vazirligining Markaziy apparatida va unga bo‘ysunuvchi tashkilotlarda² xizmat o‘tayotgan shaxslar;
- O‘zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligining Maxsus-avariya tiklash boshqarmasida³ xizmat o‘tayotgan shaxslar;
- O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining harbiy muhandislik-qurilish bo‘linmalarida⁴ xizmat o‘tayotgan shaxslar.

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги «Умумий харбий мажбурият ва харбий хизмат тўғрисида»ги 436-II-сон Қонуни, 4-модда // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002 й., 12-сон, 217-модда.

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1996 йил 11 апрелдаги 143-сонли қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги тўғрисидаги низом, 7-банд, 1-хатбоши // Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари тўплами, 1996 й., июнь.

³ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 1 июлдаги «Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлигининг махсус авария-тиклаш бошқармаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида»ги 274-сонли қарори, 5-банд // Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари тўплами, 1998 й., сентябрь.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1997 йил 3 ноябрдаги 498-сон қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлигининг харбий мухандислик-қурилиш тузилмалари тўғрисидаги низом, 52-банд, 2-хатбоши // Вазирлар Маҳкамаси расмий маълумоти.

Xizmat bo'yicha cheklash tarkibi **JK 47**-moddasining 3-qismida, shuningdek, JIKda ochib berilgan muayyan huquqlar va imtiyozlardan mahrum etishda ifodalanadi. Xususan, ushbu jazo turi qo'llanilgan holda sudlangan shaxs lavozimida, harbiy yoki maxsus unvonida ko'tarilishi mumkin emas.

JK 47-moddasining 3-qismi ma'nosidagi lavozim deganda, faqat harbiy lavozimlar, ya'ni harbiy xizmatchilar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan shtat lavozimlari tushuniladi (masalan, ombor mudiri, moddiy-texnik ta'minot boshlig'i, harbiy tayyorgarlik bo'yicha rahbar lavozimlari va hokazolar).

Harbiy unvon – bu O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining har bir harbiy xizmatchisiga va zaxiradagi harbiy xizmatga majbur shaxsga uning xizmat mavqei, ish tajribasi, harbiy va umumiy ma'lumoti, Qurolli Kuchlarning turi, qo'shinlar yoki xizmat turiga mansubligi va shaxsiy ko'rsatgan xizmatlariga muvofiq holda shaxsan beriladigan unvondir. O'zbekiston Respublikasida harbiy unvonlar qo'shin unvonlari va kema unvonlariga bo'linadi¹.

Maxsus unvon – bu O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat Xavfsizlik Xizmatining harbiy-o'quv yurtlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Davlat Bojxona qo'mitasi va Davlat Soliq qo'mitasining o'rta maxsus, kasbiy ta'limning harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarining kursantlari (tinglovchilari) sifatida xizmat o'tashda; zobitlik lavozimlarida harbiy xizmat o'tashda beriladigan unvondir. Bundan tashqari, maxsus unvonlar O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligida, O'zbekiston Aloqa va axborotlashtirish agentligining Maxsus avariya-tiklash boshqarmasida, shuningdek, Mudofaa vazirligining harbiy muhandislik-qurilish bo'linmalarida xizmat o'tayotgan shaxslarga beriladi.

Xizmat bo'yicha cheklash sudlangan shaxsning faqat lavozimi yoki unvonida ko'tarilmasligini talab etadi, lekin ularning pasaytirilishini anglatmaydi. Ayni paytda, harbiy qism ichida boshqa shunga teng bo'lgan

¹ Харбий унвонлар тўғрисида батафсил қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги «Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида»ги 436-П-сон Қонуни, 9-модда // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002 й., 12-сон, 217-модда.

lavozimga yoki boshqa harbiy qismga o'tkazilishiga yo'l qo'yiladi, lekin bu oxirgi holatda sud bu haqda xabardor etilishi lozim.

Xizmat bo'yicha cheklash shaklidagi jazoni o'tash muddati sudlangan shaxsga navbatdagi harbiy yoki maxsus unvonni berish yuzasidan, shuningdek, nafaqaning tayinlanishi yuzasidan xizmat o'tash muddatiga kiritilmaydi.

Shuni qayd etish lozimki, qonunda ko'rsatilgan sudlangan shaxsning huquqlari va imtiyozlaridan mahrum etish turlari tugallangan bo'lib, kengaytirib talqin etilishi mumkin emas. Shu sababdan jazo o'tash muddati umumiy xizmat o'tash muddatini to'xtatmaydi. Shuningdek, xizmat bo'yicha cheklash asosiy va qo'shimcha ta'til berilishiga to'sqinlik qilmaydi, ularning muddatlari xizmat o'tash va jazo o'tash muddatiga kiritiladi, shuningdek, harbiy xizmatchiga moddiy yordam berilishi hamda harbiy xizmatchiga va uning oila a'zolariga sanatoriya-kurortda davolanishi uchun va asosiy ta'tilni o'tkazish joyiga safar xarajatlari yuzasidan moddiy yordam va kompensatsiya berilishiga to'sqinlik qilmaydi.

Xizmat bo'yicha cheklashda huquqlar va imtiyozlardan mahrum qilishda sudlangan shaxsning pul ta'minotidan davlat daromadiga ushlab qolish markaziy o'rin tutadi. Sud hukmi bilan belgilangan ushlab qolish miqdori sudlangan shaxsning lavozimi va unvoniga ko'ra pul ta'minotidan hisoblanadi (JIK 143-moddasi). Bunda pul ta'minotidan ushlab qolish boshqa to'lovlardan, shu jumladan aliment sifatida, fuqarolik da'vosini qoplash hisobiga va boshqa majburiyatlar hisobiga undiriladigan to'lovlardan qat'i nazar amalga oshiriladi.

Jazoning ushbu turini tayinlashda sudlar pul ta'minotidan ushlab qolish miqdoriga alohida e'tibor berishlari lozim, bunda ular uning jazoni individuallashtirishning samarali vositasi ekanligini nazarda tutishi lozim. JK 47-moddasi 1-qismiga muvofiq, pul ta'minotidan ushlab qolishning miqdori sudlangan shaxsning pul ta'minotining foizi nisbatida, o'n foizdan o'ttiz foizgacha bo'lgan miqdorida belgilanadi.

Xizmat bo'yicha cheklash tarzidagi jazoni tayinlashda pul ta'minotidan ushlab qolishning muayyan miqdorini belgilashda sudlar axloq tuzatish

ishlari shaklidagi jazoni tayinlash paytida ish haqidan ushlab qolish miqdorini tayinlashga oid bo'lgan qoidalariga tayanishi lozim. Jumladan, sudlar shaxsning moddiy holatini, unda boshqa daromadlar manbalari mavjudligini, sodir etilgan qilmishni va aybdor shaxsiga oid boshqa holatlarni inobatga olishi lozim. Pul ta'minotidan ushlab qolishning muayyan foizini shunday belgilash lozimki, u jazodan qochish vositasiga ham, mahkum shaxsni xonavayron etish vositasiga ham aylanmasligi kerak.

Xizmat bo'yicha cheklash tarzidagi jazoni tayinlashning majburiy shartlaridan biri uning muddati bo'lib, u JK 47-moddasi 2-qismida ikki oydan uch yilgacha muddatga belgilangan. Sud hukmida xizmat bo'yicha cheklashning muddati to'g'risida ko'rsatmaning yo'qligi jinoyat qonunchiligining hukmi bekor qilishga olib keluvchi buzilishi bo'ladi. Harbiy xizmat bo'yicha cheklashning muddati – ikki oydan uch yilgacha – umumiy tartibda, oylar va yillar soniga qarab hisoblanadi. Bunda shuni nazarda tutish lozimki, xizmat bo'yicha cheklash tarzidagi jazoni o'tash muddati sud hukmini ijro etish amalga oshiriladigan harbiy qismning boshlig'i tomonidan sud hukmini ijro etish to'g'risidagi buyruq chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi. Shu bilan birga, jazoni o'tash muddatiga sudlangan harbiy xizmatchining boshqa jinoyatni sodir etishi munosabati bilan qamoqda saqlanishi muddati kiritilmaydi (JK 142-moddasi).

Xizmat bo'yicha cheklash faqat asosiy jazo turi sifatida yuzaga chiqadi, ya'ni u faqat mazkur davlat majburlov chorasi JK Maxsus qismi tegishli moddasining sanksiyasida bevosita nazarda tutilgan hollarda qo'llanishi mumkin (masalan, bo'ysunuvchi shaxs tomonidan boshlig'ining yoki boshlig'i tomonidan bo'ysunuvchi shaxsning haqorat qilinishi, JK 284-moddasiga muvofiq, ikki yilgacha muddatga xizmat bo'yicha cheklash). Ayni paytda, JK 47-moddasi 2-qismi qoidalariga muvofiq, sud shaxs ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni sodir etishda yoki ehtiyotsizlik orqasidan og'ir oqibatlarga olib kelmagan jinoyatni sodir etishda aybdor deb tan olingan holatlarda, ish holatlarini va mahkumning shaxsini hisobga olib, uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etish yoki axloq tuzatish ishlari o'rniga xuddi shunday muddatga xizmat bo'yicha cheklashni qo'llashi mumkin. Bunday holatda sud hukmining ta'riflovchi

qismida sud jazoning ushbu turini tayinlash asoslarini motivlashi hamda sud hukmining yakuniy qismida JK 47-moddasiga havola etishi lozim. Bunda sud tegishli moddaning sanksiyasida xizmat bo'yicha cheklash tarzidagi jazo ko'rsatilmaganligi holati bilan bog'langan bo'lib qolmaydi.

Xizmat bo'yicha cheklash faqat harbiy xizmatchilarga tayinlanishini unutmazlik kerak, shuning uchun sudlangan shaxs harbiy xizmatdan ketgan holatida sud xizmat bo'yicha cheklashning o'talmagan qismini boshqa davlat majburlov chorasi bilan almashtirish yoki shaxsni jazodan ozod qilish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi lozim bo'ladi (JIK 147-moddasi).

7-§. Ozodlikni cheklash

Ozodlikni cheklash jazosi jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlariga yangi kiritilgan jazo choralardan biri hisoblanadi.

Jinoyat kodeksiga mazkur jazo turi o'z tabiatiga ko'ra ozodlikdan mahrum qilish jazosiga muqobil jazo sifatida kiritilgan. U mahkumni jamiyatdan ajratmagan holda tarbiyalash vazifasini bajaradi. Sababi, ozodlikni cheklash sud tomonidan mahkumga nisbatan yashash joyini u yoki bu sabab bilan tark etishni butunlay taqiqlashdan yoki sutkaning muayyan vaqtida yashash joyidan chiqishni cheklashdan iborat.

NOTA BENE !

Ozodlikni cheklash sud tomonidan mahkumga nisbatan yashash joyini u yoki bu sabab bilan tark etishni butunlay taqiqlashdan yoki sutkaning muayyan vaqtida yashash joyidan chiqishni cheklashdan iborat.

Mazkur jazo turining quyi muddatlari ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan bir xil. Xususan, ushbu jazo turi olti oydan besh yilgacha muddatga tayinlanadi hamda sud tomonidan belgilanadigan organlar nazorati ostida o'taladi. Ozodlikni cheklash, uni mahkumning yashash joyida o'tash shartlari sodir etilgan qilmishning xususiyati va sud chiqargan qarorni ijro etishdan bo'yin tovlashning oldini olish hisobga olingan holda sud tomonidan belgilanadi.

Mazkur jazo tayinlanganida sud sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligi, mahkumning individual xususiyatlari, shuningdek ishga aloqador boshqa holatlarni hisobga olib, qo'llanilayotgan taqiqning (cheklashning) xususiyatlarini hisobga olgan holda, mahkumning zimmasiga quyidagi qo'shimcha taqiqlarni (cheklashlarni) yuklashi mumkin: muayyan joylarga bormaslik; ommaviy va boshqa tadbirlar o'tkazishda ishtirok etmaslik; muayyan faoliyat bilan shug'ullanmaslik; muayyan buyumlarga ega bo'lmaslik yoki ularni o'zida saqlamaslik; transport vositasini boshqarmaslik; mahkumlarni nazorat qiluvchi organning rozilgisiz yashash joyini, ish va (yoki) o'qish joyini o'zgartirmaslik, tegishli ma'muriy hududdan tashqariga chiqmaslik; muayyan shaxslar bilan aloqa o'rnatmaslik; aloqa vositalaridan, shu jumladan, internetdan foydalanmaslik; alkogolli ichimliklar iste'mol qilmaslik.

Bularning hammasi jazoning maqsadlariga samarali erishish uchun qo'llaniladigan choralar hisoblanadi.

Bulardan tashqari, ushbu jazo turi nafaqat shaxsning ozodligini cheklash yoki muayyan harakatlarni amalga oshirishni taqiqlashdan iborat emas. Ushbu holatlar bilan bir qatorda, sud ozodlikni cheklashga hukm qilingan shaxsning zimmasiga o'zi yetkazgan moddiy va ma'naviy zararining o'rnini qoplash, ishga yoki o'qishga joylashish majburiyatlarini, shuningdek uning tuzalishiga ko'maklashuvchi boshqa majburiyatlarni yuklashi mumkin.

Agar ozodlikni cheklashga hukm qilingan shaxs jazoni o'tash davrida o'zining jinoiy qilmishlarini anglab yetgan, tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan, yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararining o'rnini qoplagan bo'lsa, sud mahkumga nisbatan ilgari tayinlangan taqiqlarni (cheklashlarni) to'liq yoki qisman bekor qilishi mumkin.

Mahkum ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o'tashdan qasddan bo'yin tovlagan, shuningdek sud tomonidan o'z zimmasiga yuklangan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda, sud ozodlikni cheklash jazosining o'talmay qolgan muddatini boshqa turdagi jazo bilan almashtirishi mumkin. Jazoni o'tashdan bo'yin tovlash vaqti o'talgan jazo muddatiga

qo‘shib hisoblanmaydi. Rejimni ashaddiy buzuvchi yengillashtirilgan saqlash sharoitiga, manzil-koloniya o‘tkazilmaydi, shuningdek jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish hamda jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishga taqdim etilmaydi¹.

NOTA BENE !

Qasddan bo‘yin tovlash deganda o‘zboshimchalik bilan, ya’ni, uzrli sabablarsiz yashash joyini tark etish, yashash joyidan chiqish vaqtini buzish, shuningdek boshqa qo‘shimcha ta’qiqlarni kamida ikki marotaba buzish tushunilishi lozim.²

Ozodlikni cheklash jazosi qonunda belgilangan jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetgan shaxsga nisbatan tayinlanishi mumkin.

Mazkur jazo turining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib u harbiy xizmatchilar, chet el fuqarolari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarga nisbatan tayinlanmasligi belgilangan. Qonunda subyektga nisbatan boshqa cheklovlar nazarda tutilmagan.

Jinoyat sodir etgan shaxsning ilgari sudlanganligi ozodlikni cheklash jazosini qo‘llashga to‘sqinlik qilmaydi.

Ozodlikni cheklash muddati mahkum jazolarni ijro etish inspeksiyalarida hisobga qo‘yilgan kundan boshlab hisoblanadi. Mahkum uzrli sabablarsiz o‘zboshimchalik bilan yashash joyida bo‘lmagan vaqti ozodlikni cheklash muddatiga qo‘shib hisoblanmaydi.

Mahkum ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoni o‘tashdan qasddan bo‘yin tovlagan, shuningdek sud tomonidan o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda, jazolarni ijro etish inspeksiyasi sudga mahkum uchun ozodlikni cheklashning o‘talmagan muddatini jazoning boshqa turiga almashtirish haqida taqdimnoma kiritadi³.

¹ Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-ижроия кодекси, 1997. 112-модда 1-қисм.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Жиноят-ижроия кодекси, 1997 й., 1-қисм, 112-модда.

³ Ўша жойда. 442–444-моддалар.

8-§. Intizomiy qismga jo‘natish

Intizomiy qismga jo‘natish jinoiy jazoning maxsus turi bo‘ladi, chunki u faqat **JK 49-moddasi 1-qismida** ko‘rsatilgan subyektlarning muayyan doirasiga, ya’ni muddatli harbiy xizmatning **harbiy xizmatchilariga** qo‘llanadi. Ushbu jazoning boshqa shaxslarga qo‘llanilishi mumkin emas.

NOTA BENE !

Intizomiy qismga jo‘natish – muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchilarini sud tomonidan belgilangan muddat mobaynida ichki tartibi ancha qattiq bo‘lgan maxsus harbiy qismga joylashtirish orqali muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum etishdir (JK 49-moddasi 1-qismi).

Muddatli harbiy xizmat – Qurolli Kuchlarda chaqiruv yoshidagi fuqarolarning oddiy askarlik va serjantlik tarkibi lavozimlarida xizmat o‘tashi, shuningdek, avval harbiy xizmat o‘tamagan ofitserlarning qonunchilik bilan belgilangan muddat davomida majburiy xizmat o‘tashidir¹.

Muddatli harbiy xizmatchilar deb, harbiy xizmatning boshqa turlarini o‘tayotgan shaxslar (kontrakt bo‘yicha, Favqulodda vaziyatlar vazirligida xizmat o‘tayotganlar, ofitserlik tarkibining shaxslari va boshqalar) tan olinishi mumkin emas. Jinoyat sodir etishda aybdor deb tan olingan shaxs muddatli harbiy xizmatchilarga kirish-kirmasligini aniqlashda sudlar ushbu xizmatning boshlanishi va tugashi muddatlariga e‘tibor berishi kerak, muddatli harbiy xizmatni o‘tamayotgan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilishi ushbu jazoni qo‘llash uchun to‘sqinlik qilishini nazarda tutishi kerak. Muddatli harbiy xizmat o‘tash muddatlari qonunchilik bilan belgilanadi hamda harbiy qismga jo‘natish uchun mudofaa ishlari bo‘limiga kelgan kundan to xizmatdan bo‘shatish munosabati bilan harbiy xizmatchining harbiy qism shaxsiy tarkibi ro‘yxatidan chiqarilishi to‘g‘risidagi harbiy qism boshlig‘ining buyrug‘i chiqqan kunigacha hisoblanadi².

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги «Умумий харбий мажбурият ва харбий хизмат тўғрисида»ги 436–II-сон Қонуни, 5-модда 1-қисми // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002 й., 12-сон, 217-модда.

² Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 12 декабрдаги «Умумий харбий мажбурият ва харбий хизмат тўғрисида»ги 436–II-сон Қонуни, 5-модда // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002 й., 12-сон, 217-модда.

Intizomiy qismga joʻnatish jazoning asosiy turi hisoblanadi. Uning ijro etilishi buning uchun maxsus moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining intizomiy qismlariga yuklatilgan va u nafaqat harbiy jinoyatlar sodir etilganda, balki harbiy xizmatchilar sodir etgan boshqa huquqqa xilof qilmishlar sodir etilganda ham qoʻllanishi mumkin. Davlat majburlov chorasining mazkur turini tayinlash aybdor shaxs ozodlikdan mahrum qilish tatbiq etilmagan holda alohida harbiy qism sharoitida tuzatilishi mumkin boʻlgan hollarda amalga oshirilishi lozim.

Sudlangan shaxsni **qatʼiy ichki tartibli maxsus harbiy boʻlinmaga joylashtirish** faqat qaralayotgan jazo turining qoʻllash vositasi boʻladi, uning mohiyati esa muayyan huquqlar va imtiyozlardan mahrum etish boʻladi. Ushbu mahrum etish turi JIKda ochib beriladi. Shu jumladan, intizomiy harbiy qismda jazo oʻtash davrida barcha sudlangan shaxslar harbiy unvoni va avvalgi xizmatlari xususiyatidan qatʼi nazar oddiy askar (matros) mavqeida boʻladilar hamda belgilangan koʻrinishdagi kiyimda yuradilar va tafovut belgilarini taqadilar. Sudlangan shaxslar belgilangan muddatlarda qisqa muddatli va uzoq muddatli uchrashuvlar, posilka va banderollarni olish huquqiga ega boʻladi. Sudlangan shaxslar nomiga kelib tushgan pullar ularning shaxsiy hisob raqamiga kiritiladi, sudlangan shaxslar istalgan miqdorda xatlar va telegrammalarni olishi va yuborishi mumkin. Favqulodda holatlar munosabati bilan (yaqinlarining vafoti, tabiiy ofat) sudlangan shaxsga davomiyligi 7 sutkagacha boʻlgan harbiy qismdan tashqariga qisqa muddatli chiqishga ruxsat etiladi. Muddatli harbiy xizmatchilar uchun nazarda tutilgan taʼtillar sudlangan shaxslarga berilmaydi.

Intizomiy qismda mahkumlarning jazoni oʻtash vaqti harbiy xizmat muddatiga qoʻshilmaydi (JIK 160-moddasi 1-qismi). Shuning uchun jazoni oʻtaganidan keyin ular oʻz harbiy qismlariga chaqiruv boʻyicha xizmatning qolgan qismini oʻtash uchun qaytadi. Shuningdek, ushbu sababga koʻra intizomiy qismga joʻnatish xizmat muddati tugaganda boshqa jazo turiga almashtirilishi mumkin emas, chunki shu davr mobaynida ushbu muddat toʻxtatib turiladi. Lekin mazkur jazoni oʻtash davrida sudlangan shaxs harbiy xizmatga yaroqsiz deb tan olingan holda mazkur davlat majburlov

chorasini unga nisbatan amalga oshirish to'xtatilishi lozim. Bu holda sud jazoning o'talmagan qismini boshqa jazo bilan almashtirish yoki jazodan ozod qilish masalasini ko'rib chiqishi lozim.

Intizomiy harbiy qismga jo'natishning majburiy sharti uning muddati bo'lib, shunday muddat JK 49-moddasining 2-qismi bilan **uch oydan bir yilgacha** muddat doirasida belgilanadi. Intizomiy qismga jo'natish muddatini belgilaganda sudlar uning jazoni individuallashtirishning muhim vositasi ekanligini nazarda tutishi lozim. Bunda sud hukmida mazkur jazoning qo'llanishi kerak bo'lgan muddati to'g'risida ko'rsatmaning yo'qligi jinoyat qonunchiligining hukmni bekor qilishga olib keluvchi jiddiy buzilishi ekanligini inobatga olishi lozim.

JK 49-moddasi 2-qismida intizomiy qismga jo'natish ozodlikdan mahrum etish o'rniga tayinlanishi mumkin bo'lgan shartlar belgilab beriladi: «Sud ish holatlari va mahkumning shaxsini hisobga olgan holda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga shu muddatga intizomiy qismga jo'natish jazosini qo'llashi mumkin».

Ish holatlari tushunchasi bilan mazkur moddaning ma'nosida sodir etilgan jinoyatning og'irligi, oqibatlarining mavjudligi, ularning turi, shuningdek, ish uchun jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlar qamrab olinadi. Sud javobgarlikni og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarning mavjudligiga alohida e'tiborini qaratishi lozim.

Sudlangan shaxsni tavsiflovchi holatlarga quyidagilar kiritilishi mumkin: davlat mukofotlari, faxriy unvonlari borligi, salomatligi to'g'risidagi ma'lumotlar, muddati o'tib ketmagan yoki olib tashlanmagan sudlanganligi, jazoni ozodlikdan mahrum etish joylarida o'taganligi to'g'risida va boshqa ma'lumotlar kiritilishi mumkin¹. Ozodlikdan mahrum etish intizomiy qismga jo'natishga almashtirilganda hukmning tavsiflash qismida sud jazoning ushbu turini tayinlash asoslarini ko'rsatishi hamda sud hukmining yakuniy qismida JK 49-moddasi 2-qismiga havola etishi lozim.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1997 йил 22 августдаги «Судлар томонидан жиноят ишларини биринчи босқич судида муҳокама этиш жараёнида процессуал қонунчиликка риоя қилиниши тўғрисида»ги 12-сонли қарори, 2-банд // Тўплам, 1-жилд. 105-б.

Ozodlikdan mahrum etish o'rniga intizomiy qismga jo'natish tayinlangan holda intizomiy qismga jo'natish muddati ozodlikdan mahrum etishning bir kuni intizomiy qismda bo'lishning bir kuni hisobidan belgilanadi. Bunda sud shunday vaziyatda ushbu jazoning umumiy yuqori chegarasi bilan bog'langan bo'lib qolmaydi va uni uch oydan to uch yilgacha bo'lgan chegarada qo'llashi mumkin.

Ozodlikdan mahrum etish o'rniga intizomiy qismga jo'natish tarzidagi jazoning qo'llanishi faqat sudlangan shaxsga uch yilgacha ozodlikdan mahrum etish tayinlanishi mumkin bo'lgan hollarda mumkin bo'ladi. JK Maxsus qismi tegishli moddasining sanksiyasida ko'rsatilgan ozodlikdan mahrum etish chegaralari ahamiyatga ega bo'lmaydi. Bundan tashqari, ozodlikdan mahrum etish o'rniga intizomiy qismga jo'natish tarzidagi jazoni tayinlash tegishli moddaning sanksiyasida mazkur majburlov chorasi nazarda tutilgan-tutilmaganligiga bog'liq bo'lmaydi.

Shuningdek, ozodlikdan mahrum etishni intizomiy qismga jo'natish bilan almashtirish ozodlikdan mahrum etish bir necha jinoyatlarni sodir etish uchun jazo tarzida tayinlanganda amalga oshirilishi mumkinligini qayd etib o'tish lozim. Bu holda sudlar faqat tayinlangan jazoning umumiy miqdori uch yildan oshmasligiga ahamiyat berishi lozim.

9-§. Ozodlikdan mahrum etish

Ozodlikdan mahrum etish sudlangan shaxslarga nisbatan qo'llanadigan eng og'ir va ommaviy jazo turidir. JKda u bir necha turi bilan ifodalangan: umrbod ozodlikdan mahrum etish va muayyan muddatga ozodlikdan mahrum etish, uning ichida jazoni uzoq muddat davomida o'tash bilan bog'liq bo'lmagan ozodlikdan mahrum etish va uzoq muddatli ozodlikdan mahrum etish. O'z mohiyatiga ko'ra bu turlarning barchasi sudlangan shaxsni jamiyatdan maxsus muassasalarga joylashtirib ajratish, uning huquqiy holatini cheklashdan iborat.

Sudlangan shaxslarning huquqiy holatini cheklash ozodlikdan mahrum etishda majmuiy tarzda bo'lib, jismoniy va ruhiy ajratish elementlarini, shuningdek, belgilangan ajratishga rioya qilish maqsadida sudlangan shaxsga nisbatan amalga oshiriladigan boshqa huquqlar va

erkinliklar cheklanishini qamrab oladi. Xususan, ushbu mahrum etish mehnat faoliyatini tanlashni qisqartirish, dam olish va mehnat qilish vaqtini belgilab berish, harakatlanish erkinligini cheklash, uchrashuvlar, posilkalar, jo‘natmalar olish imkoniyatini cheklashda ifodalanadi. Bundan tashqari, ozodlikdan mahrum etishga hukm etilganlarga boshqa tuzatish va profilaktik ta‘sir ko‘rsatish choralari ham qo‘llanadi.

Ozodlikdan mahrum etishning mazkur turlari o‘rtasidagi farqlar ularning muddatlari, jazoni o‘tash rejimi, shuningdek, sudlangan shaxsga ma‘naviy ta‘sir etish darajasidan iborat bo‘ladi.

Sud amaliyotida keng tarqalgan jazo turi **JK 50-moddasida** nazarda tutilgan muayyan muddatga ozodlikdan mahrum qilishdir (Ozodlikdan mahrum qilish).

NOTA BENE !

Ozodlikdan mahrum qilish sud tomonidan belgilangan muddatga mahkumni jazoni ijro etish koloniyasi yoki turmaga joylashtirish orqali jamiyatdan ajratishdan iborat.

JK 50-moddasi 1-qismiga muvofiq, ozodlikdan mahrum qilish, avvalambor, **mahkumni jamiyatdan ajratishdir**. Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etgan shaxslarga ta‘sir qilishning katta imkoniyatlariga ega bo‘lib, uni to‘g‘ri qo‘llash qanchalik ijobiy natija bersa, noto‘g‘ri qo‘llanganda shunchalik salbiy natija beradi. Bularning barchasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ayniqsa, sudlarga, ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo‘llashda katta mas‘uliyat yuklaydi.

«Ozodlikdan mahrum qilish jazo tariqasida, odatda, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etgan shaxslarga, alohida hollarda esa, sudlanuvchining shaxsini inobatga olgan holda, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarni sodir qilgan shaxslarga nisbatan, agar bunday shaxslarni jamiyatdan ajratmagan holda axloqan tuzatishning imkoni bo‘lmasa, qo‘llaniladi. Ushbu jazo turini qo‘llash sabablari hukmda asoslantirilishi shart»¹.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 26-банд // Тўплам, 2-жилд. 232–233-б.

Ozodlikdan mahrum etish u tegishli moddaning sanksiyasida nazarda tutilmagan holda tayinlanishi mumkin emas. Ayni paytda ozodlikdan mahrum etish jazosi axloq tuzatish ishlarining ijro etilishidan bo'yin tovlagan holda ularni almashtirish tartibida qo'llanishi mumkin.

Mahkumning maqomi cheklanadigan **muddat** ozodlikdan mahrum etishning markaziy elementlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ozodlikdan mahrum etish muddati oylar va yillar bilan hisoblanadi. JK 50-moddasi 2-qismi asosida ozodlikdan mahrum etish (uzoq muddatli jazoni o'tash bilan bog'liq bo'lmagan) **bir oydan yigirma yilgacha** muddatga belgilanadi. **JK 50-moddasi 3-qismida** nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum etishning uzoq muddati «ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoning bir turi bo'lib», **yigirma yildan ortiq, lekin yigirma besh yildan ko'p bo'lmagan** muddatga tayinlanishi mumkin¹. Shunday qilib, muayyan muddatga ozodlikdan mahrum etishning eng kam va eng ko'p muddatlari tegishincha bir oy va yigirma besh yilni tashkil etadi. Bunda ozodlikdan mahrum etishni qo'llashning eng kam muddati sud tomonidan hech qanday vaziyatda buzilishi mumkin emas (jumladan, JK 57-moddasi qoidalariga muvofiq, jazoning eng kamidan ham kamroq jazo tayinlashda), JK 44-moddasi 4-qismida aytib o'tilgan vaziyat, mahkum axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoni o'tashdan bo'yin tovlaganda sud axloq tuzatish ishlarining o'talmagan muddatini xuddi shunday muddatdagi ozodlikdan mahrum etish bilan almashtirishga majbur bo'lgan vaziyat bundan mustasno. Ozodlikdan mahrum etishning ko'rsatilgan eng ko'p chegarasi yuzasidan (25 yil), birinchidan, JK 50-moddasi 3-qismi asosida ushbu muddat uzoq muddatli bo'lib, alohida bir jinoyatni sodir etish uchun jazoni tayinlashda faqat og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi) va terrorizmning og'irlashtiruvchi tarkibi (JK 155-moddasi 3-qismi) uchun tayinlanishi mumkinligini; ikkinchidan, JK 50-moddasi 5-qismiga muvofiq, yigirma besh yilgacha ozodlikdan mahrum etish JK 60-moddasida nazarda tutilgan bir necha hukmlar yuzasidan jazo tayinlash qoidalari bo'yicha jazolarni qo'shib hisoblagan holda tayinlanishi mumkinligini; va, uchinchidan, mazkur

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 14 ноябрдаги «Умрбод озодликдан маҳрум қилиш тарикасидаги жазони қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида»ги 15-сонли қарори, 2-банд, 1-хатбоши.

jazoning eng ko‘p chegarasi JK 76-moddasi 3-qismi asosida umrbod ozodlikdan mahrum etishning afv etish tariqasida ozodlikdan mahrum etish bilan almashtirilgan holda yigirma besh yilga yetishi mumkinligini sudlar nazarda tutishlari lozim. Qolgan barcha hollarda ozodlikdan mahrum etishning eng ko‘p chegarasi yigirma yildan oshmasligi lozim.

Ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni tayinlaganda sudlar mazkur davlat majburlov chorasi mahkumga nisbatan qo‘llanishi lozim bo‘lgan muddatni aniq belgilashi lozim. Bunda sud tomonidan muddatni tayinlash aybdor sodir etgan jinoyat uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi JK Maxsus qismining tegishli modda sanksiyasi doirasida amalga oshirilishi lozim.

Sud hukmida mahkum ozodlikdan mahrum etilayotgan muddatning ko‘rsatilmaganligi jinoyat qonunining jiddiy buzilishi bo‘lib, hukmni bekor qilishga olib keluvchi asos ekanligini inobatga olish lozim. Ayni paytda bir necha jinoyatni sodir etganlik uchun jazo tayinlashda (JK 59-moddasi) sud har bir modda bo‘yicha tayinlanadigan jazoni alohida ko‘rsatishi va tayinlangan jazolarni qo‘shish orqali jamlangan jazoning umumiy muddatini ko‘rsatishi lozim.

Ozodlikdan mahrum etishning muddati jazoni individuallashtirishning va shu bilan ushbu chora samarali bo‘lishining muhim vositasi hisoblanadi. Shu munosabatda ozodlikdan mahrum etishning qisqa muddatlarini tayinlash (olti oydan bir yilgacha) yetarli darajada samara bermaydi, chunki ushbu choraning sudlangan shaxsga ta’siri o‘ta cheklangan bo‘ladi. Shu sababli sudlar qisqa muddatli jamiyatdan ajratishni qo‘llash masalasiga puxta yondashib, uni sud hukmida albatta asoslab berishi lozim¹. Bunday hollarda ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni, masalan, jarima, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari kabi choralarni qo‘llash lozim, chunki ular sudlangan shaxsga ijobiy ta’sir etishning ko‘proq darajasiga ega bo‘lishini nazarda tutish lozim.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарорининг 29-бандига мувофиқ, судлар қисқа муддатга (бир йилгача) озодликдан маҳрум қилиш жазосини қўллашда ишнинг барча ҳолатларидан, айбдорнинг шахсидан келиб чиқишлари ва озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазо қўлланилиши имконияти йўқлиги сабабларини ҳукмда асослантиришлари лозим // Тўплам, 2-жилд. 233-б.

Ozodlikdan mahrum etishning qisqa muddatlarini ayollar, nogironlar va qariyalarga nisbatan qo‘llash ko‘proq maqsadga muvofiq bo‘ladi, albatta, mahkumlarning ushbu toifasini jamiyatdan ajratmagan holda tuzatishning imkoni bo‘lmasa.

Ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni qo‘llash quyidagi holatlarda kerakli **ijobiy ta’sirga** ega bo‘ladi:

– og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan ushbu chora tanlanganda. Bunda ozodlikdan mahrum etish tarzida jazoni tayinlash masalasi sud hukmida barcha og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda har tomonlama asoslantirilgan bo‘lishi kerak. Sud hukmida, agar jinoyat qonuni sanksiyasi boshqa jazo choralarini nazarda tutgan hollarda, shuningdek, albatta ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazo qaysi holatlar asosida tayinlanishi ham asoslantirilishi lozim. Bunda sudlar ayollarga jazo tayinlashda alohida e’tibor berishi lozim;

– mazkur chora jinoiy guruh tashkilotchilari va faol ishtirokchilariga, respublikada vaziyatni beqarorlashtirishda aybdor deb topilgan ekstremistlarga, retsdivistlarga qo‘llangan holda. Shu bilan birga, adashgan holda ekstremistik guruhlariga ilk bor tushib qolgan, shuni anglab yetgan va chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan shaxslarga jazoni tayinlashda sudlar yengilroq jazolarni, shu jumladan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum etishni tayinlashlari lozim;

– iqtisodiyot sohasidagi ayrim jinoyatlarni sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxslarga, ya’ni «tovlamachilar, o‘zga mulkni talon-toroj qilganlar, soliqlarni muttasil to‘lamagan shaxslarga, o‘z harakatlari bilan davlat, jamiyat manfaatlariga yoki fuqarolarning huquqlari va manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazgan mansabdor shaxslarga, jinoiy guruhlarning tashkilotchilari va faol ishtirokchilariga»¹ ozodlikdan mahrum etish jazosini tayinlash. Ayni paytda iqtisodiyot sohasida jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga ozodlikdan mahrum etish tarzida jazoni favqulodda holatlarda tayinlash lozimligini inobatga olish kerak, bu sud hukmida

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иқтисодиёт соҳасидаги жиноий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида»ги 11-сонли қарорининг 29-бандига кўра, судлар, жазо тайинлашга индивидуал ёндашиш тамойилларига риоя қилган ҳолда мазкур шахсларга нисбатан қаттиқ жазоларнинг қўлланилишини таъминлашга мажбурдирлар // Тўплам, 1-жилд. 124-б.

asoslantirilishi lozim. Bu shaxslarga jarima, muayyan huquqlardan mahrum etish shaklida jazolarni qo‘llash samaraliroq bo‘lishi mumkin;

– shu turdagi jazoning giyohvand moddalari yoki psixotrop moddalarni sotuvchilar, bu bilan muntazam va yirik miqdorda shug‘ullanuvchi sotuvchilariga, giyohvandlik moddalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlarning tashkilotchilari va faol ishtirokchilari, O‘zbekiston Respublikasiga giyohvand moddalarini olib kirish yoki uning hududi orqali tranzit qilinishini ta‘minlaydigan shaxslarga yoki ularni boshqa usullar bilan tarqatuvchi shaxslarga, shunga o‘xshash jinoyatlar uchun muqaddam sudlangan, bu jinoyatlarga voyaga yetmaganlarni jalb etuvchi shaxslarga nisbatan qo‘llanishi¹ va hokazolar;

– shu turdagi jazoning «O‘zbekiston Respublikasi hududiga qurolning noqonuniy olib kirilishida aybdor bo‘lgan, jangovar qurol-yarog‘larni yoki qurolni sotish maqsadida sotib oladigan yoki tayyorlaydigan, shuningdek, ularni sotadigan, ularni saqlash joylaridan, hokimiyat vakillaridan, harbiy xizmatchilardan o‘g‘iraydigan, quroldan og‘ir jinoyatlarni sodir etish uchun foydalanadigan shaxslarga²» nisbatan qo‘llanishi;

– ishlash va yashash joyiga ko‘ra, turmushida nihoyatda salbiy tavsiflanadigan shaxslarga; alkogolizm yoki giyohvandlikka duchor bo‘lgan, ma‘naviyatga zid turmush tarzini kechirayotgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum etish jazosining qo‘llanishi.

Uzoq muddatli ozodlikdan mahrum etish jazosi qo‘llanishining samaradorligi yuzasidan Oliy sud Plenumi quyidagicha tushuntiradi: ushbu muddat sud tomonidan jinoyatlarning ayrim turlari uchun (og‘irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o‘ldirish, odam o‘limiga yoki boshqa og‘ir oqibatlarga olib kelgan terrorizm), «qonunga muvofiq (masalan, tamom bo‘lmagan jinoyat uchun) umrbod ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni tayinlash istisno etilgan holatlarda, shuningdek, ish holatlariga ko‘ra sud aybdor shaxsga nisbatan umrbod ozodlikdan mahrum etish yoki o‘n besh yildan yigirma yilgacha muddatdagi ozodlikdan

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1995 йил 27 октябрдаги «Гийохвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилишга оид жиноят ишлари бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 21-сонли қарори, 17-банд, 2-хатбоши // Тўплам, 1-жилд. 41-б.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 27 февралдаги «Қонунга хилоф равишда қуролга эгалик қилиш тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 3-сонли қарори, 13-банд, 1-хатбоши // Тўплам, 1-жилд. 49-б.

mahrum etish tarzidagi ozodlikdan mahrum etishni tayinlash maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida xulosaga kelgan hollarda»¹ tayinlanishi mumkin.

Sudlar qariyalarga, nogironlarga, ayollarga, 18 yoshgacha bo'lgan yoshda jinoyat sodir etgan shaxslarga, shuningdek, javobgarligini jiddiy yengillashtiruvchi boshqa holatlarda jinoyat sodir etgan aybdor shaxslarning boshqa toifalariga ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni tayinlash masalasiga alohida e'tibor bilan yondashishi kerak. Sudlar uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarni sodir etish uchun jazoni tayinlashda ham xuddi shunday e'tibor berishi lozim, aytib o'tilgan holatlarning har birida sud dastavval yengilroq, jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan jazoni tayinlash masalasini muhokama qilishi lozim. Bunga qo'shimcha ravishda, muqobil sanksiyalar mavjud bo'lgan holda ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazoni tayinlash masalasini muhokama qilish sudlar uchun majburiydir.

JK 50-moddasi 4-qismiga muvofiq, ayollarga, 18 yoshga to'lmadan jinoyat sodir etgan shaxsga, shuningdek, 60 yoshdan oshgan erkaklarga uzoq muddatli ozodlikdan mahrum etish (20 yildan ortiq, lekin 25 yildan ko'p bo'lmagan) tayinlanishi mumkin emas. Bundan tashqari, JK 50-moddasi 6-qismiga muvofiq, 60 yoshdan oshgan erkaklar va ayollar uchun jazo muddati JK Maxsus qismining moddasi sanksiyasida nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum etish eng ko'p muddatining to'rtidan uch qismidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Qonunning ushbu talablari imperativ xususiyatda bo'lib, hatto og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lganda ham bajarilishi lozim. Mazkur me'yorlar qo'llanganda erkakning yoshi jinoyatni sodir etish kuniga emas, «sud hukmi chiqariladigan kunga, apellatsiya shikoyati (protest) beriladigan hollarda esa – ishning apellatsiya instansiyasida ko'riladigan kuniga belgilanishi lozim»². Ayolning yoshi mazkur qoidalarni qo'llash maqsadi uchun, albatta, ahamiyatli bo'lmaydi.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 14 ноябрдаги «Умрбод озодликдан махрум қилиш тариқасидаги жазони қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида»ги 15-сонли қарори, 2-банд, 2-хатбоши.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 14 ноябрдаги «Умрбод озодликдан махрум қилиш тариқасидаги жазони қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида»ги 15-сонли қарори, 4-банд, 2-хатбоши.

JK 50-moddasi 4- va 6-qismining talablari shaxs bitta va bir necha jinoyatni sodir etishda aybdor deb topilgan holatlarga ham birdek taalluqli bo‘ladi. Bu oxirgi holatda jazoning umumiy muddati shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan tegishli moddalar, modda qismlarining sanksiyalarida nazarda tutilgan eng ko‘p jazo muddatlarini qo‘shishda hosil qilinadigan eng ko‘p ozodlikdan mahrum etish muddatidan ortishi mumkin emas. Har qanday holatda ushbu shaxslarga tayinlanadigan ozodlikdan mahrum etish muddati 15 yil – 20 yilning to‘rt dan uch qismidan (agar ular bitta jinoyatni sodir etishda yoki JK 59-moddasi qoidalariga muvofiq jami jazoni tayinlashda bir necha jinoyatni sodir etishda aybdor deb topilgan bo‘lsalar) va 18 yil 9 oy – 25 yilning to‘rt dan uch qismidan (agar ular JK 60-moddasi qoidalariga muvofiq bir necha hukmlar yuzasidan jazoni tayinlashda bir necha jinoyatni sodir etishda ayblangan bo‘lsalar) ortiq bo‘lishi mumkin emas.

JK 50-moddasi 7-, 8- va 9-qismining qoidalariga binoan, ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarining asosiy turlari: manzil-koloniya; umumiy tartibdagi koloniya; qattiq tartibli koloniya; maxsus tartibli koloniya, turma bo‘ladi. Tegishli rejimni tanlash sudlangan shaxsning jinsi, sodir etilgan jinoyatning og‘irligi, aybning shakli, muqaddam ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni o‘taganligi holati, retsivid va o‘ta xavfli retsivid, tayinlangan jazoning muddatiga bog‘liq bo‘ladi.

Chunonchi, **JK 50-moddasi 7-qismiga** muvofiq, «Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan erkaklarga nisbatan:

a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyati, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotganlarga nisbatan jazoni manzil koloniyalarda;

b) qasddan uncha og‘ir bo‘lmagan va og‘ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotganlarga nisbatan jazoni umumiy tartibdagi koloniyalarda;

v) o‘ta og‘ir jinoyati uchun hukm qilinayotgan yoxud ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni

o‘tab chiqib, qasddan yangi sodir etgan jinoyati uchun hukm qilinayotgan shaxslarga nisbatan jazoni qattiq tartibli koloniyalarda;

g) o‘ta xavfli retsivistlarga nisbatan jazoni maxsus tartibli koloniyalarda o‘tash tayinlanadi».

JK 50-moddasi 8-qismi asosida «Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan ayollarga nisbatan:

a) o‘ta og‘ir jinoyat uchun va o‘ta xavfli retsivist deb topilganlarga jazoni qattiq tartibli koloniyalarda;

b) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat, ehtiyotsizlik oqibatida uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etganlarga nisbatan jazoni manzil koloniyalarda;

v) boshqa jinoyatlar uchun jazoni umumiy tartibli koloniyalarda o‘tash tayinlanadi».

JK 50-moddasi 9-qismi qoidalariga muvofiq, «Turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilish, jazoning muayyan qismiga, lekin besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga:

a) o‘ta xavfli retsivistlarga;

b) og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyati uchun besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga nisbatan tayinlanishi mumkin».

Sud hukmida jazoni ijro etish koloniyasining turini belgilash jazoni ijro etishning majburiy sharti bo‘lib, ushbu belgilashning yo‘qligi jinoyat qonunchiligining hukmni bekor qilishga olib keluvchi jiddiy buzilishi deb qaralishi kerak. Tegishli jazoni ijro etish muassasasini tayinlash va tanlash hukmni chiqarayotgan sudning vazifasi va vakolatidir. Bunda sudlar ushbu masalaning hal etilishiga ayniqsa har tomonlama yondashib, bu hol umuman jazoning samarli bo‘lishiga o‘ta katta ta’sir ko‘rsatishini inobatga olishi lozim.

Shuni aytib o‘tish lozimki, shaxsning muqaddam ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni o‘taganligi va yana qasddan sodir etilgan jinoyat uchun sudlanganligi (JK 50-moddasi 7-qismi «v» bandi), shuningdek, shaxsning o‘ta xavfli retsivist deb tan olinishi kabi jazoni ijro etish koloniyasini tanlash mezonlari haqiqiy bo‘lishi lozim. Boshqacha

aytganda, birinchi holatida muqaddam qasddan sodir etilgan jinoyat uchun sudlanganlik muddati o'tmagan yoki bekor qilinmagan sudlanganligining mavjudligi aniqlanishi kerak, shaxsning o'ta xavfli retsivist deb tan olinishi yuzasidan esa shaxsni shunday shaxs deb tan oluvchi sud hukmi qonuniy kuchga kirgan bo'lishi lozim.

Shunga e'tibor berish lozimki, quyidagi shaxslar muqaddam sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni o'tagan sudlangan shaxslar sifatida tan olinmaydi:

– JK 46-moddasi 4-qismi qoidalariga muvofiq axloq tuzatish ishlarining almashtirilishi tartibida ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tagan;

– sud hukmi bo'yicha ozodlikdan mahrum qilish qatorida bo'lgan, agar kassatsiya yoki nazorat tartibida hukm bekor qilinib ish tugatilgan bo'lsa yoxud hukm o'zgartirilgan va ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan yoki shartli jazo tayinlangan bo'lsa;

– ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm etilgan, lekin amalda afv etish yoki amnistiya tufayli, jinoiy javobgarlikka tortishning muddati tugaganligi tufayli yoki ushbu shaxs ilgari sodir etgan qilmishning jazoga sazovorligi yo'qolganligi munosabati bilan sud hukmining ijro etilmaganligi sababli amalda jazo o'tamagan;

– muqaddam ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish muddati ichida ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan shaxslar, chunki ular axloq tuzatish muassasalarida jazoni o'tamaganlar;

– jazodan ozod etilgan shaxslar¹.

Sudlangan shaxs bir necha jinoyatni sodir etganda koloniyaning turini belgilashda sud jinoyatlarning majmui bo'yicha jazolarni qo'shish yo'li bilan belgilanadigan yakuniy jazo muddatidan kelib chiqishi lozim. Bunda koloniyaning muayyan turi sodir etilgan jinoyatlarning turiga bog'liq ravishda tanlanadi.

JK 50-moddasi 11-qismida «Sud tomonidan jazoni manzil koloniyada o'tashi tayinlangan mahkum saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi deb topilgan taqdirda, sud uni jazoning o'talmagan qismi muddatiga umumiy tartibli koloniyaga o'tkazadi», deb belgilangan.

¹ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 10-банд // Тўплам, 2-жилд. – 228-б.

Jazoni o'tash tartibini kamida ikki marta qo'pol tarzda buzgan va buning uchun intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish tariqasidagi jazoga tortilgan mahkum, agar har bir intizomiy jazo belgilangan tartibda olib tashlanmagan yoki bekor bo'lmagan bo'lsa, saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi deb hisoblanadi (JIK 112-moddasi 1-qismi).

JK 50-moddasi 9-qismiga muvofiq, mahkumga turmada saqlash tarzidagi ozodlikdan mahrum etish tayinlanishi mumkin. **Turma** eng qattiq tartibi bilan ajralib turadi va shuning uchun mahkum huquqiy holatining qattiqroq cheklanishlari mavjud bo'ladi. Shu sababli ushbu turdagi jazoni ijro etish muassasasining jazo o'tash uchun tanlanishi faqat ayrim holatlarda mahkumlarning ba'zi toifalariga nisbatan (o'ta xavfli retsdivistlar, shuningdek, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etishda aybdor bo'lgan va ularni sodir etganligi uchun besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm etilgan shaxslar), mahkumlarga boshqacha ta'sir etish usullari bo'lmaganda qo'llanishi lozim. Turmani ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni o'tash joyi sifatida tayinlash lozimligi albatta sud hukmida asoslantirilishi lozim.

Turmaga qamash jazo **muddatining faqat bir qismiga** tayinlanadi, shu sababli sud o'z hukmida, shuningdek, mahkum jazoning qolgan muddatini o'tashi kerak bo'lgan koloniyaning turini ham belgilashi lozim, bunda koloniyaning turini belgilash JK 50-moddasi 7- yoki 8-qismida ko'rsatilgan qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Turmaga qamash tarzidagi ozodlikdan mahrum etish tayinlanishi majburiy tartibda turmada jazo o'talishi kerak bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda bo'lishi lozim, bunda ushbu muddatni ko'rsatmaslik jinoyat qonunchiligining hukmni bekor qilishga olib keluvchi jiddiy buzilishi ekanligini nazarda tutish lozim. Bu holda sud qonunga muvofiq turmada jazoni o'tashga faqat jazo muddatining bir qismi mobaynida, lekin ko'pi bilan besh yil davomida yo'l qo'yilishiga e'tibor berishi lozim. Qonunning ushbu ko'rsatmasi imperativ bo'lib, sud tomonidan buzilishi mumkin emas. Bunda shuni qayd etish lozimki, turmada jazo o'tash uzluksiz turda bo'ladi, ya'ni sud tomonidan belgilanadigan muddat bir davrdagi turmada qamoqda saqlashdan kelib chiqib hisoblanishi lozim, birgalikdagi jami

hisoblashga yo‘l qo‘yilmaydi (masalan, umumiy o‘n besh yilga ozodlikdan mahrum etish tayinlanganda har uch yilda bir yil davomida turmada saqlash sharti bilan turmada besh yil qamoqda saqlash mumkin bo‘lmaydi). Shuningdek, muddatning qolgan qismiga turmaga qamashni tayinlash ham mumkin emas – qamoqda saqlash avvaldan, sud hukmining ijro etilishi boshlanishidan o‘talishi lozim.

Og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganligi uchun sudlangan shaxslarga turmaga qamash ularning umumiy tayinlangan jazo muddati besh yildan ortiq bo‘lishi sharti bilan tayinlanishi mumkin. Bunda turmaga qamash muddati umumiy ozodlikdan mahrum etish muddatining to‘rtidan bir qismidan ortiq bo‘lmasligi maqsadga muvofiqdir.

JK 50-moddasi 10-qismiga ko‘ra, «Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etganlik, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etganlik va qasddan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo homilador ayollarga va uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarga nisbatan, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq yoshga doir pensiyaga chiqish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan tayinlanmaydi».

Mazkur normaning ma’nosiga ko‘ra, ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni qo‘llash ushbu holatlarda sodir etilgan qilmishlarning miqdoridan qat’i nazar tayinlanmaydi (ya’ni, ham bitta jinoyatni sodir etgan shaxslarga, ham bir necha huquqqa xilof tajovuzlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga, ushbu tajovuzlarning barchasi qonunda belgilangan mezonlarga javob berishi sharti bilan, ozodlikdan mahrum etish jazosini qo‘llash teng ravishda ruxsat etilmaydi). Lekin tajovuzlarning turi va soni sud tomonidan ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoni tayinlashda hisobga olinishi, uni har bir muayyan holatda individuallashtirish lozimligi nazarda tutilishi lozim.

Aybdor ayol **homiladorligi** holati aniqlanganda homiladorlikning muddati, uning birinchi bo‘lgan-bo‘lmaganligi, homilaning holati va shu kabi holatlar ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Lekin ushbu holatlar JK 55-moddasi qoidalariga muvofiq, ozodlikdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoni tayinlashda hisobga olinishi kerak.

Xomiladorlikni aniqlaganda sud uning jinoyatni sodir etish vaqtidagi mavjudligi yoki yo‘qligi holati bilan bog‘lanib qolmaydi. Bunday holatda ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni tayinlamaslik uchun hal qiluvchi holat homiladorlikni aniqlash va uning sud hukmini e‘lon qilish paytiga kelib mavjud bo‘lishi bo‘ladi.

Uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarga nisbatan ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni tayinlashga yo‘l qo‘yilmaydi. Bolalar yoshini aniqlashda sud-tergov organlari jinoyatni sodir etgan shaxslarning yoshini aniqlash uchun qo‘llanadigan umumiy qoidalarga tayanishi lozim. Xususan, voyaga yetmagan shaxsning yoshi jinoyat-protsessual qonunchiligiga muvofiq belgilanadi (JPK 548-moddasi)¹. Tergov va sud jinoiy javobgarlikka tortilayotgan voyaga yetmagan shaxsning tug‘ilgan yili, oyi va sanasini aniqlashi lozim.

Shaxsning qonunda belgilangan yoshga yetishi tug‘ilgan kundan keyingi kunida, ya‘ni keyingi sutkaning nol soatidan boshlab yuzaga keladi. Aybdor ayolning qaramog‘ida bo‘lgan bolalarning yoshi tegishli hujjatlarga: tug‘ilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, sudlanuvchining pasportidagi belgilar va hokazolarga muvofiq aniqlanishi lozim. Mazkur hujjatlar bo‘lmaganda ushbu kamchilik ishni sudda ko‘rish davomida bartaraf etilishi lozim. Xujjatlar yo‘qligining o‘rnini to‘ldirish mumkin bo‘lmaganda, sud-tibbiy ekspertizasi o‘tkazilishi kerak. Bu holda aybdor ayol qaramog‘ida bo‘lgan bolaning tug‘ilgan kuni deb ekspertiza aytgan yilning oxirgi kuni hisoblanishi kerak, yoshining eng kam va eng ko‘p soni o‘rtasidagi yoshini aniqlashda sud shunday shaxsning ekspertiza tomonidan taxmin etilgan eng kam yoshidan kelib chiqishi lozim².

Uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni tayinlash faqat ushbu bolalarni ayol tuqqan, o‘g‘il (qiz) qilib olgan yoki u bolalarning vasiysi yoki homiysi bo‘lgan sharti bilangina mumkin bo‘ladi. Ayol uch yoshgacha bo‘lgan bolaning vasiysi yoki homiysi bo‘lmagan holda esa, u qaralayotgan normaning

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 15 сентябрдаги «Вояга етмаганларнинг жиноятлари хақидаги ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 21-сонли қарори, 5-банд, 1-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. 25-б.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 15 сентябрдаги «Вояга етмаганларнинг жиноятлари хақидаги ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 21-сонли қарори, 5-банд, 3-хатбоши.

ma'nosida bolalarga ega bo'lgan deb tan olinishi mumkin emas va shunga muvofiq holda sud JK 50-moddasi 10-qismi qoidalari bilan bog'lanib qolmaydi hamda ozodlikdan mahrum etishni qo'llay olishi mumkin. Ayol uch yoshga yetmagan bolalar yuzasidan onalik huquqidan mahrum etilgan yoki bu huquqi cheklangan holatida ham shunga o'xshash oqibatlar yuzaga keladi, chunki ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki ularni cheklash uch yoshgacha bolalariga ega bo'lgan fuqarolar uchun qonunchilikda belgilangan barcha imtiyozlarning yo'qotilishi bilan bog'liqdir (O'zR OK 80-moddasi 1-qismi).

Uch yoshgacha bolalari bo'lgan ayollar sifatida **JK 50-moddasi 10-qismiga** ko'ra, shuningdek, qaramog'ida uch yoshgacha bo'lgan bolalar mavjud bo'lgan ayollar ham tushuniladi. Bunda bolalarning aybdor ayol bilan qarindosh yoki yaqinligi holati ahamiyatga ega bo'lmaydi. Bolani ayol qaramog'ida bo'lgan deb tan olinishi uchun sudlar amaldagi qonunchilikka tayanishi lozim, unga muvofiq, qaramog'ida bo'lgan shaxslar deb, to'liq ta'minotida bo'lgan yoki doimiy va asosiy yashash mablag'larining manbai bo'lgan yordam olayotgan shaxslar tan olinadi.

Mazkur **shaxs yoshiga ko'ra nafaqa olish huquqiga ega** ekanligi holatini aniqlashda sudlar amaldagi qonunchilikdan kelib chiqishi lozim, unda yoshiga ko'ra nafaqa olish huquqiga ega bo'lishning umumiy va imtiyozli maqomi belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat nafaqa ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni 7-moddasiga muvofiq, umumiy tartibdagi yoshiga ko'ra nafaqaga bo'lgan huquq erkaklar uchun – ish staji kamida 25 yil bo'lgan holda 60 yoshga yetganda, ayollar uchun ish staji kamida 20 yil bo'lib, 55 yoshga yetganda yuzaga keladi.

Bundan tashqari, yoshiga ko'ra nafaqa olish huquqi amaldagi qonunchilikka muvofiq imtiyozli tartibda ham yuzaga kelishi mumkin¹.

Mazkur shaxsning yoshiga ko'ra nafaqa olish huquqiga ega ekanligini aniqlaganda sud aybdor shaxsning nafaqa guvohnomasi yoki uning yoshiga ko'ra nafaqa olish huquqini tasdiqlaydigan boshqa hujjatning rasman mavjudligi bilan bog'lanib qolmaydi.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1993 йил 3 сентябрдаги «Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида»ги 938–ХП-сон Қонуни, II боб // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 й., 9-сон, 338-модда.

Har bir muayyan holatda sud mahkumda yoshiga ko'ra nafaqa olish huquqining borligi yoki yo'qligini aniqlash choralarini alohida ko'rishi lozim. Bunda shuni e'tiborga olish lozimki, qonun faqat yoshiga ko'ra nafaqa olish huquqi sudlanuvchida sud hukmini e'lon qilish paytiga kelib mavjud bo'lishi sharti bilan ozodlikdan mahrum etish tarzida jazo tayinlashga ruxsat etmaydi. Shuning uchun, agar ushbu huquq jinoyat sodir etilganidan keyin, lekin sud hukmining e'lon qilinishigacha yuzaga kelgan bo'lsa, ozodlikdan mahrum etish jazosini tayinlash mumkin bo'lmaydi.

Ozodlikdan mahrum etish jazosini tayinlashning mumkin emasligini qonun faqat yoshiga ko'ra nafaqa olish huquqi yuzaga kelishi bilan bog'laydi, sudlanuvchida nafaqaning boshqa turlariga (boquvchisini yo'qotganligi munosabati bilan, nogironligi tufayli) huquqining mavjudligi sudga ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni tayinlashga to'sqinlik qila olmaydi.

10-§. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish

Amaldagi JKda umrbod ozodlikdan mahrum qilish mustaqil jazo turi sifatida ajratilgan (JK 51-moddasi).

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish – eng qattiq va favqulodda davlat majburlov chorasidir. Lekin uni qo'llash o'rinli bo'ladi, chunki amaldagi qonunchilikning jinoiy jazolarni liberallashtirish borasida eng yangi o'zgarishlari munosabati bilan ushbu chora o'lim jazosi o'rniga joriy etilgan bo'lib, muhim preventiv (ogohlantiruvchi) vazifani bajarishga mo'ljallangandir.

NOTA BENE !

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish favqulodda jazo chorasi bo'lib, mahkumni maxsus tartibli jazoni ijro etish koloniyasiga joylashtirish orqali jamiyatdan muddatsiz ajratib qo'yishdan iboratdir (JK 51-moddasi 1-qismi).

Muayyan muddatga ozodlikdan mahrum etish kabi umrbod ozodlikdan mahrum qilish ham mahkumni maxsus muassasada, lekin muddatsiz holda

jamiyatdan ajratishdan iboratdir. Jazoning ushbu turi mahkumni ozod bo'lish imkoniyatidan to'liq mahrum etadi, chunki umrbod ozodlikdan mahrum qilishga mahkum etilgan shaxsni afv etish faqat istisno tariqasida bo'lishi mumkin, bu, o'z navbatida, muayyan muddatga ozodlikdan mahrum etish uchun xos bo'ladi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish mustaqil asosiy jazo turi bo'lib, sud tomonidan faqat JK maxsus qismining sanksiyasida, ya'ni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish uchun jazoni nazarda tutadigan JK 97-moddasi 2-qismining sanksiyasi hamda terrorizm jinoyati, ya'ni JK 155-moddasi 3-qismi sanksiyalarida nazarda tutilgan holdagina tayinlanishi mumkin (JK 51-moddasi 2-qismi). Ko'rilayotgan jazo turi boshqa jinoyatlar uchun qo'llanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish asosiy jazo turi bo'lib, asosiy jazoning boshqa turlari bilan birga qo'llana olmaydi. Bundan tashqari, davlat majburlov chorasi mazkur turining favqulodda xususiyati uni hech qanday sharoitlarda mahkumning boshqa jazo turlarini ijro etishdan bo'yin tovlaganda ularni almashtirish sifatida qo'llashga imkon bermaydi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilishning **favqulodda xususiyati** u sodir etilgan jinoyat uchun yagona mumkin bo'lgan jazo sifatida qo'llanishini bildirmaydi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan moddalar sanksiyalarida u bilan birga ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazo muqobil ravishda nazarda tutilganligi tufayli sudlar uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilishni qo'llash masalasini muhokama qilish majburiy bo'ladi. Bunda «Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llash masalasini hal etishda sud mazkur jazo, faqat ish bo'yicha aybdor tomonidan g'ayriinsoniy xatti-harakatlarga yo'l qo'yilganligidan, shuningdek, jinoyatni sodir etgan shaxs jamiyat uchun mutlaq xavfli ekanligidan dalolat beruvchi va unga nisbatan boshqa jazo tayinlanishi imkoniyatini istisno etuvchi alohida holatlar bo'lganda, tayinlanishi mumkinligini inobatga olishi kerak»¹.

Shu sababli sud hukmining ta'riflovchi qismida umrbod ozodlikdan mahrum qilishni tayinlash albatta jinoyatni sodir etishning barcha holatlari,

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 14 ноябрдаги «Умрбод озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазони қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида»ги 15-сонли қарори, 3-банд, 1-хатбоши.

uning sabablari va motivlari, shuningdek, nafaqat sudlangan shaxsni, balki jabrlanuvchini ham mutlaqo to'liq ta'riflaydigan ma'lumotlarni hisobga olgan holda asoslashi lozim.

Sudlar, shuningdek, umrbod ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo tugallanmagan jinoyat uchun tayinlanishi mumkin emasligini nazarda tutishi kerak¹.

JK 51-moddasi 3-qismi hech qanday sharoitlarda davlat majburlovining mazkur chorasini qo'llash yo'l qo'yilmaydigan shaxslar doirasini belgilaydi. Bu shaxslarga yoshidan qat'i nazar barcha ayollar, shuningdek, 18 yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslar va 60 yoshdan oshgan erkaklar kiradi.

Erkak jinsidagi shaxslarga umrbod ozodlikdan mahrum qilish qo'llanishi mumkinligi masalasini aniqlashda sud quyidagilarni hisobga olishi lozim:

– quyi yosh chegarasi yuzasidan (18 yosh) favqulodda jazo chorasining qo'llanishi jinoyatni sodir etish paytiga kelib shaxs ushbu yoshga yetmagan holda yo'l qo'yilmaydi. Bunda voyaga yetgan kuni deb tug'ilgan kundan keyingi kun hisoblanishi kerak;

– sud hukmini e'lon qilish paytiga kelib sudlanuvchi 60 yoshga yetganda favqulodda jazo chorasini tayinlash mumkin emas. Bu holda oltmish yoshga to'lgan kuni deb shaxsning tug'ilgan kuni tan olinishi kerak. Shaxsning yoshini hisoblash masalasining ushbu hal etilishi JK insonparvarlik va adolat tamoyillariga to'liq mos keladi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni tayinlash uni albatta ijro etilishini anglatmaydi. Masalan, ushbu favqulodda jazo chorasini tayinlashda mahkumga majburiy tartibda afv etish huquqi tushuntirilishi lozim.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan shaxs JK 76-moddasi 3-qismiga muvofiq, afv etish to'g'risidagi iltimosnoma umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxs tomonidan u tayinlangan jazoning yigirma besh yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin, agar jazoni o'tash davrida mahkum qat'iy tuzalish yo'liga o'tgan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan, mehnat va o'qishga nisbatan vijdonan munosabatda bo'layotgan, tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishda faol

¹ Ўша жойда, 4-банд, 1-хатбоши.

ishtirok etayotgan taqdirda esa, tayinlangan jazoning yigirma yilini haqiqatda o‘tab bo‘lganidan keyin berilishi mumkin.

Shuni nazarda tutish kerakki, jazoning ushbu turi qo‘llanishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarni sodir etishda shaxsni aybdor deb tan olish to‘g‘risidagi ishlar tuman (tumanlararo) jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan ko‘rilishi mumkin emas. JPK 389-moddasiga muvofiq, umrbod va uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazolar qo‘llanishi mumkin bo‘lgan jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar O‘zbekiston Respublikasining Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasining harbiy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasining jinoyat ishlari bo‘yicha Oliy sudi, viloyat va Toshkent shahar jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarida ko‘rib chiqilishi mumkin.

11-§. Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish

Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish – qo‘shimcha jazo bo‘lib, ya’ni u mustaqil tarzda qo‘llanmaydi, balki faqat asosiy jazo bilan birgalikda tayinlanishi mumkin.

Mazkur davlat majburlov chorasining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u eng avvalo mahkum shaxsga uni tegishli unvon yoki mukofotlarga ega bo‘lgan shaxslar uchun mo‘ljallangan muayyan huquqlar yoki imtiyozlardan mahrum qilish orqali unga ma’naviy-ruhiy ta’sir o‘tkazishga qaratilgan.

NOTA BENE !

Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish faqat og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etilgan holda qo‘shimcha jazo sifatida qo‘llanadi, tegishli unvon yoki mukofotlarga ega bo‘lgan shaxslar uchun mo‘ljallangan muayyan huquq yoki imtiyozlardan mahrum qilishga olib keladi va asosan mahkum shaxsga ma’naviy-ruhiy ta’sir o‘tkazishga qaratilgan.

Mazkur jazo turi shaxs **faqat og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat** uchun hukm qilinganida qo‘llanishi mumkin bo‘ladi. **JK 52-moddasi 1-qismiga** muvofiq, «Harbiy yoki maxsus unvonga ega bo‘lgan shaxs og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat uchun hukm qilinganida sud hukmi bilan mazkur unvondan

mahrum qilinishi mumkin». Bunda sud, jinoyat sodir etish yoki hukm chiqarish paytida mahkumning xizmat faoliyati yuzasidan unvonga ega bo'lgan xizmatda bo'lganlik fakti bilan bog'lanib qolmaydi. Harbiy yoki maxsus unvonidan mahrum qilish, shuningdek, ham xizmat o'tayotgan shaxslar, ham zaxiraga chiqarilgan, nafaqaga chiqqan va hokazo shaxslarga nisbatan amalga oshirilishi mumkin.

Harbiy unvonlar – bu O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining ofitserlik va serjantlik tarkibining shaxslariga beriladigan unvonlardir. **Maxsus unvonlar** bojxona va soliq xizmati, prokuratura, IIV, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va shunday unvonlar belgilangan boshqa xizmatlar xodimlariga beriladigan unvonlar bo'ladi.

JK 52-moddasi 1-qismining tahlilidan sud o'z hukmi bilan mahkum shaxsni **oliy unvon bo'lmagan** harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish huquqiga ega ekanligi kelib chiqadi. Bunday unvonlar, chunonchi, to polkovnik unvonigacha bo'lgan harbiy unvonlar va polkovnik unvoniga teng keluvchi unvongacha bo'lgan maxsus unvonlar bo'ladi. Bunda sud hukmiga binoan harbiy yoki maxsus unvonidan mahrum qilish faqat sud ishining barcha holatlarini tahlil qilish natijasida mahkum shaxs harbiy yoki maxsus unvoniga ega bo'lishga haqli emas degan xulosaga kelganda yo'l qo'yiladi. Ya'ni, mazkur jazo qo'llangan har bir holatda sud hukmida albatta uni qo'llash zarurligi asoslantirilgan bo'lishi kerak. Bunda sudlar odatda nafaqat sodir etilgan jinoyatning og'irligidan, balki uning mavjud unvon bilan bog'liqligi, aybdor shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar, unvonni olish xususiyati (qonuniy yoki noqonuniy) kabi holatlardan kelib chiqishi lozim.

JK 52-moddasi 2-qismiga asosan, «Oliy harbiy yoki maxsus unvonga yoxud O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotiga ega bo'lgan shaxs og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun hukm qilinganida sudning hukm asosida kiritadigan taqdimnomasiga binoan mazkur unvon yoki mukofotdan mahrum qilinishi mumkin».

Mazkur moddani tahlil qilishdan, **oliy harbiy yoki maxsus unvonlar, shuningdek, davlat mukofotlari** yuzasidan sud faqat tegishli unvonni

yoki mukofotni bergan organga jinoyatni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsni undan mahrum qilish to'g'risidagi taqdimnoma kiritishga haqli ekanligi kelib chiqadi. Shunday qilib, unvon yoki mukofotdan mahrum qilish masalasini uzil-kesil hal qilish faqat ushbu shaxsga tegishli unvon yoki mukofot bergan organga yuklatiladi.

Oliy harbiy unvonlar – bu oliy ofitserlik tarkibiga beriladigan unvonlardir (general-mayor, general-leytenant, general-polkovnik, armiya generali). **Oliy maxsus unvonlar** – belgilangan xizmatlarda beriladigan oliy harbiy unvonlarga aynan teng bo'lgan unvonlardir. Bundan tashqari, oliy maxsus unvonlarga, shaxslarga alohida kasbiy fazilatlari, mahorati va ko'p yillik vijdonan mehnati uchun beriladigan faxriy unvonlar ham kiradi (masalan, O'zbekiston Respublikasi xalq artisti, xizmat ko'rsatgan me'mor, xizmat ko'rsatgan yurist va hokazo).

O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari – fuqarolarni vatanni himoya qilishda, iqtisodiyot, fan, madaniyat, san'at, ma'rifat, davlat qurilishi, sog'liqni saqlash, tarbiya sohasida, xayriya faoliyatida ko'rsatgan xizmatlari uchun va boshqa xizmatlari uchun taqdirlash shaklidir. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, davlat mukofotlari quyidagilardir: «O'zbekiston Qahramoni» unvoni, ordenlar, medallar, O'zbekiston Respublikasi faxriy unvonlari va Faxriy yorlig'idir¹.

Davlat mukofotlaridan mahrum qilish oliy harbiy yoki maxsus unvonlardan mahrum qilishga qo'llanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Shuni hisobga olish kerakki, mahkum shaxslar JK 52-moddasida ko'rsatilmagan boshqa unvonlari yoki mukofotlaridan mahrum etilishi mumkin emas. Jumladan, sud ilmiy unvonlar va darajalardan (masalan, fan nomzodi yoki doktori darajasi, katta ilmiy xodim, dotsent va professor ilmiy unvonlari), shuningdek, sport, kasbiy malakaviy razryadlaridan mahrum qilishi mumkin emas. Bundan tashqari, chet el davlatlari tomonidan berilgan unvonlar va mukofotlardan mahrum qilishga yo'l qo'yilmaydi.

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг 1995 йил 22 декабрдаги «Давлат мукофотлари тўғрисида»ги 176-сон Қонуни, 2-модда // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 й., 12-сон, 266-модда.

«Jazo tizimi va uning turlari» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar

1. Jazolar tizimi jazolar turlarining majmui sifatida nimadan iborat? Uning jinoyat-huquqiy ahamiyati nimada?
2. Jinoiy jazoning turlarini ayting.
3. Jazoning qanday turlari asosiy jazolarga, qaysilari qo‘shimcha jazolarga kiradi? Aralash turdagi jazolar mavjudmi?
4. Jinoyat-huquqiy doktrinada jazolar turlarining qanday tasniflari mavjud?
5. Jarima tarzidagi jinoiy jazo nimadan iborat? Shaxs jazo sifatida tayinlangan jarimani to‘lashdan bo‘yin tovlaganda nimalar yuz beradi?
6. Jarima shaklidagi jazoni ijro etmaslik uni ozodlikdan mahrum etish jazosiga almashtirishga imkon beradimi?
7. Muayyan huquqdan mahrum etish tarzidagi jazo nimadan iborat? Uni qo‘llash sharoitlari qanday?
8. Axloq tuzatish ishlari nimadan iborat? Mahkum shaxslarning qanday toifalariga jazoning ushbu turi qo‘llanmaydi?
9. Mahkum shaxs axloq tuzatish ishlarining jazosini o‘tashdan bo‘yin tovlaganida nimalar yuz beradi?
10. Xizmat bo‘yicha cheklash nimadan iborat? Jazoning ushbu turini tayinlashning xususiyatlari qanday?
11. Xizmat bo‘yicha cheklashning axloq tuzatish ishlari tarzidagi jazodan farqi nimada?
12. Majburiy jamoat ishlari shaklidagi jazo nimadan iborat? U mahkum shaxslarning qaysi toifasiga nisbatan qo‘llanishi mumkin?
13. Ozodlikni cheklash nimadan iborat? Jazoning ushbu turini tayinlashning xususiyatlari qanday?
14. Intizomiy qismga jo‘natish shaklidagi jazo nimadan iborat? U mahkum shaxslarning qaysi toifasiga nisbatan qo‘llanishi mumkin?
14. JK da ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoning qaysi turlari keltirilgan?
16. Ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazoni ijro etish muassasasini tanlash qaysi omillarga bog‘liq bo‘ladi?

17. Ozodlikdan mahrum etishga mahkum etilganlarning qaysi toifalari turmada saqlanishi mumkin?

18. Qaysi holatlarda ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazolarga yo‘l qo‘yilmaydi?

19. Qaysi jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum etishning uzoq muddatlari tayinlanishi mumkin? Mahkum shaxslarning qaysi toifalariga ushbu jazo turi qo‘llanishi mumkin emas?

20. Umrbod ozodlikdan mahrum etish nimadan iborat? Mahkum shaxslarning qaysi toifalariga ushbu jazo turi qo‘llanishi mumkin emas?

21. Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish nimadan iborat? Mazkur jazo turi muayyan huquqdan mahrum qilishdan nima bilan farq qiladi?

Qo‘shimcha adabiyotlar

O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar

Гальперин И.М., Мельников Ю.Б. Дополнительные наказания. – М.: «Новая Волна», 1998. – 146 Б.

Дворянсков И.В. Эффективность альтернативных наказаний: компенсационная модель. – М.: ЮНИТИ, 2004. – 198 Б.

Комарицкий С.И. Эффективность исполнения наказаний, не связанных с лишением свободы. – М.: 1991.

Милюков С.Ф. Система наказаний по Уголовному кодексу России. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 1999.

Павлухин А.Н. Дополнительные виды наказаний: уголовно-правовой и уголовно-исполнительный аспекты: Монография.– М.: ЮНИТИ, 2007. – 245 Б.

Салаев Н.С., Абдурасулова Қ.Р., Турғунбоев Э.О. Жарима ва ахлоқ тузатиш ишлари жазолари: жиноят-ҳуқуқий ва жиноят-ижроия ҳуқуқий жиҳатлари. Монография. – Т.: ТДЮУ, 2016. – 144 б.

Старков О.В., Милюков С.Ф. Наказание: уголовно-правовой и криминопенологический анализ. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001. – 560 Б.

Илмий мақолалар

Абзалова Х.М. Обязательные общественные работы как вид альтернативного наказания лишению свободы: сравнительно-правовой анализ // Суд-ҳуқуқ ислоҳотларини чуқурлаштириш шароитида жиноят кодексини унификация қилишнинг назарий ва амалий жиҳатлари // Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2015. – Б. 66-74.

Абзалова Х.М. Ограничение свободы как вид уголовного наказания: сущность и значение // Коррупцияга қарши курашиш – жамият ва давлат хавфсизлигининг гаровидир. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами (2016 йил 26 ноябрь). –Т.: ИИВ Академия. 2016. – Б.117-120.

Бочкарева Ю. Систематизация наказания в УК РФ // Ж. Законность. 2006. № 11. – 46-б.

Зуфаров Р.А. Политика государства в сфере либерализации уголовных наказаний: осуществленные реформы и их перспективы // Суд-ҳуқуқ соҳасини ислоҳ қилиш ҳамда жиноят қонунини либераллаштириш шароитида жазо тизимини такомиллаштириш масалалари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. –Т.ТДЮУ, 2016.

Махкамов О.М. Мамлакатда жиноий жазоларни либераллаштириш соҳасидаги сиёсати: амалга оширилган ислоҳотлар ва келажакдаги истиқболлар // Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана. – 2016. №1. – Б.36-40

Махкамов О.М. Озодликни чеклаш жазоси: миллий қонунчиликдаги ўзгаришлар ва халқаро тажриба // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Ахборотномаси – 2016. №3. – Б. 5-8.

Назаров М.А. Ограничения назначения наказаний в виде лишения свободы // ТДЮИ илмий мақолалар тўплами. 2005. № 2. – 95–99-б.

Назаров М.М. Применение наказания в виде ареста // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Ахборотномаси. – 2015. №3. –Б. 52-53.

Пономарев П.Г. Система наказаний по уголовному законодательству и проблемы ее реализации // Развитие теории

наказания в уголовном и уголовно-исполнительном законодательстве. – М.: 2002. – 13–14-б.

Салаев Н.С. Жиноятчиликни олдини олишда озодликдан маҳрум қилишга муқобил бўлган жазоларни қўллашнинг долзарб муаммолари // Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана. – 2015. № 2. – Б. 38-40.

Салаев Н.С. Пенитенциар тизимни ислоҳ қилишда озодликни чеклаш жазосини ижро этишни такомиллаштириш: ислохотлар ва истиқболлар // Суд-ҳуқуқ соҳасини ислоҳ қилиш ҳамда жиноят қонунини либераллаштириш шароитида жазо тизимини такомиллаштириш масалалари // Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент: ТДЮУ, 2016. – Б. 79-84.

Тимошенко А. Как организовать исполнение наказаний в виде исправительных и обязательных работ // Ж. Законность. 2006. № 7. – 33-б.

Турғунбоев Э.О. Ахлоқ тузатиш ишлари тўғрисида айрим мулоҳазалар // Суд-ҳуқуқ ислохотларини чуқурлаштириш шароитида жиноят кодексини унификация қилишнинг назарий ва амалий жиҳатлари // Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2015. – Б. 58-62.

Эрматов Ф.О., Джумабаева Г. Айрим хорижий мамлакатлар жиноят қонунчилигида ахлоқ тузатиш ишларига оид нормаларнинг қиёсий таҳлили. // Жиноят қонунчилигининг либераллаштирилиши шароитида айрим жиноятларни декриминализация қилиш масалалари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДЮУ, 2014. – Б. 51-55.

III BOB. JAZO TAYINLASH

1-§. Jazo tayinlashning umumiy asoslari

Jazo tayinlash ijtimoiy munosabatlarni jinoyat-huquqiy muhofaza qilish jarayonidagi asosiy bo‘g‘inlardan biridir. Jazo tayinlash institutining bunday ahamiyati shu bilan izohlanadiki, jazoning o‘zi jinoiy-huquqiy muhofaza qilish mexanizmi tizimidagi asosiy element bo‘lib, davlat majburlov chorasini tanlash jarayoni qanchalik to‘g‘ri va samarali tashkil etilganligiga uning ta‘sir etishining samarasi ancha darajada bog‘liq bo‘ladi.

Adolatli jazo tayinlanishi undan ko‘zlangan maqsadlarga — mahkumni axloqan tuzatish, mahkum va boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga erishish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi¹. Bundan tashqari, asoslantirilgan jazoni tayinlash qonuniylik, xavfsizlik va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini sudda himoya qilishning eng muhim tarkibiy qismi bo‘ladi, shu bilan birga inson huquqlari sohasida demokratik institutlarni rivojlantirishning ishonchli kafolati bo‘ladi.

«Sudlarning e‘tibori, hukm chiqarishda ularning jazo tayinlashning umumiy asoslari to‘g‘risidagi qonun talablariga og‘ishmay rioya qilish shartligiga, jinoyat qonunining asosiy tamoyillaridan biri insonparvarlik tamoyili ekanligiga va uning mazmuniga ko‘ra jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish zarur hamda yetarli bo‘ladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta‘sir chorasi qo‘llanilishi kerakligiga qaratilsin»².

Jazo tayinlashning umumiy asoslari JK umumiy qismi normalarining predmetli aks etishi bo‘ladi. Ayni paytda ular jazo tayinlashda alohida majmualar bo‘lmay qoladi, balki yaxlit va tizimli qoidalarga – mohiyati qo‘llanadigan davlat majburlov choralari individuallashtirish bo‘lgan asoslarga aylanadi. Shuni aytib o‘tish lozimki, jazoni individuallashtirish

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, муқаддима, 2-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. 225-б.

² Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2014 йил 23 майдаги «Суд ҳукми тўғрисида»ги 7-сонли қарори, 28-банд, 1-хатбоши // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. – Т.: «Адолат», 2014. – 351-б.

jazoni tayinlash jarayonida boshqa umumiy me'yorlarga: insonparvarlik va adolat tamoyillariga amal qilishni istisno etmaydi, balki talab etadi.

NOTA BENE !

Jazoni individuallashtirish jazo tayinlash institutining mazmuni bo'lib, sud tomonidan JK Maxsus qismi moddasining sanksiyasi doirasida jinoyatni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsga muayyan davlat majburlov chorasini belgilashdir.

Shunday qilib, jazoni individuallashtirish ikki darajada bo'lib o'tadi, ya'ni: sodir etilgan qilmish uchun javobgarlik nazarda tutilishi kerak bo'lgan normani belgilash darajasida hamda ushbu normaning sanksiyasida nazarda tutilgan zarur va yetarli jazo chorasini tanlash darajasida amalga oshadi.

Jazoni individuallashtirishning muhim tarkibiy qismi sodir etilgan qilmish uchun javobgarlik nazarda tutilishi kerak bo'lgan normani to'g'ri belgilash – sodir etilgan qilmishni kvalifikatsiya qilish bo'ladi.

NOTA BENE !

Kvalifikatsiya muayyan mantiqiy jarayon bo'lib, muayyan shaxs tomonidan amalda sodir etilgan qilmishning JK Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan muayyan jinoyat tarkibining belgilariga muvofiq kelishini, ayni bir xilligini aniqlash yuzasidan faoliyatdir.

Qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish asoslangan va adolatli jazo tayinlashning garovidir. Sodir etilgan tajovuz uchun javobgarlikni nazarda tutadigan jinoyat qonunining normasini aniqlashda xato qilish esa sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavfi to'g'risidagi noto'g'ri tasavvurga, demak, sodir etilgan qilmishga mos kelmaydigan jazo chorasini tayinlashga olib kelishi mumkin. Shuning uchun noto'g'ri kvalifikatsiya qilishga yo'l qo'ymaslik va butun O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyat qonunchiligining yaxlit bir xil qo'llanishini ta'minlash maqsadida sudlar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlarida berilgan tushuntirishlarni og'ishmay bajarishi lozim. Ayni paytda

qilmishni kvalifikatsiya qilganda sudlar faqat sodir etilgan qilmishning JK maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan belgilariga muvofiq kelishi holatini tan olmay (masalan, sudlanuvchining harakatlari sud tomonidan JK 169-moddasi 2-qismi «a» bandi bo'yicha), balki barcha kvalifikatsiya qilish belgilarini ochib berib, ularni sud hukmida asoslab berishi lozim (masalan, kissavurlik sifatida qilmishni kvalifikatsiya qilganda sud qaysi asoslarga ko'ra shunday xulosaga kelganligini ko'rsatishi kerak). Bunda aybdorning harakatlari nima uchun aynan shunday modda, qism, band bilan tavsiflanayotganligi aniq ko'rsatilishi kerak¹.

Sodir etilgan qilmishni kvalifikatsiya qilganda sud qonunning bevosita ko'rsatmasiga binoan JK Umumiy qismining qoidalariga amal qilishi lozim. Ayni paytda, xususan, sodir etilgan qilmish tugallangan jinoyat ekanligi, u yordamchilikda sodir etilganmi, yo'qmi va bu holda undagi sudlanuvchining roli qanday bo'lgan, qilmishning jinoiyligini istisno etuvchi holatlar mavjudligini aniqlash lozim. Bundan tashqari, ba'zi holatlarda jinoyat qonunining amal qilish vaqti va hudud chegaralariga rioya qilishni aniqlash talab etiladi.

Sodir etilgan tajovuzning to'g'ri kvalifikatsiya qilinishi sudga qonun bilan u yoki bu jazo turini tayinlashda yo'l qo'yiladigan chegaralarni aniq belgilashga imkon beradi. Bunda qonunga muvofiq sud tegishli moddaning sanksiyasida nazarda tutilmagan jazo turini tanlashi mumkin emasligini nazarda tutish kerak. Xuddi shuningdek, tayinlanadigan jazoning miqdori sanksiya bilan belgilangan chegaralarda bo'lishi lozim. Masalan, JK 54-moddasi 1-qismiga muvofiq, «Jinoyat sodir etishda qonunda belgilangan tartibda aybli deb topilgan shaxs jazoga tortiladi. Sud ushbu Kodeks maxsus qismining jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddasida belgilangan doirada umumiy qismning qoidalariga muvofiq jazo tayinlaydi». Ayni paytda, jazoning eng kam chegarasidan kamroq jazo tayinlangan holatlarda, shuningdek, bir necha jinoyat sodir etganlik uchun yoki bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlanganda ushbu chegaralar buzilishi mumkin. Lekin bunday buzilish faqat JK Maxsus qismi tegishli moddasining sanksiyasi bilan belgilangan

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2014 йил 23 майдаги «Суд ҳукми тўғрисида»ги 7-сонли қарори, 24-банд, 1-хатбоши // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. – Т.: «Адолат», 2014. – 348-б.

chegaralarga taalluqli bo‘ladi, JK umumiy qismi normalarida nazarda tutilgan turi va miqdori yuzasidan jazo chegaralaridan chiqishga hech qaysi sharoitlarda yo‘l qo‘yilmaydi.

Qonunda bevosita ko‘rsatilishiga binoan, JK maxsus qismi moddasining sanksiyasi doirasida jazo tayinlashda sud Umumiy qismining qoidalariga muvofiq ish tutishi kerak. Eng avvalo, bu faqat bitta asosiy jazoni tayinlash majburiyligi bo‘lib, bir necha asosiy turdagi jazolarni tayinlash jinoyat qonunining qo‘pol tarzda buzilishi bo‘ladi. Shuningdek, jazo turi va miqdorini tanlashda shaxs javobgarlik va jazodan ozod etilishi lozim bo‘lgan asoslarning yo‘qligini aniqlash, jazo maqsadi to‘g‘risidagi qonun qoidalarini inobatga olish, jazoning har xil turlarini qo‘llash tartibiga qat’iy amal qilish lozim. Bundan tashqari, JK prinsiplariga, ayniqsa, insonparvarlik va adolat prinsipiga amal qilish majburiy bo‘ladi.

JK Maxsus qismi tegishli moddasi sanksiyasi doirasida jazoning muayyan turi va miqdorini belgilay turib, «sud sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, qilmishning sababini, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini, aybdorning shaxsini hamda jazoni yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarni hisobga oladi» (**JK 54-moddasi 2-qismi**). Ko‘rsatilgan omillarning to‘liq inobatga olinishi sudga tayinlanayotgan jazoni qat’iy individuallashtirish imkonini beradi¹. Bunda, ko‘rsatilgan omillarni inobatga olgan holda, yuqorida ta’kidlanganidek, sud, ularning mavjudligi va xususiyatini to‘g‘ri belgilash imkonini beruvchi JK Umumiy qism qoidalari bilan cheklangan.

NOTA BENE !

Jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati tajovuz sifat belgilarining tavsifi bo‘lib, jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga ta’sir qilishini ifodalaydi.

Jinoyatning obykti, aybning shaklini tahlil qilish asosida, shuningdek, JK 15-moddasiga muvofiq, u yoki bu qilmishni ijtimoiy xavfi katta

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарорининг 3-банди 1-хатбошисига мувофиқ, Жиноят кодексининг 8, 54-моддалари мазмунига кўра, жазо адолатли бўлиши – ҳар бир ҳолатда индивидуал тайинланиши, жиноятнинг хусусияти ва ижтимоий хавфлилик даражасига, айбдорнинг шахсига, шунингдек, жазони енгиллаштирувчи ва оғирлаштирувчи ҳолатларга мувофиқ бўлиши керак // Тўплам, 2-жилд. 225–226-б.

bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar toifasiga kiritish imkonini beruvchi formal mezon asosida tajovuzning xususiyatiga baho berish amalga oshiriladi¹. Jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati uni sodir etish bosqichiga, jinoyat sodir etgan shaxsning yoshiga, shuningdek, tajovuzda ishtirok etish shakliga bog‘liq emasligini nazarda tutish lozim. Ayni paytda mazkur holatlar qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlashda sud tomonidan inobatga olinishi lozim.

NOTA BENE !

Huquqqa xilof tajovuzning ijtimoiy xavflilik darajasi – bu tajovuzning jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga qay darajada salbiy ta‘sir qilishini ko‘rsatuvchi miqdoriy tavsifidir.

Ijtimoiy xavflilik darajasi har bir muayyan tajovuzda farq qiladi va sodir etilgan qilmish holatlariga, xususan, jinoiy niyatni amalga oshirish darajasi va bosqichi, jinoyat sodir etish usuli, zararining miqdori yoki kelib chiqqan oqibatlarining og‘irligi, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatda sudlanuvchining roli va h.k.ga bog‘liq bo‘ladi.

Jinoiy niyatni amalga oshirish bosqichini inobatga olgan holda jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish, suiqasd va tamom bo‘lgan jinoyat uchun bir xil jazo tayinlash mumkin emasligini nazarda tutish kerak. Yoki, masalan, jinoiy guruhda sudlanuvchining rolini inobatga olishda, jinoyat tashkilotchilari va bajaruvchilari jinoyat dalolatchilari va yordamchilariga nisbatan og‘irroq jazolanishlarini nazarda tutish kerak.

Tajovuzning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlashda, uni aniqlash imkonini beruvchi holatlar qonunda to‘liq berilmaganligini, shuningdek, qonunda uzil-kesil jazoga ularning ta‘siri xususiyati ham ko‘rsatilmaganligini nazarda tutish kerak. Ushbu masalalar sud tomonidan jazo tayinlashda hal qilinishi lozim.

Jinoyatning motivlari, yetkazilgan zararining xususiyati va miqdori jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlashda tahlil qilinishi lozim bo‘lgan muhim tarkibiy belgilar hisoblanadi. Ayni paytda, jazo tayinlashda

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 3-банд, 2-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. 226-б.

ular alohida ahamiyatga ega va alohida inobatga olinishi zarur. Jinoyat sodir etish motivi, shuningdek, yetkazilgan zararning xususiyati va miqdorining jazo tayinlashdagi mustaqil ahamiyati, ularni inobatga olish jazoning adolatliligi va jinoyatning og'irligiga muvofiq kelishini ta'minlashi bilan belgilanadi.

NOTA BENE !

Jinoyat motivi – bu shaxs jinoyat sodir etishining muayyan ehtiyoj va manfaatlar bilan shartlangan anglangan yoki anglanmagan yetakchi ichki ehtiyojdir.

Jinoyatning motivi turli xil bo'lishi mumkin: rashk, bezorilik, g'araz va h.k. Jinoyat sodir etishning muayyan motivlari sudlanuvchining ongida ijtimoiy qadriyatlar ahamiyatini belgilaydi va bu hol jazo tayinlashda uning ahamiyatini qo'llash yoki uning qadriyatlar tizimini tuzatish imkonini beradi.

Jazo tayinlash jarayonida faqat jinoyat motivi emas, balki jinoyat sodir etish sabablari ham inobatga olinishi zarurligini nazarda tutish kerak.

NOTA BENE !

Yetkazilgan zararning xususiyati – bu yetkazilgan zararning jismoniy, mulkiy yoki ma'naviy bo'lishi mumkin bo'lgan xossasini namoyon qiluvchi tavsifidir.

NOTA BENE !

Yetkazilgan zararning miqdori – bu uning miqdoriy tavsifi bo'lib, zararning darajasini, ya'ni yetkazilgan zararning muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatga nisbatini aks ettiradi.

Jazoni muayyan shaxs uchun individuallashtirish jazoni tayinlash chog'ida aybdor shaxsini tavsiflab beruvchi ma'lumotlarning barchasini mustaqil ravishda o'rganib chiqilishi demakdir. Qonunning ushbu masalaga bunday munosabati shuni ko'rsatadiki, jazoning samarasi

sudlanuvchiga tayinlangan jazoni uning qay tarzda qabul qilishiga bog‘liq bo‘ladi.

NOTA BENE !

Aybdorning shaxsi jinoyat sodir etgan shaxsning ruhiy va biologik xususiyatlarini, shuningdek, uning ijtimoiy mohiyatini qamrab oladigan tushuncha hisoblanadi.

Qonun tayinlanadigan jazo turi va me‘yorini aybdorning shaxsini tavsiflovchi obyektiv va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq qilib qo‘yganligi tufayli sudlar jinoyat ishlarini ko‘rib chiqish paytida mazkur holatlarni aniqlashlari shart.

Obyektiv omillarga, xususan, aybdorning yoshi, jinsi, homiladordik holati, ijtimoiy omillarga – sudlanganligi, oiladagi, jamiyatdagi xulq-atvori, mashg‘uloti, davlat yoki ijtimoiy mavqei va h.k.lar kiradi.

Jazo tayinlashda aybdorning shaxsini e‘tiborga olish quyidagi ma‘lumotlarni tahlil qilish asosida olib boriladi:

– **jismoniy** – sudlanuvchining yoshi va jinsi, uning mehnatga layoqatliligi, nogironligi, sog‘lig‘i (ayollarning homiladorligi);

– **ijtimoiy-demografik** – sudlanuvchining mansabi, kasbi, mehnatga munosabati, ma‘lumoti, davlat mukofotlariga ega ekanligi, kundalik turmush tarzi, oila a‘zolariga, qarindoshlariga bo‘lgan munosabati, jamoat tartibiga rioya qilishi, ma‘naviy axloqi, qaramog‘ida mehnatga layoqatsiz shaxslar borligi va boshqalar. Bundan tashqari, sudlanuvchining yashagan ijtimoiy muhiti, uning moddiy ahvoli, g‘ayriijtimoiy xulq-atvori shakllanishiga sabab bo‘lgan sharoitlarni aniqlash lozim;

– **jinoiy-huquqiy** – ilgari sodir qilgan jinoyati uchun sudlanganligi oqibatida o‘ta xavfli retsivist deb tan olinganligi. Bunda shuni e‘tiborga olish lozimki, aybdorning sudlanganligini bekor qilish, ya‘ni ayblanuvchi ilgari javobgarlikka tortilgan qilmish uchun jazolashning bekor qilinishiga sud jazo tayinlash paytida e‘tibor qilmasligi lozim bo‘ladi. Ayni paytda, aybdorning ilgari sudlanganligi jinoyatni og‘irlashtiruvchi holat sifatida qaralmasligi kerak;

– **kriminologik** – shaxsning jamiyatga qarshi harakatlarga moyilligi, ilgari ozodlikdan mahrum qilinganligi, ilgari jinoyat sodir etganligi uchun javobgarlikka tortilmaganligi yoki javobgarlikdan ozod etilganligi, bunda shuni esda tutish lozimki, ushbu holatlar aybdorning shaxsini tahlil etish paytida e'tiborga olinishi mumkin, lekin ular sodir etgan harakatning jinoiy ekanligini yo'qqa chiqaruvchi holatlar sifatida qaralmasligi shart.

Jinoiy-huquqiy va kriminologik ma'lumotlarni inobatga olishda, shaxs ilgari sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlikning olib tashlanganligi yoki tugatilganligi yoxud shaxs muqaddam sodir etgan jinoiy xatti-harakat uchun qonunda javobgarlik bekor qilingan bo'lsa, sud tomonidan jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida emas, balki aybdorning shaxsini tahlil qilishda inobatga olinishi mumkinligini e'tiborga olish lozim¹.

Shuni nazarda tutish lozimki, sudlanuvchi tomonidan o'zining surishtiruv va dastlabki tergovda bergan ko'rsatmalarini o'zgartirgan taqdirda sud uning bu va boshqa ko'rsatuvlarini batafsil tekshirishi va ularga ish bo'yicha to'plangan boshqa dalillar yig'indisi bilan birgalikda baho berishi lozim. Sudlanuvchining ko'rsatma berishdan bosh tortishi unga nisbatan jazo turini va miqdorini belgilashda javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat sifatida hisobga olinishi mumkin emas. Ayni paytda, sudlanuvchi haqqoniy ko'rsatmalar berish bilan adolat qaror topishiga ko'maklashsa, bu sud tomonidan yengillashtiruvchi holat sifatida yoki aybdorning ko'magi darajasiga qarab, uning shaxsini ijobiy tavsiflovchi holat sifatida e'tiborga olinishi lozim bo'ladi.

Aybdorning shaxsini tahlil qilganda sud jazo qo'llash jarayonida ularning majmuini o'rganib chiqishi shart. Shu vaqtning ichida nafaqat aybdor haqida ma'lumotni, balki jabrlanuvchi haqida ma'lumotni ham hisobga olish maqsadga muvofiq bo'lar edi, chunki ular o'zaro munosabatlarning tahlili va obyektiv bahosi adolatli hukm chiqarishga yordam beradi.

Ta'kidlab o'tish lozimki, sud tomonidan jazo tayinlash vaqtida inobatga olingan shaxsning barcha belgilari hukmda aks ettirilishi kerak, bunda, jazo tayinlash vaqtida aybdorning shaxsi inobatga olingan deb

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 4-банд // Тўплам, 2-жилд, 226-б.

ko'rsatishning o'zi yetarli bo'lmaydi. Xususan, «sudlanuvchining javobgarligi darajasi xususiyatiga qanday holatlar ta'sir etganligi, shuningdek, uning shaxsini tavsiflovchi sud muhokamasida tasdiqlangan va JK 54-moddasiga binoan jazo tayinlashda sud tomonidan hisobga olingan boshqa holatlarni hukmda ko'rsatib o'tishi lozim»¹.

Jazo tayinlashda, sodir etilgan tajovuzning og'irligidan qat'i nazar, har bir alohida holatda sud, **jazoni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlarni** inobatga olishi lozim. Ushbu holatlarning jazoning qattiqligiga ta'sir qilish darajasi sud tomonidan belgilanadi, ammo u yaqqol nomuvofiq bo'lmashligi kerak. Ayni paytda, jazo tayinlash vaqtida, nima uchun u yoki bu yengillashtiruvchi yoxud og'irlashtiruvchi holatlarni inobatga olmaganligini sud asoslashi talab qilinmaydi. Agar sud, ushbu holatlarni inobatga olib jazo tayinlasa, bu hol hukmda o'z ifodasini topishi lozim.

Jazoni individuallashtirish jarayonida, sud Jinoyat kodeksi prinsiplaridan, xususan, insonparvarlik tamoyillari talablaridan kelib chiqqan holda ish tutishi lozim. Bu tamoyilga muvofiq, qattiq jazo choralarining samarasi nisbatan birmuncha yengil choralar bilan amalga oshmaydigan holatda qo'llanishi mumkin bo'ladi. Shu sababli, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatda, og'ir va o'ta og'ir jinoyatni sodir etishda qonunda jinoyatni yengillashtiruvchi holatlar nazarda tutilmagan bo'lsa, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni inobatga olgan holda sud shaxsga nisbatan qattiqroq jazo tayinlashni nazarda tutishi lozim.

Shu bilan birga, ish bo'yicha aniq holatlar, shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni inobatga olgan holda, birinchi marta ijtimoiy xavfi uncha katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etgan va jamiyatdan ajratish talab qilinmaydigan shaxsga yengilroq jazo tayinlash haqidagi masalani muhokama qilish kerak. Shaxs javobgar deb topilgan JK maxsus qismi moddasi sanksiyasida ozodlikdan mahrum qilish bilan bir qatorda yengilroq jazo turi (alternativ sanksiya) nazarda tutilgan hollarda, hukm chiqarish chog'ida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq

¹ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2014 йил 23 майдаги «Суд хукми тўғрисида»ги 7-сонли қарори, 28-банд, 2-хатбоши // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. – Т.: «Адолат», 2014. – 351-б.

bo‘lmagan jazo tayinlash masalasini muhokama qilish kerak. Bunday hollarda ozodlikdan mahrum qilish jazosi sud hukmida asoslantirilishi shart¹.

2-§. Jazoni yengillashtiruvchi holatlar

Jazoni yengillashtiruvchi holatlar JK 55-moddasi 1-qismida sanab o‘tilgan. Bularning mavjudligi qilmish ijtimoiy xavflilik darajasining kam ekanligidan dalolat beradi va sudga yengilroq jazo tayinlashga asos bo‘ladi, ya’ni JK Maxsus qismining sanksiyalari doirasida yengilroq jazo turi tanlash (alternativ sanksiya) yoki uning miqdorini kamaytirish (eng kamigacha)ga asos bo‘ladi. Jazoni yengillashtiruvchi holatlarning mavjudligi JK 57-moddasi yoki shartli hukm qilish (JK 72-moddasi) tartibida yengilroq jazo tayinlashga asos bo‘la oladi.

Aniq davlat majburlovi me’yorini tanlash yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan aniq har bir holat bo‘yicha ishning barcha materiallari asosida belgilanadi. Shuning bilan birga hukmning tavsifiy qismida, sud nima uchun aniq bir turdagi xususiyat va miqdori mavjud jazoni belgilagani sabablarini ko‘rsatib o‘tishi kerak.

Aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish (**JK 55-moddasi 1-qismi «a» bandi**) jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida ta’riflanadi, jinoyat tamom bo‘lgandan so‘ng aybdor shaxsning faol va maqsadga muvofiq harakati bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, mazkur holatlarning mavjudligi aybdor shaxs jamiyatga qarshi harakatining o‘zgaruvchan ekanligini hamda jazo qattiqligining pasayishiga asos bo‘lishi mumkinligidan dalolat beradi.

NOTA BENE !

Aybini bo‘yniga olib arz qilish – bu o‘zini odil sudlovga topshirish va tegishli jazoga tortilish maqsadida shaxsning sodir qilgan jinoyati haqida o‘z ixtiyori bilan xabar berishidir.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 5-банд // Тўплам, 2-жилд, 226-б.

Harakatni aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish deb e’tirof etish uchun tergov va sud organlari quyidagi belgilarni aniqlashlari kerak.

Aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish jinoyat tugallangandan so‘ng amalga oshirilgan bo‘lishi lozim. Aybdorning harakatlarida jinoiy jazoga loyiq belgilar mavjud bo‘lganidagina aybiga iqrор bo‘lib kelish mumkin bo‘ladi. Shuning uchun, jinoyat rejalashtirilayotganligi, uni amalga oshirish maqsadi mavjudligi to‘g‘risidagi xabar aybiga iqrор bo‘lib kelish deb qaralishi mumkin emas – bunday hollar uchun jinoiy jazo berilmay, jinoyatni amalga oshirishdan ixtiyoriy qaytish deb qaralishi lozim. Shuningdek, ana shu kabi ogohlantirish o‘z vaqtida amalga oshirilib, tegishli idoralar zararli oqibatlarining kelib chiqishining oldini olish uchun real imkoniyatga ega bo‘lgan sharoitda tayyorgarlik harakatlari to‘g‘risidagi ogohlantirishni ham jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb qaralishi kerak. Biroq aybiga iqrор bo‘lib kelgan shaxs uchun bunday imkoniyat bo‘lmagan hollarda, jinoyat to‘g‘risida xabar berish o‘z xohishiga ko‘ra jinoyatdan voz kechish emas, balki o‘z aybiga iqrор bo‘lib kelish deb baholanishi kerak.

Aybiga iqrор bo‘lib kelish shaxsan amalga oshirilishi yoki jinoyatga oid ma’lumot istalgan shaklda (yozma, og‘zaki ravishda yoki harakat orqali) yetkazilishi mumkin. Bunda xabar (ma’lumot)ni yetkazish usuli va uzatilish shakli ahamiyatga ega bo‘lmay, telefon, telegramma, xat, telefaks, internet kabi imkoniyatlardan foydalanish mumkin. Ushbu holda xabar bevosita unda yo‘llangan faktlarni tekshirish va jinoiy ish qo‘zg‘atish vakolatiga ega bo‘lgan idoralarga yo‘llangan bo‘lishi zarur. Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq, surishtiruv va dastlabki tergov idoralari, prokuror va sud ana shunday idora deb e’tirof etiladi (JPK 28, 33, 35, 38-moddalari).

Jinoyat to‘g‘risidagi arz shaxsan amalga oshirilgan bo‘lib, aybiga iqrор bo‘lib kelgan shaxsning kimligini qiyinchiliksiz aniqlash imkonini beradigan ma’lumotlarga ega bo‘lsagina aybiga iqrор bo‘lib kelish deb e’tirof etiladi. Shu sababli, nomi ko‘rsatilmagan (anonim) arizalar aybiga iqrор bo‘lib kelish deb e’tirof etilishi mumkin emas.

Aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish ixtiyoriy bo‘lishi lozim¹.

Aybiga iqrор bo‘lib kelishning ixtiyoriyligi quyidagi hollarda ayon bo‘ladi:

– jinoyatga oid xabar berish hali tegishli idoralarga sodir etilgan jinoyat haqida ma‘lum bo‘lib ulgurmasidan avval amalga oshirilganda (JPK 113-moddasi 1-qismi);

– huquqni muhofaza qiluvchi organlarga noqonuniy tajovuz to‘g‘risida ma‘lum bo‘lib, biroq uni sodir etishda gumon qilingan yoki ayblangan shaxs (jinoyat bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan hollarda – ishtirokchilardan biri) hali aniqlanmagan hollarda²;

– ushbu idoralarga jinoyat ma‘lum bo‘lgan bo‘lsa, uni sodir etishda gumon qilinganlar yoki aybdorlar ham aniqlangan, biroq aybiga iqrор bo‘lib kelgan shaxs bundan bexabar bo‘lsa;

– jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs tergov organlariga ma‘lum bo‘lmagan boshqa sodir etgan jinoyati haqida xabar bergan bo‘lsa³;

– aybiga iqrор bo‘lib kelishdan maqsad aybdor shaxsning tegishli idoralarga sodir etilgan hodisa haqida haqqoniy xabar berish yo‘li bilan o‘zini odil sud qo‘liga topshirish va loyiq jazoga tortilishdan iboratdir. Shu tufayli, yanada og‘irroq jinoyat uchun javobgarlikdan qutulish, shuningdek, jinoyatning boshqa ishtirokchilarini «yashirib» jinoyat uchun barcha javobgarlikni o‘z zimmasiga olish maqsadida shaxsning jinoyat to‘g‘risida xabar yetkazishi aybga iqrор bo‘lib kelish deb e‘tirof etilmaydi. Shu bilan birga, shaxs bir necha jinoyatni sodir etib, biroq ulardan ba‘zilari xususidagina boshqalari uchun javobgarlikdan qutulish maqsadida aybini bo‘yniga olib kelganida, iqrор bo‘lish shaxsning arizasida qayd etilgan jinoyatlarga nisbatan jazoni yengillatuvchi jihat deb e‘tirof etilib, boshqa harakatlariga jazo tayinlashda bu hisobga olinmaydi (masalan, shaxs o‘g‘rilik va qotillikni sodir etdi va og‘ir jazodan qutulish maqsadida faqat o‘g‘rilik qilganiga iqrор bo‘lib keldi. Bu kabi holatda aybiga iqrор bo‘lib

¹ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 7-банд, 2-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 226–227-б.

² Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарорининг 7-банди 3-хатбошисига мувофиқ, агар жиноят содир этилганлиги факти бўйича кўзгатишган иш бўйича уни содир этган шахс аниқланган бўлмаса, шахснинг ўз қилмиши тўғрисида иштиёрий равишда берган аризаси ёки хабари айбни бўйнига олиш деб баҳолашни керак // Тўплам, 2-жилд. – 227-б.

³ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 7-банд, 3-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 227-б.

kelish o'g'rilik uchun javobgarlik belgilashda jazoni yengillashtiruvchi holat deb tan olinadi, biroq qasddan odam o'ldirish uchun jazo tayinlashda sud tomonidan e'tiborga olinmaydi¹).

Shuningdek, aybiga iqrор bo'lib kelishning jazoni yengillashtirishga oid ahamiyati jinoyat sodir etilganidan iqrор bo'lib kelgunga qadar o'tgan vaqtga jinoyat ishi qo'zg'atilishi, shaxsni gumon qilinuvchi yoki aybdor deb e'tirof etilishi haqidagi qaror, shaxsni qidirish kabi omillarga bog'liq emas. Aybiga iqrор bo'lib kelish barcha ushbu hollarda teng ahamiyatga ega (yuqorida nomi keltirilgan barcha shartlarga rioya qilingan holda), chunki u ana shu shaxsning o'zi sodir etgan harakatga ichki munosabatini anglatadi, uning sodir qilgan ishidan afsuslanganidan dalolat berib turadi. Jazo maqsadiga erishish uchun bunday holatda yengilroq chora qo'llanilishi ham mumkin.

NOTA BENE !

Chin ko'ngildan pushaymon bo'lish – bu shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyatda o'z aybini to'liq va ochiqdan-ochiq tan olinishi, sodir etgan jinoyati va yetkazilgan zarardan sidqidildan afsuslanishi, o'z xulqini qoralash hamda jazoni sodir etilgan qilmishning o'rinli va adolatli oqibati sifatida qabul qilishdan iboratdir.

Chin ko'ngildan pushaymon bo'lish istalgan vaqtda yuzaga kelib, jinoiy ish yuritishning istalgan bosqichida, biroq hukm chiqarilgunga qadar amalga oshirilishi mumkin. Xususan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish aybiga iqrор bo'lib kelganda, surishtiruv ishlari davomida, dastlabki tergov vaqtidagi tergov ishlari o'tkazishda, sudlanuvchi so'nggi so'zini aytayotganida amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, tergov va sud idoralari shaxs to'plangan dalil-isbotlar qarshisida ilojsiz aybini tan olmay, balki haqiqatan ham sodir etgan ishidan chin yurakdan pushaymon bo'layotganligini aniqlashi shart.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарорининг 7-банди 4-хатбошисига мувофиқ, «икки ёки ундан ортиқ жиноят содир этилиб, улардан айримлари бўйича шахс айбини бўйнига олиб келган бўлса, бу ҳолат жазони енгиллаштирувчи сифатида фақат бўйнига олиш тўғрисида ариза берилган жиноятлар учун жазо тайинлаш пайтида ҳисобга олинаши керак» // Тўплам, 2-жилд. – 227-б.

NOTA BENE !

Jinoyatni ochishga faol yordam berish aybdor shaxs tomonidan tergov idoralari va sudga ko'ngilli va ixtiyoriy ravishda sodir etilgan jinoyatga oid unga ma'lum axborotni xabar berishdan iborat.

Aybini bo'yniga olib kelishdan farqli ravishda, mazkur jihat dastlabki tergov bosqichida tergov harakatlari vaqtida va sud tergovi paytida jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxs aniqlanganida ro'y beradi.

Jinoyat fosh etilishiga faol yordam berish faqat tergov va sud idoralariga ma'lum bo'lmagan ma'lumotni yetkazishdan iborat bo'lmay, balki mavjud ma'lumotlarga aniqlik kiritish, tergov harakatlarini o'tkazishga ko'maklashish, dalil-isbot yig'ishga imkon qadar yordam berishdan iborat. Xususan, faol ko'maklashish jinoyatni sodir etish vaqti, joyi va usulini aniqlashtirish, jinoyat qurollarining yashirilgan joyini ko'rsatish, jinoyatchining sheriklari to'g'risida ma'lumot berish, mol-mulkni qidirib topish kabilarda ifodalanishi mumkin.

Aytib o'tish joizki, JK 55-moddasi 1-qismi «a» bandida qonunda ko'rsatilgan holatlarning bir xilligiga qaramasdan, ular yaxlit bir narsadan iborat bo'lmay, balki o'zaro bog'liq majmuini tashkil etishi ta'kidlangan. Yuqorida keltirib o'tilgan har bir sharoit – aybini bo'yniga olib kelish, chin yurakdan pushaymon bo'lish, jinoyatning ochilishiga faol yordam berish mustaqil ravishda aniqlanishi kerak va bu mazkur bandeda ko'rsatilgan boshqa shartlar mavjudligiga bog'liq emas. Shu bilan birga, Jinoyat kodeksining 66-moddasiga muvofiq, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar jinoyat sodir qilingandan keyin jinoyat tufayli yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilib, aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi masalasi sudlar tomonidan hal etilishi lozim.

Yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish (JK 55-moddasi 1-qismi «b» bandi) har qanday turdagi – jismoniy, mulkiy,

ma'naviy zararga nisbatan ham amalga oshirilishi mumkin. Yetkazilgan zarar o'rnini qoplash shaxs harakatlarini jazoni yengillashtiradigan shart deb topilishi uchun ahamiyati bo'lmasa ham, biroq ushbu harakatlar amalga oshirilgan usulga ta'sir ko'rsata oladi.

NOTA BENE !

Zararni qoplash – bu aybdorning jinoiy harakatidan kelib chiqqan zararli oqibatlarni kamaytirishga qaratilgan, noqonuniy tajovuz tufayli yetkazilgan zarar o'rnini qoplash yoki uni bartaraf etishga qaratilgan ongli harakatlaridir.

Zarar o'rnini qoplash deb, zarar yetkazilgan moddiy ne'matning qiymati tiklanishiga aytiladi. **Yetkazilgan zarar bartaraf etilganida** esa, moddiy ne'mat, ob'ektning o'zi yoki jinoyat predmeti tiklanadi.

Zararni tiklashning muayyan usuli va shakli ham zararining turiga, ham uning og'irlik darajasiga ko'ra farqlanadi. Xususan, jismoniy zarar yetkazilgan hollarda, u jabrlanuvchini davolashga ko'maklashish yoki tegishli davolash haqini to'lash, tana a'zosi va to'qimalarini taqdim etish, zarur tibbiy dori-darmon xarid qilish kabilar orqali qoplanishi mumkin.

Yetkazilgan mulkiy zararni bartaraf qilish uning asl holatini tiklash (shikast yetkazilgan mulkni ta'mirlash) – zararni bartaraf qilishdan ham, shuningdek, shikastlangan mulkni almashtirish yoki ularning pul yoxud boshqacha shaklda o'rnini to'ldirish (masalan, mulkiga teng qiymatdagi mulkni topshirish) – zararni qoplashdan ham iborat bo'lishi mumkin. Jinoyat obyekti bo'lgan mulk qiymatini aniqlashda, uning egasi tomonidan xarid qilinishi holatlaridan, jinoyat sodir etilgan vaqtdagi davlat ulgurji narxidan, bozor yoki komission narxlardan kelib chiqish lozim. Mulk qiymatini aniqlash imkoniyati bo'lmaganda, u tegishli mutaxassislar jalb qilinib, ekspert xulosasiga ko'ra belgilanadi¹.

Ma'naviy zararni yengillashtirish, shuningdek, o'rnini qoplash (masalan, xizmat mavqeiga yetkazilgan zarar o'rnini pul bilan qoplash) yoki uni bartaraf qilish shaklida (masalan, uzr so'rash) bo'lishi mumkin.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий Суди Пленумининг 1998 йил 11 сентябрдаги «Жиноий ҳаракатлар оқибатида етказилган моддий зарарни қоплаш масаласига доир суд амалиёти тўғрисида»ги 21-сонли қарори, 8-банд, 1-хатбоши // Тўплам, 1-жилд. 172-б.

Qonun mazmun-mohiyatidan kelib chiqib aytganda, faqat yetkazilgan, ya'ni jinoyat sodir etilishi oqibatida **yetkazilgan muayyan zarar** bartaraf qilinishi zarur, chunonchi zarar o'rnini qoplash yuzaga kelib ulgurgan oqibatlarni bartaraf etishga qaratilgan. Agar shaxs yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararining oldini olgan hollarda uning harakatlari Jinoyat kodeksining 26-moddasiga muvofiq, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb ta'riflanishi kerak.

Bunda o'rni qoplangan zarar hajmi va to'liqligi aybni yengillashtiruvchi holat deb e'tirof etilishi shartli emas. Sudlar yetkazilgan zararining tiklanishiga ketgan sarf-xarajat uning miqdoriga to'liq mos kelishiga e'tibor qaratishi lozim. Tiklanish darajasi qancha kam bo'lsa, yetkazilgan zarar o'rnini qoplash ham shu qadar to'liq bo'lmaydi va ixtiyoriy ravishda zararni kamaytirishning jazoni yengillashtirishga ta'siri ham shuncha kam bo'ladi. Bunda aybdorning shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar, uning moddiy ahvoli ham hisobga olinishi shart.

Qonunning bevosita ko'rsatmasiga muvofiq, yetkazilgan zararining qoplanishi faqat u **ixtiyoriy ravishda**, ya'ni shaxsning ongli ichki istagi va tashabbusi bilan, tashqaridan biron-bir ta'sir ko'rsatmay amalga oshirilgan taqdirdagina jazoni yengillashtiruvchi jihat deb e'tirof etiladi. Tergov va sud idoralarining majburiy choralar yordamida yetkazilgan zararni qoplatishi jazoni yengillashtiruvchi jihat sifatida e'tirof etilmaydi (masalan, o'g'irlangan mol-mulkni qo'lga tushirish vaqtida musodara qilish). Faqat muayyan sharoitga rioya qilgan holda yetkazilgan zararni qoplatish ham javobgarlikni yengillashtiradigan jihat sifatida tan olinishi mumkin emas (ishni to'xtatish, jabrlanuvchi tomonidan o'z arizasini qaytib olishi, guvoh o'z ko'rsatmalarini o'zgartirishi va hokazo).

Yetkazilgan zarar o'rnini qoplash, odatda, ana shu zararni yetkazgan shaxs tomonidan amalga oshirilishi kerak. Biroq obyektiv sabablar tufayli mazkur shaxs mustaqil va bevosita tarzda yetkazilgan zararni tiklash imkoniga ega bo'lmasa, zarar boshqa shaxslar tomonidan ham qoplanishi mumkin. Faqat ushbu shaxslar aybdorning iltimosiga binoan harakat qilishayotganini va uning o'zi zarar o'rnini qoplash to'g'risida qarorga kelganligini aniqlash kerak bo'ladi. Shuningdek, bunday hollarda yetkazilgan zararni qoplash uni yetkazgan shaxs mablag'lari hisobiga,

faqat favqulodda sharoitda, uning yaqinlari (ota-onasi, yaqin qarindoshlari) mulki hisobiga amalga oshiriladi.

Yetkazilgan zarar o'rnini qoplash hukm chiqarilguniga qadar istalgan vaqtda amalga oshirilishi mumkin. Xususan, yetkazilgan zarar o'rnini tiklash bevosita jinoyat sodir etilganidan so'ng, shu bilan birga bir oz vaqt o'tgach, jumladan, surishtiruv ishlari, dastlabki tergov va sud jarayonida amalga oshirilaveradi. Bu ma'noda qonunda biron-bir istisno nazarda tutilmagan.

Zarar o'rnini qoplash qilmishning kvalifikatsiyasiga ta'sir ko'rsatmaydi. Shunday qilib, yetkazilgan zarar o'rni qay darajada qoplanganidan qat'i nazar, zarar miqdori umumiy, dastlabki hajmdan kelib chiqqan holda qoplanadi. Masalan, aybdor juda ko'p miqdorda o'zlashtirish sodir etgan bo'lib, zarar o'rnini qoplash oqibatida yetkazilgan zarar hajmi jiddiy kamayganligi ham uni baholashga ta'sir ko'rsatmaydi – u huquqiy jihatdan juda ko'p miqdorda o'zlashtirish sifatida baholanishi lozim.

Yuzaga kelgan og'ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish (JK 55-moddasi «b» bandi).

Qonun mazkur ro'yxatni ochiq qoldirib, bu bilan inson faoliyatining turli-tuman jihatlarini aks ettirgan va shu tufayli ularni qonunda sanab o'tishning iloji bo'lmagan boshqa barcha shartlar jinoyatni yengillashtiruvchi sharoit deb e'tirof etilishi kerakligini nazarda tutadi. Shu vaqtning o'zida jinoyat sodir etishni u yoki bu sharoit ta'sirida jazoni yumshatadigan sharoitlar sirasiga kiritadigan bosh mezon – mazkur sharoitning noqonuniy tajovuzga qo'l urgan shaxs uchun og'ir bo'lganligidir. Jinoyat sodir etilishiga sabab bo'lgan sharoit og'ir bo'lgandagina, ular jazo chorasining yengillashtirilishiga olib kelishi mumkin.

Sharoitlar ularning obyektiv mavjudligi muayyan shaxsning ongli va irodaviy faoliyatiga putur yetkazgan, jinoyat sodir etishdan tiyib turadigan omillar ta'sirini pasaytirgan, ushbu sharoitni bartaraf etish maqsadida jinoyat sodir etishga undagan yoki aybdorning ahvolini yengillashtirgan hollarda **og'ir** deb tan olinishi lozim. Bunda shuni yodda tutish kerakki, u yoki bu sharoitning og'irligi mutlaq bo'lmay, balki muayyan shaxsga bog'liq, shu tufayli sharoitlarning og'irligi har bir holda alohida belgilanishi shart.

Xususan, quyidagilar og‘ir sharoit sifatida e‘tirof etilishi mumkin:

- shaxsiy turmushning izga tushmaganligi (masalan, qarama-qarshi jinsga mansub shaxslar bilan munosabatining yomonligi);
- yashash uchun yetarli mablag‘ga ega bo‘lmaslik;
- aybdor yaqinlaridan birining og‘ir xastaligi;
- jabrlanuvchi bilan o‘zaro ixtilof yoki aybdorning g‘am-tashvish, omadsizlik tufayli kelib chiqqan ruhiy iztiroblari;
- turmush sharoitining og‘irligi va h.k.

Yuzaga kelgan og‘ir sharoitni jazoni yengillashtirishga xizmat qiladigan sharoit deb e‘tirof etilishi uchun ular quyidagi muayyan belgilarga ega bo‘lishi shart:

– mazkur sharoit real, obyektiv ravishda, jinoyat sodir etayotgan shaxsning irodasiga bog‘liq bo‘lmagan tarzda mavjud bo‘lishi shart. Bunda og‘ir sharoit, odatda, to‘satdan emas, balki davomli rivojlanish oqibatida yuzaga kelib, natijada aybdor shaxsda tushkunlik tuyg‘usini yuzaga keltiradi;

– sodir etilayotgan huquqqa xilof tajovuz og‘ir sharoit bilan muayyan sabablar orqali bog‘langan bo‘lib, ana shu sharoit jinoyat sodir etilganligining asosiy, yetakchi sababi bo‘lishi shart. Mavjud og‘ir sharoit (etishmovchilik) sodir etilgan harakatning asosiy sababi bo‘lib kelmas ekan, u jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida qaralishi mumkin emas. Masalan, mavjud shaxsiy og‘ir sharoit yuzaga kelishi oqibatida juda ko‘p miqdorda o‘g‘rilikka qo‘l urish, turmush sharoitining og‘irligi sabab bezorilik qilish jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida baholanmasligi lozim va h.k.

Shuni ham yodda tutish kerakki, aybdor o‘zining noqonuniy harakatlari yoki yomon xulqi sababli kelib chiqqan og‘ir sharoitlar ta‘sirida jinoyatga qo‘l urganda ham bu hol jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida xizmat qilishi mumkin emas. Masalan, spirtli ichimliklar, narkotik moddalar yoki ruhiyatga ta‘sir ko‘rsatuvchi moddalarni ortiqcha iste‘mol qilish, shuningdek, qimor o‘yinlari o‘ynaganligi tufayli og‘ir moddiy yoki boshqa og‘ir sharoitga tushib qolish ham jazoni yengillashtiruvchi holat hisoblanmaydi.

Jinoyat kodeksining **55-moddasi 1-qismi «g» bandiga muvofiq, majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa**

jihatdan qaramligi sababli jinoyat sodir etish jazoni yengillashtiradigan alohida sharti sifatida kiritilishining sababi shuki, bu ushbu jinoyatni sodir etgan shaxsning nosogʻlom irodasi mahsulidir. Jinoyat shu kabi vaziyatda tanlash imkoni qolmaganligi sababli majburan qoʻl urilgan, soʻnggi tashlangan qadamdir. Shunday qilib, noqonuniy tajovuz bunday hollarda jinoyat subyektining jamiyatga qarshi fikrlashini ifodalamaydi va bu oʻz navbatida uning jamiyat uchun xavfi u qadar katta emasligidan dalolat berib, jazoni muvofiq ravishda yengillatishni talab etadi.

Majburlash koʻrib chiqilayotgan modda mazmunida jismoniy yoki ruhiy boʻlishi mumkin.

NOTA BENE !

Jismoniy majburlash boshqa shaxsga zoʻrlik ishlatish yoʻsinidagi jismoniy choralarni qoʻllash orqali, yaʼni shaxsni boʻysundirish yoki xatti-harakat erkinligini cheklash maqsadida uning irodasiga zid ravishda sodir etiladigan taʼsir koʻrsatishda ifodalanadi.

Jismoniy majburlashdagi zoʻrlik ishlatish xususiyatidagi choralar turli darajadagi tan jarohati yetkazishda, turli xil kuchli taʼsir qiluvchi va giyohvandlik vositalari, ularning analoglarini qoʻllashda, ozodligini cheklash va h.k.da ifodalanishi mumkin – mazkur choralarning muayyan xususiyati jinoiy qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

NOTA BENE !

Ruhiy majburlash boshqa shaxslarga, majbur qilinayotgan shaxs yoxud uning yaqinlari hayotiga, sogʻligʻiga, mulkiga yoki ularning boshqa huquq va qonun bilan qoʻriqlanadigan manfaatlariga zarar yetkazish tahdidida, shuningdek, uning ongiga bevosita taʼsir qilishda (turli psixotrop vositalarni qoʻllash, gipnoz va h.k.) namoyon boʻladigan ruhiy zoʻrlik choralarni qoʻllab, taʼsir koʻrsatishda ifodalanadi.

Shuni taʼkidlab oʻtish lozimki, jismoniy va ruhiy majburlashning zarur belgisi, bu shu jinoyatning majburlanayotgan shaxs irodasiga qarshi

qilinishidir. Bunday bo‘lmasa majburlash bo‘lmaydi (masalan, do‘kon qorovuli jinoyat ishtirokchisi bo‘la turib, unga jinoyatga daxldorligi haqida gumon tushmasligi uchun o‘zini boylashni so‘raydi). Ushbu holatda majburlov sifatida shaxsning irodasiga qarshi faqat noqonuniy choralar qo‘llanilishini tan olish shart. Mumkin bo‘lgan va qator vaziyatlarda qonun bilan talab qilinadigan choralarni qo‘llash majburlov sifatida qaralishi mumkin emas (masalan, qamoqqa olish, noqonuniy harakatlar ustidan shikoyat qilish bilan qo‘rqitish va boshqalar). Bunday vaziyatlarda soxta majburlanayotgan shaxs tomonidan uchinchi shaxslarning huquq va manfaatlariga zarar yetkazgan qilmishi zarur shartlar mavjudligida, qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan sodir etilgan jinoyat deb kvalifikatsiya qilinishi shart.

Shaxsning irodasini sindirish, bo‘ysundirish, uning harakat erkinligini cheklash uchun qo‘llangan jismoniy yoki ruhiy majburlovning muayyan usullari jazo belgilashda ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Xususan, majburlov shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali (masalan, atayin yollangan odamlar orqali tan jarohati yetkazish) amalga oshirilishi, ruhiy majburlovda uning tashqi ifodalanishi turli shakl olishi (og‘zaki, yozma, imo-ishora yordamida) va h.k.

Moddiy qaramlik deganda, jabrlanuvchining aybdordan qonun bilan belgilangan moddiy yordam (pul, oziq-ovqatlar, kiyim-kechaklar va h.k.) olib kelganligini yoki uning bevosita qaramog‘ida bo‘lganligi holatlari tushunilishi lozim¹. Bu, odatda, ishsiz odamning ishli odamga, bolalarning ota-onasiga, ishlamaydigan ota-onaning moddiy daromadi bor bolalariga qaramligidir. Shu bilan birga moddiy qaramlikni aybdorning noqonuniy yoki axloqsiz faoliyati (masalan, spirtli ichimliklarni, narkotik yoki psixotrop moddalarni ortiqcha iste‘mol qilish) bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda jazoni yengillashtiruvchi holat deb tan olinishi mumkin emas.

Xizmat jihatidan aybdorga qaramlik shaxsning xizmatga ko‘ra bo‘ysunishi bilan bog‘liq bo‘ladi, shuningdek, bevosita kelib chiqmaydigan, lekin uning mehnati yoki o‘quvi ustidan nazorat qilish vazifalari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Xususan, xizmat bo‘yicha

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий Суди Пленумининг 1998 йил 11 сентябрдаги «Ўзини ўзи ўлдириш даражасига етказиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 20-сонли қарори, 4-банди, 2-хатбоши // Тўплам, 1-жилд. 168-б.

qaramlik xizmatchi va boshliq, tekshiruvchi va tekshirilayotgan shaxs o'rtasida mavjud. Shu bilan birga jinoyatga qo'l urayotgan shaxs bilan xizmat munosabatlarida bo'lmagan boshliqning rafiqasi, yaqin do'stlar o'rtasidagi munosabatlar xizmat faoliyatiga ta'sir ko'rsata olmaydi (masalan, qo'l ostidagilar yoki xizmatdoshlar).

Boshqa turdagi qaramlik deganda, shaxs hodisalar rivoji natijasida o'zini boshqa birovga qarzdor deb hisoblaydigan moddiy tomondan yoki xizmat taqozosi bo'yicha bog'liq vaziyatlardan farqli har qanday vaziyatga aytiladi. Bu kabi qaramlik qarindoshlik, og'aynichilik va ishqiy munosabatlar hamda diniy yoki boshqa tuyg'ular asosida paydo bo'ladi.

Qonunda bir shaxsning ikkinchi shaxsga tobeligi deb e'tirof etilishi mumkin bo'lgan asoslarning to'liq ro'yxati keltirilmagan. Ushbu holatda masalani uzil-kesil hal qilish sudlar zimmasiga yuklatilgan. Bunda jinoyat qaysi asoslarga ko'ra qaramlik tufayli sodir etilganligi hukmda ko'rsatib o'tilishi kerak.

Shuni ham nazarda tutish kerakki, qaramlikning jazoni yengillashtiruvchi holat deb tan olinishi uchun sud jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan tobe (masalan, tirikchilik uchun mablag' bermaslik, lavozimini pasaytirish, do'stona aloqalarini uzish va h.k.) shaxs tomonidan salbiy oqibatlar yetkazishi haqida ochiq yoki yashirin tahdid bilan bog'liqligini aniqlashi kerak. Aks holda, bunday tahdid mavjud bo'lmagan yoki u aybdor tomondan o'ylab topilgan bo'lsa, tobelik jazoni yengillashtiruvchi holat deb e'tirof etilmasligi shart.

Qaramlikning biror turiga oid majburlovni jazoni yengillashtiradigan holat deb e'tirof etish uchun, sudlar ularning aybdor shaxs xulqiga ta'siri darajasi va imkoniyatiga alohida e'tibor qaratib, bunda mavjud bo'lmagan majburlov yoki bog'liqlikni (tobelikni) o'ziga xos xususiyatlari bilan birgalikda qarab chiqib, har bir holat aniq belgilanishi kerak. Masalan, jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida pul mukofotidan mahrum bo'lishdan qo'rqib juda ko'p miqdorda o'g'rilik qilish, yengil jarohatlar olishdan qo'rqib o'ldirish holatlari hisoblanishi mumkin emas. Ayni paytda shuni nazarda tutish kerakki, aybdorning irodasiga qaramligi yoki majburlovning ta'sir darajasi shaxsning individual xususiyatlari tomonidan

aniqlanadi va shuning uchun sudlar tomonidan har bir holatda ta'kidlanishi shart.

Shaxsning qilmishlariga JK 55-moddasi 1-qismi «g» bandi bo'yicha baho berishda sud majburlovga jiddiy e'tibor berishi shart. Shu bilan birga, shuni ham yodda tutish kerakki, majburlov shaxs harakatlari yo'nalishini tanlash imkoni bo'lgan holdagina jazoni yengillashtiruvchi sharoit deb e'tirof etadigan qoida asosida ish ko'rilishi zarur. Majburlash tufayli shaxs o'z harakatlarini boshqarish imkonidan mahrum etilgan o'zga hollarda esa, **JK 38-moddasi 5-qismiga** asosan, javobgarlikka tortilmaydi (bunday hollarda qilmish o'ta jiddiy zarurat sifatida tan olinadi).

Shuni ham unutmaslik kerakki, ushbu toifa ishlarni ko'rib chiqq turib, sud majburlovga yo'l qo'yilgan yoki tobelikdan boshqa shaxsni jinoyat sodir etish uchun foydalangan shaxslarning javobgarlik me'yorini aniqlashga alohida e'tibor berishi shart. Xususan, mazkur shaxslar muayyan jinoyatda ijtimoiy xavflilik darajasi bajaruvchiga nisbatan jiddiyroq va muhimroq bo'lib chiqishi mumkin bo'lib, ular bu holda jinoyatga undagan shaxs sifatida e'tirof etilishi mumkin. Shu sababli, muayyan jazo chorasini tayinlashda sud ishtirokchilar faoliyatining sabablari, ular aybining darajasi va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi kerak.

JK 55-moddasi 1-qismi «d» bandiga ko'ra **jabrlanuvchining zo'rlik ishlatishi, og'ir haqorati yoki boshqacha g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish** holatida jinoyat sodir etishi alohida yengillashtiruvchi holat sifatida nazarda tutilgan.

Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida odamning ongi qisqaradi, u vaziyatga to'g'ri baho berish, o'z qilmishlarini nazorat qilish va boshqarish imkoniyatlaridan mahrum bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, sodir etiladigan jinoyatlar to'laligicha inson ongli boshqaruvida bo'lmay, bu qilmish huquqiy jihatdan baholanishi JKda hisobga olinadi.

Affekt holatining ikki – fiziologik va patalogik turlari mavjud bo'lib, ularning har biri qonunda turlicha talqin qilinadi. Xususan patalogik affekt holatida ong xiralashib, shaxsning o'z harakatlarini boshqarish imkoni

yo‘qoladi¹. Shaxs bunday hollarda aqli noraso deb e’tirof etilib, jinoiy jazoga tortilishi istisno etiladi.

Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishda ko‘rib chiqilayotgan moddani qo‘llash uchun faqat fiziologik affekt ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

NOTA BENE !

Fiziologik affekt – bu qisqa muddatli, lekin jo‘shqin kechayotgan emotsional reaksiya va shu vaqtning o‘zida bu juda kuchli, qizg‘in kechinma: qahrga aylanayotgan g‘azab, dahshatlashib borayotgan qo‘rquv, umidsizlikka etadigan g‘am chekish oqibatida aybdor o‘z harakatlarini nazorat qilish va boshqarish imkoniyatini yo‘qotadi.

Fiziologik affekt ruhiyatga katta ta’sir ko‘rsatsa ham, biroq insonni o‘z xatti-harakatini anglash, uning uchun javob berish imkoniyatidan mahrum qilmaydi². Shuni nazarda tutish kerakki, affekt holatini va uning turini aniqlash maqsadida, sud-psixiatriya ekspertizasini o‘tkazish talab etiladi.

Kuchli ruhiy hayajonlanish holati JK 55-moddasi 1-qismi «d» bandida ko‘rsatib o‘tilgan quyidagi shartlarga rioya qilingandagina jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida qabul qilinishi mumkin:

– affekt holati kuch ishlatish, og‘ir haqorat yoki boshqa noqonuniy harakatlar tufayli kelib chiqqan bo‘lishi kerak;

– kuchli ruhiy xayajon holati, jismoniy qilmish bunday holatni keltirib chiqargan shaxsga qarshi sodir etilgan bo‘lsagina, jazoni yengillashtiruvchi holat deb e’tirof etiladi.

Shuni ham yodda tutish kerakki, qonun kuchli ruhiy hayajonlanish holatida jinoyat sodir etilishini, jinoyat faqat harakatlari ana shu holatni keltirib chiqargan shaxsga qarshi sodir etilgandagina yengillashtiruvchi holat deb e’tirof etishi mumkin. Shu sababli, bunday holga aloqasi bo‘lmagan shaxsga nisbatan jinoyat sodir etilganligi yengillashtiruvchi holat deb ko‘rsatib o‘tilishiga yo‘l qo‘yish mumkin emas.

Zaruriy mudofaaning, oxirgi zaruratning asosli chegarasidan chetga chiqib jinoyat sodir etish, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan

¹ Большой юридический словарь. Под ред. А.Я. Сухарева, В.Е. Крутских. М., ИНФРА, 2000, – С. 41.

² Ўша жойда.

shaxsni ushlashda, kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan asosli tavakkalchilikda zarar yetkazish (JK 55-moddasi «e» bandi). Bunday vaziyatlarda shaxsning qilmishi ko‘proq ijtimoiy foydali maqsadlarni ko‘zlaydi va bu qilmish o‘zining ijtimoiy xavflilik darajasini ko‘p miqdorda yo‘qotadi. Shuning uchun bunday vaziyatlar jazoni yengillashtiruvchi holat deyiladi. Biroq ijtimoiy xavfli qilmishning qisman xavf tug‘dirishi tufayli uni sodir etgan shaxsga yengil bo‘lsa ham, jazo tayinlanadi.

JK 55-moddasi 1-qismi «e» bandida ko‘rsatib o‘tilgan qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi har bir holatga shaxsning xulq-atvori jinoiy emasligi to‘g‘risida xulosa chiqarish mumkin bo‘lgan sharoitlar yig‘indisi tegishli. Xususan, zaruriy mudofaa tajovuz shartlaridan (tajovuzning huquqqa xilofligi, mavjudligi va haqiqiyli) va himoya shartlaridan (zararni aynan tajovuzchiga yetkazish, o‘z vaqtidaligi va boshqalar) iborat bo‘lib, ular yig‘indisi zaruriy mudofaa vaziyatini qilmishning jinoyatligini istisno qiladigan holatlar qatoriga qo‘shishga imkoniyat beradi. Bu shartlarning bir-biriga yaqqol mos kelmasligi esa, boshqacha qilib aytganda tajovuzning xususiyati himoyaning xususiyatiga mos kelmasligi zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish va shaxsning xulqi jinoiy ekanligi haqida dalolat beradi. Biroq jazo tayinlashda sud, aybdor zaruriy mudofaa yoki JK 55-moddasi «e» bandida ko‘rsatib o‘tilgan holatlarda bo‘lganligini inobatga olishi shart.

JK 55-moddasi 1-qismi «e» bandini qo‘llashda unda sanab o‘tilgan holatlar ro‘yxati tugallangan va kengaytirib sharhlanishi mumkin emasligini e‘tiborga olish lozim. Shu tufayli mazkur bandga muvofiq, buyruqni yoki boshqa majburiyatni bajarganligi yoki qilmishning kam ahamiyatli ekanligi sababli jazoni yengillashtirishga yo‘l qo‘yilishi mumkin emas. Shu bilan bir vaqtning o‘zida, tegishli sharoitning mavjudligi buyruqni yoki boshqa majburiyatni amalga oshirish JK 55-moddasi 1-qismi «g» bandiga muvofiq, xizmat taqozosi bilan yoki boshqacha sharoit ta‘sirida sodir etilgan deb tan olinishi jazoni yengillashtirishga olib kelishi mumkin. Qilmishning kam ahamiyatliligi esa JK 55-moddasi 2-qismi qoidalariga binoan, jazoni yengillashtiradigan

mustaqil holat sifatida (masalan, kichik hajmda o'g'rilik sodir etilgan holatda va boshqalar) hisobga olinishi kerak.

Voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishi jazoni yengillashtiruvchi holatlar safiga qo'yilishini bir qator sabablar bilan, jumladan, jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarining insonparvarlik prinsipiga asoslanganligi bilan izohlash mumkin (**JK 55-moddasi 1-qismi «j» bandi**).

Voyaga yetmaganlarning shaxsi, ularning dunyoqarashi hali to'liq shakllanib bo'lmaganligi bilan ajralib turadi. U o'zi sodir etgan jinoyatning mohiyatini ko'p hollarda to'liq anglab yetmaydi. Bundan tashqari, yoshga bog'liq bo'lgan qiziqqonlik, o'zini tuta olmaslik kabi boshqa xususiyatlar tufayli o'spirin jinoyatga katta yoshli insonga nisbatan tezroq qo'l urishi mumkin. Shu bilan birga, voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo maqsadlariga davlat tomonidan qo'llanadigan qattiq majburlov choralarni qo'llamay turib ham erishish mumkin. Shuning uchun tegishli sharoitda voyaga yetmagan jinoyatchiga, xuddi ana shunday jinoyatga qo'l urgan katta yoshli shaxsga nisbatan yengilroq jazo tayinlanishi kerak.

Jinoyatni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsning voyaga yetmaganligi tufayli jazoni qay darajada yengillashtirish uning yoshiga bog'liq ravishda hal etilishi shart. Xususan, voyaga yetmagan jinoyatchining yoshi qanchalik kichik bo'lsa, unga nisbatan shunchalik yengilroq jazo tayinlanishi shart. Bunda hukmda shaxsning voyaga yetmaganligi faktining o'zi emas, balki uning aniq yoshi (masalan, 14 yosh 2 oy, 16 yosh 2 oy va h.k.) ko'rsatilishi muhimdir.

Ayni paytda ushbu holat sud tomonidan hamma vaqt qilmishning og'ir-yengilligidan qat'i nazar hisobga olib borilishi shart. Qonunda bunga nisbatan hech qanday cheklovlar belgilanmagan.

Homilador ayolning jinoyat sodir etishi (JK 55-moddasi 1-qismi «z» bandi). Bunday holatda jinoyatni sodir etish jazoni yengillashtiruvchi holat deb hisoblanishining sabablari – homiladorlik davrida ayol organizmida yuz beradigan fiziologik o'zgarishlar uning ruhiyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishidir. Homiladorlik davrida ayollarda ko'pincha jizzakilik, kayfiyatining keskin o'zgarib turishi, tez jahl chiqishi kabi holatlar

kuzatilib, ularning harakatlari ruhiyati normal holatdagi insonlardan farqlanishi mumkin. Uncha jiddiy bo'lmagan sabab ham homilador ayolning ruhiy muvozanatini buzib, uning noqonuniy qilmishiga, shu jumladan, jinoyatga qo'l urishiga yetaklashi mumkin.

Jazoni yengillashtiruvchi holat deb tan olinishi uchun ayol jinoyatni sodir etish vaqtida homilador bo'lishi alohida ahamiyatga egadir. Jinoyat sodir etilgan vaqtga qadar bo'lgan homiladorlik mazkur bandeda qayd etilgan sharoit sifatida hisobga olinishi mumkin emas. Shu bilan birga, ayolning homiladorligi shaxsga oid ma'lumotlarni hisobga olishda sud tomonidan qayd etilishi shart.

Homiladorlikning jazoni yengillashtiruvchi holat deb e'tirof etilishi uchun ayolning o'sha vaqtdagi va sodir etilgan jinoyat o'rtasidagi sababiy bog'lanish ahamiyatga ega emasligini nazarda tutish kerak. Bunda faqat ayol homilador holida noqonuniy tajovuzga yo'l qo'yilganligini aniqlash kerak bo'ladi, xolos.

Shu vaqtning o'zida mazkur sharoit muayyan jazo chegarasini qay darajada yengillashtirishi lozimligini aniqlash maqsadida quyidagi ma'lumotlar hisobga olinishi shart: homiladorlik davri (ya'ni, nechanchi oyi), homiladorlik birinchisimi yoki yo'qmi, aybdor ayolning turmush tarzi, uning bolalari to'g'risida qayg'urishi va h.k.

Jabrlanuvchining g'ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori ta'siri ostida jinoyat sodir etishi (JK 55-moddasi 1-qismi «i» bandi).

JK 55-moddasining mazmunida axloqqa zid harakatlar sifatida qo'polligi va yuzsizligi bilan ajralib turgan odamlarning jamiyatda o'zini tutishning umumiy qabul qilingan qoidalarini ataylab buzishdan iborat bo'lgan xulq-atvori tushuniladi.

Huquqqa xilof xulq-atvor tushunchasi nafaqat jinoyat huquqi, balki huquqning boshqa: fuqarolik, mehnat, oila, ma'muriy va boshqa jabhalariga ham oid bo'lishi mumkin bo'lgan qonunchilik me'yorlarining buzilishlarini ham qamrab oladi. Jabrlanuvchi tomonidan buzilayotgan qonunchilik me'yorlarining biror-bir jabhaga tegishliligi, bu kabi xulqni noqonuniy deb baho berishda ahamiyatga ega emas. Shu bilan birga, sharhlanayotgan sharoitning jazoni yengillashtirishga ta'sir darajasini

aniqlashda, sud jabrlanuvchi tomonidan huquqning qaysi sohasiga oid me'yorlari buzilganligini hisobga olib, bunda jinoiy va ma'muriy huquq talablariga rioya qilmasligi, bu shaxsning jamiyat uchun muayyan xavf tug'dirishidan, demak sodir etilgan jinoyatning kamroq ijtimoiy xavfga egaligi va shunga muvofiq ravishda jazoni yengillashtirish zaruratidan dalolat beradi. Jinoyat huquqi me'yorlarini buzgan jabrlanuvchi ta'siridan jinoyat sodir etgan aybdor bilan jabrlanuvchining fuqarolik huquq me'yorlariga rioya qilmaganligi tufayli kelib chiqqan va qonuniy tajovuz uchun ayblanayotgan shaxsga jazo bir xil bo'lishi mumkin emas.

Jabrlanuvchining huquqqa xilof yoki axloqqa zid xulqi jazoni yengillashtiradigan sharoit deb faqat u atayin amalga oshirgan taqdirdagina e'tirof etilishi mumkin. Jinoyat jabrlanuvchi tomonidan huquq va axloq me'yorlarini tasodifan yoki ongsiz ravishda buzishi oqibatida sodir etilgan bo'lsa, u holda mazkur sharoit jazoni yengillashtira olmaydi. Shu vaqtning o'zida sud JK 55-moddasi «d» bandida ko'rsatilgan sharoit belgilari mavjudligi yoki mavjud emasligi masalasini hal etishi lozim.

Eslatish lozimki jabrlanuvchining noqonuniy xulqi qonun mohiyatiga ko'ra jinoyat sodir etishiga asosiy sabab bo'lishi lozim: qonunda ko'rsatilishicha, u ana shunday xulq ta'sirida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, jinoyat sodir etilishi motivlari turli xil: o'ch olish, qo'rquv, nafrat va h.k. bo'lib, tahlil qilinayotgan holatni jazoni yengillashtiruvchi sifatida tan olishga ta'sir qilmaydi, ammo sud tomonidan muayyan jazo chorasini belgilashda hisobga olinishi lozim.

Ko'rib chiqilayotgan holat jinoyat bevosita jabrlanuvchining noqonuniy yoki axloqsiz xulq-atvori (qilmishi)dan so'ng sodir etilgan bo'lishi, shuningdek, bu qilmishga qaratilganligiga e'tibor berilmaydi (u ham jinoyatda ayblanuvchi shaxsga, uning yaqinlari yoki u uchun begona shaxslarga qaratilgan bo'lishi mumkin). Biroq ushbu ko'rsatilib o'tilgan holatlar sud tomonidan sharhlanayotgan sharoit qay darajada jazoni yengillashtirishga ta'sir ko'rsatishini aniqlashda hisobga olinishi kerak. Bunda sud, mazkur sharoitni aybdor shaxsga oid ma'lumotlar bilan birgalikda har bir shaxs bu kabi xulqni emotsional nuqtai nazardan o'zgacha qabul qilishini hisobga olgan holda hal etadi.

Qonun ko'rsatmasiga muvofiq, g'ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori ta'siri ostida jinoyat sodir etgan shaxsning harakatlari huquqqa xilof yoki axloqqa zid xatti-harakatlarni sodir etgan shaxsga qaratilgandagina jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida e'tirof etiladi.

Agar jinoyat boshqa shaxslarga nisbatan amalga oshirilgan bo'lsa, u holda qonunning mazmun-mohiyatiga ko'ra ko'rib chiqilayotgan sharoitni jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida qo'llanishini noo'rin deb e'tirof etish lozim. O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi Plenumi qaroriga ko'ra qonun (JK 55-moddasi) jazoni yengillashtiruvchi holatlar doirasini cheklamaydi. Shu sababli jazo tayinlash paytida ushbu moddada ko'rsatilmagan boshqa holatlar ham jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida hisobga olinishi mumkin (masalan, ijtimoiy xavfliligi katta bo'lmagan jinoyatning birinchi marta sodir etilishi, sudlanuvchining yosh bolasi borligi, jinoyatning bironvga rahmdillik ko'rsatilishi sababli sodir etilishi, aybdor tomonidan bevosita jinoyat sodir etilganidan so'ng jabrlanuvchiga tibbiy yoki boshqa tarzda yordam ko'rsatilishi va h.k.).

JK 55-moddasi 3-qismi jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida nazarda tutilgan bo'lsa, JK 55-moddasida ko'rsatib o'tilgan bo'lishiga qaramay, jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida inobatga olinishi mumkin emas, degan qoidani qonun darajasida mustahkamlaydi. Jinoyat tarkibi belgilarining mavjudligi bilan ular qonun chiqaruvchi tomonidan jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida hisobga olinib, JK Maxsus qismining tegishli moddasi sanksiyasining u qadar qat'iy ko'rinish olmaganligida namoyon bo'lgan (masalan, JK 98-, 101-, 106-moddalari shu bilan birga qonun chiqaruvchi tomonidan JK 55-moddasining 1-qismida jinoyat tarkibi belgisi sifatida ko'rsatilgan u yoki bu sharoitlarning e'tirof etilishi sudga muayyan ishni ko'rib chiqishda jazoni yengillashtiradigan boshqa holatlarni ko'rib chiqishni hisobga olishga xalal bermaydi).

3-§. Jazoni og'irlashtiruvchi holatlar

JK 56-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan jazoni og'irlashtiruvchi holatlar sodir etilgan jinoyat va aybdorning ijtimoiy xavfliligi yuqoriligidan dalolat beradi. Bu holatlar mavjud bo'lsa, sud bu holatlar bo'lmaganligiga

nisbatan og‘irroq jazoni berishi shart. Shu bilan birga qilmishda ikki yoki undan ortiq og‘irlashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lsa, sud qilmish kvalifikatsiya qilingan modda sanksiyasining eng ko‘piga teng yoki unga yaqin bo‘lgan jazoni va qo‘shimcha jazoni tayinlashi mumkin. Shu bilan birga bu holatlarning xususiyatiga hamda bu holatlarning bir-ikkitasi borligiga qaramasdan sud JK Maxsus qismi moddasining sanksiyasida nazarda tutilgan jazoning chegarasidan chiqmasligi kerak.

Shunday qilib, jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar JK 55-moddasi qoidalari bilan birgalikda hisobga olinishi sudga muayyan ishni ko‘rib chiqishda qo‘llanayotgan jazoni individuallashtirishni birmuncha ketma-ketlik bilan va tizimli ravishda amalga oshirish imkonini beradi.

Homiladorligi aybdorga ayon bo‘lgan ayolga nisbatan jinoyat sodir etishning ijtimoiy xavflilik darajasi, qilmish bevosita qaratilgan shaxsning huquq va manfaatlarigagina zarar yetkazish xavfini tug‘dirish bilan emas, balki ayni vaqtda homilaning normal rivojlanishiga, hayoti va sog‘lig‘iga ham xavf tug‘dirishi bilan belgilanadi.

Sharhlanayotgan og‘irlashtiruvchi holat mavjudligini aniqlash uchun sud tomonidan aybdor ayolning homiladorligini avvaldan bilgan bo‘lishi lozimligi aniqlanishi kerak¹. JK Maxsus qismining 8-bo‘limiga binoan ayonlik – bu qonunda ko‘rsatilgan holatlar va xatti-harakatga, shaxsning bilganligidan dalolat beruvchi munosabati bilan shartlanadi. Ayolning homiladorligi aybdorga ayon bo‘lganligi haqida tashqi belgilar, shu bilan birga aybdor tomonidan jinoyatni sodir etishdan avval yoki uni amalga oshirish vaqtida olingan boshqa ma’lumotlar guvohlik berishi mumkin. Jabrlanuvchining homiladorligi haqidagi taxmin ham ayolning mazkur holati aybdorga ayon deb qaralishi lozim. Shu bilan birga, ushbu taxmin xato bo‘lib chiqqan holda (jabrlanuvchi amalda homilador bo‘lib chiqmasa), sharhlanayotgan holat mavjudligini qayd etishga yo‘l qo‘yilmaydi². Shuningdek, aybdor jabrlanuvchi homiladorlik holatida emas, deb faraz qilgan hollarda oldindan ayonlik belgilari mavjud bo‘lmaydi.

¹ «Олдиндан аён бўлиш» тушунчаси Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси Махсус қисмининг VIII бўлимида берилган.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 7-банд, 2-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. 194-б.

Homiladorlik muddati, shuningdek, homilador ayol o'ldirilishi natijasida uning homilasi nobud bo'lgan-bo'lmaganligi jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas¹. Biroq uning mazkur holat og'irroq jazoga olib keladigan darajasini sud «avvaldan ayon bo'lganlik darajasidan» kelib chiqib belgilashi lozim, ya'ni jabrlanuvchining homiladorligi aybdor uchun qancha aniq va yaqqol bo'lsa, belgilanadigan jazo shu qadar og'irroq bo'lishi shart. Bu holda mazkur sharoit uchun jinoyat sodir etilishi natijasida biror-bir oqibatlar kelib chiqqan bo'lishi muhim emas (masalan, muddatidan avval tug'ish, go'dakning nobud bo'lishi, jabrlanuvchining zaharlanishi va h.k.). Ular undan tashqarida bo'lib, jazoni og'irlashtiradigan mustaqil jihat tegishli sharoit mavjud bo'lganida og'ir oqibatlarning kelib chiqishi sifatida hisobga olinishi shart.

Yosh bola, qariya yoki ojiz ahvoldagi shaxsga nisbatan jinoyat sodir etish (JK 56-moddasi «b» bandi) jinoyatni sodir etishni osonlashtiradi, aybdorning ma'naviy jihatdan tubanligi, uning jamiyat uchun jiddiy xavf tug'dirishidan guvohlik beradi. Bularning bari ushbu holatni aybdorga jazo tayinlashda og'irlashtiruvchi holat sifatida hisobga olish zaruratini taqozo etadi.

Yosh bolalar deb, 14 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlarni hisoblash lozim. Ayni vaqtda shuni e'tiborga olish lozimki, shaxs tug'ilgan kun o'tganidan so'ng, ya'ni ertasi kunning nol soatidan boshlab 14 yoshga to'lgan deb hisoblanishi kerak².

Qariyalar deganda, 55 yoshga to'lgan ayol yoki 60 yoshga to'lgan erkak tushuniladi³.

Ojiz ahvoldagi shaxslar deganda, yoshi kattaligi, kasalligi, jismoniy kamchiligi va boshqa omillar tufayli jinoyatchiga qarshilik ko'rsata olmaydigan kishilarni tushunish kerak.

Ojizlik jabrlanuvchining jismoniy yoki ruhiy nosog'lomligi tufayli jinoyatchiga qarshilik ko'rsata olmasligida o'z huquqlari, manfaatlari va

¹ Ўша жойда, 7-банд, 1-хатбоши.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 15 сентябрдаги «Вояга етмаганларнинг жиноятлари хақидаги ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 21-сонли қарори, 5-банд, 1-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. 25-б.

³ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги «Безориликка оид ишлар бўйича суд амалиёти хақида»ги 9-сонли қарори, 6-банд, 3-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. 112-б.

qadr-qimmatini himoya qila olmasligida, shuningdek, kutilayotgan xavfdan saqlana olmasligida namoyon bo‘ladi¹.

Ojizlik turli obyektiv va subyektiv sabablar, shu jumladan, surunkali kasallik, hushdan ketish, uyqu kabilar tufayli kelib chiqishi mumkin. «Jabrlanuvchining alkogol ichimlik, giyohvand yoki psixotrop modda ta’sirida atrofdagi vaziyatni anglay olmaydigan darajada mastligi, uning ojiz ahvolda bo‘lgan deb tan olinishiga asos bo‘lishi mumkin. Bunda jabrlanuvchini kim bu ahvolga solganligi ahamiyatga ega emas»².

Ushbu bandni qo‘llash uchun aybdor shaxs jabrlanuvchining yosh bolaligi, qariyaligi, nogironligi yoki ojiz ahvolda ekanligini anglab yetgan bo‘lishi talab etiladi³. Aks holda ko‘rib chiqilayotgan jihatning qayd etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Xizmat vazifasi yoki fuqarolik burchini bajarganligi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan jinoyat sodir etish (JK 56-moddasi 1-qismi «v» bandi) jiddiy ijtimoiy xavf tug‘diradi, chunki u davlat idoralari, korxonalar, mulkchilikning turli shaklidagi muassasalar va tashkilotlarning normal ish faoliyatiga to‘sqinlik qiladi. Aynan ana shu sabablar tufayli mazkur sharoit qonunda jazoni og‘irlashtiradigan holat deb e’tirof etiladi.

«Xizmat burchini bajarish deganda, shaxsning o‘z xizmat (mehnat) vazifalari doirasiga kiradigan harakatlari tushuniladi»⁴. Bunda jabrlanuvchi tomonidan faqat mehnat shartnomasida yoki ichki mehnat tartibi qoidalari, ichki yo‘riqnomalarida belgilangan mehnat vazifalarini bajarishi shart qilib qo‘yilib, bunda korxonalar, muassasa, tashkilotning mulkchilik shakliga yoki ularning vakolati doirasiga bog‘liq bo‘lmaydi. Xususan, ichki ishlar xodimlari ham, xususiy korxonalar ishchilari, harbiy xizmatchilar va korxonalarining ichki qo‘riqlash xizmatchilari yoki oddiy ishchi xodimlar, menejerlar ham teng ravishda xizmat vazifasini ado etayapti deb hisoblash kerak.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги «Безориликка оид ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 9-сонли қарори, 6-банд, 3-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. 112-б.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги «Безориликка оид ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 9-сонли қарори, 6-банд, 4-хатбоши.

³ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги «Безориликка оид ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 9-сонли қарори, 6-банд, 5-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. 112-б.

⁴ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 9-банд, 3-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. 194-б.

Fuqarolik burchini bajarish deganda, «fuqaro tomonidan uning zimmasiga qonun bilan maxsus yuklatilgan majburiyatlarning amalga oshirilishi, shuningdek, boshqa ijtimoiy foydali harakatlar sodir etilishi (huquqbuzarlikning oldini olganligi, sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyat to‘g‘risida yoxud qidirilayotgan shaxs turgan joy haqida hokimiyat organlariga xabar berganligi, guvoh yoki jabrlanuvchi sifatida shaxsning jinoyat sodir etganligini fosh etuvchi ko‘rsatuvlar berganligi va h.k.) tushunilishi lozim»¹.

Mazkur holat faqat sodir etilgan tajovuz shaxsning aynan xizmat vazifasini yoki fuqarolik burchini ado etishi sababli kelib chiqqandagina jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida e‘tirof etiladi. Bunda sodir etilgan tajovuz vaqti ahamiyatga ega emas: u xizmat yoki fuqarolik burchini (qarshilik ko‘rsatish) ado etishdan avval yoki keyin, yo bo‘lmasa u bajarilayotgan vaqtda, shuningdek, xizmat yoki fuqarolik burchini ado etib bo‘lganidan keyin bir oz vaqt o‘tgach (bu kabi faoliyat uchun qasd olish maqsadida) amalga oshirilgan bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, ko‘rib chiqilayotgan xatti-harakatning aybdor qilmishida mavjudligini aniqlashning zarur belgisi jinoyat sodir etgan shaxsning bu ish jabrlanuvchining aynan o‘z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi bilan bog‘liqligi sababli amalga oshirilayotganligini aniqlashdan iborat.

Shu bilan birga, jinoyat ishtirokchilikda sodir etilgan hollarda mazkur jazoni og‘irlashtiradigan holat faqat jinoiy tajovuz sababini ongi orqali qamrab olgan shaxslarga nisbatan qilmish kim tomonidan amalga oshirilganidan qat‘i nazar belgilanishi mumkin. Masalan, qilmishning sababi jinoyat tashkilotchisi yoki dalolatchining faoliyati bilan qamrab olingan bo‘lsa-yu, bajaruvchining xatti-harakati bilan qamrab olinmagan bo‘lsa, uning qilmishida jazoni og‘irlashtiruvchi holat alomatlari bo‘lmaydi. Shu vaqtning o‘zida sud jazoni tashkilotchiga va dalolatchiga tayinlashda bu holatni nazarda tutishi shart.

Bevosita qonunda ko‘rsatilgani bo‘yicha jazoni og‘irlashtiruvchi mazkur sharoitlar kimga qarshi qaratilganidan qat‘i nazar, sud tomonidan hisobga olinishi shart: u, o‘z xizmat va fuqarolik burchini ado etayotgan

¹ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасдан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 9-банд, 3-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. 194–195-б.

shaxsning o'ziga, xuddi shunday tarzda uning yaqin qarindoshlarining huquq va manfaatlariga ham zarar yetkazishi mumkin. Bunda bu kabi shaxslarga nisbatan jinoyat ularning qarindoshining xizmat yoki jamoatchilik faoliyati bilan bog'liq ravishda sodir etilganini aniqlash muhim o'rin tutadi.

Shaxslarning yaqin qarindoshlari deganda, ota-onalari, opa-singillari, er-xotinlar, bolalari, jumladan, farzandlikka olinganlar kabilari, shuningdek, er-xotinning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillarini tushunish lozim.

Aybdorga moddiy tomondan, xizmat yoki boshqa jihatdan qaram bo'lgan shaxsga nisbatan jinoyat sodir etish (JK 56-moddasi 1-qismi «g» bandi) jazoni og'irlashtiruvchi holat deb qaraladi. Chunki jabrlanuvchining aybdorga qaramligi unga o'z jinoiy maqsadini amalga oshirishni yengillashtirib, jinoiy jazodan qochish imkonini paydo qiladi. Bundan tashqari, tobe shaxsga nisbatan jinoyat sodir etish jinoyatchining ma'naviy tubanligi, uning qahri qattiqligi, ba'zi hollarda esa, uning g'arazli yoki o'zgacha qabih niyatlaridan darak beradi. Bularning bari qilmish hamda uni sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavfi yuqoriligidan dalolat berib, bu nomi keltirilgan shart-sharoitning mustaqil jazoni og'irlashtiradigan holat deb hisoblanishini shart qilib qo'yadi.

(Moddiy, xizmat va boshqa turdagi qaramlik xususida mazkur bobning 2-§ da ko'rsatib o'tilgan.)

Mazkur og'irlashtiruvchi holatni belgilashda sud, ayniqsa, jabrlanuvchining aybdorga nisbatan qaramligi qay tarzda aybdorning jinoiy maqsadini amalga oshirishga ko'maklashganiga e'tibor berishi shart. Bunda sud ko'rib chiqilayotgan holatni aybdor tobelik holatidan bevosita yoki uni sodir etishni yengillashtirish uchun foydalangan hollardagina jazoni og'irlashtiruvchi holat deb e'tirof etishi mumkin. Masalan, agar rahbar mushtlashuv paytida o'ziga xizmat jihatidan qaram bo'lgan xodimga tan jarohatini yetkazsa, bunda bu xatti-harakat og'irlashtiruvchi holat sifatida qaralishi kerak emas, agar u xodimni haqorat qilib, ishdan bo'shatish bilan qo'rqitsa, bunday hol paydo bo'ladi.

o‘ta shafqatsizlik bilan jinoyat sodir etish (JK 56-moddasi 1-qismi «d» bandi) jinoyatchi shaxsning ijtimoiy xavfliligidan va unga nisbatan jazoni og‘irlashtirish zarurati borligidan dalolat beradi. Odatda o‘ta shafqatsizlik jabrlanuvchining hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazish bilan bog‘liq zo‘rlilik ishlatilgan jinoyatlarda mavjud bo‘ladi.

Shaxs qilmishida o‘ta shafqatsizlik alomatlarini belgilashda sudlar shunga e‘tibor berishlari kerakki, qonunda shafqatsizlik emas, balki o‘ta shafqatsizlik bilan sodir etilgan jinoyatlar jazoni og‘irlashtiruvchi holat deb qaraladi. Masalaning o‘zgacha hal etilishi JK 56-moddasi mazkur bandini qo‘llashni asossiz ravishda kengaytirib yuborishga olib keladi.

Jinoyat sodir etishdagi o‘ta shafqatsizlik shunday usul, vositalar yordamida amalga oshiriladiki yoki shunday xususiyatlarga ega bo‘ladiki, ular muayyan sharoitdan kelib chiqmagan ortiqcha azob va uqubatlar keltirib chiqarib, bularning barini aybdor anglab yetadi. O‘ta shafqatsizlik belgisi faqat muayyan obyektiv va subyektiv sharoit mavjud bo‘lgan hollardagina aniqlanishi mumkin, ya’ni:

– **obyektiv sharoit** jinoiy tajovuzning tashqi usul va vositalarida ifodalanadi. O‘ta shafqatsizlik odam o‘ldirish usullariga, jumladan, hayotdan mahrum etishdan oldin yoki qotillik sodir etish jarayonida jabrlanuvchini qiynoqqa solish yoki unga qattiq azob yetkazish bilan bog‘liq (kuchli og‘riq beruvchi zahardan foydalanish, tiriklayin yoqib yuborish, uzoq muddat ovqat, suv bermaslik) hollarni ham kiritish mumkin. Badanga ko‘plab shikast yetkazish orqali odam o‘ldirish, faqat aybdor buni jabrlanuvchiga qattiq azob-uqubat yetkazishga qaratilgan to‘g‘ri qasd bilan sodir etgan bo‘lsa, o‘ta shafqatsizlik ko‘rinishi deb baholanishi mumkin¹;

– **subyektiv sharoitlar** aybdor o‘zi qo‘llayotgan jinoyatni sodir etish usul va vositalari, shuningdek, uni amalga oshirishga oid boshqa sharoitlar jabrlanuvchiga ortiqcha azob berayotganligini anglashi kerak. Shu sababli qotillik sodir etilganida ko‘plab tan jarohatlari yetkazilishi, aybdor jabrlanuvchini qiynash, unga azob-uqubat yetkazish maqsadida harakat

¹ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 12-банд, 2-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. 195–196-б.

qilgandagina bu alohida shafqatsizlik bilan namoyon etish deb baholanadi¹.

O'ta shafqatsizlik bilan jinoyat sodir etish nafaqat jabrlanuvchining o'zini ortiqcha azoblash va qiynashdan iborat, balki uning yaqinlariga azob yetkazishda ham ifodalanishi mumkin. Masalan, jabrlanuvchini yaqin kishilari ko'z o'ngida o'ldirish, agar aybdor o'z harakatlari bilan ularga kuchli iztirob berayotganini anglagan bo'lsa, aybdor tomonidan o'ta shafqatsizlikda namoyon etilganligidan dalolat beruvchi holat sifatida baholanishi lozim².

Ko'pchilik uchun xavfli bo'lgan usulda jinoyat sodir etish (JK 56-moddasi 1-qismi «e» bandi) nomuayyan ijtimoiy munosabatlar doirasiga real xavf tug'diradi va bu qilmish aybdor shaxsda ijtimoiy xavf ko'payishiga ko'maklashadi va bu og'irroq davlat majburlov choralarini qo'llashni talab etadi.

Shaxsning qilmishida mazkur belgining mavjudligi, u tomondan sodir etiladigan usulning obyektiv xavfi bilan bog'liqligini o'rnatadi. Masalan, ko'pchilik uchun xavfli bo'lgan usulda jinoyat sodir etishga yong'in, portlatish, suv bostirish va boshqalar kirishi mumkin. Shu bilan birga bu belgining bo'lishi uchun aybdor tomonidan qo'llanayotgan va bu holda qonun bilan himoyalangan munosabatlarga zarar yetkazishga qodir bo'lgan subyektiv baho talab etiladi. Xavfning realligi ishning hamma vaziyatlarini, xususan, aybdor qurol sifatida ishlatgan zarar yetkazuvchi moddalarni, jinoyat sodir etilgan joyda jabrlanuvchidan tashqari boshqa shaxslar borligini va boshqalarni inobatga olgan holda aniqlanishi shart³.

Shu bilan bog'liq holda agar aybdor odam yo'q joyda va odamlar yashaydigan joydan uzoqda portlash qilib odam o'ldirsa, bunday holat ko'pchilik uchun xavfli bo'lgan usulda jinoyat sodir etish deb tan olinmaydi.

Qilmishni ko'pchilik uchun xavfli usul bilan sodir etilish belgisiga ko'ra baholashda tergov va sud idoralari oqibatlarining real ta'rifiga emas, balki aynan usulning xavfliligini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

¹ Ўша жойда.

² Ўша жойда, 12-банд, 3-хатбоши.

³ Ўша жойда, 10-банд, 2-хатбоши.

Shu bilan birga kelib chiqqan oqibatlarining xususiyati va katta-kichikligidan kelib chiqqan holda qilmishni real kelib chiqqan oqibatlar bilan tarkibda sharhlanayotgan belgiga zarar yetkazmasdan kvalifikatsiya qilinish kerakligini nazarda tutish muhim. Masalan, ko'pchilik uchun xavfli bo'lgan usulda odam o'ldirish va bu bilan boshqa odamlarga tan shikastini yetkazilgan bo'lsa, aybdorning qilmishi JK 97-moddasi 2-qismi «d» bandi bo'yicha (ko'pchilik uchun xavfli bo'lgan usulda odam o'ldirish) hamda JK qasddan tan jarohatini yetkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutgan moddalari bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak¹.

Yosh bola yoki ruhiy kasalligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsdan foydalangan holda jinoyat sodir etish (JK 56-moddasi 1-qismi «j» bandi) qonun tomonidan jazoni og'irlashtiradigan mustaqil holat deb e'tirof etilishining sababi shundaki, huquqqa xilof xatti-harakatni sodir qilayotgan shaxs tomonidan ruhiy xastaligi oqibatida qilmishini anglab yetmaydigan shaxslarning jalb etilishidir. Shu bilan birga, mazkur shaxslardan foydalanish aybdorga jinoiy jazodan qochishga imkon berib, uning ma'naviy tubanligidan dalolat beradi.

(Yosh bola tushunchasi haqida yuqorida, JK 56-moddasi 1-qismi «b» bandi tahlilida ko'rsatib o'tilgan.)

Ruhiy kasallikka chalingan shaxs deb, ularga xos bo'lgan ruhiy xastalik tufayli atrof-muhitni to'g'ri baholay olmaydigan, o'z harakatlari ahamiyatini anglay olmaydigan, biroq o'zini boshqara oladigan shaxslar e'tirof etilishi kerak. Shunday qilib, ruhiy xastalik bilan og'rigan shaxs deb, faqat aqli noraso shaxslar tan olinishi kerak. Bunda ushbu shaxslarning ruhiy xastaligi aybdorga ayon bo'lishi kerak.

Yosh bola yoki ruhiy kasalligi aybdorga ma'lum bo'lgan shaxsdan foydalanish ularni jinoyat sodir etishga ko'ndirish, yordamchi, shu bilan birga jinoyat bajaruvchisi sifatida jalb etishda ifodalanishi mumkin. Jinoyatning muayyan jihatlari jinoyat maqsadida foydalanilgan shaxsga oid ma'lumotlarga bog'liq holda amalga oshirilgan vaziyatda so'z vositachilik to'g'risida borishi mumkin. Biroq, har qanday holda ham

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 10-банд, 3-хатбоши.

shaxsning ko'rib chiqilgan hollarda jinoyat sodir etishini jazoni og'irlashtiradigan holatlar qatoriga kiritish kerak bo'ladi.

Shuni ham yodda tutish kerakki, jinoyat sodir etishda yosh boladan foydalanilganda aybdorning harakatlari JK 127-moddasi 3-qismi bo'yicha ham, alohida ko'rib chiqilayotgan shartlarga zarar yetkazmagan holda balog'atga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatga jalb qilish sifatida baholanishi mumkin. Masalan, qilmish voyaga yetgan shaxsning yosh boladan foydalangan holda o'g'rilikka jalb etishda ifodalangan bo'lsa, u holda voyaga yetgan shaxsning harakatlari JK 127-moddasi 3-qismi bo'yicha, shu bilan birga, yosh boladan foydalanib sodir etilgan o'g'rilik, ya'ni mazkur jinoyat uchun og'irlashtiruvchi holat sifatida JK 169-moddasi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Jinoyat tufayli og'ir oqibatlarning kelib chiqishi qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy oshirib, nisbatan og'irroq jazo tayinlanishini talab etadi (**JK 56-moddasi 1-qismi «z» bandi**).

Sud yuzaga kelgan oqibatlarga sodir etilgan jinoyatning ta'rifi va ishning barcha sharoitlarini hisobga olgan holda baho berishi lozim. Shuni ham qayd etish kerakki, oqibatlarning og'irlilik darajasini aniqlash zararli o'zgarishlarning tavsifi va darajasiga bog'liq bo'lib, jinoyat tarkibining boshqa belgilari bilan (aybning shakli, jinoyatni sodir etish usuli, subyekt belgilari) belgilanmaydi.

Og'ir oqibat sifatida faqat jinoyat qonunlari himoya qiladigan munosabatlardagi, jinoyat tarkibidan tashqarida joylashgan zararli o'zgarishlar e'tirof etilishi mumkin. Ushbu o'zgarishlar tarkibning konstruktiv yoki baholovchi belgisi sifatida nazarda tutilgan bo'lsa, bunday holda ular sud tomonidan og'irlashtiruvchi holat deb ko'rilishi mumkin emas. Biroq, bu kabi baholovchi belgining chegarasidan chiqib ketishi, jinoyatning omma uchun jiddiy xavf tug'dirishidan darak berib, bu JK 54-moddasi 2-qismi qoidalariga binoan jazo tayinlashda sud tomonidan hisobga olinishi kerak. Yuzaga kelgan og'ir oqibatlarni jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida e'tirof etish uchun ular sodir etilgan jinoyat bilan obyektiv va subyektiv jihatdan bog'liqliligini aniqlash talab etiladi. Xususan, mazkur oqibatlar agar ularga nisbatan qasddan harakat qilingan bo'lsa yoki ehtiyotsizlik tufayli yo'l qo'yilganida, shaxsga ayb sifatida

taqalishi mumkin. Bunda ushbu oqibatlar yuzaga kelgan davrning ahamiyati yo‘q: bevosita jinoyat sodir etilgan zahoti, shuningdek, ancha vaqt o‘tganidan so‘ng kelib chiqqan oqibatlar ham birday og‘ir deb e‘tirof etilishi mumkin. Shuningdek, oqibatlarning og‘ir deb tan olinishiga ularning bevositaligi yoki qilmishdan kelib chiqqanligi ham ta‘sir ko‘rsatmaydi. Bunda ularning bari aybdor ongi bilan qamrab olinganligini aniqlashning o‘zi kifoya. Shuni nazarda tutish kerakki, yuzaga kelgan oqibatlarning og‘ir deb e‘tirof etilishi – bu doimo faktga doir, oxir-oqibatda sud tomonidan hal etiladigan masala. Baholash real amalda yuz bergan o‘zgarishlardan kelib chiqib amalga oshirilishi shart. Bu holda hukmning tavsif qismida sud ushbu qilmishda mazkur belgining mavjudligini e‘tirof etishga asos bo‘lgan batafsil sharoitni keltirib o‘tishga majbur.

Umumiy ofat sharoitidan foydalangan holda yoki favqulodda holat vaqtida yoxud ommaviy tartibsizliklar jarayonida muayyan muvozanatni buzmaslik va aniq tenglikka erishish maqsadida ohista va e‘tibor bilan yondashishni talab etadi. Bularning bari ushbu davrda jamiyat barcha kuchlari bir maromda va kelishgan holdagi harakatini o‘zaro tushunishni talab qiladi.

Bunday sharoitda jinoyatga qo‘l urish jamiyat yoki tabiatning kuchlarini uyg‘otib, muvozanatni buzishi mumkin bo‘lib, bu jinoyatning ijtimoiy jihatdan xavfliligi darajasini namoyon etadi va shuning uchun nisbatan og‘irroq jazo tayinlanishini talab etadi.

Bundan tashqari, ofat vaziyatda jinoyat sodir etish aybdorning ma‘naviy jihatdan tubanligi, uning o‘ta xudbinligi, jamoatchilik manfaatlarini poymol etishi, qator hollarda niyati qoraligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, sharhlanayotgan sharoitning jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida e‘tirof etilishi nafaqat sodir etilayotgan jinoyatning, balki aybdor shaxsining ham ijtimoiy xavfini hisobga olish imkonini beradi.

NOTA BENE !

Umumiy ofat – ko‘plab odamlarning hayoti, sog‘lig‘i, mol-mulkini xavf ostiga qo‘yadigan ijtimoiy hayotga oid yoki tabiat hodisasi: urush, tabiiy falokat, yong‘in, epidemiya, yirik halokat va h.k.

NOTA BENE !

Favqulodda holat – davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralari, korxonalar, muassasa, tashkilotlar faoliyatining fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini maxsus qonunda belgilangan cheklashlarga yo‘l qo‘yadigan, shuningdek, ular zimmasiga qo‘shimcha majburiyatlar yuklaydigan alohida tartibi.

Favqulodda holat yirik ommaviy tartibsizliklar, ichki qurolli mojarolar, shuningdek, tabiiy ofatlar va texnologik falokatlar ro‘y berganida joriy etiladi. O‘zbekistonning barcha hududida yoki uning ma‘lum bir qismida favqulodda holat joriy etish huquqi faqat O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatiga tegishli va bunda favqulodda holat joriy etish to‘g‘risidagi qaror uch kun ichida Respublika Oliy Majlisi tasdig‘idan o‘tkazishga taqdim etilishi shart¹.

NOTA BENE !

Ommaviy tartibsizliklar – bu ommaviy joylarda o‘rnatilgan qoidalarni buzishda ifodalanadigan qiyin boshqariladigan ko‘pchilik odamlarning tartibsiz harakatlari.

Shuni nazarda tutish kerakki, umumiy ofat, ommaviy tartibsizlik yoki favqulodda holat sharoitida jinoyat sodir etishni og‘irlashtiruvchi holat sifatida e‘tirof etish uchun aybdor tomonidan shu vaziyatlar jinoyat sodir etishda foydalanilgan bo‘lishi kerak.

JK 56-moddasi 1-qismi «i» bandi mazmunida **foydalanish** deb, ongli ravishda umumiy ofat, favqulodda holat yoki ommaviy tartibsizliklar sharoitidan jinoyatni amalga oshirish yoki uning izlarini yashirish maqsadida foydalanish tushuniladi. Shu bilan birga, qonuniy harakatlarning (masalan, suv toshqini sharoitida yashovchilar hayotini asrab qolish maqsadida fuqarolar turar joy daxlsizligini buzish) bir qismi yoki ommaviy tartibsizliklarga xos bo‘lgan jinoyat tarkibining obyektiv tomonini tashkil qiluvchi (masalan, ommaviy tartibsizliklar paytida mol-

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, 78-модда 1-қисми 19-банди, 93-модда 1-қисми 19-банди.

mulkni nobud qilish) harakatlari ofat sharoitlaridan foydalanib jinoyat sodir etish deb qaralmaydi.

G‘araz yoki boshqa past niyatlarda jinoyat sodir etish (JK 56-moddasi 1-qismi «k» bandi). Qonunning u yoki bu qilmishni amalga oshirish sabablarini jazoni og‘irlashtiradigan sharoit deb ko‘rsatishi aybdor shaxsining ma‘naviy tubanligi, buning oqibatida jamiyat uchun yuqori xavflilik darajasi bilan tavsiflanib, bu nisbatan og‘irroq jazo belgilashni talab etadi.

G‘arazgo‘ylik – bu shaxsni jinoyat sodir etishiga undaydigan, o‘zi va boshqa shaxslar uchun turli xil moddiy foydani qo‘lga kiritishga qaratilgan qilmish (pul, buyum, mol-mulk, uy-joy huquqi) yoki moddiy xarajatlardan qutulish maqsadida (qarz, aliment to‘lamaslik) sodir etilgan qilmish demakdir¹.

Boshqa past niyatlarga hasad, o‘ch olish, bezorilik harakatlari, qo‘rqoqlik va boshqa tuban niyatlar kiradi.

Aytib o‘tish joizki, g‘arazgo‘y yoki boshqa past niyatlar motivi jinoyat sodir etilguniga qadar paydo bo‘lgan bo‘lsa, jinoyat g‘arazgo‘y yoki boshqa past niyatlarda amalga oshirilgan deb qaralishi lozim. G‘arazgo‘ylik yoki boshqa past niyatlar aybdorda jinoyat tugallanganidan so‘ng paydo bo‘lsa, u holda ular og‘irlashtiradigan holat sifatida e‘tirof etilishi mumkin emas².

Irqiyl yoki milliy dushmanlik yoxud adovat zamirida jinoyat sodir etishning xavflilik darajasi yuqoriroq ekanligi ma‘lum, chunki uning natijasida jamiyatda keskinlik, irqiy va milliy kamsitish vaziyati yuzaga kelib, bu umuman ijtimoiy munosabatlarning beqarorlashuvini keltirib chiqarib respublikaning rivojlanishiga, taraqqiy etishiga to‘sqinlik qiladi.

Milliy yoki irqiy adovat, ya‘ni boshqa millatga, irqqa mansub shaxsga, uning turmush tarziga, madaniyatiga, urf-odatlariga, oila turmushiga nisbatan g‘ayirlik yoki nafrat tuyg‘ulari bilan yoxud millatlararo, irqlararo

¹ Qarant: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 14-банд, 1-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. 197-б.

² Бундан, хусусан, Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарорининг 14-банди 5-хатбошиси таҳлили далолат бериб, унга мувофиқ, айбдорда моддий наф қўришга нисбатан қасд қотиллик содир этилганидан олдин пайдо бўлган ҳолдагина, қотиллик тамағирлик ниятида содир этилган, деб эътироф этилади. Агар бундай қасд қотиллик содир этилганидан кейин пайдо бўлган бўлса, қилмиш тегишинча қотиллик ва талон-торож сифатида квалификация қилинмоғи лозим // Тўплам, 2-жилд. 197-б.

adovat yoki nifoq solish maqsadida harakat qilish jismoniy yoki moddiy oqibatlar keltirib chiqarish yoki bo'lmasa millatlararo, irqalararo dushmanlik yoki nizo keltirib chiqarishga intilishdir¹.

Shu sababli shaxs qilmishining og'irlashtiruvchi holatlarini aniqlash uchun sud aybdor xulqining sabablari tavsifini belgilab olishi shart. Bunda hukmning tavsif qismida sud shaxsning qilmishida shu kabi vajlar mavjudligini batafsil asoslab berishi lozim.

Jazoni og'irlashtiruvchi holatlardan yana biri deb, qonun **bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tomonidan jinoyat sodir etishni** ham e'tirof etadi (JK 56-moddasi 1-qismi «m» bandi).

Mazkur holatning JK tomonidan bunday baholanishi muhim ahamiyatga ega. Birgalikda sodir etilgan jinoyat o'ta xavfli bo'lib, unda jinoyat sodir etish, jinoyat izlari yoki jinoyatchini yashirish yengilroq amalga oshadi. Undan tashqari, jinoiy tajovuzning birgalikda amalga oshirilishi og'irroq oqibatlarga olib kelishi bilan birga, ko'pincha jinoyatni fosh etishni murakkablashtiradi. Qilmishni mazkur belgiga ko'ra kvalifikatsiya qilishda sud, qonun nuqtai nazaridan, faqat avvaldan kelishgan guruh, uyushgan guruh yoki jinoiy to'da tarkibida jinoyat sodir etish jazoni og'irlashtiruvchi holat deb tan oladi. Mazkur ro'yxat qat'iy bo'lib, kengaytirib izohlanishi mumkin emas va shu bilan bog'liq ravishda guruh tarkibida avvaldan kelishmagan holda jinoyat sodir etish jazoni og'irlashtiruvchi holat deb e'tirof etilishi mumkin emas.

Jinoyatni **oldindan til biriktirib bir guruh shaxslar bilan sodir etish** ikki yoki undan ortiq shaxslar oldindan til biriktirib jinoyat sodir etishda ishtirok etishini nazarda tutadi. Shu bilan birga, bajaruvchilar sifatida jinoiy natijalarning kelib chiqishiga erishishga harakat qilib birgalikda amalga oshirgan va jinoyat sodir etishda bevosita qatnashgan, boshqacha qilib aytganda aybdorlarning har biri, jinoyatning obyektiv tomonini to'liq yoki qisman bajargan shaxslarni tan olish muhim.

¹ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 24 сентябрдаги «Қасддан одам ўлдиришга оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 13-сонли қарори, 15-банд // Тўплам, 2-жилд. 197-б.

NOTA BENE !

Uyushgan guruh deb, ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashishiga aytiladi (JK 29-moddasi 5-qismi).

Bunday guruh jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishi uchun oldindan birlashgan shaxslarning yuqori uyushganlik darajasi faoliyat olib borish vaqtining davomiyligi, ishtirokchilarning har biri unga yuklatilgan vazifaga muvofiq harakatlarining yuqori darajada tashkillashtirilganligi, jinoyatga tayyorgarlik va uni sodir etish jarayonida ular o'rtasidagi aloqaning barqarorligi, jinoyat izlarini yashirish, guruhdagi intizom va tashkilotchining bir necha bor jinoyat sodir etishga yo'naltirilgan ko'rsatmalariga bo'ysunishi va shu kabilar bilan tavsiflanadi.

NOTA BENE !

Jinoiy uyushma deb, ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhlarining jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun oldindan birlashishiga aytiladi (JK 29-moddasi 5-qismi).

Jinoiy uyushma ikki shaxsdan iborat bo'lishi mumkin emas, u ishtirokchilarning ko'proq sonini talab etadi. Jinoiy uyushma a'zolari o'rtasida qoida tariqasida jinoiy maqsadga erishish uchun vazifalar taqsimlanadi.

Jinoyatni yuqorida aytib o'tilgan hollarda bajarish har bir ishtirokchilar uchun jazoni og'irlashtiruvchi holat bo'ladi. Ayni paytda jazoni individuallashtirishda sudlar, bajaruvchilar bilan tashkilotchilar dalolatchiga va yordamchiga nisbatan og'irroq javobgarlikka tortilishini nazarda tutib guruhning tashkilotchilik darajasini hamda aybdor jinoyat sodir etishining xususiyati va darajasini nazarda tutishlari shart.

JK 56-moddasi 1-qismi «n» bandi qonun tomonidan jazoni og'irlashtiruvchi holat deb e'tirof etiladi.

Jinoiy tajovuzni takroran sodir etish, subyektning qat'iy g'ayriijtimoiy qarashlaridan, uning jamiyat uchun jiddiy xavf tug'dirishidan darak berib, nisbatan og'irroq jazo tayinlanishini talab qiladi.

NOTA BENE !

Takroran jinoyat sodir etish deb, JK Maxsus qismining aynan bir moddasida, qismida, Kodeksda alohida ko'rsatilgan hollarda esa, turli moddalarida nazarda tutilgan ikki yoki bir necha jinoyatni shaxs turli vaqtlarda sodir etgan, ammo ularning birortasi uchun ham sudlanmaganligiga aytiladi (32-moddasi 1-qismi).

NOTA BENE !

Retsidiv deb, shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan so'ng qasddan yangi jinoyat sodir etishiga aytiladi (JK 34-moddasi 1-qismi).

Qasddan takroran yoki ilgari sodir etilgan jinoyat uchun sudlangandan so'ng qasddan yangi jinoyat sodir etilishi, agar birinchi jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortish muddati o'tib ketgan, sudlanganlik belgilangan tartibda tugallangan yoki olib tashlangan yoxud shaxs muqaddam sodir etgan jinoiy xatti-harakat uchun qonunda javobgarlik bekor qilingan bo'lsa, shuningdek, JK 65, 66, 66¹, 68, 69, 70, 71, 76-moddalariga binoan shaxs ilgari sodir etgan jinoyati uchun jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod etilgan bo'lsa, jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida e'tirof etilishi mumkin emas¹.

Ushbu holatning jazoni og'irlashtirishga ko'rsatadigan ta'sir darajasini aniqlashda sudlar jinoyat takroran sodir etilgani yoki retsidiv ekanligiga alohida e'tibor berishlari shart, chunki ulardan ikkinchisi nisbatan qattiqroq jazo tayinlanishini talab etib, unda shaxsning avval jinoiy javobgarlikka tortilganligi nazarda tutiladi.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 10-банд // Тўплам, 2-жилд. 228-б.

Mastlik holatida yoki giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoki kishining aql-idrokiga ta'sir qiluvchi boshqa moddalar ta'siri ostida jinoyat sodir etish qonunda jazoni og'irlashtiruvchi holat deb belgilangan (JK 56-moddasi 1-qismi «o» bandi).

Mazkur holatda shaxs atrofdagi vaziyatga to'g'ri baho berish imkonini yo'qotib asta-sekin o'zini boshqara olmay qoladi, natijada mazkur shaxs tomonidan turli salbiy harakatlarga yo'l qo'yilishi mumkin. Bu kabi holat aybdorning ixtiyoriy holati oqibati ekanligini hisobga olib, qonun uni og'irlashtiruvchi holat deb baholaydi. Mazkur jihatni jazoni og'irlashtiruvchi holat deb e'tirof etishda aybdor nima yordamida mastlik holatiga tushgani ahamiyatga ega emas.

Jazo og'irligini belgilash uchun mastlik darajasi ham muhim ahamiyatga ega – u naqadar yuqori bo'lsa, jazo ham shunga yarasha bo'ladi.

JK 56-moddasi 2-qismi sudlar uchun JK 56-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan har qanday holatni jazoni og'irlashtiruvchi sifatida tan olmaslik huquqini beradi. Shu bilan birga, shuni nazarda tutish muhimki, jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida tan olmaslik faqat konkret ishni ko'rib chiqishda sud miqdoriy parametrlari bilan bog'liq emas, boshqacha qilib aytganda, u og'irlashtiruvchi sifatida bitta yoki bir qancha holatlarni, jinoyatning xususiyatidan kelib chiqib, tan olmasligi mumkin.

JK 56-moddasi 3-qismida keltirilgan jazoni og'irlashtiruvchi holatlar ro'yxati tugallangan bo'lib, kengaytirilgan tarzda talqin etishga yo'l qo'yilmaydi.

JK moddasida keltirilgan ro'yxatning tugallanganligidan quyidagilar kelib chiqadi:

– ushbu ro'yxat kengaytirib sharhlanmasligi lozim, ya'ni bu moddada keltirilgan jihatlar, ularga xos aynan ma'nosiga muvofiq, ularni u yoki bu shaxsning subyektiv qabul qilishidan qat'i nazar, anglanishi lozim;

– jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida faqat JK 56-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan holatlar hisoblanadi.

Boshqa holatlarning jazoni og'irlashtiruvchi sifatida e'tirof etilishi qonunga ziddir.

JK 56-moddasi 4-qismi qoidalariga muvofiq, biron-bir jazoni og‘irlashtiruvchi holat JK Maxsus qismining tegishli moddalarida jinoyat tarkibining alomati sifatida nazarda tutilgan bo‘lsa, jazo tayinlashda jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida hisobga olinmaydi¹.

Sud jazo tayinlashda faqat jazoni og‘irlashtiruvchi holatlarni hisobga olishi kerak emas. Shuning uchun jazoni og‘irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlari borligi haqida dalolat beradigan ma’lumotlarni, ularning xususiyatini va darajasini har tomonlama o‘rganib chiqib, hukmda nima uchun bunday qarorga kelganligining sabablarini keltirishi kerak.

4-§. Yengilroq jazo tayinlash

Jazo tayinlashning umumiy asoslariga ko‘ra, sudlanganga qo‘llaniladigan davlat majburlov chorasi u tomonidan sodir etilgan qilmish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi JK Maxsus qismi tegishli moddasi sanksiyasi doirasida tanlanishi lozim. Qonunning ko‘rsatilgan talabi sudlar tomonidan so‘zsiz bajarilmog‘i lozim, bundan JK 57-moddasida nazarda tutilgan, tegishli modda sanksiyasida belgilangan eng kam jazodan ham kam jazo tayinlashga asos bo‘ladigan holatlar mustasno. Qonundagi bu mustasno holat insonparvarlik prinsiplaridan kelib chiqadi. Bunga ko‘ra jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jinoiy jazo maqsadlariga erishish uchun zarur va yetarli bo‘lgan davlat majburlov choralarigina qo‘llanilishi lozim. Jazo tayinlashning umumiy asoslaridan chekinishga tegishli modda sanksiyasida nazarda tutilmagan, yengilroq davlat majburlov choralari qo‘llashdagina yo‘l qo‘yiladi. Sanksiyada ko‘rsatilmagan og‘irroq jazo tayinlashga mutlaqo yo‘l qo‘yilmaydi.

Qonun ko‘rsatmasiga ko‘ra, yengilroq turdagi jazo, JK 57-moddasi 1-qismida ko‘rsatilgan huquqiy asoslar mavjudligidagina tayinlanadi, ya’ni:

- sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlarda;
- alohida holatlarda.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 8-банд, 2-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. 227-б.

Mazkur asoslarning majmui mavjudligi hollarigina, sudlarga yengilroq jazo tayinlash imkonini beradi. Ko'rsatib o'tilgan asoslardan birining mavjud emasligi mazkur modda qo'llanishiga to'sqinlik qiladi.

JK 57-moddasi 3-qismiga muvofiq, «sodir etilgan qilmish xususiyatlarini ifodalovchi holatlar, ya'ni aybdorning shaxsi, aybining shakli va darajasi, jinoyat qilish sharoiti va sabablari, shaxsning jinoyatni sodir qilguncha va undan keyingi xulq-atvori» sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar deb tan olinishi mumkin.

Bunday holatlarga jinoyat sodir etish motivi va maqsadini, yetkazilgan zararining xususiyatini va miqdorini kiritish mumkin.

Jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holat deb, muayyan qilmishning xavfliligi bilan shunday qilmishlar uchun umumiy tarzda xos bo'lgan xavflilik orasidagi o'ta nomutanosiblik holatlarini hisoblash lozim.

Belgilab o'tish joizki, ishning biror-bir holati ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi deb topish – bu sud tomonidan har biri alohida holatda hal qilinadigan fakt masalasidir. Sud qilmishning ijtimoiy xavfliligi umumiy xususiyatidan emas, balki har bir holda alohida yondashuvdagi huquqiy baho berish predmeti, ko'rilayotgan ishga tegishli bo'lgan holatlardan kelib chiqadi. Sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini anchagina kamaytiruvchi holat sifatida, ularning miqdoriy xususiyatlariga bog'liq bo'lmagan holda, jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida qonunda ko'rsatilgan va ko'rsatilmagan holatlar tan olinishi mumkin (bunday holatlar bir ma'lum majmua sifatida va ulardan alohida bo'lgan holatlar sifatida ko'rsatilishi mumkin).

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ko'rsatmalariga ko'ra, «Jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi alohida holatlar ro'yxati qonunda ko'rsatilmaganligini nazarda tutib, sud qabul qilgan qarorini hukmda asoslantirgan holda jazoni yengillashtiruvchi ayrim holatni ham, ularning majmuini ham bunday holat sifatida tan olishi mumkin. (Masalan, moddiy zararining to'liq qoplanganligi, sudlanuvchi yoki ota-onasining og'ir kasalligi, ularning

mehnatga layoqatsizligi, aybdor ota-onasining yoki bolasining boshqa boquvchisi yo‘qligi, sudlanuvchining keksa yoshda ekanligi, uning bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatni ochishda faol ishtirok etganligi, jabrlanuvchining jinoyat sodir etilishiga turtki bergan huquqqa xilof xulq-atvori, jabrlanuvchining sudlanuvchi bilan yarashganligi va h.k.)»¹.

Bundan tashqari, sudlar iqtisodiyot sohasidagi jinoyatga oid ishlar bo‘yicha zararni qisman qoplagan shaxslarga nisbatan jazo tayinlashda JK 57-moddasini qo‘llash masalasini muhokama etishi mumkin.

Jumladan, jinoyat natijasida yetkazilgan zarar qiymatining kamida yarmi aybdor tomonidan qoplanganligi jazoni jiddiy kamaytiruvchi holat deb topilishi mumkin, sud tomonidan solidar javobgarlik belgilangan hollarda zararni qisman qoplagan shaxslarga nisbatan jazo tayinlashda ham xuddi shu prinsipga amal qilish kerak².

Yengilroq jazoni tayinlashga faqatgina alohida hollarda yo‘l qo‘yiladi. Lekin qonunda alohida tushuncha berib o‘tilmagan.

JK normalari va sud amaliyoti JK 57-moddasi qo‘llanilishi xususidagi tahlili shuni ko‘rsatadiki, muayyan ish bo‘yicha maxsus qism moddasi sanksiyasida ko‘rsatilgan jazo turi va miqdori talablariga kerakli va yetarli darajada javob bermasligi alohida hollar hisoblanadi.

Boshqacha qilib aytganda, Maxsus qism moddasi sanksiyasida ko‘rsatilgan ayrim jazo turi va miqdori muayyan jinoyat va shaxsga nisbatan og‘irroqdir. E‘tiborli jihati, yengilroq turdagi jazo tayinlash sodir etilgan qilmish og‘irligi bilan bog‘liq emas. Ya‘ni, jazoning eng kam qismidan ham kamroq yoki yengilroq turdagi jazo har xil sodir etilgan qilmishlar uchun tayinlanishi mumkin. Biroq sodir etilgan qilmishning og‘irlik darajasi qancha yuqori bo‘lsa, jinoyatning ijtimoiy xavfliligi darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar ham, Maxsus qism moddasi sanksiyasida ko‘rsatilgan jazoni qo‘llamaslik holati ham alohidaligi bilan ajralib turishi kerak.

¹ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 37-банд, 3-хатбоши// Тўплам, 2-жилд. 235–236-б.

² Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 21 майдаги «Жазоларни либераллаштириш тўғрисида қонунни иқтисодиёт соҳасидаги жиноятларга нисбатан қўллашнинг айрим масалалари ҳақида»ги 4-сонли қарори, 12-банд // Тўплам, 2-жилд. 172–173-б.

Sud biron-bir ishda yengilroq turdagi jazo tayinlashi uchun yuqorida ko'rsatib o'tilgan ikkita huquqiy asos – sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar bo'lishi kerak.

JK 57-moddasi 1-qismiga muvofiq, yengilroq jazoni tayinlash deb, sud sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini ancha kamaytiradigan holatlarni e'tiborga olib, ayrim hollarda shu jinoyat uchun JK Maxsus qismining moddasi bilan belgilangan jazoning eng kam miqdoridan ham kamroq yoki bu modda bilan belgilanmagan boshqa yengilroq jazoni tayinlashi mumkinligi aytiladi.

Bundan tashqari, JK 57-moddasi 2-qismiga muvofiq, sud bu asoslardan kelib chiqib JK Maxsus qismida nazarda tutilgan qo'llanilishi shart bo'lgan qo'shimcha jazoni tayinlamasligi ham mumkin.

Jazoni eng kam miqdoridan ham kam tayinlash, bu jazoni yengillashtirish, ya'ni JK Maxsus qismi moddasi sanksiyasida ko'rsatilgan davlat majburlov chorasi turini tanlash va ushbu majburlov chorasining eng kam miqdoridan ham qamroq jazo tayinlashdir.

Masalan, JK 164-moddasi birinchi qismiga ko'ra, bosqinchilik jinoyati besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Jazoni eng kam miqdoridan (5 yil) ham qamroq tayinlash sud tomonidan hal qilinadi. Lekin JK Umumiy qismida ushbu jazo turi doirasida ko'rsatilgan eng kam miqdordan kam jazo tayinlashga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni, ozodlikdan mahrum qilish jazo turi 6 oydan kam muddatga qo'llanilishi mumkin emas.

Jazoni eng kam miqdoridan ham kam tayinlash boshqa jazo turlari uchun qo'llanilishi mumkin. Masalan, JK 211-moddasi 1-qismi jarima, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazo turlaridan birini tanlash imkoniyatini beradi. Qonun bu haqda hech qanday chegaralar qo'ymagan.

Sanksiyada ko'rsatilgan jazodan ham yengilroq turdagi jazo tayinlash, sud uchun JK Maxsus qismi moddasi sanksiyasida ko'rsatilgan jazo turlari bilan cheklanib qolmasdan, JK Umumiy qismidagi boshqa jazo turlariga ham e'tibor qaratish imkoniyatini beradi. Lekin sharhlanayotgan modda qoidalariga ko'ra, sud JK moddasi sanksiyasida ko'rsatilmagan

boshqa yengilroq turdagi asosiy jazoni tayinlashda, ushbu jazo uchun JK Umumiy qismida ko'rsatilgan doiradan chiqib ketmasligi lozim. Bundan tashqari, JK 57-moddasiga ko'ra, asosiy jazoni qo'shimcha jazo bilan almashtirishga yo'l qo'yilmaydi¹.

Yengilroq turdagi jazo tayinlashda JK 43-moddasida ko'rsatilgan asosiy jazo turlari yengilidan og'iriga qarab joylashtirilgan, ya'ni tanlangan yengilroq jazo turi modda sanksiyasida ko'rsatilgan jazo turidan yuqori turishi mumkin. Davlat majburlov chorasini yengilroq deb tan olish uchun jazoning tanlangan turi, JK 43-moddasi 1-qismining ro'yxatida, JK Maxsus qismi tegishli moddasi sanksiyasida nazarda tutilgan jazodan yuqorida joylashgan bo'lishi kerak.

Yengilroq turdagi davlat majburlov chorasini tayinlashda, sud modda sanksiyasida tanlangan jazodan yengilroq yoki og'irroq jazo turi mavjudligi bilan bog'liq emas. Biroq tanlanayotgan jazo turi sanksiyada nazarda tutilmasligi talab qilinadi, aks holda, tegishli sharoitlar mavjud bo'lgan hollarda, sudlar jazoning kamroq turini emas, balki kamidan ham kamini qo'llashlari talab qilinadi.

Yengilroq turdagi davlat majburlov chorasini qo'llash, bu yengilroq jazo turini belgilashni va ushbu jazo miqdori yoki muddatini o'zgartirish maqsadini ko'zlamaydi. Tanlangan jazo miqdori va muddati almashtirilgan jazo turining muddati va miqdoridan oshiqroq bo'lishi mumkin. Lekin ushbu holat yangi tanlangan davlat majburlov chorasining yengilligiga shubha uyg'otmasligi lozim. Sud 2 yilga ozodlikdan mahrum qilishni 3 yilga axloq tuzatish ishlari bilan, eng kam oylik ish haqining 600 baravarigacha jarima bilan almashtirishi mumkin². Yengilroq turdagi jazo tayinlashda sud aybdorning manfaatlaridan hamda JK Umumiy qismidagi cheklovlardan kelib chiqishi lozim.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарорининг 38-бандига мувофиқ, Жиноят кодексининг 57-моддасида белгиланган қоидага кўра, ушбу кодекс Махсус қисми моддаси санкциясида назарда тутилмаган ҳар қандай енгилроқ асосий жазо тури, жумладан, жарима, муайян ҳуқуқдан маҳрум қилиш, ахлоқ тuzатиш ишлари, хизмат бўйича чеклаш, озодликни чеклаш, интизомий қисмга жўнатиш каби жазолар ЖК 44–49–моддаларига риоя қилинган ҳолда тайинланиши мумкин. // Тўплам, 2-жилд. 236-б.

² Бундан, хусусан, Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2001 йил 1 июндаги «Жиноят ишларини кассация ва назорат тартибида қўриш амалиёти ҳақида»ги 5-сонли қарорининг 25-банди 1-хатбошиси қоидалари таҳлили далолат бериб, унга мувофиқ, «кассация ва назорат инстанцияси суди маҳкумга тайинланган жазони енгиллаштириш масаласини ҳал қила туриб, Жиноят-процессуал кодексининг 482-моддасига мувофиқ, нафақат жазони қамайтириши, балки бошқа енгилроқ жазо турига алмаштириши ҳам мумкин. Бу ҳолатда қонун доирасида тайинланадиган енгилроқ жазонинг мuddати ҳукм бўйича тайинланган озодликдан маҳрум қилиш жазосининг мuddатидан ортиқроқ бўлиши ҳам мумкин (масалан, бир йил озодликдан маҳрум қилинган шахсга суд уч йил ахлоқ тuzатиш иши тайинлашга ҳақли)» // Тўплам, 2-жилд. – 87-б.

Masalan, yengilroq jazo turi sifatida axloq tuzatish ishlari pensiya yoshiga yetganlarga, mehnatga qobiliyatsizlarga, homilador ayollarga, yosh bolasini boqish uchun ta'tilda bo'lgan ayollarga va harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llanmaydi (JK 46-moddasi 3-qismi).

Qonunda yengilroq jazo tayinlashning o'ziga xos turi sifatida, qo'shimcha jazoni qo'llamaslik belgilangan.

Aybdorning jinoiy harakati kvalifikatsiya qilinayotgan modda bo'yicha qo'shimcha jazo qo'llash shart bo'lsa, sud bunday jazoni JK 57-moddasida belgilangan holatlar mavjud bo'lgandagina va hukmda tegishli asoslar keltirib, qo'llamasligi mumkin.

Masalan, atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish (JK 194-moddasi 2-qismi), hokimiyat yoki mansab vakolatini suiste'mol qilish (JK 205-moddasi 2-qismi) va boshqalarda muayyan huquqdan mahrum qilishni qo'shimcha jazo sifatida qo'llash shart deb ko'rsatilgan.

Alohida ta'kidlab o'tish joizki, yuqorida qayd etib o'tilgan yengilroq jazoni tayinlash o'zaro mustaqil va teng ahamiyatga ega.

Ushbu turlardan biron-biri tayinlanishi, boshqa turining qo'llanilishiga hech ham xalaqit bermaydi. Lekin bunday qo'llanish tanlanadigan yengilroq jazo turi mohiyatiga bog'liq. Ya'ni, eng kam miqdoridan ham kamroq yoki yengilroq turdagi jazoni tayinlash qo'shimcha jazoni qo'llamaslik bilan uyg'unlashishi mumkin. Lekin jazoning eng kam miqdoridan ham kamroq tayinlanishi yengilroq turdagi jazo tayinlash bilan uyg'unlasha olmaydi.

Sud JK 57-moddasiga asosan ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga boshqa, yengilroq jazo tayinlasa, bu holat aybdorning harakati kvalifikatsiya qilinayotgan modda nazarda tutgan qo'shimcha jazolarni qo'llash imkoniyatini cheklamaydi¹.

JK 57-moddasi qoidalari yengilroq turdagi jazo tayinlashda har bir jinoyat uchun alohida qo'llaniladi. Ya'ni, aybdor jinoyat qonunining turli moddalarida nazarda tutilgan bir necha jinoyat uchun sudlanayotgan bo'lsa, JK 57-moddasi jinoyatlar jami bo'yicha tayinlanadigan jazodan

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 39-банд, 4-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. 236-б.

keyin emas, balki alohida jinoyatlar uchun jazo tayinlash paytida qo‘llaniladi¹.

Yengilroq jazo tayinlanishida, muayyan ishning jinoyatning ijtimoiy xavfliligi darajasini jiddiy kamaytiruvchi har bir holati alohida hukmning tavsif qismida asoslantiriladi. Bundan tashqari, qonunda ko‘rsatilganidan ham yengilroq jazo tayinlash paytida hukmning qaror qismida tegishli modda bo‘yicha JK 57-moddasi qo‘llanilib, tayinlangan qat‘iy jazo chorasini ko‘rsatish kifoya bo‘lib, uni qo‘llash sabablari hukmning tavsif qismida ko‘rsatilishi kerak.

5-§. Aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganida jazo tayinlash

JK 55-moddasi 1-qismida sanab o‘tilgan jazoni yengillashtiruvchi holatlarning mavjudligi qilmish hamda aybdor shaxs ijtimoiy xavflilik darajasining kam ekanligidan dalolat beradi va shu bilan birga, sudga yengilroq jazo tayinlashga asos sifatida xizmat qiladi.

Davlat majburlovining aniq me‘yori sud tomonidan yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda har bir holatda ishning barcha materiallari asosida belgilanadi. Jazoni yengillashtiruvchi holatlarning mavjudligida sud aybdorga yengilroq jazoni tayinlashga, ya‘ni JK Maxsus qismining sanksiyalari doirasida yengilroq jazo turi tanlashga (alternativ sanksiya) yoki uning miqdorini kamaytirishga (eng kamigacha) haqlidir.

Sud tomonidan jazo tayinlashda hisobga olinadigan yengillashtiruvchi holatlar qatorida aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish, amalda pushaymon bo‘lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish (JK 55-moddasi 1-qismi «a» bandi), yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish (JK 55-moddasi 1-qismi «b» bandi) kabi yengillashtiruvchi holatlar qonun chiqaruvchi tomonidan alohida ajratiladi.

(«Aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish», «amalda pushaymon bo‘lish», «jinoyatni ochish uchun faol yordam berish», «yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish» tushunchalari haqida JK 55-moddasi tahliliga qarang.)

¹ Ўша жойда, 39-банд, 3-хатбоши.

Sudlar aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish, amalda pushaymon bo‘lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish (JK 55-moddasi 1-qismi «a» bandi), yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish (JK 55-moddasi 1-qismi «b» bandi) kabi yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lgan va JK 56-moddasida qat’iy ro‘yxati nazarda tutilgan jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda jazo hech qanday sharoitda tegishli moddada nazarda tutilgan jazoning eng ko‘p doirasidan yuqori bo‘lmasligi lozimligini inobatga olishlari zarur.

Xususan, yuqorida qayd etilgan jazoni yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lgan va jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda jazoning eng ko‘p muddati yoki miqdori jinoyat qonuni tomonidan cheklanishi hamda mazkur muddat yoki miqdor JK Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko‘p jazoning uchdan ikki qismidan oshmasligining shartligi belgilanishi inobatga olinishi kerak.

JK 57¹-moddasining talablari shaxs bitta va bir necha jinoyatni sodir etishda aybdor deb topilgan holatlarga ham birdek taalluqli bo‘ladi. Bu oxirgi holatda jazoning umumiy muddati shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan tegishli moddalar, modda qismlarining sanksiyalarida nazarda tutilgan eng ko‘p muddatlarini qo‘shishida hosil qilinadigan eng ko‘p jazo muddatidan oshishi mumkin emas.

Masalan, JK 57¹-moddasida nazarda tutilgan qoidalaridan kelib chiqib, ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlanganda aybdor shaxslarga tayinlanadigan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddati 13 yil 4 oy – 20 yilning uchdan ikki qismidan (agar ular bitta jinoyatni sodir etishda yoki JK 59-moddasi qoidalariga muvofiq jami jazoni tayinlashda bir necha jinoyatni sodir etishda aybdor deb topilgan bo‘lsalar) va 16 yil 4 oy – 25 yilning uchdan ikki qismidan (agar ular JK 60-moddasi qoidalariga muvofiq bir necha hukmlar yuzasidan jazoni tayinlashda bir necha jinoyatni sodir etishda ayblangan bo‘lsalar) ortiq bo‘lishi mumkin emas.

Shu bilan birga, JK 57¹-moddasi 2-qismiga ko‘ra, mazkur qoida quyidagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga tatbiq etilmaydi:

a) javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o‘ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi);

b) terrorizm (JK 155-moddasi 3-qismi).

6-§. Tamom bo‘lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash

Tamom bo‘lmagan va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlashda nafaqat jazo tayinlashning umumiy asoslariga, balki JK 58-moddasi maxsus qoidalariga ham rioya qilish lozim. Maxsus qoidalarni hisobga olishning asosiy sababi, ushbu noqonuniy tajovuzlarga jazo tayinlashda alohida yondashuvning o‘ziga xosligidir. Shunday qilib, JK 58-moddasi adolat va insonparvarlik prinsiplarini o‘z ichiga olib, jinoiy jazo maqsadlarini to‘laqonli amalga oshirishga ko‘maklashadi.

Tamom bo‘lmagan jinoyat uchun jazo tayinlashda, sud jazo tayinlashning umumiy asoslaridan tashqari, muayyan jinoyatning og‘irligi, jinoiy niyat amalga oshirilishining darajasi va jinoyatni oxiriga yetkaza olmaganlik sabablari kabi holatlarni ham hisobga olishi lozim.

Tamom bo‘lmagan jinoyat sifatida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish tan olinadi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish deb, shaxsning qasddan qilinadigan jinoyatni sodir etish yoki yashirish uchun sharoitlar yaratuvchi qilmishi o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra sodir etilishi boshlangunga qadar to‘xtatilishiga aytiladi (JK 25-moddasi 1-qismi).

Jinoyat sodir etishga suiqasd qilish jinoiy faoliyatning ikkinchi bosqichidir.

JK 25-moddasi 2-qismiga muvofiq, qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra oxiriga yetkazilmagan bo‘lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd deb topiladi.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish tamom bo‘lmagan noqonuniy tajovuzning turlaridan biri bo‘lib, jinoiy javobgarlikni nazarda tutmaydi.

Tamom bo‘lmagan jinoyat jazo tayinlashda, sud jazo tayinlashning umumiy asoslaridan tashqari, muayyan jinoyatning og‘irligi, jinoiy niyat amalga oshirilishining darajasi va jinoyatni oxiriga yetkaza olmaganlik sabablari kabi holatlarni ham hisobga olishi lozim.

Qonunda ko‘rsatilgan holatlar, sudga jazo tayinlashda alohida yondashuvni ta‘minlab, sodir etilgan qilmish ijtimoiy xavf darajasini va aybdorning shaxsini to‘g‘ri aniqlashga imkoniyat beradi. Ushbu holatlar

sud tomonidan nafaqat o'zaro, balki muayyan ish holatlari bilan birgalikda hisoblanishi lozim. Ta'kidlab o'tish joizki, jazoning og'irligi jinoyatning sodir etilishi bosqichlari bilan mutanosib bo'lishi kerak. Shuning uchun jinoyatga tayyorgarlik ko'rish, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish uchun bir me'yorda jazo chorasi tayinlanishi mumkin emas.

Hech qanday sharoitda, tamom bo'lmagan jinoyat uchun jazo tegishli modda sanksiyasidagi eng ko'p doirasidan yuqori bo'lmasligi lozim. Xususan, sudlar qonun eng ko'p bo'lgan muddatni yoki jinoyatga tayyorgarlik ko'rish uchun va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish uchun jazo miqdorining cheklanishini va u (muddat, miqdor) JK Maxsus qismidagi to'g'ri keladigan moddasining sanksiyasida nazarda tutilgan og'irroq jazo turi miqdori va muddatining 3/4 qismidan ko'p bo'lmasligi kerakligining belgilanishini e'tiborga olishlari muhim.

Shunda, JK 58-moddasi 2-qismiga muvofiq mazkur qoida:

a) o'ta xavfli retsidivistlarga, uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma a'zolariga nisbatan;

b) tinchlik va xavfsizlikka qarshi tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun, shuningdek, quyidagilar bilan:

– javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish bilan;

– o'n to'rt yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish bilan;

– yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa turdagi ommaviy qirg'in qurolini, bunday qurol yaratishda foydalanish mumkinligi ayon bo'lgan materiallarni hamda uskunalarni kontrabanda qilish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar uchun jazolar tayinlashda qo'llanilmaydi.

Tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llash qonunda taqiqlangan. Shunday qilib, JK 58-moddasi 3-qismida tamom bo'lmagan jinoyat uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlash mumkin emasligi ko'rsatilgan. Lekin agar jinoyatga suiqasd qilishdagi tajovuz orqali boshqa ijtimoiy munosabatlarga xavfli oqibatlar yetkazilgan bo'lsa, ushbu tajovuz alohida jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinib, JK 54-moddasiga asosan jazo tayinlanishi lozim.

Masalan, boshqa shaxsning hayotiga tajovuz vaqtida, shaxsga og'ir tan jarohatlari yetkazilsa, ushbu holda sodir etilgan tugallangan jinoyat sifatida JK 104-moddasi bilan 97-modda ko'rsatilgan jinoyatga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinib, jazo tayinlanishi lozim. U yerda jinoyatlar tarkibi bo'yicha jazo tayinlanadi (JK 59-moddasi) va tamom bo'lgan jinoyatlar uchun jazo JK 54-moddasining talablari asosida va jinoyatni sodir etishga suiqasd qilish JK 58-moddasi 1-qismi asosida tayinlanadi.

JK 58-moddasi 4-qismida sud tomonidan jinoyatning ishtirokchilikda sodir etganlikda aybdor deb topilganlarga nisbatan davlat majburlov chorasini tanlashda jazo tayinlashning umumiy tamoyillariga qo'shimcha asoslar ham keltirilgan. Jinoyat qonuniga binoan, sud ushbu holda har bir aybdorning jinoyat sodir etishdagi ishtiroki xususiyati va darajasini hisobga olishi lozim.

Jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar sud tomonidan jazoni tayinlashda e'tiborga olinadi (JK 58-moddasi 4-qismi). Jazoning eng ko'p va eng kam doirasi ishtirokchilar sodir etgan qilmishlari uchun javobgarlik ko'rsatilgan JK Maxsus qismining moddasi sanksiyasi bilan aniqlanadi.

Jinoyat sodir etishda shaxsning shu jinoyatda qatnashish darajasi har bir daxldorlikning funksional rolini aniqlaydi.

Jinoyatda qatnashish **darajasi** esa bu rolni bajarishda uning faolligini, avvaldan kelishib olingan jinoyatni bajarishda uning qo'shgan hissasi haqida tasavvurni beradi.

Aytib o'tish kerakki, faqat jinoyatga daxldorlik xususiyatida, boshqacha qilib aytganda, har bir ishtirokchining bitta jinoyatda qilayotgan tashqi faoliyatida, tashkilotchilar, bajaruvchilar, dalolatchilar va yordamchilar hamda aybdor javobgarlikka tortilayotgan aniq jinoyat tarkiblari o'rtasidagi farqlarni topish mumkin.

Guruh tarkibida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo chorasini tayinlanganda, ulardan har birining ijtimoiy xavfli qilmishdagi ishtiroki darajasi aniqlanishi, jinoyatning tashkilotchilari va ijro etuvchilarning aybdorlik darajasidan yordamchilar va jinoyat boshqa ishtirokchilarining aybdorlik darajasi farqlanishi lozim.

Tashkilotchilar va bajaruvchilar yordamchilar va dalolatchilarga nisbatan og‘irroq javobgarlikka tortilishlari shart.

Ishtirokchining shaxsiga tegishli yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlar sud tomonidan faqat shu ishtirokchiga jazo tayinlashda hisobga olinishi lozim. Bu hol shaxsining ijtimoiy xavflilik darajasini belgilab, sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga ta’sir o‘tkazmaydi. Yengillashtiruvchi va og‘irlashtiruvchi holatlarni aniqlashda JK 55- va 56-moddalari talablariga rioya qilish kerak.

7-§. Bir necha jinoyat sodir etganlik uchun jazo tayinlash

Shaxsning ikki yoki undan ortiq jinoyatni sodir etishi, uning ijtimoiy axloqi buzuvchiligi barqarorligini, ya’ni uning shaxsi ijtimoiy xavf darajasi yuqoriligini bildiradi. Ushbu holatlar sud tomonidan alohida yondashuvda jazo tayinlashda hisobga olinishi lozim. Lekin yuqorida ko‘rsatilgan jazo tayinlashning qoidalari jazo tayinlashda alohida yondashuv va Jinoyat kodeksidagi prinsiplarni, jumladan, javobgarlikning muqarrarligini to‘liq ta’minlay olmaydi. JK 59-moddasi ushbu masalalarni yechishga xizmat qiladi.

JK 59-moddasi 1-qismiga muvofiq, shaxs JK Maxsus qismining turli moddalarida nazarda tutilgan ikki yoki undan ortiq jinoyatni sodir etgan bo‘lib, ulardan birortasi uchun ham sudlangan bo‘lmasa, sud JK 54-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq har qaysi qilmish uchun alohida jazo tayinlab, so‘ngra tayinlangan yengilroq jazoni og‘irroq‘i bilan qoplash yoxud tayinlangan jazolarni to‘la yoki qisman qo‘shish yo‘li bilan jinoyatlar majmui bo‘yicha jazo tayinlaydi. Shunday qilib, JK 59-moddasi faqat jinoyatlar majmui bo‘yicha jazo tayinlashda qo‘llaniladi. Buning orasida JK 33-moddasi 1-qismiga muvofiq, JK Maxsus qismining turli moddalarida yoki bitta moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan, javobgarlikka tortiladigan ikki yoki bir necha jinoyat qilmishni sodir etish, agarda ulardan birortasi uchun ham shaxs sudlangan bo‘lmasa, jinoyatlar majmui deb topiladi.

JK 59-moddasi 1-qismining qoidalari JK 33-moddasining qoidalari bilan qarama-qarshi bo‘lishi kerak emas. Shuning uchun qonun

chiqaruvchi 59-moddaning tahririni takomillashtirishi, aniqroq aytganda, mazkur modda 1-qismidagi «turli moddalarida» degan soʻzlardan keyin «yoki bitta moddaning turli qismlarida» degan soʻzlar bilan toʻldirilishi lozim.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlariga muvofiq, JK 59-moddasida belgilangan jinoyatlar majmui boʻyicha jazo tayinlash qoidalari quyidagi hollarda qoʻllaniladi:

- qilmish JK turli moddalari boʻyicha kvalifikatsiya qilinganda;
- qilmish JK muayyan moddasining bir necha qismlari bilan kvalifikatsiya qilinganda, basharti ushbu qismlar turli jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutsa (masalan, JK 228-, 248-, 273-moddalari);
- shaxs bir necha aynan oʻxshash qilmishni sodir etgan boʻlib, ulardan ayrimlari tugallangan jinoyat, boshqalari esa jinoyatga tayyorgarlik, suiqasd tariqasida kvalifikatsiya qilinganda yoki ayrimlari mustaqil, boshqalari esa ishtirokchilikda sodir etilganda;
- ish boʻyicha hukm chiqarilganidan keyin mahkumning birinchi ish boʻyicha chiqarilgan hukmgacha yana boshqa jinoyatda aybdorligi aniqlanganda.

Shaxs JK Maxsus qismi aynan bir moddasining turli qismlarida nazarda tutilgan oʻxshash qilmishni sodir etganlikda aybdor deb topilganda jazo shu moddaning ogʻirroq jazo belgilangan qismi boʻyicha tayinlanadi (JK 33-moddasi)¹.

Masalan, oʻta xavfli retsidivist tomonidan transport vositasini oʻgʻirlash (JK 267-moddasi 2-qismi «a» bandi) va buni zoʻrlash bilan sodir etish (JK 267-moddasi 3-qismi «v» bandi) hollarida jazo JK 267-moddasi 3-qismi boʻyicha tayinlanishi kerak, chunki u ogʻirroq jazoni nazarda tutadi.

Shunda sudlar jinoyatlar majmuini tan olishga toʻsqinlik qilayotgan holatlarning yoʻqligini aniqlashi lozim.

Xususan, javobgarlikdan ozod qiluvchi holatlar boʻlmasligi kerak, masalan, javobgarlikka tortish muddatlarining oʻtib ketganligi, amnistiya qoʻllanilishi, jabrlanuvchi bilan yarashish.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 49-банд // Тўплам, 2-жилд. 238–239-б.

Aybdor tomonidan davomli yoki uzoqqa cho‘zilgan jinoyat sodir etilishi jinoyatlar majmui sifatida tan olinmaydi.

Jazo tayinlashning umumiy asoslariga ko‘ra, jinoyatlar majmui uchun jazo belgilashda sud dastavval har bir jinoyatga alohida jazo tayinlaydi.

Shu bilan birga, har bir qilmishga huquqiy baho berish va davlat majburlov chorasini tanlash nafaqat muayyan jinoyatning holatlaridan, balki qilmishning jinoyatlar majmuida tutgan o‘rnidan kelib chiqishi kerak. Jumladan, sud ikkinchi va undan keyingi jinoyatlarning sodir etilishini javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holat sifatida hisoblashi lozim.

Agar qo‘shimcha jazoni qo‘llash shart bo‘lib va JK 57-moddasida ko‘rsatilgan holatlar mavjud bo‘lmasa, har bir alohida jinoyat uchun jazo tayinlashda sud nafaqat asosiy, balki qo‘shimcha jazo turi va miqdorini ko‘rsatishi lozim¹.

Bu qoida qonunda tayinlanishi shart deb ko‘rsatilmagan qo‘shimcha jazo tayinlashga tegishli hamda ular jinoyatlar majmuida emas, balki alohida aniq jinoyatga tegishli holda qo‘llanilishi shart.

Har bir jinoyat uchun alohida jazo tayinlamaslik jinoyat qonunini buzish hisoblanadi va shu buzilish hukm bekor qilinishining sababchisi bo‘ladi. Hukmning bekor qilinishining sababi yana shuki, asosiy jazoni tayinlab, JK 57-moddasidagi qoidalari yo‘qligi holda, tayinlanishi shart bo‘lgan qo‘shimcha jazoni tayinlamaslikdir.

Sud har bir jinoyat uchun alohida jazo tayinlab, so‘ngra jinoyatlar majmuiga kirgan qilmishlarning og‘irlik darajasiga ko‘ra, yengilroq jazoni og‘irroq‘i bilan qoplash (qoplash prinsipi) yoki tayinlangan jazolarni to‘la yoki qisman qo‘shish (qo‘shish prinsipi) yo‘li bilan qat’iy jazo belgilaydi.

«Agar jinoyatlar majmuini faqat ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar tashkil etsa, unda tayinlangan yengilroq jazoni og‘irroq‘i bilan qoplash yoxud tayinlangan jazolarni to‘la yoki qisman qo‘shish yo‘li bilan jazo uzil-kesil tayinlanadi. Bunda uzil-kesil tayinlangan jazo sodir etilgan jinoyatlardan eng og‘iri uchun nazarda tutilgan eng ko‘p jazo muddatidan yoki me‘yoridan ortiq bo‘lmasligi lozim» (JK 59-moddasi 2-qismi).

¹ Ўшй жойда, 50-банд.

«Agar jinoyatlar majmuini tashkil etuvchi jinoyatlardan loaqal bittasi og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat bo‘lsa, JK Umumiy qismida shu jazo turi uchun belgilangan doirada tayinlangan jazolarni to‘la yoki qisman qo‘shish yo‘li bilan jazo uzil-kesil tayinlanadi» (JK 59-moddasi 3-qismi).

Sud hukmda jinoyatlar jami uchun qat‘iy jazoni ko‘rsatishi shartdir, aks holda jinoyat qonuni buzilgan hisoblanib, hukmning bekor qilinishiga olib keladi.

Sudlar shunga alohida e‘tibor berishlari lozimki, sodir etilgan jinoyatlar majmui katta ijtimoiy xavf tug‘dirmasa yoki uncha og‘ir bo‘lmagan hollarda jazoni og‘irrog‘i bilan qoplash prinsipi qo‘llaniladi. Jinoyatning og‘irlik darajasini aniqlashda, JK 15-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatlar klassifikatsiyasidan foydalanish lozim.

Jazolarni to‘la qo‘shish deganda, jinoyatlar majmuidagi har bir jinoyat uchun tayinlangan alohida jazolarni to‘liq qo‘shish tushuniladi.

Jazolarni qisman qo‘shish deganda, ikki yoki undan ortiq jinoyatlar jami bo‘yicha jazo belgilashda sud muayyan jinoyat uchun tayinlagan jazolarni qisman qo‘shishga majburligi to‘g‘risidagi qoida nazarda tutiladi. Bunda jazo turlarining yengil-og‘irligi darajasi JK 43-moddasi 1-qismida ko‘rsatilgan ketma-ketlik bilan belgilanganligi e‘tiborga olinishi lozim.

Biroq, agar jinoyatlar majmuini tashkil etadigan jinoyatlarning birortasi og‘ir yoki o‘ta og‘ir bo‘lsa, qat‘iy jazoning eng ko‘p chegarasi bu jazo turini tartibga soladigan umumiy qism moddalaridagi qoidalarga muvofiq aniqlanadi.

Ta‘kidlab o‘tish joizki, sodir etilgan jinoyatlarning bittasi umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan hollarda jinoyat qonuni qat‘iy jazoni tayinlash to‘g‘risidagi qo‘shimcha ko‘rsatmalarni beradi. Aniqrog‘i: «sodir etilgan jinoyatlardan bittasi uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanganda yengilroq turdagi jazoni umrbod ozodlikdan mahrum qilish bilan qoplash orqali jazo uzil-kesil tayinlanadi» (JK 59-moddasi 4-qismi).

«Sodir etilgan jinoyatlardan bittasi uchun uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanganda jazolarni to‘la yoki qisman qo‘shish

yoxud yengilroq jazoni og‘irrog‘i bilan qoplash orqali jazo uzil-kesil tayinlanadi» (JK 59-moddasi 5-qismi).

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi agar jinoyatlar majmuiga kiradigan JK 97-moddasi 2-qismi yoki JK 155-moddasi 3-qismi bilan nazarda tutilgan jinoyatlarning bittasi uchun ham uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanmagan bo‘lsa, qat‘iy jazo jazolarni to‘liq yoki qisman qo‘shishda qanday bo‘lsa, yengilroq jazoni og‘irrog‘i bilan qoplashda ham 20 yildan ortiq bo‘lmashligi shart¹ ekanligini aniqlashtiradi.

Bu qoidalar jinoyatlar tamom bo‘lmagan hamda bir ish bo‘yicha hukm chiqarishdan oldin sudlangan boshqa jinoyatda aybdorligi topilgan hollarga tegishli.

Oliy sud instansiyasi yana shuni izohlaydi, «agar shaxs bir necha umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganida, lekin bu jinoyatning bir qismi aybdor voyaga yetmagan yoshida, qolgan qismi voyaga yetgan yoshida sodir etilgan bo‘lsa, voyaga yetmagan yoshida qilingan jinoyatlar uchun JK 82–86-moddlari qoidalari bo‘yicha, voyaga yetgan yoshida qilgan jinoyatlari uchun esa JK 59-moddasi 4- va 5-qismlari bo‘yicha jazo tayinlanadi»².

Jazolarni to‘la yoki qisman qo‘shish qoidasi har xil jinoyat uchun har xil jazo tayinlangan hollarda ham qo‘llaniladi. JK 59-moddasi 6-qismiga muvofiq, jinoyatlar majmui bo‘yicha har xil turdagi jazolarni qo‘shish yo‘li bilan jazo tayinlashda JK 61-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga amal qilinib, jazoning og‘irroq turi uzil-kesil tayinlanadi. Shu bilan birga, JK 61-moddasi 2-qismiga muvofiq, jarima va muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazolar boshqa turdagi jazolar bilan hisoblanmaydi va alohida ijro qilinadi.

Axloq tuzatish ishlari hamda jarima jazosi turlarini qo‘shishda o‘ziga xos jihatlar mavjud. Axloq tuzatish ishi jazosini tayinlashda uning muddati, ushlab qolinadigan foiz miqdori oldin har bir modda bo‘yicha, so‘ngra ularning majmui bo‘yicha ko‘rsatiladi.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 14 ноябрдаги «Умрбод озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазони қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида»ги 15-сонли қарори, 5-банд, 2-хатбоши.

² Ўша жойда, 6-банд.

Ushbu holda qat'iy jazoga ushlab qolishning eng ko'p foizli bo'lgan muddati olinib, unga foizi kam bo'lgan muddat qo'shiladi (belgilangan doiralarga rioya qilgan holda). Jarima qo'llanilgan holda, bir xil jazolar qo'shib, ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikni cheklash, xizmat bo'yicha cheklash, axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlaridan alohida ijro qilinadi. Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi asosiy jazo turi sifatida tayinlanganda ham shunday yo'l tutiladi (JK 61-moddasi).

JK 59-moddasi 7-qismiga muvofiq, jinoyatlar majmui bo'yicha tayinlangan asosiy jazoga sud ayrim jinoyatlar uchun tayinlangan qo'shimcha jazolarni ham qo'shishi mumkin. Oliy sud Plenumining tushuntirishlariga ko'ra, qo'shimcha jazolarga, ikki yoki undan ortiq jinoyatlar majmui bo'yicha asosiy jazoni belgilashda qo'llaniladigan qoplash va qo'shish prinsiplari o'z ta'sirini ko'rsatadi. Biroq aytib o'tish joizki, qo'shimcha jazoni jinoyatlar majmui bo'yicha tayinlashda faqatgina qo'shish prinsipini qo'llash mumkin¹. Bu shu bilan bog'liqki, muayyan muddatga tayinlanayotgan yagona jazo bu muayyan huquqdan mahrum qilishdir.

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosining o'ziga xos xususiyati shuki, sud bunday jazoni tayinlashda JK Umumiy qismining qoidalaridan kelib chiqadi (JK 45-moddasi 2-qismi), chunki mazkur jazo qo'llanilishi shart bo'lgan qo'shimcha jazo sifatida nazarda tutilgan Maxsus qism moddalarining sanksiyalari, odatda, uning muddatlarini ko'rsatmaydi (masalan, JK 207-moddasi 3-qismi).

Bundan tashqari, JK 59-moddasi 7-qismiga muvofiq, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi qo'shimcha jazoning uzil-kesil tayinlangan muddati JK 45-moddasida eng ko'p muddatdan ortiq bo'lmasligi lozim. JK Maxsus qismi tegishli moddalarining sanksiyalari esa asosiy jazo sifatida muayyan huquqdan mahrum qilish jazosining muddatlarini belgilaydi (masalan, JK 114-moddasi 1-qismi, 116-moddasi 1-qismi, 205-moddasi 1-qismi, 206-moddasi 1-qismi).

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 52-банд, 1-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 239–240-б.

Shu sababli qoplash prinsipi (qo‘shish prinsipi bilan birga) bittasi bo‘lsa ham asosiy bo‘lgan, muayyan huquqdan mahrum qilish jazo turi jinoyatlar majmui bo‘yicha tayinlanishi kerak bo‘lganida qo‘llanilishi mumkin, chunki bunday holda qat’iy jazoni tayinlashga ko‘maklovchi sifatida umumiy qism qoidalari emas, balki sodir etilgan jinoyatlarning eng og‘iri uchun javobgarlik nazarda tutilgan JK Maxsus qismi moddasining sanksiyasida ko‘rsatilgan eng ko‘p muddat olinadi.

Aytib o‘tish joizki, qo‘shish faqat bir turdagi qo‘shimcha jazolarga qo‘llaniladi. Sudlanuvchi shunga o‘xshash huquqdan mahrum etiladi, boshqacha qilib aytganda unga bir xil mansabda ishlash yoki bir xil faoliyat olib borish taqiqlanadi. Boshqa holatda asosiy va qo‘shimcha jazolarni muayyan huquqdan mahrum qilish sifatida qo‘shish mumkin emas va ular alohida ijro etilishi shart. Shu bilan birga, bir turdagi qo‘shimcha jazolar, qanday yo‘l bilan asosiy jazo tayinlanganidan qat’i nazar, to‘la yoki qisman qo‘shilishi mumkin.

Shuni qayd etib o‘tish kerakki, sudlanuvchiga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanganda jazoni ijro etish koloniyasi turi jinoyatlar majmui bo‘yicha uzil-kesil jazo belgilanganidan keyingina tayinlanadi. Shartli hukm qilish masalasi ham shu tartibda hal qilinadi.

Jinoyatlar majmui bo‘yicha jazo belgilashda, sudlar hukmning qaror qismida JK Maxsus qismining tegishli moddasiga havola qilgan holda har bir jinoyat uchun alohida tayinlangan jazoni ko‘rsatishi lozim. Ammo uzil-kesil jazo chorasini belgilashda faqat JK 59-moddasiga, shuningdek, tayinlanadigan asosiy va qo‘shimcha jazolarni tartibga soluvchi moddalarga havola qilinadi.

JK 59-moddasi 8-qismiga muvofiq, agar ish bo‘yicha hukm chiqarilganidan keyin mahkumning ana shu ish bo‘yicha chiqarilgan hukmga qadar sodir etilgan yana boshqa jinoyatda aybli ekanligi aniqlansa ham jazo o‘sha tartibda tayinlanadi. Bunday holda jinoyatlar majmui bo‘yicha sud tomonidan tayinlangan jazo muddatiga birinchi hukm yuzasidan jazoning o‘talgan qismi qo‘shiladi.

Shu bilan birga, bu normaning qoidalari birinchi ish bo‘yicha hukm chiqarilmaganidan oldin jinoyat sodir etilgan hollarda qo‘llaniladi.

Shunday qilib, hukmning qachon kuchga kirgani ahamiyatga ega emas, agar jinoyat hukmning e'lon qilinishidan oldin sodir etilgan bo'lsa, jazo JK 59-moddasi 8-qismining qoidalariga rioya qilib tayinlanishi kerak. Biroq agar tajovuz hukm chiqarilib bo'lganidan keyin va bu hukm qonuniy kuchga kirguniga qadar sodir etilgan bo'lsa JK 60-moddasining qoidalari qo'llaniladi.

Shaxs tomonidan hukm e'lon qilinishidan oldin sodir etilgan jinoyat uchun jazo tayinlashda sud shu jinoyatning majmuiga kiradigan va sud tomonidan ko'rilib bo'lingan boshqa jinoyatlar bilan aloqasini aniqlashi muhim. Agarda ushbu jinoyat, qaror qilingan hukmdagi qilmishlar kvalifikatsiyasiga jiddiy ta'sir o'tkazsa, ushbu hukm yangi ochilgan holatlar bo'yicha bekor qilinadi (JPK 522-moddasi 4-qismi) va barcha jinoyatlar bo'yicha ish umumiy tartibda JK 59-moddasining qoidalari qo'llanilgan holda qayta ko'riladi. Muhim holatlar sifatida aybdor tomonidan sodir etilgan qilmishlarda, sud tomonidan hisobga olinmagan yengillashtiruvchi yoxud og'irlashtiruvchi holatlar, jinoyat tarkiblarining muhim va konstruktiv xususiyatlari (masalan, qilmishning takror sodir etilganligi) mavjudligi tan olinmog'i lozim.

JK 59-moddasi 8-qismiga muvofiq, jazo tayinlashda sud ushbu moddaning umumiy qoidalaridan kelib chiqishi kerak. Biroq hukmda qat'iy jazo tayinlash, birinchi hukm bo'yicha tayinlangan jazoni to'la yoki qisman ikkinchi hukmdagi jazo bilan qo'shish orqali aniqlanadi. JK 59-moddasi 8-qismini qo'llashda, jinoyatlar jami uchun belgilangan qat'iy jazo birinchi hukm bo'yicha tayinlangan jazodan kam bo'lishi mumkin emas, chunki bunday holda jazolarni qo'shish paytida sud birinchi hukm bo'yicha tayinlangan jazoning o'talmagan qismidan emas, balki uning to'liq miqdoridan kelib chiqishi zarur¹.

Agar birinchi va keyingi hukm yuzasidan turli xil jazo turlari tayinlangan bo'lsa, bunday holda jinoyatlarni bir vaqtda ko'rilganda qo'llaniladigan va yuqorida tahlil qilingan har xil jazo turlarini qo'shish qoidalari ishlatiladi.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 53-банд, 1-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 240-б.

Sudlar shuni nazarda tutishlari lozimki, JK 59-moddasi 4-qismi belgilagan qat'iy jazoni o'tash muddati oxirgi hukm chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi hamda tayinlangan jazodan so'nggi ish bo'yicha sudgacha ehtiyot chorasi yoki ushlab turish tartibida qamoqda o'tirgan vaqt inobatga olingan holda chegirib tashlanadi. Ushbu holda hukmda birinchi hukm bo'yicha qaysi qismi o'talganligi ko'rsatilishi lozim¹. Masalan, birinchi hukm bo'yicha eng kam oylik ish haqining 450 baravari miqdorida jarima tayinlangan bo'lib, aybdor tomonidan ushbu jarimaning eng kam oylik ish haqining 350 baravari miqdoridagi qismi to'langan bo'lsa va shaxs boshqa jinoyatda ham aybdor deb topilsa va unga eng kam oylik ish haqining 124 baravari miqdorida jarima jazosi tayinlansa, bunda ularni to'la qo'shishda umumiy jazo miqdori eng kam oylik ish haqining 574 baravari miqdoriga teng keladi (450 Q 124 q 574). Sud avval to'langan jarima miqdorini hisobga olib tayinlagan jarima miqdori eng kam oylik ish haqining 224 baravari miqdoriga teng kelgan bo'lishi kerak (574 – 350 q 224).

Shartli hukm qilishda jazolarni qo'shishga alohida e'tibor qaratish kerak. Shunday qilib, agar birinchi hukm bo'yicha shartli hukm qilinib, ikkinchisi bo'yicha boshqa real jazo tayinlangan bo'lsa, ushbu holat shartli hukmning almashtirilishiga ta'sir o'tkazmaydi, chunki qonun talablariga ko'ra, shartli hukmning almashtirilishi shaxsning sinov muddatidagi xulqi bilan aniqlanadi. Agar sinov muddati davrida shartli hukmni bekor qilib hukmda ko'rsatilgan jazo bajarilishini taqozo etadigan holatlar mavjud bo'lmasa, ushbu jazo qat'iy jazo tayinlashda o'talغان deb hisoblanishi lozim. Masalan, birinchi hukm bo'yicha shaxs 6 yilga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga 2 yil sinov muddati bilan shartli hukm qilingan bo'lsa va ushbu hukm chiqarilgandan keyin shaxs yana boshqa bir hukm chiqarilgunga qadar sodir etgan jinoyatda aybli deb topilib, 5 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa, hukmlar jami yuzasidan uzil-kesil jazo muddati – 11 (5 Q 6 q 11) yil. Lekin, agar sinov muddati davomida shaxs xulqi yaxshi bo'lib, belgilangan shartli hukm tartibini buzmagani bo'lsa, birinchi jazo to'liq, ya'ni 6 yil o'talغان deb tan olinadi. Shunda,

¹ Ўша жойда, 53-банд, 2-хатбоши.

o'taladigan jazo muddati 5 (11 – 6 q 5) yilni tashkil etadi. Agarda shaxs tomonidan belgilangan shartli hukm tartibi buzilgan bo'lsa, jazoning faqat amalda o'talغان qismi hisobga olinadi. Xuddi shunday ravishda birinchi hukmdagi jazo o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish masalasi hal qilinishi kerak.

Agar ish bo'yicha hukm chiqarilganidan keyin mahkumning yana boshqa jinoyatlarda aybdorligi aniqlanib, ulardan ayrimlari birinchi hukm chiqarilgunga qadar, boshqalari esa hukm chiqarilganidan so'ng sodir etilgan bo'lsa, ikkinchi hukm bo'yicha jazo JK 59- va 60-moddalarida belgilangan tartibga rioya etilgan holda tayinlanadi. Bunda, avvalo, birinchi hukm chiqarilgunga qadar sodir etilgan jinoyatlar jami bo'yicha, undan keyin JK 59-moddasi 8-qismi qoidasiga asosan, so'ngra birinchi hukm chiqarilgandan keyin sodir etilgan jinoyatlar jami bo'yicha va nihoyat hukmlar jami bo'yicha jazolar belgilanadi.

8-§. Bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash

Shaxs tomonidan jazo o'tash vaqtida yangi jinoyat sodir etilishi uning ijtimoiy xavf darajasi yuqoriligini anglatadi. Bundan tashqari, bunday holat qo'llanilgan davlat majburlov choralarining jazo maqsadlariga erishmaganligini ko'rsatadi. Buning hammasi bunday shaxsga yaxshiroq ta'sir etadigan choralarni qo'llash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Bir necha hukmlar yuzasidan jazo tayinlash qoidalari, shaxs muayyan davr ichida jinoyat sodir etgan hollarida, ya'ni hukm chiqarilib, jazo to'liq o'talmagan paytda qo'llaniladi. Agar bir jinoyati uchun hukm chiqarilganidan keyin shaxs jazoni o'tash muddati davomida yana jinoyat sodir etsa, mahkumga bir necha hukmlar yuzasidan jazo tayinlanadi. JK 60-moddasi 1-qismiga muvofiq, agar mahkum hukm chiqarilganidan keyin jazoni to'la o'tamay turib, yangi jinoyat sodir etsa, sud yangi hukm bo'yicha tayinlangan jazo muddatiga ilgarigi hukm yuzasidan o'talmay qolgan jazo muddatini to'la yoki qisman qo'shadi. Bunda hukm chiqarilgan payt deb, uning qonuniy kuchga kirgan paytini emas, balki uni e'lon qilish payti tan olinadi, chunki hukm chiqarilishi uning ommaviy e'lon qilinishi bilan yakunlanadi.

JK 60-moddasining qo'llanilishiga to'siq bo'ladigan holat, bu avval tayinlangan asosiy va qo'shimcha jazoni to'liq o'talganligidir¹. Bunday holda jazoni ijro etishning tugallanishi tayinlangan jazolarning eng uzunidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Masalan, sudlanganga nisbatan biron-bir asosiy jazo va harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tariqasidagi qo'shimcha jazo tayinlangan bo'lsa, bu holda asosiy jazoning o'talgan vaqti jazo o'talganligini anglatadi. Lekin agar muayyan huquqdan mahrum qilish qo'shimcha jazosi qo'llanilgan bo'lsa, bu holda qo'shimcha jazoning o'talib bo'lingan vaqti jazo o'talganligini anglatadi. Xususan, jinoyat qonuniga muvofiq, muayyan huquqdan mahrum qilish jazo turining ijro etilishi jarima, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash asosiy jazo turlari ijro etilgan paytlarda amalga oshiriladi, buning ustiga hukm bilan o'rnatilgan muddatda. Masalan, agar shaxsga asosiy jazo sifatida 2 yil axloq tuzatish ishlari va qo'shimcha jazo sifatida 3 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish jazolari tayinlangan bo'lsa, u holda jazoni o'tab bo'lish muddati sifatida muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi ijro etilgan vaqt tan olinadi. Va teskarisi, agar shaxsga nisbatan 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari 2 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi bilan birga tayinlangan bo'lsa, u holda jazoni o'tab bo'lish vaqti deb hukmning qonuniy kuchga kirganidan so'ng uch yil o'tishi hisoblanadi. Ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash, majburiy jamoat ishlari, intizomiy qismga jo'natish yoki muayyan huquqdan mahrum qilish jazolarini tayinlashda ham jazoni ijro etishning tugallanishi qo'shimcha jazoni o'tab bo'lgan muddati bilan hisoblanadi.

JK 60-moddasi qo'llanilishiga shaxsning sudlanganlik holati hech qanday ta'sir o'tkazmaydi, chunki bu yerda asosiysi jazo o'tab bo'lingan vaqtdir. Sudlanganlik esa, jinoyat sodir etilishining huquqiy oqibati sifatida, ushbu holda hisobga olinmaydi.

Yangi jinoyat sodir etish deb, hukm chiqarilgan vaqtdan boshlab tayinlangan jazoni o'tab bo'lgungacha bo'lgan davrda, subyektiv tomondan (qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida) hamda obyektiv tomondan (qachon boshlanganidan) qat'i nazar, sodir etilgan jinoyat

¹ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 54-банд // Тўплам, 2-жилд. – 240-б.

tushuniladi. Bir jinoyati uchun sudlanib hukm chiqqan, lekin hukm bo'yicha jazoni o'tamagan shaxs, birinchi hukm chiqqunga qadar boshlanib, hukm chiqqandan so'ng ham davom etgan uzoqqa cho'zilgan va davomli jinoyat sodir etishda aybdor deb topilsa, ikkinchi hukm bo'yicha unga jazo tayinlashda sud JK 60-moddasi qoidalariga rioya etishi lozim¹.

Hukm chiqarilgan vaqtdan boshlab tayinlangan jazoni o'tab bo'lgungacha bo'lgan davrdagi sodir etilgan jinoyat uchun jazo tayinlashda sud jazo tayinlashning umumiy asoslari, aybdorning shaxsi, aybidagi yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga olishi lozim. Shunday qilib, ushbu jinoyat uchun tayinlanadigan davlat majburlov chorasiga alohida yondashuvni ta'minlash lozim bo'ladi. Bundan tashqari, jazo tayinlashda shaxs tomonidan jinoyat avval tayinlangan jazo o'tash davrida sodir etilganligini hisobga olish lozim.

Sud uzil-kesil jazo turi va miqdorini, yangi hukm bo'yicha ilgarigi hukm yuzasidan o'talmay qolgan jazo muddatiga to'liq yoki qisman qo'shish yo'li bilan tayinlaydi. E'tiborli jihat shundaki, yangi sodir etilgan jinoyat uchun tayinlangan jazo to'liq hisobga olinishi lozim, aks holda, hukmning bekor qilinishiga sabab bo'lishi mumkin.

Agar aybdor hukm e'lon qilingandan keyin bir necha jinoyatlarni sodir etgan bo'lsa, sud avval jinoyatlar majmui tariqasida jazo tayinlab, unga oldingi hukm bo'yicha o'talmay qolgan jazoni to'la yoki qisman qo'shadi.

Hukmlar majmui bo'yicha uzil-kesil jazo tayinlanishi yangi jinoyat uchun jazoga qo'shiladigan o'talgan jazoning to'g'ri aniqlanishiga bog'liq. «Hukmlar majmui bo'yicha jazo tayinlash haqidagi masala hal qilinayotganda oldingi hukm bo'yicha tayinlangan asosiy va qo'shimcha jazoning qancha qismi shaxs tomonidan real o'talmaganligi aniqlanishi lozim»².

Jazo quyidagi hollarda o'talmagan deb hisoblanadi:

– ilgarigi hukm bo'yicha tayinlangan, yangi jinoyat bo'yicha hukmning e'lon qilinishidan oldin o'tab bo'lingan jazodan tashqari jazosi, ya'ni yangi

¹ Ўша жойда, 58-банд, 2-хатбоши.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 56-банд, 1-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 240-б.

hukm e'lon qilingunga qadar o'talmagan jazo. Yangi jinoyat ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tayotgan shaxs tomonidan sodir etilganda, jazoning o'talmagan qismi deb yangi jinoyat uchun qamoqda saqlab turish sifatida ehtiyot chorasi tanlanganidan so'ng qolgan muddatni hisoblash lozim. Agar bunday ehtiyot chorasi tanlanmagan bo'lsa, jazoning o'talmagan qismi muddati oxirgi hukm chiqarilgan vaqtdan boshlab hisoblanadi¹. Shu vaqtning o'zida tezkor xususiyatli jazoning o'talmagan qismini aniqlashda axloq tuzatish ishlariga ma'muriy qamoq muddati hamda jazoni ijro etilishidan qochib yurgan vaqti kabi jazolarni ijro etilishidagi muddati hisobga olinmaydi;

– jazoni o'tash muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etilganda – jazoning mahkum tomonidan o'talmay qolgan qismi;

– JK 72-moddasida ko'rsatilgan tartibda shartli hukm qilinganda – hukmning butun muddati;

– JPK 533-moddasida nazarda tutilgan tartibda hukmning ijrosi kechiktirilganda jazoning to'liq muddati² (ehtiyot chorasi yoki ushlab turish tarzida qamoqda saqlangan vaqt bundan mustasno);

– jazo JK 74-moddasiga asosan yoki afv etish yoki amnistiya akti asosida yengilrog'i bilan almashtirilganda, almashtirilgan yengilrog' jazoning o'talmagan qismi.

Bir necha hukm yuzasidan uzil-kesil jazo turini belgilash, JK Maxsus qismi moddasi sanksiyasidagi jazoning eng ko'p chegarasi bilan bog'liq emas. Lekin JK Umumiy qismida ushbu jazo turi uchun belgilangan doiradan chiqib bo'lmaydi.

Hukmlar majmui bo'yicha belgilangan jazo yangi jinoyat uchun belgilangan jazo muddatidan ham, ilgarigi hukm bo'yicha belgilangan jazoning o'talmagan qismidan ham ko'proq bo'lishi kerak.

Bunda ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi uzil-kesil jazo muddati yigirma besh yildan, voyaga yetmaganlar, oltmish yoshdan oshgan erkaklar va ayollarga nisbatan esa, o'n besh yildan ortiq bo'lishi mumkin emas³.

¹ Ўша жойда, 57-банд, 3-хатбоши.

² Ўша жойда, 56-банд.

³ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 55-банд// Тўплам, 2-жилд. – 240-б.

Bir necha hukmlar yuzasidan umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlashda JK 60-moddasi 3- va 4-qismi qoidalariga rioya qilish kerak. «Agar hukmlardan biri bilan umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlangan bo'lsa, bir necha hukmlar yuzasidan jazolarni qo'shishda yengilroq jazo turini umrbod ozodlikdan mahrum qilish bilan qoplash orqali jazo uzil-kesil tayinlanadi» (JK 60-moddasi 3-qismi).

«Agar hukmlardan biri bilan uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan bo'lsa, bir necha hukmlar yuzasidan jazolarni qo'shishda yengilroq jazoni og'irrog'i bilan qoplash yoxud jazolarni to'la yoki qisman qo'shish yo'li bilan jazo uzil-kesil tayinlanadi» (JK 60-moddasi 4-qismi).

Biri tugallanmagan jinoyat bo'yicha chiqarilgan bir necha hukmlar yuzasidan jazo tayinlashda ham mazkur qoidalarga rioya etilishi kerak.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanganda koloniya turi uzil-kesil tayinlangan jazo turidan kelib chiqishi kerak. Sudlar shuni e'tiborga olishlari lozimki, ozodlikdan mahrum qilish shaxsga nisbatan avvalgi o'tash joyi og'irligidan qat'i nazar, belgilanadigan koloniya turi avvalgisidan yengil bo'lmasligi lozim. Masalan, avvalgi hukm bo'yicha jazo o'tash shaxsga umumiy tartibli koloniyada belgilangan bo'lsa, hukmlar jami bo'yicha umumiy tartibli yoki qattiqroq tartibli koloniya belgilanadi (JK 50-moddasiga rioya etmoq lozim). Ushbu masalaning boshqacha tarzda talqin qilinishi, jazoning asossiz yengillashuviga olib keladi.

Jazoni ijro etish koloniyasi turini belgilashda, sud aybdorning shaxsini ham hisobga olishi lozim, ya'ni agar avvalgi hukm bo'yicha ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlangan bo'lsa, ushbu holda, albatta, koloniya turini belgilashda e'tibor berilishi kerak.

JK 59-moddasi oltinchi qismi va 60-moddasi qoidalariga muvofiq, tayinlangan uzil-kesil jazo muddati oxirgi ish bo'yicha sudgacha ehtiyot chorasi sifatida qamoqda saqlash yoki ushlab turish vaqti hisobga olingan holda oxirgi hukm chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi¹.

¹ Ўша жойда, 58-банд, 3-хатбоши.

Ilgarigi hukm va yangi sodir etilgan jinoyat uchun chiqarilgan hukm bo'yicha har xil turdagi jazo tayinlangan holatlarda jazolarni qo'shib hisoblash JK 60-moddasi 2-qismida va JK 61-moddasida belgilangan.

Mahkumning jazo o'tashdan bo'yin tovlaganligi uchun ilgarigi hukm yuzasidan tayinlangan jazoning bir turi boshqa turga almashtirilgan vaziyatlarda (masalan, axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilgan bo'lsa) jazo, JK 61-moddasi qoidalariga asosan, birinchi jazo o'rniga tayinlangan jazodan kelib chiqib, uzil-kesil tayinlanishi kerak. Xususan, ilgarigi hukm yuzasidan tayinlangan axloq tuzatish jazosini o'tashdan bo'yin tovlaganligi bilan bog'liq holda mazkur jazo ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilgan bo'lsa va shu jazoni o'tash davrida mahkum tomonidan yangi jinoyat sodir etilgan bo'lsa, bir necha hukmlar yuzasidan tayinlangan uzil-kesil jazo birinchi hukm yuzasidan tayinlangan axloq tuzatish ishlari almashtirilgan ozodlikdan mahrum qilish jazosi va ikkinchi hukm bo'yicha tayinlangan tegishli jazoni qo'shish yo'li bilan belgilanishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, bunday vaziyatlarda, almashtirilgan jazo turi qayta (axloq tuzatish ishlari yoki jarimaga) almashtirilmaydi. Boshqacha vaziyatda yangi jinoyat sodir etish jarimani to'lash yoki axloq tuzatish ishlaridan bo'yin tovlash uchun javobgarlikdan ozod qilishning o'ziga xos asosi bo'lib qoladi, bu esa JK 44-moddasi 3-qismi va 46-moddasi 4-qismi talablarini buzish hisoblanadi.

JK 60-moddasi 5-qismida mahkumning ish haqidan yoki pul ta'minotidan ushlab qolish foizlari har xil bo'lgan taqdirda axloq tuzatish ishlari yoki xizmat bo'yicha cheklash jazolarini qo'shish masalasi hal qilingan. Bunday vaziyatda qonunda ko'rsatilganiga ko'ra, ko'rsatilgan jazo muddatlari qo'shib, ushlab qolish esa alohida hisoblanishi kerak.

Ilgarigi hukm va sodir etilgan yangi jinoyati uchun chiqarilgan hukm bo'yicha axloq tuzatish ishlari tayinlangan, biroq bu jazolarning turi farq qilgan, ya'ni mahkum o'zi ishlaydigan joyda va jazoni ijro etish organi belgilab bergan joyda jazoni o'tashi belgilangan vaziyatda masalani boshqacha hal qilish lozim. JK 60-moddasi 2-qismiga muvofiq, jazolarni qo'shishda og'irroq'iga yengilrog'i qo'shilishini inobatga olib, sudlar,

uzil-kesil jazoni jazoni ijro etish organi belgilab bergan joyda o'taladigan axloq tuzatish ishlarini tayinlashlari lozim, chunki bu mahkum o'zi ishlaydigan joyda o'taydigan axloq tuzatish ishlaridan og'irroq hisoblanadi.

JK 60-moddasi 6-qismiga muvofiq, «ilgarigi hukm yuzasidan ijro etilmay qolgan qo'shimcha jazolar hukmlar jami tariqasida tayinlangan asosiy jazoga qo'shib tayinlanadi». Boshqacha qilib aytganda, ilgarigi hukm yuzasidan o'talmay qolgan qo'shimcha jazolar uzil-kesil tayinlangan asosiy jazoga qo'shimcha jazo sifatida to'la yoki qisman qo'shiladi yoxud yangi hukm bo'yicha tayinlangan o'sha turdagi qo'shimcha jazoga, mazkur jazo turi uchun belgilangan muddat doirasida to'la yoki qisman qo'shib hisoblanadi. Har xil turdagi qo'shimcha jazolar alohida ijro etiladi.

Bitta hukm bo'yicha, muayyan huquqdan mahrum qilish shaklidagi asosiy jazoni tayinlashda, qo'shimcha sifatida esa – boshqasi bo'yicha, bu jazoning eng ko'p muddati, asosiy jazo sifatida muayyan huquqdan mahrum qilish shaklidagi jazoga taalluqli JK Umumiy qismining holatlariga muvofiq belgilanishi kerak (ya'ni, besh yildan ortiq). Biroq ushbu qoida, hukm etilgan shaxs xuddi shunday huquqdan mahrum qilingan hollardagina qo'llanilishi lozim, ya'ni unga bir xil lavozimlarni egallash yoki bir xil faoliyat bilan shug'ullanish man qilinsa. Boshqa holda muayyan huquqdan mahrum qilishga nisbatan asosiy va qo'shimcha jazolarni qo'shishga yo'l qo'yilmaydi va ular mustaqil ijro etilishi zarur. Bunda eng ko'p muddat Umumiy qismining holatlariga muvofiq aniqlanadi, asosiy jazo uchun – 5 yil, qo'shimcha uchun esa – 3 yil.

«Agar ish bo'yicha mahkum boshqa jinoyatlarda ham aybdor ekanligi aniqlanib, ulardan ayrimlari birinchi hukm chiqarilgunga, boshqalari esa, hukm chiqarilgandan so'ng sodir etilgan bo'lsa, ikkinchi hukm bo'yicha jazo avval birinchi hukm chiqarilgunga qadar sodir etilgan jinoyatlar majmui bo'yicha, keyin JK 59-moddasi oltinchi qismi qoidasiga ko'ra, so'ngra birinchi hukm chiqarilgandan keyin sodir etilgan jinoyatlar majmui bo'yicha va oxirgi bir necha hukm yuzasidan (JK 60-moddasi) uzil-kesil tayinlanadi»¹.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 58-банд, 1-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 241-б.

9-§. Jazolarni qo‘shishning hisoblash qoidalari

Jinoyat qonuni qoidalariga muvofiq, jinoyatni sodir etishning huquqiy oqibati jazoni tayinlashdir. Bunda har bir jinoyat faqat bitta asosiy jazoning qo‘llanilishini taqozo etishi shart, bu masalaning o‘zgacha hal etilishi insonparvarlik va adolat prinsiplariga to‘g‘ri kelmaydi.

Shu bilan birga, bir necha jinoyatlarni sodir etishda jazoni tayinlash, shuningdek, hukmlarning yig‘indisi bo‘yicha davlat majburlovining turli xil choralari qo‘llanilishini taqozo etadi, ularning bir vaqtning o‘zida qo‘llanilishi adolatsiz va jinoyat jazosi maqsadlariga erishish uchun nozarur va yetarli emasdir. Shuning uchun ushbu hollarda faqat bitta asosiy jazoni tayinlash shart, jinoyatlar (JK 59-moddasi) yoki hukmlar (JK 60-moddasi) yig‘indisiga kiruvchi jinoyatlar uchun davlat majburlovining turli choralari tayinlashda uni belgilash uchun **JK 61-moddasi** xizmat qiladi.

JK 59- va 60-moddalari qoidalari tahlilidan hamda **JK 61-moddasida** nazarda tutilgan, jazolarni qo‘shish tizimidan chiqqan holda, shu narsa kelib chiqadiki, jazolarni qo‘shishda asos sifatida jazolarning yanada jiddiy turi olinadi. Shu sababli jazolarni qo‘shishda jazolarning qo‘shilishi uning yengillashishiga olib kelmasligi uchun uncha qattiq bo‘lmagan jazo turini yanada qattiqroq jazoga o‘tkazish darkor.

Jazoning qattiqligini aniqlashda JK 43-moddasi 1-qismida ko‘rsatilgan izchillikka amal qilish kerak.

JK 61-moddasi asosiy jazolar har xil turlarining bir-biri bilan mutanosib nisbatini mustahkamlash yordamida jazolarni qo‘shish qoidalarini belgilaydi. Bunda mutanosib birlik sifatida jazoning ozodlikdan mahrum qilish turi chiqadi. Biroq bunday vaziyat, har xil jazolarni tayinlash holatlarida ularni faqat ozodlikdan mahrum qilishga olib kelishini talab qilmaydi, chunki oxirgisi ko‘rib chiqilayotgan modda ma‘nosida, faqat jazolarning har xil turlari orasida mutanosib nisbatning mustahkamlanish zaruriyati bo‘lib xizmat qiladigan yordamchi element hisoblanadi. Masalan, **JK 61-moddasi 1-qismiga** muvofiq, «har xil turdagi asosiy jazolarni qo‘shilganda ozodlikdan mahrum qilishning bir kuni:

- a) ozodlikni cheklashni yoki intizomiy qismga jo‘natishning bir kuniga;
- b) axloq tuzatish ishlari yoki xizmat bo‘yicha cheklashning uch kuniga
- v) majburiy jamoat ishlarining to‘rt soatiga to‘g‘ri keladi».

Bayon etilgan me‘yor doirasida ozodlikdan mahrum qilish, davlat tomonidan turli xil majburlov choralarini tayinlash holatida, yakuniy asosiy jazoning bir turini belgilashda sudlar rioya qilishi lozim bo‘lgan «namuna» emas, balki «muvofiqlik» bo‘lib hisoblanadi. Namuna bo‘lib esa, ya‘ni davlat tomonidan turli xil majburlov choralarini tayinlashda, boshqalarga keltirilishi lozim bo‘lgan jazo **bu jazolarning eng qattiq turi** bo‘lishi zarur.

Shuni ham e‘tiborga olish kerakki, turli xil jazolarning nisbati nafaqat JK 61-moddasi 1-qismining turli bandlarida nazarda tutilgan jazolar orasidagi (masalan, intizomiy qismga jo‘natish bilan xizmat bo‘yicha cheklash orasida), balki ushbu moddaning bitta bandida nazarda tutilgan jazolar orasidagi (masalan, xizmat bo‘yicha cheklashlar bilan axloq tuzatish ishlari orasida) nisbatni aniqlash hollarida ham qo‘llaniladi. Bunday vaziyatda ushbu jazolar orasidagi nisbat ozodlikdan mahrum qilish bilan belgilanadi.

Bir necha jinoyatlarni sodir etganligi uchun yoki jinoyatlar yig‘indisi bo‘yicha axloq tuzatish ishlari yoki xizmat bo‘yicha cheklashlarni, hukm etilganning ish haqidan yoki pullik ta‘minotidan turli miqdordagi chegirmalar bilan birga tayinlashda, faqat bu jinoyat turlarining muddatlari yig‘indisi olinadi, har bir jazo uchun chegirmalarning miqdori esa o‘zgarishsiz qoldiriladi.

JK 61-moddasi 2-qismi davlat majburlovi choralarining boshqa turlari jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish bilan qo‘shilishi mumkin bo‘lmagan jazolarni nazarda tutadi. «Jarima yoki muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazolar ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo‘natish, ozodlikni cheklash, xizmat bo‘yicha cheklash, axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlari jazolari bilan qo‘shilganda har qaysisi alohida ijro etiladi». Bunday holda asosiy jazolarning boshqa turlari qo‘shilishi va bitta asosiy turga keltirilishi lozim.

JK 61-moddasida nazarda tutilgan jazolarni qo‘shish qoidalarini, jazoni o‘tashdan bosh tortgan hollarda uni boshqa jazo turlariga almashtirishdan farqlash zarur. Jazo almashtirilgan hollarda, aytilgan qoidalar va nisbatlarga rioya qilinmaydi va almashtirilgan jazoning har bir turiga nisbatan mustaqil belgilanadi (JK 44- va 46-moddalari). Bundan tashqari, jazolar yig‘indisi hukmni chiqarishda jazolarni tayinlash tartibida amalga oshiriladi, jazolarning almashtirilishi esa, hukmni ijro etish jarayonida o‘tkaziladi.

10-§. Ushlab turish, qamoqqa olish yoki uy qamog‘i vaqtini hisobga olish qoidalari

Ayblanuvchi, sudlanuvchining surishtiruv, dastlabki tergov va suddan bo‘yin tovlashiga yo‘l qo‘ymaslik, kelgusida jinoiy faoliyatining oldini olish, ish¹ bo‘yicha haqiqatni aniqlashga to‘sqinlik qilishga urinishga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida, alohida holatlarda tergov organlari tomonidan ushlab turish, qamoqqa olish yoki uy qamog‘i qo‘llanilishi mumkin. Natijada, odatda, mavjud jinoiy jazo maqsadlariga yanada samarali erishishni ta‘minlovchi belgilangan ta‘sir ko‘rsatiladi. Buning barchasi jazo muddatini hisobga olishda ushlab turish, qamoqqa olish yoki uy qamog‘ini muddatlari qo‘shib hisoblanadi.

Jinoiy huquqning nazariyasi va amaliyoti ushlab turish, qamoqqa olish yoki uy qamog‘i muddatini, xususan jazo tayinlashda hisoblanishi lozim bo‘lgan muddatni belgilashda, sudlar tomonidan quyidagilar albatta hisobga olinishini talab qiladi:

– qamoqqa olish muddati jinoiy-protsessual tomondan ehtiyot chorasi sifatida. O‘zbekiston Respublikasi JPKda qamoqqa olish muddati va chegarasini tayinlash tartibi belgilangan (245, 246, 315-moddalar);

– jinoyat sodir etishda gumonlanuvchini ushlab turish vaqti JPKning 27-bobiga muvofiqligini. Bundan tashqari, ushlab turish muddatini belgilashda JPKning 315-moddasida nazarda tutilgan qoidalariga amal qilish lozim;

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Жиноий-процессуал кодекс, 236-м. 1-к.

– statsionar sharoitlarda sudga oid tibbiy yoki sudga oid psixiatriya ekspertizasini tayinlash zaruriyati holatlarida shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirilgan muddatni. Shaxsning tibbiyot muassasasida bo‘lishning maksimal muddatlarini belgilash tartibi JPKning 268, 315-moddalariga muvofiq belgilanadi;

– sud tomonidan jazo muddati tayinlangan va kelgusida jinoyat deb e’tirof etilgan (masalan, O‘zbekiston Respublikasida bo‘lish qoidalarini buzish – MJtKning 225-moddasi, yoxud diniy ta’limotdan saboq berish tartibini buzish – MJtKning 241-moddasi) qilmish uchun shaxsning ma’muriy tartibda (O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksiga muvofiq) ushlangan yoki qamoqqa olingan muddati;

– harbiy xizmatchining kelgusida jinoyat deb e’tirof etilib, sud tomonidan jazo tayinlangan qilmish uchun gaupvaxtada intizomiy qamoq ostida ushlangan muddati (masalan, bo‘ysunmaslik);

– shaxsini aniqlash uchun shaxsning qabul qilish va taqsimlash muassasasida ushlab turilgan vaqti.

Dastlabki qamoqqa olish muddatlari yuqorida ko‘rsatilgan choralarning biri qo‘llanilganidan boshlab, hukm qonuniy kuchga kirgunga qadar bo‘lgan vaqtgacha to‘liq hisoblanadi.

Dastavval chiqarilgan hukm yuqori turuvchi sud tomonidan bekor qilingan yoki ish takror ko‘rilgan holatida, ushlangan, qamoqqa olingan yoki uy qamog‘ida ushlangan butun muddat birinchi hukm yoki ikkinchi hukm qonuniy kuchga kirgunga bo‘lgan muddat bilan qo‘shib hisoblanishi lozim. Shu bilan bir vaqtda, ko‘rsatilgan muddatlar orasidagi davr ham dastlabki qamoq muddati sifatida hisoblanadi.

Izoh berilayotgan moddada ko‘rsatilgan ushlangan, qamoqqa olish yoki uy qamog‘i muddatini hisoblash qoidalarini mahkumga quyidagi jazoni tayinlash holatlariga tatbiq etiladi:

– ushlab turish, qamoqda saqlash yoki uy qamog‘ining bir kuni ozodlikni cheklash, intizomiy qismga jo‘natish yoxud ozodlikdan mahrum qilishning ko‘rsatilgan turdagi bir kuniga to‘g‘ri keladi;

– ushlab turish, qamoqda saqlash yoki uy qamog‘ining bir kuni jazoning axloq tuzatish yoki xizmat bo‘yicha cheklash kabi turining uch kuniga to‘g‘ri keladi.

Jazoni tayinlashda ushlab turish, qamoqda saqlash yoki uy qamog‘i vaqtini hisobga olish haqidagi qaror hukmning rezolyutiv (qaror qilish) qismida aks ettirilishi lozim.

Qonunda nazarda tutilgan holatlarda, jazo tayinlashda ushlab turish, qamoqda saqlash yoki uy qamog‘i muddatlari hisobga olinishi zarurligini e‘tiborga olish lozim. Masalaning boshqacha yechimi hukmning o‘zgartirilishiga olib keladigan jinoiy qonunchilikning jiddiy buzilishi hisoblanadi.

Ushlab turish, qamoqda saqlash yoki uy qamog‘i muddatlari sud tomonidan tayinlangan jazo muddatiga teng yoki undan ortiq bo‘lgan holatlarda, sudlanuvchi jazo muddatini o‘tagan deb e‘tirof etiladi va ozod qilinadi¹.

O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 4 sentyabr kungi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, mazkur modda ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan bo‘lib, unda jarima jazosini tayinlashda shaxsning qamoqda saqlangan muddatini hisobga olish qoidalari belgilangan edi. Qoidaga ko‘ra, qamoqda saqlangan shaxsga jarima tayinlashda qamoqda saqlangan har bir kunini eng kam oylik ish haqining ikkidandan bir qismiga tenglashtirib hisoblaydi.

Bunda jarima jazosi sud tomonidan hukm chiqarilgan vaqtda amaldagi eng kam oylik ish haqining miqdoridan hisoblanadi.

Jinoiy kodeksning izoh berilayotgan moddasida nazarda tutilmagan (jarima, belgilangan muayyan huquqdan mahrum qilish) boshqa turdagi jazo choralari tayinlashda, ushlab turish, qamoqda saqlash yoki uy qamog‘i hisobga olinmaydi. Ammo sud mazkur vaziyatni hisobga olishi lozim va tegishincha tayinlanayotgan jazoni yengillashtirishi yoki aybdorni jazoni ijro etishdan batamom ozod qilishi mumkin. Bunda sud o‘zining sudlanuvchiga nisbatan jazoni yengillashtirish yoki jazoni ijro

¹Қаранг.: Ўзбекистон Республикаси Жиноий-процессуал кодекс, 463-м, 2-к.

etishdan batamom ozod qilishi haqidagi qarorini hukmning asoslovchi qismida asoslovchi qismida asoslab bermog'i lozim.

11-§. Jazo muddatlarini hisoblash

Jinoiy jazo muddatlarining to'g'ri va bir xil hisoblanishi jazoning qonuniy va adolatli tayinlanishi va bajarilishining garovi hisoblanadi, uning maqsadlariga samarali erishishga ko'maklashadi. Bundan tashqari, jazo muddatlarini hisoblash qoidalari jinoyat qonunchiligining boshqa institutlarini qo'llashga, shu jumladan, uni almashtirishga, jazoni hisobga olishga, ular yig'indisini chiqarishga va boshqalarga yordam beradi.

JK 63-moddasida aytilganidek, «muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash, intizomiy qismga yo'naltirish, ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo muddatlari oylar va yillar bilan hisoblanadi». Moddani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu qoida faqat sodir etilgan jinoyat uchun jazoni tayinlashga taalluqlidir va ushbu jazolarning muddati oyning bir qismiga yoki bir necha kunga tayinlanishi mumkin emasligini anglatadi. Bunday hollarda hukm tegishli tartibda o'zgartirilishi zarur.

Jazo muddatini oylar va yillarda aniqlashda shuni nazarda tutish kerakki, u yilning yoki oyning oxirgi kunida tugallanadi. Masalan, agar hukm bo'yicha bir yillik muddat 2002 yil 3 martidan hisoblansa, unda u 2003 yil 2 martida tugallanadi. Bu holda yilda kunlar soni hech qanday ahamiyatga ega emas (ya'ni, u kabisa yil ekanligi). Xuddi shunday holda, agar hukm bo'yicha jazo 3 oy etib belgilansa va uning muddati 1997 yil 5 iyundan boshlansa, u xuddi shu yilning 4 avgustida tugallanadi. Jazo muddatlarini oylarda hisoblaganda oydagi kunlar soni hech qanday ahamiyatga ega emas (ikki oylik axloq tuzatish ishlari jazosi, agar u 1997 yil 1 yanvarda boshlansa, 1997 yil 28 fevralda o'talgan deb hisoblanadi, uch oylik jazoda esa – 1997 yil 31 martida).

JK 63-moddasida, shuningdek, «Jazolarni almashtirish, hisoblash, qo'shish vaqtida ularning muddatlari kunlar bilan hisoblanishi mumkin» deb ko'rsatilgan. Bunda sud hukmida, ajrimida (jazoni almashtirishda) to'liq yillar, oylar va qolgan kunlar ko'rsatilishi shart.

Jazoni kunlarda hisoblashda, JPK da o‘rnatilgan muddatlarni hisoblash qoidalarini qo‘llash darkor. Jumladan, muddatlarni kunlarda hisoblaganda, muddat oxirgi kunning soat 24:00 da tugaydi (JPK 314-moddasi 2-qismi).

Majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazoning muddatlari soatlar bilan hisoblanadi.

«Jazo tayinlash» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar

1. Jazoni tayinlashning asoslari nimalardan iborat? Ularning mezonlari qanday?

2. Jazoni yengillashtiruvchi holatlarni nimalar ifodalaydi?

3. Jazoni og‘irlashtiruvchi holatlarni nimalar ifodalaydi? Ularning ro‘yxati ochiq hisoblanadimi?

4. Qaysi hollarda sud eng yengil jazo tayinlashi mumkin? Eng yengil jazoning tayinlanishi nimalarda ifodalanishi mumkin?

5. Tugallanmagan jinoyat va jinoyatni sodir etishda jazo qanday tayinlanadi?

6. Sheriklikda sodir etilgan jinoyat uchun jazo tayinlashning o‘ziga xosligi nimadan iborat?

7. Sud tomonidan oxirgi jazoni aniqlash prinsipini tanlash nimaga bog‘liq bo‘ladi?

8. Jazolarni qamrab olish va yig‘indisi prinsiplari nimadan iborat?

9. Jinoyatlar yig‘indisi bo‘yicha jazoni tayinlash tartibi qanday?

10. Jinoyatlar yig‘indisi va hukmlar yig‘indisi bo‘yicha jazolar tayinlashning qonunchilik chegaralari qanday?

11. Jinoyatlar yig‘indisi bo‘yicha jazolar tayinlashning hukmlar yig‘indisi bo‘yicha jazolar tayinlashdan farqi nimada?

12. Dastlabki qamashni hisobga olish qoidalari qanday?

13. Jazo muddatlari qanday hisoblanadi?

Qo‘shimcha adabiyotlar

O‘quv qo‘llanmalar, maxsus adabiyotlar

Андреева Л.А., Константинов П.Ю. Влияние жестокости преступного поведения на уголовную ответственность. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 210 Б.

Велиев С.А. Принципы назначения наказания. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2004. – 388 Б.

Дементьев С.И., Дьяченко Р.А., Трахов А.И. Уголовное наказание: содержание, виды, назначение и исполнение. – Краснодар: 2000. – 311 Б.

Кругликов Л.Л., Василевский А.В. Дифференциация ответственности в уголовном праве. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – 300 Б.

Мамедов А.А. Справедливость назначения наказания. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – 120 Б.

Непомнящая Т.В. Назначение уголовного наказания: Теория, практика, перспективы. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2006.

Рустамбаев М.Х., Тохиров Ф., Кодиров А. Обстоятельства, отягчающие наказание в уголовном законодательстве Республики Узбекистан. – Т.: Типография фирмы «НОРИ», 2000. – 185 Б.

Становский М.Н. Назначение наказания. – СПб.: 1999. – 480 Б.

Старков О.В., Милюков С.Ф. Наказание: уголовно-правовой и криминологический анализ. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001. – 560 Б.

Хамитов Р.Н. Специальные правила назначения наказания. – Казань: 2001. – 157 Б.

Назаров М.А. Назначение наказания в уголовном праве Республики Узбекистан. Монография. –Т.: Адолат, 2013 – 176 с.

Абзалова Х.М., Бекчанов Р.К. Озодликдан маҳрум қилиш жазосига муқобил бўлган жазоларни тайинлаш муаммолари. Масъул муҳаррир ю.ф.д., проф. Р.А.Зуфаров. –Т.: ТДЮУ, 2015. – 174 б.

Махкамов О.М. Общие начала назначения уголовного наказания по законодательству Республики Узбекистан. (Ўқув қўлланма). –Т.: ТДЮУ, 2016. -95 б.

Ilmiy maqolalar

Абзалова Х.М. Некоторые особенности назначения наказания при наличии обстоятельств, смягчающих и отягчающих ответственность // Суд-ҳуқуқ соҳасини ислоҳ қилиш ҳамда жиноят қонунини

либераллаштириш шароитида жазо тизимини такомиллаштириш масалалари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. –Т.ТДЮУ, 2016. – Б. 58-62.

Камалова Д.Г. Жиноятга тайёргарлик кўрганлик ва жиноят содир этишга суиқасд қилганлик учун жазо тайинлаш масалалари // Суд-ҳуқуқ соҳасини ислоҳ қилиш ҳамда жиноят қонунини либераллаштириш шароитида жазо тизимини такомиллаштириш масалалари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДЮУ, 2016. – Б.123-130.

Камалова Д.Г. Суд-ҳуқуқ тизимини ислоҳ қилиш ҳамда қонунларни либераллаштириш жараёнида тамом бўлмаган жиноятлар учун жазо тайинлашни такомиллаштириш зарурати // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Ахборотномаси. Бюллетень Верховного суда Республики Узбекистан. –2018. №2(137). – Б.48-50.

Назаров М.А. Ограничения назначения наказания в виде лишения свободы // ТДЮИ илмий мақолалар тўплами. 2005. № 2. – 95–99-б.

Назаров М.А. Понятие и сущность института назначения более мягкого наказания // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг Ахборотномаси. – 2015. №3. – Б. 21-24.

Рарог А.И., Степашин В.П. Судебное усмотрение при назначении наказания // Ж. Государство и право. 2002. № 2. – 37-б.

Рустамбаев М.Х., Тожиев Э. Принципы справедливости и гуманизма уголовного права Узбекистана и их реализация в индивидуализации ответственности и наказания // Ж. Научные труды академии финансовой полиции. 2002. Вып. 2. – 136–144-б.

Сидоренко Э. Назначение наказания лицам, совершившим преступление в состоянии опьянения // Ж. Законность. 2006. № 11. – 9-б.

IV BOB. JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH

1-§. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchasi va turlari

Muayyan vaziyatlarda jinoyatchilikka qarshi kurash maqsadlariga erishish aybdorlarni jinoiy javobgarlikka tortmasdan yoki jazo bermasdan, lekin haqiqiy jazo muddatini o‘tashdan ozod qilish bilan amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligida javobgarlikdan va jazodan ozod qilish institutlari tartibga solinadi (JK Umumiy qismining beshinchi bo‘limi).

JK Umumiy qismining XII bobi jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslarini belgilaydi. Jinoyat qonunchiligi vazifalarini amalga oshirish va jazo maqsadlariga erishish uchun, jinoyat sodir etgan shaxs o‘zining noqonuniy xatti-harakatlarining salbiy oqibatlariga duchor bo‘lishi hamma vaqt ham talab qilinavermaydi. Qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lganida shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish imkoniyatini uni differentsiyalash va individuallashtirish prinsiplari hamda insonparvarlik va adolat prinsiplarining haqiqiy belgilari sifatida ko‘rish lozim.

NOTA BENE !

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish – jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiruvchi idoralarning davlat nomidan JKda ko‘rsatilgan bir qator holatlar sababli keyinchalik o‘zining oldingi ijtimoiy xavfsizligini yo‘qotgan jinoyatni sodir etgan shaxsni ayblashdan bosh tortishi.

Shuni ta’kidlash lozimki, shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish shaxsga nisbatan ayblov hukmini chiqarishdan voz kechish bo‘lib, lekin bu davlatning umuman jinoiy xatti-harakatni ma’qullashini anglatmaydi. Shuning uchun shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo‘lib hisoblangan holatlarni, shaxsni oqlashdan yoki jinoiy xatti-harakatlarni istisno qiluvchi holatlardan farqlash lozim.

Shaxsni oqlash shundan dalolat beradiki, jinoyat tarkibi mavjud emas yoki shaxs sodir etilgan jinoyatga hech qanday aloqasi yo‘q va bu unga nisbatan oqlash haqidagi hukmni chiqarish uchun asos hisoblanadi.

Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar shundan iboratki, shaxsning xatti-harakatlari tashqi tarafdin jinoyatga o‘xshash bo‘lsa ham, ijtimoiy xavfliligi xususiyati jihatidan u jinoyat emas.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asoslar, shaxs muayyan ijtimoiy xavfli va jinoiy jazoga sazovor qilmishni sodir etishda aybdor bo‘lganda vujudga keladi. Bu – jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning **obyektiv asosidir**.

O‘zining huquqiy tabiati bo‘yicha jinoiy javobgarlikdan ozod qilish reabilitatsiya qilmaydigan (shaxsni oqlamaydigan) asoslar bo‘yicha asos deb hisoblanadi. Ushbu holda, jinoyat sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun qonuniy asos mavjud, lekin bunda ushbu shaxsni muayyan vaziyatlar tufayli (jinoiy javobgarlikka tortish muddatlarining o‘tishi, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish, ayblanuvchining kasalligi, qilmish yoki uni sodir etgan shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatlarini yo‘qotishi va boshqalar) jinoiy javobgarlikka tortish uchun huquqiy asoslar yo‘q. JK Umumiy qismining «Javobgarlikdan ozod qilish turlari» deb nomlanuvchi XII bobi jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning har xil turlarini nazarda tutadi, ularning ko‘pchiligi ularning qo‘llanilishi uchun shart sifatida, jinoyatning birinchi marta sodir etilishidan iborat (masalan, faol afsuslanish, jabrlangan bilan yarashish).

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning **subyektiv asosi** shundan iboratki, jinoyatni sodir etishda aybdor shaxs jamiyat uchun xavfliligini yo‘qotadi yoki uning jamoat uchun xavflilik darajasi shunday darajagacha pasayadiki, unda aybdorni javobgarlikdan ozod qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bunda jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning subyektiv asoslari ham shaxsning irodasiga bog‘liq bo‘lishi (masalan, faol afsuslanish, jabrlangan bilan yarashish), ham uning irodasiga bog‘liq bo‘lmasligi (masalan, jinoiy javobgarlikka tortish muddatining tugashi, aybdorning kasalligi, amnistiya yoki afv etish) mumkin.

Javobgarlikdan ozod qilishda shaxs huquqiy ma'noda jinoyatni sodir etgan deb hisoblanmaydi, chunki ayblov hukmi yo'q va shu bilan birga, davlat majburlovi yoki boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir qilish choralarining qo'llanilishi hamda sudlanganlik singari hukm qilishning huquqiy asoratlari yo'q. Biroq qilmishning o'zi jinoiy bo'lib qolaveradi, jinoyat tarkibi jinoiy javobgarlikning asosi sifatida yo'qolmaydi.

Shuni aytish kerakki, amaldagi jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod qilishning barcha turlari, shaxsning kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish turidan tashqari (JK 67-moddasi), qat'iy, ya'ni shubhaga o'rin qoldirmaydigan hisoblanadi, chunki qonunga rioya etilmasligi yoki buzilishi javobgarlikdan ozod qilishni bekor qilishi mumkin bo'lgan (jumladan, shaxsning keyingi xulq-atvoriga taalluqli bo'lgan) qandaydir shartlar nazarda tutilmaydi. Shaxsning kasalligi tufayli javobgarlikdan ozod qilishda bunday shartlar belgilangan: shaxs sog'ayish holatidan keyin javobgarlikka tortilishi lozim, agar bunda javobgarlikka tortish muddati tugamagan bo'lsa.

2-§. Javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish

Agar jinoyat sodir etilganidan keyin muayyan vaqt o'tgan bo'lsa va aybdor shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmagan bo'lsa, sodir etilgan harakat jinoyat bo'lib qolaversa ham, oldingiday jamoat uchun xavfli hisoblanmaydi. Shaxsning o'zi bir necha yil o'tib o'zining jamiyat uchun xavfliligini yo'qotadi.

NOTA BENE !

Jinoiy javobgarlikka tortish muddati – jinoyat sodir etilgan paytdan boshlab va hukmning qonuniy kuchga kirgan paytigacha qonunda o'rnatilgan muddatlarning tugashi, shundan so'ng jinoyatni sodir etgan shaxs, tegishli shartlar mavjudligida jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi lozim.

Ayni shu muddatlarning tugashi shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Ularning davom etishi, ham sodir etilgan jinoyatning jamoat uchun xavflilik darajasiga, ham qonunda nazarda tutilgan sodir etilgan jinoyat uchun jazoning og‘irligiga bog‘liq, chunki ayni jazoning og‘irligi jinoyatlarni toifalarga bo‘lish asosida yotadi. Shuni ham ta’kidlash zarurki, jazo muddati o‘tganligi uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga, agar qonunda o‘rnatilgan muddat davomida jinoyat sodir etishda aybdor shaxs tergov va suddan yashirinmagan tartibda yo‘l qo‘yiladi.

JK 64-moddasida shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish muddatlari nazarda tutiladi.

JK 64-moddasi 1-qismida to‘rtta jinoyat muddati belgilangan, ularning tugashi bilan u yoki bu jinoyatni sodir etgan shaxs (jinoyatning og‘irlik darajasiga qarab) jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi.

Jumladan: «Agar jinoyat sodir etilgan kundan boshlab quyidagi muddatlar:

a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab – ikki yil;

b) uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab – to‘rt yil;

v) og‘ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab – sakkiz yil;

g) o‘ta og‘ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab – o‘n to‘rt yil o‘tib ketgan bo‘lsa, shaxs javobgarlikdan ozod qilinadi».

JK 64-moddasi 2-qismi shuni ta’kidlaydiki, javobgarlikka tortish muddatlarining kechishi «jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hukm qonuniy kuchga kirgan kungacha» hisoblanadi.

Ko‘rilayotgan norma ma’nosida, **jinoyat sodir etilgan kun** deb, jamoat uchun xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) sodir etilgan payt hisoblanadi.

Jinoiy javobgarlik oxirgi holatsiz boshlanmaydi, shu bilan birga u jinoiy natija yo‘qligida ham bo‘lishi mumkin (masalan, jinoyatga suiqasd uyushtirilganda). Shuning uchun, har qanday jinoyatning asosiy ajralmas xususiyati jinoiy qilmish bo‘lib qoladi; oqibati esa faqat bu xatti-

harakatning jamoat uchun xavflilik darajasini, keltirilgan zarar miqdorini va h.k.ni belgilaydi.

Shunday qilib, jinoiy javobgarlikka tortish muddatining boshlanishi bo‘lib, shaxs tomonidan jinoyatning obyektiv tomoni majburiy elementi – jinoiy natijalar boshlangan paytiga qaramasdan sodir etilgan xatti-harakatlar ijro etilgan kun tan olinishi kerak. Bunda shuni inobatga olish lozimki, **uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlarga** nisbatan muddat o‘tishi ularning aybdorning tashabbusi bo‘yicha to‘xtatilgan paytidan yoki uning irodasiga qarshi ularning to‘xtatib qo‘yilishi paytidan boshlab, **davomli jinoyatlarga** nisbatan esa, davomli jinoyatni tashkil qiluvchi qilmishlardan oxirgi jinoiy xatti-harakatni sodir etgan vaqtdan boshlab hisoblanadi. Ikkita harakatdan tashkil topgan jinoyatlarni sodir etishda, jazo muddati o‘tishi oxirgi jinoiy harakat sodir etilgan kundan hisoblanadi.

Jinoyat ishtirokchilarini jinoiy javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblash alohida o‘rin tutadi. Jinoyatda qatnashish hollarida javobgarlikka tortish muddati barcha yordamchilar tomonidan jinoyatning obyektiv tomoni ijro etilgan paytdan boshlab hisoblanadi, chunki yordamchilarning til biriktirishi birgalikda amalga oshirilgan va ularning har biri jinoyatni sodir etishda qatnashgan.

Rollarni taqsimlashda jinoiy javobgarlikka tortish muddatlarining boshlanishini aniqlash qiyinroq. JK 28-moddasiga muvofiq, jinoyatni bajaruvchi bilan bir qatorda tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar ham jinoyat ishtirokchilari deb topiladi. Bajaruvchi jinoyatning obyektiv tomoni bajarilgan paytdan boshlab javobgar bo‘ladi va demak, javobgarlik muddatining o‘tishi xuddi shu paytdan boshlanadi. Jinoyat tashkilotchisi jinoyat qonuni nuqtai nazaridan, jinoyatda qatnashgan odamlarning barcha sodir etadigan harakatlari uchun javobgar bo‘ladi, bundan bajaruvchi eksessi mustasno. Masalan, tashkilotchining harakatlari, yordamchilarning jinoiy faoliyatini ishlab chiqish, tashkil qilish va boshqarish bo‘yicha bir qator bosqichlardan tarkib topgan bo‘lishi mumkin. Agar tashkilotchining faoliyati jinoiy guruhni tashkil qilish bilan cheklangan bo‘lsa va bu guruh aniq jinoyatlarni sodir etmagan bo‘lsa, unda jinoiy javobgarlikka tortish muddati tashkilotchi tomonidan ushbu maqsadda sodir etilganlar

qatoridan, jinoiy guruhni tashkil qilishga qaratilgan, oxirgi harakat bajarilgan kundan boshlab hisoblanadi. Bu zanjirda oxirgi harakat bajarilmagunicha, javobgarlik muddati o'tishi hisoblanishi mumkin emas. Tashkilotchiga nisbatan javobgarlikka tortish muddatlarini, u tomondan birinchi harakat sodir etilgan kundan boshlab hisoblash hollarida, barcha keyingi harakatlar uchun javobgarlik asoslanmagan holda uning muddati bilan bekor qilinadi. Jinoiy guruh tomonidan faqat bitta jinoyat sodir etilganda, tashkilotchiga nisbatan javobgarlikka tortish muddatlari ushbu jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hisoblanishi kerak.

Bir necha jinoyatlar sodir etilganda tashkilotchiga nisbatan javobgarlikka tortish muddatlari sodir etilgan jinoyatning xususiyati va uning yuridik kvalifikatsiyasini hisobga olgan holda hisoblanishi lozim.

JK 242-moddasi mazmunidagi jinoiy uyushma va uyushgan qurolli guruhning tashkilotchisi va ishtirokchilariga nisbatan jinoiy javobgarlikka tortish muddatlarining kechishi mazkur jinoiy uyushmani tashkil qilish paytidan boshlanadi.

Dalolatchini jinoyatdagi ishtirokchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bajaruvchi tomonidan jinoyatni sodir etish paytidan vujudga keladi. Bu holda dalolatchini jinoiy javobgarlikka tortish muddatlari, dalolatchi faoliyatining tugallanishi paytidan boshlab hisoblanishi zarur. Dalolatchining faoliyati mustaqil jinoiy xususiyatga ega. Va xuddi shu holat, dalolatchilik faoliyatining oxirgi paytini aniqlash va javobgarlikka tortish muddatining boshlang'ich paytini hisoblash to'g'risidagi masalani hal qilish uchun muhimdir. Dalolatchining jinoiy niyati shaxsni jinoyatni sodir etishga og'dirganda amalga oshadi. Bu bilan dalolatchining faoliyati tugallanadi. Jinoyatning bajaruvchi tomonidan sodir etilish payti endi dalolatchining irodasiga bog'liq bo'lmaydi. Demak, dalolatchiga nisbatan javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblash, bajaruvchi tomonidan jinoyat sodir etilgan paytiga bog'lanmasligi shart. Dalolatchining jamoat uchun xavfliligi uning boshqa shaxsni jinoyatni sodir etishga og'dirgan paytda namoyon bo'ladi. Noqonuniy harakatni sodir etgan har qanday shaxsning jamoat uchun xavfliligi vaqt o'tishi bilan kamayadi va oxir-oqibatda umuman yo'qoladi, agar u qonunda o'rnatilgan muddat davomida jinoiy

javobgarlikka tortish muddatini to'xtatib turishga sabab bo'lgan yangi jinoyatni sodir etmagan bo'lsa, shunga nisbatan dalolatchi istisnoni tashkil qilmaydi.

Shunday qilib, dalolatchiga nisbatan jinoiy javobgarlikka tortish muddati kechishining boshlang'ich payti uning boshqa shaxsni jinoyatni sodir etishga og'dirgan kun bo'lib hisoblanadi.

Masalaning boshqacha hal qilinishi dalolatchini jinoiy javobgarlikka tortish muddatlarining sun'iy uzaytirilishiga olib kelar edi va bu holatda uni bajaruvchiga nisbatan yomonroq holatga qo'ygan bo'lar edi. Boshqacha qilib aytganda, dalolatchiga nisbatan javobgarlikka tortish muddatlari bajaruvchi tomonidan jinoyat qachon sodir etilganiga qaramasdan dalolatchilik faoliyati tugagan kundan boshlab hisoblanishi kerak. Bu holat, dalolatchiga shaxsni jinoyatni sodir etish uchun og'dirishga erisha olmagan hollarda ham qo'llaniladi. Bunday jinoyat ishiga og'dirishni, jinoyatda qatnashganlik sifatida ko'rish mumkin emas, lekin u jinoyatga tayyorgarlikni ifodalaydi va unga nisbatan bo'lgan muddatlar oxirgi tayyorgarlik ishlari sodir etilgan kundan boshlab hisoblanishi lozim.

Jismoniy yordamchilikda (mablag'lar, qurollar berish yoki to'siqlarni bartaraf qilish) javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblash bajaruvchiga jinoyatni sodir etish uchun yordam ko'rsatilgan oxirgi harakatni sodir etish kunidan boshlab hisoblanishi zarur.

Bajaruvchiga jinoyatni sodir etishda yordam ko'rsatish uchun maslahatlar, ko'rsatmalar, va'dalar berish bilan ifodalanadigan ongli yordamchilik ham ko'p marta sodir etiladigan har xil vaqtdagi xatti-harakatlardan iborat bo'lishi mumkin. Sherikning har bir bunday xatti-harakati, uning jinoiy faoliyati yagona zanjiridagi bo'g'imni tashkil qiladi. Bunday holatda muddatni hisoblash oxirgi maslahat, ko'rsatma, va'da berilgan paytdan boshlanishi shart.

Oldindan va'da berilgan jinoyatni yashirish holati, bunday yordam haqiqatda berilgan yoki berilmaganidan qat'i nazar, yordamchilikning o'zi bo'lib hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, ongli yordamchilik, shu jumladan, jinoyatchini va (yoki) jinoyat izlarini yashirishga oldindan va'da

berish shaklida, bunday ongli yordamchilik ko'rsatilgan kundan boshlanadi. Agar bunday harakatlar bir necha marta bo'lgan bo'lsa, unda ularning muddati oxirgi harakat ko'rsatilgan (va'da, maslahat, yashirish) kundan boshlab hisoblanadi.

Shunday qilib, yordamchilarga nisbatan jinoiy javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblash turli asoslarga ko'ra o'tkaziladi, ularning harakatlarini bajaruvchining jinoiy harakatlari bilan bog'lash noto'g'ridir, chunki yordamchilar va bajaruvchining harakatlari o'zaro bog'liq bo'lsa ham, lekin mustaqil ravishda, ko'pincha har xil vaqtda sodir etiladi. Ular har birining ijtimoiy xavfliligi muayyan, faqat ularga xos bo'lgan harakatlarda aniqlanadi. Xuddi shu holatlar, bajaruvchining jinoyatni sodir etish vaqtidan qat'i nazar, yordamchilar uchun jinoiy javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblashga asos beradi. Sheriklar jinoiy javobgarligining asoslari haqidagi masala esa sodir etilgan yoki tugatilmagan jinoyat (tayyorlash yoki suiqasd) shaklidagi jinoiy faoliyatning bosqichlari bilan bog'liqdir.

Birga qo'shib jinoyatni sodir etishda uning muddati har bir yordamchi uchun, ular tomonidan har birining roli bilan bog'liq bo'lgan muayyan harakatlar sodir etilgan paytdan boshlab alohida hisoblanadi.

Ko'p sonli jinoyatlarda muddatni hisoblash masalasi ham o'z xususiyatlariga ega.

Jinoyatlarning haqiqiy yig'indisida, shaxs bir necha alohida harakatlar bilan bir qator turli jinoyatlarni sodir etganda, javobgarlikka tortish muddati JK 64-moddasi 4-qismida ko'rsatilgan qoidalardan kelib chiqqan holda har biri bo'yicha alohida hisoblanishi kerak. Bu holda, JK 64-moddasi 4-qismiga muvofiq, yangi qasddan qilingan jinoyat, oldin sodir etilgan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat bo'yicha javobgarlikka tortish muddatining uzilishiga sabab bo'lishini e'tiborga olish kerak. Bunda javobgarlikka tortish muddatini hisoblash yangi jinoyatni sodir etgan paytdan boshlanadi.

Qonun tomonidan hisobga olinmagan ideal yig'indi, qachonki shaxs bitta harakat bilan ikkita va undan ortiq turli jinoyatlarni sodir etganda,

ularning har biri bo'yicha javobgarlikka tortish muddati, jinoiy harakat sodir etilgan kundan boshlab, mustaqil ravishda hisoblanadi.

Takror jinoyat sodir etilgan hollarda javobgarlikka tortish muddatini hisoblashda har bir harakatning sodir etilgan paytini hisobga olish zarur. Jinoyatning takrorlanishi, faqat oldingi sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha muddatlar tugamagan holdagina bo'lishi mumkin. Oldin sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha muddatlarning tugashi xatti-harakatlarning takrorlanish belgilari bo'yicha malakalanishiga yo'l qo'ymaydi. Shuning uchun kvalifikatsiya qilish belgisi sifatida takroriy jinoyat bo'lgan jinoyatlar tarkiblari bo'yicha javobgarlikka tortish muddatlari ulardan oxirgisining sodir etilgan paytidan emas, balki bu qilmishlarning har biriga nisbatan mustaqil hisoblanishi shart. Bunda JK 64-moddasi 4-qismiga muvofiq, javobgarlikka tortish muddatlarini to'xtatish va oldingi muddatni bekor qilish qoidasini hisobga olish lozim.

Jinoyat qonuni ba'zi bir shaxslarga nisbatan javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblashning boshqa qoidalarini ham e'tiborga oladi. Masalan, shaxs ruhiy kasallik tufayli ozod qilingandan va keyinchalik sog'ayganidan keyin jinoiy javobgarlikka tortilgan hollarda, javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblash jinoyat sodir etilgan paytidan emas, balki majburiy tibbiy choralar tayinlangan paytdan boshlanadi.

Javobgarlikka tortish muddatiga ham jinoyat aniqlangan va jinoyat ishi qo'zg'atilgan paytigacha bo'lgan vaqt, ham uni qo'zg'atgandan boshlab **hukmning qonuniy kuchga kirgan paytigacha bo'lgan** vaqt kiradi.

Qonunning bunday ta'riflanishi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining holatlariga asoslangan, unda jumladan ta'kidlanadiki, «Hukm uning ustidan apellatsiya shikoyati berish va protest bildirish muddati o'tishi bilan qonuniy kuchga kiradi. Apellatsiya shikoyati berilgan yoki protest bildirilgan taqdirda hukm, agar u bekor qilinmagan bo'lsa, ishni yuqori sud ko'rib chiqqan kuni qonuniy kuchga kiradi» (JPK 528-moddasi). Birinchi instansiya sudining hukmi ustidan apellatsiya shikoyatlari va protestlari hukm e'lon qilingan kundan e'tiboran o'n sutka ichida, mahkum, oqlangan shaxs, jabrlanuvchi

tomonidan esa ularga hukmning nusxasi topshirilgan kundan e'tiboran shunday muddat ichida berilishi mumkin.

Hukm ustidan shikoyat berish uchun belgilangan muddat ichida ish suddan talab qilib olinishi mumkin emas. Taraflar shu vaqt mobaynida ish bilan sud binosida tanishishga haqlidir.

Belgilangan muddatdan keyin berilgan shikoyat yoki protest oqibatsiz qoldiriladi, bu haqda ularni bergan shaxslarga xabar qilinadi (JPK 497⁴-moddasi).

«Hukmni e'lon qilish» protsessual harakatining o'zi JPK 473-moddasida tushuntirilgan. JPK 84-moddasiga muvofiq, «quyidagi hollarda shaxsning jinoyat sodir etilishida aybliligi to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishi tugatilishi lozim, basharti:

- 1) shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa;
- 2) e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lsa;
- 3) ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa;
- 4) shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bo'lsa;
- 5) shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha ishni tugatish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan ajrimi (qarori) yoki vakolatli mansabdor shaxsning jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoxud ishni tugatish haqida bekor qilinmagan qarori bo'lsa;
- 6) ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa, JPK 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
- 7) shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytda jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan bo'lsa».

Jinoiy javobgarlikka tortish muddatlarining o'tishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar aybdorlik haqidagi masalani hal qilmasdan jinoyat ishini tugatish uchun asos hisoblanadi. Bunda, jinoiy javobgarlikka tortish muddatlari sud muhokamasi davomida tugasa, sudlanuvchi sud zalida jazo tayinlamasdan ozod qilinadi va bu haqda qaror qabul qilinadi (JPK 474-moddasi). Boshqacha so'z bilan aytganda, tugallanish payti sud

muhokamasiga emas, balki JK 64-moddasi 1-qismida belgilangan muddatlarga bog‘liq bo‘ladi.

Agar javobgarlikka tortish muddatlari dastlabki tergov jarayonigacha yoki tergov davomida tugasa, unda ish yuqorida ko‘rsatilgan asoslarga ko‘ra, tergovchi tomonidan tugatiladi, agar muddat sud tergovi vaqtida tugasa, unda shaxsning aybdorligi haqidagi masalani hal qilmasdan sud qarori chiqariladi. Agar javobgarlikka tortish muddatlarining tugash holati apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida shikoyat keltirish yoki protest bildirish bosqichida aniqlangan bo‘lsa, sud ishni tugatish to‘g‘risida ajrim yoki qaror chiqaradi. Shaxsni javobgarlikka tortish bo‘yicha hech qanday protsessual yoki tergov harakatlari va jinoyat hodisasini tekshirish javobgarlikka tortish muddatlarini to‘xtata olmaydi.

Javobgarlikka tortish muddatlari kalendar yillari bilan hisoblanadigan belgilangan muddatning oxirgi kuni soat 24:00 da tugallanadi. Agar muddatlarning davom etishi to‘xtatilsa, unda u oylar va kunlar bilan hisoblanishi mumkin.

Jinoiy javobgarlikka tortish muddati jinoyat sodir etilgan kundan uzluksiz ravishda, qonunda ko‘rsatilgan muddat tugagan kungacha davom etadi. Biroq JK 64-moddasi 3-qismida «Agar jinoyat sodir etilgan va jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs tergov yoki suddan yashirinsa, muddatning o‘tishi to‘xtatiladi. Aybdor ushlangan yoki aybini bo‘yniga olib arz qilgan kundan boshlab muddatning o‘tishi qaytadan tiklanadi», deb belgilangan.

Muddatning o‘tishini **to‘xtatib turish** shartlari quyidagilardan iborat: birinchidan, jinoyat fakti bo‘yicha jinoyat ishini qo‘zg‘atish va ma’lum bir shaxsni ayblanuvchi sifatida jalb qilish va ikkinchidan, shaxsning tergov va suddan bo‘yin tovlashi.

Birinchi shart, jinoyat ishini qo‘zg‘atish bilan bog‘liq va shu qoidaning asoslaridan biri hisoblanadi, chunki, agar ish qo‘zg‘atilmagan va shaxs ayblanuvchi yoki gumonlanuvchi sifatida ishga jalb qilinmasa, uni odil sudlovdan bo‘yin tovladi deyish mumkin emas.

Nafaqat jinoyatni sodir qilishda ayblanayotgan yoki gumondor shaxsni, balki tergovga chaqirilgan, ammo jinoyat sodir etganligi tufayli kelmagan shaxsni ham tergov yoki suddan bo‘yin tovlashi deb hisoblanadi.

Boshqa shaxslarning (jinoiyat protsessi ishtirokchilari) dastlabki tergov va sudan bosh tortishi vaziyatlarida muddatni to'xtatib turish sharti qo'yilmaydi, chunki ular jinoyatni sodir qilishda gumondor yoki ayblanuvchi hisoblanishmaydi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga hozircha ma'lum bo'lmagan jinoyatni sodir etgan hamda sodir etilgan jinoyatga aloqadorligi aniqlamagan shaxsni tergov yoki sudan bo'yin tovladi deb hisoblab bo'lmaydi.

Ikkinchi shart – bu tergov yoki sudan yashirinish. Qonunda «yashirinish» degan termin ishlatiladi. «Yashirinish» so'zining terminologik ma'nosi «bo'yin tovlash» terminiga tenglashtirilgan, chunki «yashirinish» so'zining to'g'ri ma'nosi javobgarlikdan bo'yin tovlashga yo'naltirilgan harakatni anglatadi.

NOTA BENE !

Tergov va sudan bo'yin tovlash deb, shaxsning qilmishi uchun jinoiy javobgarlikdan qutulish maqsadida qasddan sodir qilgan maqsadlari hamda dastlabki tergov organlari va sudni uni topishlik uchun mamlakatning barcha hududlarida yoki qandaydir ayrim joylarida qidiruv ishlarini olib borish zaruriyati oldida qo'yishi tushuniladi (yashash joyini o'zgartirish, familiyasini o'zgartirish, o'zgaralar yoki soxta hujjatlar bilan yashash va boshqalar).

Gumonlanuvchi yoki ayblanuvchi hamda jinoyatni sodir etishga aloqador shaxsning qidiruviga ketgan vaqt javobgarlikka tortish muddatiga kirmaydi. Muddat tergov va sudan yashiringan shaxsni ushlangan yoki aybini bo'yniga olib arz qilgan vaqtdan boshlab qayta tiklanadi. Shunday qilib, muddatga, shaxs jinoyat sodir etib, tergov yoki sudan yashiringaniga qadar o'tgan vaqt va ushlangan yoki aybini bo'yniga olib kelganidan keyin o'tgan vaqt kiradi. Agarda bu vaqt umumiy hisoblanganda JK 64-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan muddatlardan oshsa, shaxs jinoiy javobgarlikka tortish muddati o'tganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilinishi shart.

Jinoyat kodeksi 64-moddasi 3-qismiga muvofiq, aybdor ushlangan yoki aybini bo‘yniga olib arz qilgan muddatdan boshlab muddatning qayta o‘tishi tiklanadi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 220-moddasiga asosan, ushlab turish jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni uning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanishiga barham berish, qochib ketishining, dalillarni yashirishi yoki yo‘q qilib yuborishining oldini olish maqsadida qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilishdan iboratdir. Ushlab turish muddati va tartibi hamda ushlanganning huquq va burchlari jinoyat-protsessual qonunida belgilangan.

(«Aybini bo‘yniga olish haqidagi arz» tushunchasi ushbu tom 3-bobining «Jazoni yengillashtiruvchi holatlar» deb nomlanuvchi 2-§ da yoritib berilgan.)

Jazoni javobgarlikka tortish muddati institutining huquqiy tabiati jinoyat sodir etilgan kundan boshlab ma’lum bir vaqtning o‘tishi bilan jinoyatni sodir etishda ayblanayotgan shaxsning ijtimoiy xavfliligi yo‘qolishidan iboratdir. Shaxsning ma’lum bir vaqt o‘tishi bilan ijtimoiy xavf keltirishining to‘xtatilganini ko‘rsatayotgan ma’lumotlar mavjudligi uni javobgarlikka tortish muddatini qo‘llash asoslarini beradi. Aksincha, yangi bir jinoyatning sodir etilishi, shaxsning ijtimoiy xavfliligi davom etayotganligini ko‘rsatadi. Ko‘pincha bu holatlar qasddan jinoyat sodir etishda ko‘riladi, chunki u avval sodir etgan jinoyatini bilgan holda yana jinoiy xulq-atvorga yo‘l qo‘yadi.

Shundan kelib chiqib, JK 64-moddasi 4-qismida «Agar og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etgan shaxs ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar o‘tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etsa, muddatning o‘tishi uziladi. Bunday holda javobgarlikka tortish muddatlari yangi jinoyat sodir etilgan kundan boshlab hisoblanadi. Qolgan hollarda, agar shaxs javobgarlikka tortish muddatlari o‘tmasdan yangi jinoyat sodir etsa, bu muddatlar har bir jinoyat uchun alohida hisoblanadi».

Muddatning uzilishi shuni anglatadiki, yangi bir jinoyat qasddan sodir etilishidan oldin muddatning o‘tishi nolga tenglashtiriladi va bu holda muddatning o‘tishi yangi bir jinoyat sodir etilgandan so‘ng hisoblanishi

boshlanadi. Muddat (o'tab bo'lingan deb hisoblanishi) shaxsni yangi bir jinoyat sodir etmaslik sharti bilan qo'llanilishi qonunning ushbu holatini prinsipial ma'noga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun muddatni qo'llash masalasini hal qilish paytida tergov va sud organlari muddat o'tish mobaynida shaxs yangi bir qasddan jinoyat sodir etmaganligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak. Aks holda muddatni qo'llash tartibi to'g'risidagi qonun shartlari buzilgan bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, muddatning uzilishi va nolga tenglashtirilishi, muddatning esa qasddan yangi jinoyatni sodir etilgan vaqtdan boshlanishi uchun quyidagi shartlar mavjudligi muhim:

– shaxsning oldin og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etganligi;

– uni JK 64-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan muddatlarni o'tashidan oldin qasddan yangi jinoyat sodir etishi.

Shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etganligi haqidagi ma'lumotlarning yo'qligi, avval jinoyatni sodir etishda javobgarlikka tortish muddatining o'tganligi fakti mavjudligi shaxsning jinoyat sodir etmaganligi va uni jinoiy javobgarlikdan ozod etishni nazarda tutadi.

Javobgarlikka tortish muddati instituti fuqarolik qonunchiligidagi ba'zi bir da'volarga o'xshab muddatsizlik prinsipiga asoslanmaydi. JK 64-moddasi 5-qismida «Agar jinoyat sodir etilgan kundan boshlab ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab o'n yil, og'ir jinoyat yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab yigirma besh yil o'tib ketgan bo'lsa, shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin emas» deb ko'rsatilgan.

Jinoyatning og'irligidan qat'i nazar uni sodir etgan shaxslarni shuncha vaqt o'tganidan so'ng jinoiy javobgarlikka tortishning maqsadga muvofiq emasligi jazoning maqsadidan kelib chiqadi. Jinoyat sodir etilgandan keyin qanchalik ko'p vaqt o'tsa, jazo maqsadining samarasi shunchalik kam bo'ladi, chunki aybdor shaxs shu vaqt mobaynida o'zining xulq-atvori bilan o'zining o'zgarganini isbotlaydi, muayyan jinoyat-huquqiy choralarni qo'llash esa axloqan tuzatish maqsadini emas, balki ilgari sodir etgan jinoyati uchun o'ch olish bo'lib qolardi.

JK 64-moddasi 6-qismi bu qoidadan istisnoni mustahkamlaydi. Bu qoida qonun bo'yicha umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan jinoyatlarga tegishli.

Ko'rsatilgan normaga ko'ra, «Ushbu kodeks Maxsus qismining moddasida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan javobgarlikka tortish muddatini qo'llash masalasi sud tomonidan hal qilinadi. Agar sud javobgarlikka tortish muddatini qo'llashni lozim topmasa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga ozodlikdan mahrum qilish tayinlanadi».

Aynan sud javobgarlikdan ozod qilish muddatini qo'llash yoki qo'llamaslik masalasini hal qiladi¹. Amaldagi qonunga ko'ra, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi berilishi mumkin bo'lgan jinoyatni sodir etgan shaxs, muddati o'tgan-o'tmaganligidan qat'i nazar, istalgan vaqtda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Muddati o'tganligini qo'llash ana shunday jinoyat sodir etganlikda ayblangan shaxsning 25 yil o'tganidan so'ng jinoiy javobgarlikdan ozod etilishini anglatadi. Agar sud muddati o'tganligini qo'llash imkoni yo'q deb topsa, u holda umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga ozodlikdan mahrum etish ko'rinishida jazo belgilanishi kerak. Jinoyat qonunida sud muddati o'tganligi masalasini qo'llash-qo'llamaslikni hal qilishi mumkin bo'lgan mezonlar keltirilmagan. Bu qoidani qo'llash sodir etilgan jinoyatning tavsifi va ijtimoiy xavflilik darajasiga, aybdorning shaxsiga va hattoki, jazoni yengillashtirish yoki og'irlashtiruvchi sharoitlarga ham bog'liq emas, balki muayyan vaqt o'tganidan so'ng jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavfliligi qay darajada yo'qolganiga bog'liq bo'ladi, chunki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi faqat o'ta xavfli jinoyatlarga (aybni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm) nisbatan qo'llanadi. Buning ustiga sud hech qanday chegaralar bilan cheklanmagan.

JK 64-moddasi 7-qismi xalqaro huquqning ustuvorligini e'tirof etgan holda jinoiy javobgarlikka tortish muddatini qo'llash qoidalaridan istisno bo'lgan hollarni ham belgilab o'tadi, unga asosan «150-157 moddalari,

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2007 йил 14 ноябрдаги «Умрбод озодликдан маҳрум қилиш тарикасидаги жазони қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида»ги 15-сонли қарори, 8-банд.

158-moddaning 1-qismi, 159-moddaning 3 va 4-qismlari, 160, 161 va 244²-moddalarida ko'rsatilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga mazkur moddaga binoan javobgarlikka tortish muddatlari qo'llanilmaydi». Xalqaro huquq me'yorlariga binoan, qilmishning sodir etilish vaqtidan qat'i nazar, javobgarlikka tortish muddati qoidasi harbiy jinoyatchilar, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat qilgan shaxslar, urush yoki tinchlik davrida¹ sodir etilganligidan qat'i nazar, shuningdek, aparteid² va genotsid³ uchun qo'llanilmaydi. Barcha ko'rsatilgan xalqaro aktlar shunga o'xshash jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish va jazo tayinlashda jazoga tortish muddatini hisobga olmaydi.

3-§. Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish

Jinoyat qonuni ham ijtimoiy hayotda, ham huquq sohasida muhit o'zgarishi mumkinligini nazarda tutadi va bu jinoiy javobgarlikka tortish va jazoni qo'llashga ta'sir o'tkazmay qolmaydi. JK 65-moddasiga ko'ra jinoyatni sodir etgan shaxsni javobgarlikdan ozod etishning umumiy asosi deb muhit o'zgarishi tufayli qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi hisoblanadi. «**Sharoit o'zgarishi**» jinoiy javobgarlikdan ozod qilish bunday turining asosini tashkil etadi.

JK 65-moddasi 1-qismi «ishni tergov qilish yoki sudda ko'rish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli sodir etilgan qilmish o'zining ijtimoiy xavfliligini yo'qotgan deb topilsa, jinoyat sodir etgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin»ligini nazarda tutadi.

Sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyati yo'qolishiga tegishli ravishda sharoitning o'zgarishi deganda, butun mamlakat yoki

¹ Qarang: Xarbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlariga nisbatan muddati utganlik ko'idasi kullanilmasligi turg'risidagi konvenciya (BMT Bo'sh Assambleyasining 1968 yil qabul qilingan va 1970 yil 11 noyabrda kuchga kirgan 2391 (XXII)-sonli Rezolyuciyasiga muvofiq, imzolash, ratifikatsiya qilish va kushilishga ochiq, deb e'lon qilingan).

² Qarang: Apartheid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazo belgilash turg'risidagi 1973 yil 30 noyabrda konvenciya (1976 yil 18 iyulda kuchga kirgan).

³ Qarang: Genotsid jinoyatining oldini olish va uning uchun jazo belgilash turg'risidagi konvenciya (BMT Bo'sh Assambleyasining 260 A (III)-sonli Rezolyuciyasi bilan 1948 yil 9 dekabrda qabul qilingan, 1961 yil 12 yanvarda kuchga kirgan, Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 yil 20 avgustda 835-1-son qaroriga asosan Uzbekiston Respublikasi kushilgan).

alohida region miqyosida jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalaridagi tub o'zgarishlar nazarda tutiladi.

Sharoitning o'zgarishi jiddiy bo'lib, muayyan bitta qilmishni emas, balki shu turdagi barcha qilmishlarning ijtimoiy xavfliligi yo'qolishiga olib kelishi kerak. Masalan, mamlakatda yoki uning ayrim hududlarida favqulodda vaziyat bekor qilinganidan keyin favqulodda holat vaziyatida jinoiy deb topilgan barcha qilmishlar ijtimoiy xavfliligini yo'qotadi.

Sharoitning o'zgarishi deganda, qilmishga jinoiylik xususiyatini beruvchi joy va vaqtga tegishli bo'lgan maxsus shartlarning o'zgarishi ham tushuniladi. Masalan, taqiqlangan joyda (qo'riqxon va hokazo) qonunga xilof ravishda baliq ovlash, ov qilish ijtimoiy xavfli hisoblanib, JK 202-moddasi (Hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish) bo'yicha javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi. Biroq baliq miqdorining ko'payib ketishi yoki yemish tanqisligi sharoitida muayyan jonivorlarning qirilib ketishi xavfi paydo bo'lishi tufayli bunday joylarda baliq tutish va ov qilish rasmiy ravishda ruxsat etilgan bo'lsa, ushbu ruxsatdan so'ng bu qilmishlar o'z ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotadi. Shu bilan birga, agar jinoyat sodir etilganidan so'ng jinoyat qonunida jazo yengillashtirilgan yoki umuman bekor qilingan bo'lsa, u holda aybdor JK 65-moddasiga binoan sharoit o'zgarishi oqibatida emas, balki JK 13-moddasi 2-qismiga ko'ra, ya'ni qonunning orqaga qaytish kuchi qoidasiga muvofiq, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishini ham unutmash kerak.

JK 65-moddasi 2-qismida shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganligi tufayli jinoiy javobgarlikdan ozod qilish: «Ishni tergov qilish yoki sudga ko'rish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotgan deb topilsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin»ligi nazarda tutilgan.

Jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotishiga oid sharoitning o'zgarishi tor ma'noda tushuniladi: shaxsning jinoyatni sodir etgan va undan keyingi vaqtdagi hayoti va faoliyati shart-sharoitlarga bog'liq. Ko'pincha amaliyotda shunga o'xshash sharoitning o'zgarishiga jinoyat sodir etgan shaxsning armiyaga xizmatga chaqiruvi, uning ishga yoki o'qishga kirishi, jinoyat sodir etganligi, oilaviy munosabatlarning

yaxshilanishi yoki aybdorning og‘ir kasalligi tufayli mansabdan ketishi sabab bo‘ladi. Jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavfliligini yo‘qotganligi haqida nafaqat uning hayotining obyektiv sharoitlari, balki uning sodir etilgan jinoyatdan keyingi xulqi hamda uning namunali xulqi, kasbiy va ijtimoiy majburiyatlariga munosabati va hatto uning axloqi guvohlik qiladi. Agar aybdor o‘n oltiga kirmagan shaxs bilan jinsiy aloqaga kirgan, lekin oqibatda u bilan turmush qurish uchun ro‘yxatdan o‘tib va to‘liq oila qurgan bo‘lsa, shaxs ijtimoiy xavfliligi yo‘qotilishiga sabab bo‘lgan sharoitlar o‘zgarganligi tufayli uni javobgarlikdan ozod qilish masalasini ko‘rib chiqish shart.

Shaxs yoki qilmish ijtimoiy xavfliligini yo‘qotishi munosabati bilan aybdorni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni jinoyat qonuni bilan muhofaza qilinadigan muayyan ijtimoiy munosabatlarning dekriminalizatsiyasi bilan bog‘lamaslik lozim.

Qilmishning dekriminalizatsiyasi uning asoslaridan qat‘i nazar, jumladan, qilmishning ijtimoiy xavfliligi xususiyatini yo‘qotganligi jinoiy javobgarlikni istisno qiladi. Masalan, JK 187-moddasi O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ulardan ba‘zilarini kuchini yo‘qotgan, deb topish to‘g‘risida»gi qonuni¹ asosida bekor qilingan, aniqrog‘i dekriminalizatsiya qilingan. Dekriminalizatsiya jinoiy javobgarlikka tortish uchun sabab bo‘la olmaydi, chunki jinoyat mavjud emas.

Sharoitning o‘zgarishi tufayli qilmishning va shaxsning ijtimoiy xavfliligini yo‘qotgan deb baholash va uni kvalifikatsiya qilish dastlabki tergov va sud idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda mazkur asoslarga ko‘ra baholash qilmish sodir etilgan vaqtda emas, balki faqat ishni tergov qilish yoki sudda ko‘rish paytida amalga oshirish kerakligini unutmasliklari shart. Bu haqda JK 65-moddasidagi **«ishni tergov qilish yoki sudda ko‘rish vaqtda** sharoit o‘zgarganligi tufayli sodir etilgan qilmish o‘zining ijtimoiy xavfliligini yo‘qotgan deb topilsa, jinoyat sodir

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 15 декабрдаги «Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритиш, шунингдек айримларини ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисида»ги 175–II-сон Қонуни, 9-банд, 1-кичик банди // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2001 й., 1–2-сон, 23-модда.

etgan shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin» degan ko'rsatma guvohlik qiladi.

«**Tergov vaqtiga kelib**» tushunchasi surishtiruv va dastlabki tergovdan boshlab, ishni prokuror orqali sudga yuborilishi bilan tugaydigan davrni anglatadi.

«**Ishning sudda ko'rilishi vaqtiga kelib**» tushunchasi sud tergovidagi tayyorgarlik bosqichidan boshlab, sudga ish kelib tushganda, uni sudda ko'rilishiga tayinlash masalasidan to hukmni chiqarishi bilan tugaydigan davrni anglatadi.

Bunday hollarda tergovchi, prokuror aybdorning roziligi bilan jinoyat ishini tugatish to'g'risida, sudya esa, aybdor roziligi bilan, jinoyat ishi bo'yicha ishlarni tugatish to'g'risida qaror chiqaradi. Ko'zg'atilgan ishni qabul qilib olgan tergovchi aybdorga ish sharoiti o'zgarganligi tufayli to'xtatilishi mumkinligini tushuntirib berishi shart. Prokuror zimmasiga ham xuddi shunday vazifa yuklangan bo'lib, ya'ni u aybdor tomonidan jinoyat ishining tugatilishi to'g'risidagi ariza taqdim etilganmi yo yo'qmi ana shunday rozilik taqdim etish imkoni bor-yo'qligini aniqlashi shart.

Jinoyat-protsessual qonuni dastlabki tergov idoralarining vakolatlarini belgilay turib, jinoyat ishini qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavflilik tavsifini yo'qotganligi sababli tugatishni nazarda tutmagan. JPK 333- va 401-moddalarida jinoyat ishi qo'zg'atilishining qaytarilishi yoki jinoyat ishi JPK 84-moddasi 5-qismi 1-bandi (Ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish uchun asoslar)da ko'rsatilgan asoslarga binoan sud to'xtatilishi mumkinligi ko'rsatilmagan. Shaxsning aybliligi haqidagi masalani hal qilmasdan turib, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki uni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilishga asos bo'lib JK 65-moddasida ko'rsatilgan javobgarlikdan ozod qilish asoslari xizmat qilishi mumkin, faqat ayblanuvchining bunday qarorga roziligini inobatga olgan holda (JPK 84-moddasi 5-qismi 1-bandi).

JPK 84-moddasi 5-qismi 1-bandi mazmuniga asosan, ayblanuvchi sud jarayonida aybdorni sharoit o'zgarishi tufayli javobgarlikdan ozod qilish, ya'ni ayblilik masalasini hal qilmasdan turib jinoyat ishini tugatish asosli deb hisobga olish huquqidan foydalanishi mumkin. Bunga ko'ra

ko‘rilayotgan jinoiy javobgarlikdan ozod qiladigan asos jazo tayinlashdan ozod bo‘lish asosidan farq qiladi (JK 70-moddasi). Aniqrog‘i, agar shaxs unga nisbatan ko‘rilayotgan jinoyat ishini ayblilik masalasini hal qilmasdan tugatish haqida rozilik bermasa, unda shunga asosan sud jarayoni bo‘lib, u tugashi bilan JK 70-moddasi tartibida jazo tayinlamasdan oqlov hukm yo qoralov hukm chiqarilishi kerak.

(Bu haqda mazkur tom V bobining «Qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo‘qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish» deb nomlangan 3-§ da to‘liqroq ma‘lumot berilgan.)

4-§. Aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish

Amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilishning asosi sifatida jinoyat sodir etgandan keyin o‘zining xulqi bilan amalda pushaymonligini tasdiqlagan va shu bilan o‘zining ijtimoiy xavfliligini yo‘qotgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishning maqsadsizligi ilgari suriladi.

JK 66-moddasi 1-qismiga binoan, «Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilgan, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin».

NOTA BENE !

Amalda pushaymon bo‘lish deganda, aybini o‘z bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilgan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jinoyatning ochilishida va uni sodir etgan shaxslarni topishda yordam bergan va yetkazilgan zararni qoplagan shaxsning faol xatti-harakati tushuniladi.

Amalda pushaymon bo‘lish jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning asosi sifatida qabul qilinishi uchun quyidagi belgilar bo‘lishi lozim:

- shaxsning birinchi marta jinoyat sodir etishi;
- sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavfi katta bo‘lmasligi yoki uncha og‘ir bo‘lmasligi;

- shaxs aybini o‘z bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilganligi;
- aybdorning chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi;
- jinoyatni ochishda yordam berish;
- keltirilgan zararni bartaraf qilish.

Ana shu ko‘rsatilgan barcha belgilarning mavjudligi aybdor shaxsning haqiqatan pushaymonligi va u aybiga iqrorigidan dalolat berib, bu uni jinoiy javobgarlikdan ozod etish uchun yetarli bo‘lib ko‘rinadi. Yuqorida ko‘rsatilib o‘tilgan belgilardan birortasining bo‘lmasligi, jinoiy javobgarlikni bekor qilishga to‘sqinlik qilishi mumkin va bu hol jazoni yengillashtiradi, xolos.

Ko‘rilayotgan javobgarlikdan ozod qilishning asosi jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi, to‘g‘rirog‘i muqaddam sudlanmagan, tergov yoki sud tergov ostida emas, tergov va suddan yashirinmagan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

Agarda shaxs kam ahamiyatligi sababli ijtimoiy xavfliligi yo‘q qilmishni sodir etgan bo‘lsa (JK 36-moddasi), jinoyat sodir etilgan kundan boshlab jinoiy javobgarlikka tortish muddatlari o‘tgan bo‘lsa (JK 64-moddasi), qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo‘qotganligi munosabati bilan u javobgarlikdan ozod qilinsa (JK 65-moddasi), amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan (JK 66-moddasi), yarashilganligi munosabati bilan (JK 66¹-moddasi) yoki amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinganda (JK 68-moddasi) jinoyat **birinchi marta sodir etilgan** deb hisoblanishi kerak.

Shaxs ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etgan bo‘lsagina amalda pushaymon bo‘lganligi tufayli jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin. Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi (JK 15-moddasi 2-qismi). Uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish

tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi (JK 15-moddasi 3-qismi).

Og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar sodir etgan hollarda shaxsning amalda pushaymon bo'lishiga JK 66-moddasi qo'llanilmaydi. Bunday hollarda JK 55-moddasi 1-qismi «a» bandiga asosan, shaxsning jinoyatni ochishda faol qatnashishi, aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilishi, chin ko'ngildan pushaymonligi yoki jinoyatni ochishda, ya'ni jinoyatning boshqa ishtirokchilarini topishda, jinoyat ortidan topilgan mulkni qidirishdagi faol harakatlari, jabrlanuvchiga jinoyat sodir etilgandan keyin tibbiy yoki boshqa yordam berishi hamda yetkazilgan zararni qoplashga yo'naltirilgan boshqa harakatlarini qonun jazoni yengillashtirishga qilingan holatlar deb topadi.

Aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilish, jinoyatning ochilishiga faol yordam berish va keltirilgan zararni bartaraf qilish – bularning barchasi amalda pushaymon bo'lishning yagona shaklini hosil qiladi.

Aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilish deganda, ushbu jinoyatni sodir etgan, lekin hozircha gumondor yoki aybdor deb topilmagan arz qiluvchi tomonidan jinoyat to'g'risida xabar berishi tushuniladi.

Chin ko'ngildan pushaymon bo'lish sodir etgan jinoyatni bo'yniga olish, qilmishi va jinoiy oqibatlari to'g'risida afsuslanish va jazoni o'zining xatti-harakati uchun adolatli va xolis jazo sifatida qabul qilishdir.

Jinoyatning ochilishiga faol yordam berish har xil qo'llaniladi: tergovga ma'lum bo'lmagan ko'rsatmalar berish, jinoyatning boshqa ishtirokchilarini topishda ko'maklashish, sodir etilgan jinoyatning guvohlarini aniqlashda, jinoyatni sodir etishda qo'llanilgan jismlarni, vositalarni, buyumlarni hamda turli xil dalillarni topishda yordam berish, o'g'irlangan mulkning yashirilgan joyi, qidiruvdagi shaxslar haqida ma'lumotlarni xabar qilish va boshqa tergov harakatlarida faol qatnashib, yuzlashtirilgan boshqa aybdor yoki gumondorlarning noto'g'ri ma'lumot berayotganini aniqlash va hokazo.

Keltirilgan zararni bartaraf qilish – o‘z xohishi bilan, iloji bo‘lganda to‘liq qaytarish yoki sodir etgan qilmishning sababiy oqibatlarini yengillashtirishni nazarda tutadi.

Tovon to‘lash keltirilgan zararni bartaraf qilish sifatida ko‘rilishi mumkin emas, chunki u hamisha ham aybdorning chin ko‘ngildan pushaymonligi, uning obro‘-e‘tibori tiklanishi bilan bog‘liq emas. Ko‘rsatilgan hollarda zarar o‘rniga tovon to‘lash iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga nisbatan qo‘llanishi mumkin. Zarar o‘rnini qoplash esa shu bilan birga jabrlanuvchi yoki uning yaqin qarindoshlari ruhiy iztiroblarini yengillashtirishdan ham iborat bo‘lishi kerak. Harakatsizlikdan iborat bo‘lgan, ya‘ni ota-onasini boqishdan bosh tortish, harbiy yoki muqobil xizmatdan bosh tortish kabilarda keltirilgan zararni bartaraf qilish ushbu jinoyatlar uchun asos bo‘lgan majburiyatlarni ado etishda ham ifodalanishi mumkin. Nihoyat, shaxsning sha‘ni va qadr-qimmatiga tajovuz qiladigan jinoyatlar, masalan, tuhmat va haqorat qilish, keltirilgan zararni bartaraf qilish, oshkora (matbuot vositalarida, sudda) uzr so‘rash yoki tuhmat-bo‘hton materiallarni rad etish orqali amalga oshirilishi ham mumkin.

(Keltirilgan zararni bartaraf qilish, aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish hamda jinoyatning ochilishiga faol yordam berish to‘g‘risida mazkur tom III bobining «Jazoni yengillashtiruvchi holatlar» deb nomlanuvchi 3-§ da to‘liqroq ma‘lumot berilgan.)

Faqatgina yuqorida ko‘rsatilgan shartlarning bir vaqtda mavjudligida (ijtimoiy xavfi uncha katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatning birinchi marta sodir etilishi va boshqalar) JK 66-moddasiga asosan aybdor shaxsni javobgarlikdan ozod qilish masalasi qo‘yilishi mumkin.

JK 66-moddasi 2-qismiga muvofiq, «Ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida alohida ko‘rsatilgan hollarda, jinoyat sodir etgan shaxs o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lgan taqdirda javobgarlikdan ozod qilinishi lozim». Ta‘kidlash lozimki, JK 66-moddasi 2-qismida ko‘zda tutilgan hollar Jinoyat kodeksining davlatga xoinlik qilish (157-modda), O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish

(159-modda), josuslik (160-modda), pora berish (211-modda), pora olish-berishda vositachilik qilish (212-modda), diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish (244²-modda), qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalariga qonunga xilof ravishda egalik qilish (248-modda) uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalarida o'z ifodasini topgan.

5-§. Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida jabrlanuvchi bilan yarashish, amaldagi Jinoyat kodeksida, birinchi marta, O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 29 avgustdagi 254-II-sonli «Jinoiy jazolarni liberallashtirilishi munosabati bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinishi bilan paydo bo'ldi.

NOTA BENE !

Agar shaxs og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar uchun sudlanganligi bo'lmay turib, JK 66¹-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatlardan birini sodir etib, aybini bo'yniga olgan, jabrlanuvchi bilan yarashgan va yetkazilgan zararni qoplagan bo'lsagina u **yarashilganligi munosabati bilan** jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asos sifatida yarashuvning keltirilishi – aybdor va jabrlanuvchining o'zaro kelishishi masalasidir. Yarashuv tomonlarning erkin xohish-istaklari va majburlovsiz amalga oshirilayotganligini aniqlash kerak. Bu esa, jabrlanuvchi tomonidan aybdorni kechirishi hamda shaxsni qilmishi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishini istamaslikda namoyon bo'ladi. O'z navbatida, aybdordan ham o'z aybini tan olib yetkazilgan zararni qoplash talab qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qaroriga binoan, «Yarashuv to‘g‘risidagi ariza har doim yozma shaklda taqdim etilib, unda jinoyat natijasida yetkazilgan zarar bartaraf etilganligi (yoki jabrlanuvchining zarardan voz kechganligi) va yarashilganligi munosabati bilan jinoyat ishini tugatish haqidagi iltimos ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Yarashuv to‘g‘risida ish yuritish masalasini qo‘zg‘atish huquqiga qonunda belgilangan tartibda jabrlanuvchi (fuqaroviy da‘vogar) deb topilgan shaxs yoki uning qonuniy vakili egadir.

Ish bo‘yicha bir gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va bir necha jabrlanuvchi bo‘lgan hollar uchun ham qonunda aynan shunday talablar belgilangan. Jabrlanuvchilarning hatto birortasidan tegishli ariza bo‘lmagan hollarda yarashuv to‘g‘risida ish yuritish mumkin emas. Bunday holda jinoyat ishi bo‘yicha ish yuritish umumiy asoslarda olib boriladi»¹.

Shu bilan bir vaqtda, agar ish bo‘yicha bitta jabrlanuvchi va bir necha gumondor, aybdor va sudlanuvchi ishtirok etsa, qonun jabrlanuvchiga ular bilan alohida yarashish imkoniyatini yaratadi. Bunday holatlarda, yarashilgan gumondor, aybdor va sudlanuvchi yuzasidan ishning bir qismi JPK 584-moddasi tartibi bo‘yicha sudga yuboriladi, qolganlar yuzasidan ish umumiy asoslarda ko‘riladi².

Yarashuv o‘zining tuzilishi bilan chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish bilan o‘xshash va bir xil belgilarga ega. Chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lishdan farqli o‘laroq, yarashuvda yetkazilgan zararni qoplash va zarar yetkazilgan jabrlanuvchi tomonidan kechirilishni talab qiladi, lekin chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lishda bu rol dastlabki tergov organlari va sudga tegishli. Formal nuqtai nazardan chin ko‘ngildan pushaymonlik aniq ko‘rsatilgan va ularning hatto bittasining yo‘qligi ushbu asosni qo‘llashga yo‘l qo‘ymaydi. Yarashuvda jabrlangan shaxs bilan aybdor shaxs o‘rtasida zararni qoplash haqida kelishilmagan bo‘lsa va tomonlar shunga rozi bo‘lgan vaziyatlar javobgarlikdan ozod qilishga xalaqit bermaydi.

¹ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 25 октябрдаги «Ярашув тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги 27-сонли қарори, 2-банд, 2–5-хатбошилари // Тўплам, 2-жилд. 126–127-б.

² Ўша жойда, 6-банд.

Shu bilan birga, jabrlanuvchining arizasi yoʻqligi uchun jinoyat ishini qoʻzgʻatmaslik bilan yarashilganlik munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tushunchalarini farqlash lozim. Xususiy-ommaviy ayblov ishlari boʻyicha jabrlanuvchining shikoyati boʻlishi talab etiladi, u jinoyat ishi qoʻzgʻatish uchun asos boʻladi. Shaxsning jinoyat ishini qoʻzgʻatish toʻgʻrisidagi arizasining yoʻqligi, yarashilganligi yoki jinoyat hodisasi yoʻqligi jinoyat sodir etilmaganligi haqida dalolat beradi. Jabrlanuvchi nochor ahvolda boʻlganligi tufayli, ayblanuvchiga qaram boʻlganligi yoki boshqa sabablarga koʻra huquqini va qonuniy manfaatlarini shaxsan oʻzi himoya qila olmaydigan favqulodda hollarda prokuror jabrlanuvchining arizasisiz ham jinoyat ishini qoʻzgʻatishi shart (JPK 325-moddasi).

Aybdorning va jabrlanuvchining yarashuvini qonuniy yoki ixtiyoriy akt deb hisoblash uchun maʼlum bir shartlar boʻlishi kerak:

- JK 66¹-moddasida koʻrsatilgan jinoyatlardan birini sodir etish;
- aybiga iqrор boʻlish;
- jabrlanuvchi bilan yarashish;
- yetkazilgan zararni qoplash;
- ogʻir va oʻta ogʻir jinoyatlarni sodir etishda sudlanganlikning yoʻqligi.

Harakatdagi qonunni tahlil qilish JK 66¹-moddasi 1-qismida koʻrsatilgan jinoyatlar tarkibining ijtimoiy xavfi katta boʻlmagan va uncha ogʻir boʻlmagan jinoyatlar toifasiga kirishi haqida xulosa qilish imkonini beradi. Koʻrsatilgan normadagi jinoyatlarning roʻyxati «tugal va kengaytirib sharhlanishi mumkin emas»¹.

«Agar shaxs bir necha jinoyat sodir etgan boʻlib, ulardan biri Jinoyat kodeksining 66¹-moddasida koʻrsatilgan boʻlsa, ishning shu qismi Jinoyat-protsessual kodeksining 62-bobida belgilangan tartibda tugatilishi mumkin, lekin bu tartib takroriylik belgisini beradigan jinoyatlarga tatbiq etilmaydi»².

Aybiga iqrор boʻlish va zararni qoplash oʻzida jabrlanuvchi bilan yarashish maqsadini olgan harakatlardan iboratdir.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 25 октябрдаги «Ярашув тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти хақида»ги 27-сонли қарори, 1-банд, 2-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 126-б.

² Ўша жойда, 11-банд.

Yarashuv – jabrlanuvchining oddiy kechirishini emas, balki uning o‘z dastlabki talab va da’volaridan rasmiy ravishda voz kechishini anglatadi. U jinoyatni sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish iltimosidan voz kechish (agar yarashuv jinoyat ishi qo‘zg‘atilishidan avval yuz bergan bo‘lsa) yoki uning arizasiga ko‘ra qo‘zg‘atilgan jinoyat ishini tugatishini so‘rab berilgan arizadan iborat bo‘ladi. Yarashuv akti jinoyat-protsessual qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Jabrlanuvchi bilan yarashuv aybiga iqror bo‘lmasdan ro‘y berishi mumkin emas.

Yetkazilgan zararni qoplash inson hayoti va sog‘lig‘iga tajovuz paytida salomatligiga yetkazilgan mulkiy zarar o‘rnini to‘ldirishdan, shuningdek, ma’naviy zararni qoplashdan iborat bo‘ladi.

Aybdorning og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyati uchun sudlanganlik holati yo‘qligi, shu shaxsni avval og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyati uchun sudlanmagan yoki sudlangan, lekin sudlanganlik qonuniy tartibda olib tashlangan yoki muddati o‘tgan bo‘lishini anglatadi. Shunday qilib, JK 66¹-moddasi 2-qismiga binoan, «Og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi». Qonunning o‘zgarganligi tufayli jinoyat deb hisoblanmaydigan qilmishi uchun jazo o‘tagan shaxs sudlangan hisoblanmaydi.

(«Sudlanganlik», «sudlanganlikning olib tashlanilishi», «sudlanganlikning tugatilishi» tushunchalari ushbu tom V bobining «Sudlanganlikning tugatilishi va uning olib tashlanishi» deb nomlangan 11-§ da yoritilgan.)

Jinoyat sodir etgan shaxsning jabrlanuvchi bilan yarashganligi munosabati bilan jinoyat ishining tugatilishi to‘g‘risidagi (yoki jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish) qarorni surishtiruv organlari yoki tergovchi prokurorning roziligi bilan hamda prokuror tergovning barcha bosqichida hamda sud (sudlar) ishning xohlagan vaqtida sudning (sudlarning) hukm e‘lon qilish uchun maslahat xonasiga kirishdan oldin qabul qilishi mumkin.

Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud zimmasiga qonun bilan yuklatilgan majburiyatlardan biri, bu – yarashuv sud tomonidan tasdiqlangandan keyin kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarni jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar)ga tushuntirish shartligidir. Qonunning ushbu talabiga rioya etmaslik yarashuv to'g'risidagi ish bo'yicha chiqarilgan qarorning bekor qilinishiga asos bo'lishi mumkin¹.

6-§. Kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish

Jinoiy javobgarlikning asosiy xususiyatlaridan biri shaxsning jamoatchilik tomonidan qoralanishi bo'lib, u jazo choralari qo'llashda ifodalanadi. Shu nuqtai nazardan, jinoiy javobgarlik jamiyatning barcha a'zolariga nisbatan jinoyatning oldini olish chorasi sifatidagina emas, balki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan alohida ta'siri jihatidan muhim hisoblanadi. Shu sababli, javobgarlikning ahamiyatini anglab yetishga qobil bo'lmagan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish jamiyat va davlat tomonidan ayblash va jazoni o'tash (JK 75-moddasi) jinoiy javobgarlik va jazoning maqsadiga to'g'ri kelmaydi.

Kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish JK 67-moddasida ko'rsatilgan. Mazkur moddaning birinchi qismidagi qoidalarga binoan, jinoyat sodir etgan shaxs hukm chiqarilgunga qadar o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va o'z harakatlarini boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka chalinib qolgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Qonun chiqaruvchi ruhiy kasallangan shaxsni javobgarlikdan ozod qilish asosini, o'zining qilmishlarini anglamaslik yoki ularni boshqara olmaslik bilan bog'laydi.

Shaxs jinoyat sodir etganligi va u buning uchun so'zsiz tegishli jazoga tortilishini anglashi javobgarlikning muqarrarligini va odillik tamoyilini aks ettiradi. Buning intellektual ko'rinishi aybdor shaxsning qilmishi uchun jamiyat tomonidan qoralanib, jazo berilishi muqarrarligini aniqlashidir. Shu bilan birga, anglash mavjud bo'lmas ekan shaxs ruhiy

¹ Ўша жойда, 4-банд, 2-хатбоши. – 127-128-б.

kasallik bilan og‘rib qolgan hollarda ham jinoiy javobgarlik maqsadlariga erishilmaydi.

Xastalikka duchor bo‘lgan shaxsning o‘z harakatlarini boshqara olmasligi shundan iboratki, u birinchidan, o‘zi va atrofidaogilar uchun xavf tug‘diruvchi manbadir; ikkinchidan, u nochor ahvolda, ya‘ni o‘zining asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondira olmaydi; uchinchidan, shaxsga ruhiy yordam berilmasa uning holati og‘irlashib, sog‘lig‘i yomonlashuviga olib kelishi mumkin¹. Mazkur sharoit teng ravishda javobgarlikka tortish ahamiyatini anglab yetmaslik hollariga ham tegishlidir.

JK 67-moddasi 1-qismi jinoyat sodir etgan shaxs ruhiy kasallikka chalinganligini ham jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida nazarda tutadi. Ruhiy xastalik to‘rtta ruhiy kasallikdan birining mavjudligi bilan sodir bo‘lishi mumkin, ular: xronik ruhiy kasallik; ruhiy faoliyatning vaqti-vaqti bilan buzilishi, kuchsiz ong yoki shaxsning ruhiy kasal holati. Ushbu ruhiy kasallik sud-tibbiy ekspertizasi tomonidan belgilanib, u kasallikning jinoyatdan keyingi xulqi variantlaridan birini ko‘rsatib o‘tishi shart: mas‘uliyatni anglamaslik hissi yoki o‘z harakatlarini boshqara olmaslik (JPK 173-m, 1-q, 4-b). Shuningdek, ruhiy kasallik tufayli yuzaga kelgan har ikki omil mavjud bo‘lishi mumkin.

JK 67-moddasi 2-qismi davlatning mazkur shaxslarni tuzatish uchun va ularni jamiyatga qaytarish, shu bilan birga, ularning keyinchalik jinoiy xulqi va sog‘lig‘i yomonlashuvining oldini olish maqsadida tibbiy yordam ko‘rsatish majburiyatini belgilab beradi. Bunday hollarda jinoyat qonuni ruhiy kasallikka chalingan shaxsga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llashga ruxsat beradi.

(«Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari» tushunchasi JK VII bo‘limida bayon etilgan.)

JK 67-moddasi 3-qismi mazkur asosni javobgarlikdan ozod etish maqsadida qo‘llash uchun qo‘shimcha shart sifatida belgilab beradi. Shart shundan iboratki, kasalligiga ko‘ra jinoiy javobgarlikdan ozod etilgan shaxs sog‘ayganidan so‘ng javobgarlikka tortiladi. Jinoiy javobgarlikka

¹Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 31 августдаги «Психиатрия ёрдами тўғрисида»ги 123–II-сон Қонуни, 27-модда // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 7–8-сон, 215-модда.

tortish jarayonini tiklash uchun quyidagi shart-sharoitga e'tibor berish zarur:

– shaxsning sog'ayib ketishi;

– tibbiy yo'sindagi majburlov choralari va undan keyingi javobgarlikka tortish muddati o'tib ketmay, shu doirada bo'lishi shart.

Shaxsning ruhiy kasallikka chalinganligi javobgarlikdan ozod etishning asosi hisoblanadigan bo'lsa, mazkur asosning mavjud emasligi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishni istisno qilmaydi. Shaxsning sog'ayib ketganligi sud-psixiatriya ekspertizasi xulosasi bilan tasdiqlanishi shart. Sog'ayish darajasi to'liq bo'lib, u shaxsning o'z harakatlarini anglash va ularni boshqara olmaslik bilan bog'liq bo'lgan shart-sharoitlarni bartaraf etishi lozim. Kasallikdan qisman sog'ayib yoki u kuchaygan, ammo surunkali ruhiy kasallik ko'rinishlari saqlanib qolgan hollarda jinoiy javobgarlikka tortish jarayonini qayta boshlash mumkin emas. Bunday hollarda, shaxsning ruhiy holati yomonlashuvi takrorlanishi mumkin bo'lib, bu kasallik bilan bog'liq ravishda jazodan ozod etilishiga olib keladi.

Berilgan asoslarga binoan jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan shaxsning sog'ayishi munosabati bilan jinoiy javobgarlikka tortish muddati hisoblanishi jinoyat sodir etish kunidan emas, balki unga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashdan boshlanadi. Bu holat muddatning hisoblanishi qoidasida maxsus hisoblanmaydi.

Jinoiy javobgarlikka tortishning umumiy yigirma besh yillik muddati o'tib ketishi, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishning iloji yo'qligini va javobgarlikka tortishning maqsadsiz ekanligini anglatadi. Biroq ruhiy kasallik jinoiy javobgarlikka tortish muddatining to'xtatilishiga yoki uzilishiga sababchi holat hisoblanmaydi.

7-§. Amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish

JK 68-moddasiga binoan, «jinoyat sodir etgan shaxs amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod etilishi mumkin».

Amnistiya jinoyat sodir etgan, shuningdek, jazo o'tayotgan shaxslarga nisbatan insonparvarlik qilish akti bo'lib, amnistiya to'g'risidagi qaror

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga asosan qabul qilinadi. Amnistiya jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyat-huquqiy ta’sir choralarini qo‘llamagan holda ularga tuzalish imkonini berish yoxud bu choralar qo‘llanilgan shaxslarning ahvolini yengillashtirish maqsadida e’lon qilinadi.

NOTA BENE !

Amnistiya – davlatning vakolatli organi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatda ifodalangan erki bo‘lib, o‘z ijtimoiy mohiyatiga ko‘ra muayyan toifadagi jinoyatlarni sodir etgan muayyan toifadagi shaxslarni kechirish bo‘lib, davlat va jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan hujjatidir va u sud tartibida qo‘llaniladi.

Amnistiya akti jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilish, jazoni yengillashtirish, sudlanganlikning huquqiy oqibatlaridan ozod qilish masalalarini hal qilib, jinoyat-huquqiy, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya munosabatlar doirasida tartibga solinadi.

Amnistiya akti muayyan jinoyatni nazarda tutuvchi jinoyat qonunini va sud hukmini inkor qilmaydi. U faqat sudlanganlar va jinoyat sodir etganlar qismatini yengillashtiradi, ya’ni jinoyat huquqiga tegishli bo‘lgan insonparvarlik prinsipini reallashtiradi. Asosan amnistiya aktlari respublikamiz uchun muhim bo‘lgan kunlarda qabul qilinadi, masalan: Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni, Xotira va qadrlash kuni (9 may) va hokazo.

Amnistiya – bu ma’lum bir turdagi va xildagi jinoyat sodir etgan ma’lum bir turdagi shaxslar yoki barcha shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish yoki tayinlangan jazoni o‘tashdan ozod qilish yoki sud tomonidan tayinlangan jazoni qisqartirish yoki yengilroq jazo bilan almashtirish akti hisoblanadi. Shunday qilib, «JK 68-, 76- va 79-moddalariga asosan amnistiya aktini qo‘llashning huquqiy oqibatlari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- shaxsning jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi;
- sudlanuvchining asosiy va o‘talmagan qo‘shimcha jazodan ozod qilinishi;
- sudlanuvchining asosiy va o‘talmagan qo‘shimcha jazolari muddatining qisqartirilishi;
- sudlanuvchini jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish;
- sudlanuvchiga jazoning o‘talmay qolgan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi;
- jinoyat sodir etgan shaxsdan muddatidan ilgari sudlanganlikning olib tashlanishi»¹.

Amnistiya akti normativ hujjat bo‘lib, yuridik kuchi muayyan demografik, ijtimoiy, jinsiy, huquqiy va boshqa xususiyatli shaxslarga nisbatan (masalan, Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, ayollar, voyaga yetmagan yoki 60 yoshdan oshganlar va hokazo) yoki muayyan bir turdagi jinoyat sodir etgan shaxslarga (masalan, ehtiyotsizlik tufayli, iqtisodiy va h.k.) nisbatan qo‘llaniladi. Ya‘ni, amnistiya qo‘llash uchun shartlar aktning o‘zida bo‘ladi va faqat ularning mavjudligi yoki aksincha yo‘l qo‘ymaydigan vaziyatlarning yo‘qligida amnistiya u yoki bu shaxsga nisbatan qo‘llanilishi mumkin.

Amnistiya qo‘llash to‘g‘risidagi masala «har bir shaxs uchun individual ravishda qo‘llaniladi»².

Amnistiya aktlari, odatda, jazo o‘tash paytidagi o‘zini tutishi, davlat tomonidan ularga nisbatan insonparvarlik munosabatini tushunib anglab yetishi va yangi jinoyatni sodir etmasligi haqida fikrlashga asos bera oladigan shaxslarni ozod qilish masalalarini hal etadi. Avval qayd etilganidek, amnistiya aktlari sodir etilgan jinoyatlarning toifasi, ayblanuvchining shaxs xususiyatlari, jinoyatni birinchi marotaba sodir etishi va hokazolar bilan bog‘liq ma‘lum shartlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Shu nuqtai nazardan turib, amnistiya ko‘proq aynan o‘ta xavfli

¹ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 22 декабрдаги «Судлар томонидан амнистия актларини қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида»ги 16-сонли қарори, 3-банд.

² См.: Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 22 декабря 2006 г. № 16 «О некоторых вопросах применения судами актов об амнистии» // Постановления Пленума Верховного суда и Пленума Высшего хозяйственного суда Республики Узбекистан.– С. 86.

retsidivistlarga, jazo o'tash rejimini muntazam buzuvchi shaxslarga, muqaddam afv etish yoki amnistiya tartibida jazo o'tashdan ozod etilgan va yana qasddan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga, boshqa xavfli jinoyatchilarga nisbatan qo'llanmaydi. Masalan, «agar amnistiya akti yoki uni qo'llash tartibi to'g'risidagi Nizomda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, amnistiya akti muqaddam amnistiya akti asosida jinoiy ish qo'zg'atish rad etilgan yoki amnistiya akti asosida jinoiy javobgarlikdan yoki jazo o'tashdan ozod etilgan hamda amnistiya akti qo'llangandan keyin yangi jinoyatni qasddan sodir etgan shaxslarga qo'llanmaydi». Ayni paytda Oliy sud Plenumi o'z qarorida tushuntiradiki, «Jinoyat kodeksi Umumiy qismining normalariga muvofiq, amnistiya akti shaxsning muqaddam amnistiya akti asosida jinoiy javobgarlikdan yoki jazo o'tashdan ozod etilganligiga bog'liq bo'lmagan holda qo'llanishi mumkin, agar:

- jinoyat qonunchiligining o'zgarishi natijasida ushbu shaxs avval jinoiy javobgarlikdan yoki jazo o'tashdan ozod etilgan qilmish endi jinoyat deb tan olinmaydigan bo'lsa;

- amnistiya akti qo'llangan paytidan ushbu shaxs amnistiya akti asosida jinoiy javobgarlikdan yoki jazo o'tashdan ozod etilgan jinoyat uchun qonunchilik bilan belgilangan jinoiy javobgarlikka tortish muddatlariga teng bo'lgan vaqt o'tgan bo'lsa (agar amnistiya aktida boshqacha nazarda tutilgan bo'lmasa);

- ushbu shaxs boshqa davlatning (shu jumladan, sobiq SSSRning) amnistiya akti asosida jinoiy javobgarlikdan yoki jazo o'tashdan ozod etilgan bo'lsa, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi va amnistiya aktida boshqacha nazarda tutilgan bo'lmasa.

JPK 23-moddasi 3-qismiga muvofiq, tekshiruv natijasida shaxsga ilgari amnistiya akti qo'llanilganligi haqida ma'lumotlar topilmagan taqdirda qo'llanishi lozim»¹.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi instansiyasining ko'rsatmalariga muvofiq, shuningdek, «amnistiya aktining qo'llanishini istisno etuvchi ma'lum shartlar aniqlangan holatlarda amnistiya aktini qo'llamaslik ushbu

¹ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 22 декабрдаги «Судлар томонидан амнистия актларини қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида»ги 16-сонли қарори, 8-банд.

shartlar (masalan, jazo o'tash rejimini muntazam buzish, shaxsni o'ta xavfli retsident deb tan olish) amnistiya akti kuchga kirguncha mavjud bo'lgan holda mumkin bo'ladi, agar amnistiya aktida boshqacha nazarda tutilgan bo'lmasa»¹.

Umuman olganda, shuni qayd etish lozimki, amnistiya taalluqli bo'lmagan shaxslar doirasi amnistiya akti bilan belgilanadi va kengaytirilgan tarzda talqin etilishi mumkin emas².

Ularning amal qilish davrida sodir etilgan qilmishlarga taalluqli bo'lgan ma'muriy va jinoyat qonuni normalaridan farqli ravishda, amnistiya akti faqat uning qonuniy kuchga kirishidan avval jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga taalluqli bo'ladi³. Amnistiya to'g'risidagi qaror unda mavjud bo'lgan maxsus ko'rsatmaga binoan, odatda uning qabul qilingan yoki e'lon qilingan kunidan boshlab qonuniy kuchga kiradi. Bu yerda shuni izohlash kerakki, «davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga amnistiya akti faqat ushbu jinoyatlar amnistiya akti o'z kuchiga kirguncha tugallangan holdagina qo'llanadi»⁴.

Agar shaxsning harakatlari ayni bir xil huquqiy oqibatlarni, ya'ni faqat shaxsni jinoiy javobgarlikdan yoki jazo o'tashdan ozod etishni nazarda tutadigan bir necha amnistiya aktlarining ta'siriga taalluqli bo'lsa, surishtiruv tergov organi, sud shaxsning oxirgi jinoyatni sodir etishidan keyin kuchga kirgan amnistiya aktini qo'llashi lozim. Lekin, amnistiya aktlari bilan faqat jazoni qisqartirishlar nazarda tutilgan holda, barcha amnistiya aktlari xronologik ketma-ketlikda qo'llanishi lozim.

Shaxsning harakatlari turli xil huquqiy oqibatlarni, ya'ni ulardan biri – shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etish, boshqalari esa jazo o'tashdan ozod etish yoki jazoning muddatini qisqartirishni nazarda tutadigan bir necha amnistiya aktlarining ta'siriga taalluqli bo'lsa, shaxsning holatini eng ko'p yaxshilaydigan amnistiya akti qo'llanishi lozim⁵. Ushbu oxirgi holat O'zbekiston Respublikasi JK insonparvarlik tamoyilining navbatdagi ifodasidir.

¹ Ўша жойда, 26-банд.

² Ўша жойда, 24-банд, 1-хатбоши.

³ Ўша жойда 2-банд, 1-хатбоши.

⁴ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 22 декабрдаги «Судлар томонидан амнистия актларини қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида»ги 16-сонли қарори, 9-банд, 4-хатбоши. Ўша жойда, 12-банд.

⁵ Ўша жойда, 12-банд.

Amnistiya aktining ijro etilishi uning kuchga kirgan paytidan boshlab uch oy davomida amalga oshiriladi. Amnistiya aktini ijro etish yuklatilgan organlar tizimi va ularning vakolatlari, shuningdek, amnistiya akti bilan hamda uni qo‘llash yuzasidan Nizom bilan belgilanadi¹.

«Amnistiya aktining qo‘llanishi to‘g‘risida surishtiruv, tergov organi qaror, sud esa ajrim, ayblov hukmini chiqaradi»². Jinoyat-protsessual qonuniga muvofiq, amnistiya akti sodir etilgan qilmish uchun jazoni qo‘llashni bartaraf etgan holda jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi mumkin emas, qo‘zg‘atilgan ish esa tugatilishi lozim bo‘ladi (JPK 84-moddasi 2-bandi, 401-, 402-moddalari). Agar ayblanuvchi bunga qarshi e‘tiroz bildirsa, shuningdek, jinoyat ishi sud tergov bosqichida bo‘lsa, amnistiya akti asosida jinoyat ishining tugatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu vaziyatda sud ishni ko‘rib chiqishni oxirigacha yetkazadi va asoslari mavjud bo‘lganda ayblov hukmini chiqarib, asosiy jazo sifatidagi jazodan ozod qilish bilan yoki jazoni tayinlamagan holda oqlov hukmini chiqaradi (JPK 463-moddasi 2-qismi va 3-qismi).

Jazodan ozod qilish, jazodan shartli – muddatidan ilgari ozod qilish, jazoni yengilroq jazo bilan almashtirish yoki jazo muddatini qisqartirishni nazarda tutadigan amnistiya aktini qo‘llash uchun ham sudlanuvchining (sudlangan, mahkum shaxsning) roziligi talab etilmaydi. «Agar jinoyat ishi shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etuvchi amnistiya aktiga zid ravishda qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, hattoki asosiy jazo sifatidagi jazodan ozod qilish bilan yoki jazoni tayinlamagan holda chiqarilgan ayblov hukmi JPK 84-moddasi birinchi qismining ikkinchi bandi asosida bekor qilinishi hamda ish tugatilishi lozim»³.

«Javobgarlikdan ozod qilish» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar

1. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning huquqiy tabiati qanday? Jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning qanday turlari mavjud?

¹ Ўша жойда, 5-банд, 1-хатбоши.

² Ўша жойда, 18-банд.

³ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 22 декабрдаги «Судлар томонидан амнистия актларини қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида»ги 16-сонли қарори, 19-банд, 2-хатбоши.

2. Javobgarlikdan ozod qilishning qanday turlari shartsiz bo‘ladi? Javobgarlikdan ozod qilishning qaysi turlarini shartli turlariga kiritish mumkin?

3. Jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy voz kechishni javobgarlikdan ozod qilishning institutiga kiritish mumkinmi?

4. O‘zbekiston Respublikasining jinoyat huquqi bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortishning muddati deganda nimani tushunish lozim?

5. Qonun chiqaruvchi jinoyatlar uchun har xil javobgarlikka tortishning muddatlarini belgilaganda nimadan kelib chiqadi? Qaysi jinoyat toifalarini sodir etish uchun javobgarlikka tortish muddatlari qo‘llanmaydi?

6. Davomli va davom etayotgan jinoyatlar yuzasidan ishlar bo‘yicha javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblashning o‘ziga xos xususiyatlari qanday?

7. Javobgarlikka tortishni to‘xtatib turish nima? Uning jinoiy-huquqiy ahamiyati nimada?

8. Javobgarlikka tortish muddatini to‘xtatish nimadan iborat? Uning jinoiy-huquqiy ahamiyati nimada?

9. Qilmishni ijtimoiy xavfini yo‘qotgan deb tan olishning asoslari qanday?

10. Shaxsni ijtimoiy xavfini yo‘qotgan deb tan olishning asoslari qanday?

11. Aybdor shaxsning chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lishi munosabati bilan javobgarlikdan ozod bo‘lishining asoslari va shartlari qanday?

12. Yetkazilgan zararni qoplash deganda nimani tushunish lozim? Aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish nimada ifodalanadi? Shaxsning jinoyatning ochilishiga faol yordam berishi nimada namoyon bo‘ladi?

13. Shaxsning chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lishining jinoyatdan ixtiyoriy voz kechishidan farqi nimada?

14. Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslari va shartlari qanday? Shaxslarning qanday toifasi ushbu asosga ko‘ra javobgarlikdan ozod qilinmaydi?

15. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida yarashilganlikning chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lishdan farqi nimada?

16. Shaxsni kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilishning asoslari va shartlari qanday?

17. Amnistiya nimadan iborat? Uning shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning asosi sifatida jinoiy-huquqiy ahamiyati nimadan iborat?

18. Shaxsning qaysi toifalariga nisbatan amnistiya aktlari odatda qoʻllanmaydi?

Qoʻshimcha adabiyotlar

Ilmiy maqolalar

Абдухаликов М.А. Процесс примирения по уголовному и уголовно-процессуальному законодательству Республики Узбекистан и международная практика // Суд-ҳуқуқ ислоҳоти: назария ва амалиёт мавзусида халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Т.: СилМЭГ, 2001. – 10–13-б.

Аликперов Х. Новый Уголовный Кодекс: проблемы освобождения от уголовной ответственности // Ж. Законность. 1999. № 4.

Аликперов Х. Освобождение от уголовной ответственности в связи с деятельным раскаянием // Ж. Законность. 1999. № 5.

Головко Л. Классификация оснований освобождения от уголовной ответственности // Ж. Законность. 1998. № 11.

Степанов В. Освобождение от уголовной ответственности в связи с примирением с потерпевшим // Ж. Российская юстиция. 2000. № 9. – 45-б.

V BOB. JAZODAN OZOD QILISH. SUDLANGANLIK

1-§. Jazodan ozod qilish tushunchasi va turlari

Jinoyat qonuni sudlangan shaxsni sud tomonidan belgilangan jazoni o'tashdan to'liq yoki qisman ozod etgan holda jinoiy javobgarlikni amalga oshirishni nazarda tutadi. Bunday jazodan ozod qilish xuddi jinoiy javobgarlikdan ozod qilish kabi insonparvarlik prinsipining ifodalanishi bo'ladi. Jazodan ozod qilish uni ijro etishning mumkin bo'lmasligi (masalan, sudlangan shaxsning kasalligi, uning mehnatga layoqatidan mahrum bo'lishi, jazoni ijro etish muddatining o'tib ketishi) yoki maqsadga muvofiq emasligi (masalan, sudlangan shaxsning chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi) bilan belgilab beriladi.

Qonun sudga, agar shaxs ijtimoiy xavfli bo'lmay qolgan bo'lsa yoki uncha katta bo'lmagan ijtimoiy xavfi bo'lsa, shaxsga nisbatan jazoni qo'llamaslik yoki uni jazo o'tashdan ozod qilish va keyinchalik boshqa huquqiy ta'sir choralarini qo'llashga imkon beradi va bunday holda ushbu shaxsning jinoiy javobgarligi qisman amalga oshiriladi, lekin bu jinoyatchilik bilan jinoiy-huquqiy kurashni ta'minlash uchun yetarli bo'ladi. Jumladan, hukm chiqarish paytiga kelib, ya'ni shaxsni mahkum etish bosqichida yoki mahkumning tayinlangan jazoning bir qismini o'tab bo'lganida aybdor shaxs o'zining mehnatga, o'qishga bo'lgan vijdonan munosabati, ijobiy tomonga o'zgargan ma'naviy shaxsiy yo'nalishlari bilan o'zining tuzalganligini va qonunga bo'ysunuvchan fuqaroning halol hayoti bilan yashashga ichidan tayyorligini isbotlagani va ko'rsatgani tufayli jazoning maqsadlariga amalda erishilganligi ochiq-oydin bo'lib qolishi mumkin. Bunday holatlar bo'lganda jazoni tayinlash yoki o'tash davlatning qonunni buzgan shaxsni jamiyatga uning foydali a'zosi sifatida qaytarib berishga qaratilgan urinishlarini yo'qqa chiqarishi mumkin. Natijada jazo maqsadiga erishilmaydi, shaxs esa jazoni o'taganidan keyin uning sudlanishidan ilgari holatiga qaraganda jamiyat uchun yanada ko'proq xavf solishi mumkin. Va nihoyat, sudlangan shaxs hatto tuzalmagan holda ham, og'ir kasalligi tufayli jazoni o'tay olmaydigan

holatlar ham uchraydi. Bunday shaxsga nisbatan jazo vazifalarini amalga oshirish o‘z ma’nosini yo‘qotishi mumkinligi tushunarli.

NOTA BENE !

Jazodan ozod qilish – bu davlatning jinoyat sodir etganligi uchun sudlangan shaxsga jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan asoslar va shartlar mavjud bo‘lgan holda jazoni tayinlashdan yoki jazoni ijro etishdan voz kechishidir.

Jazodan ozod qilish faqat sud tomonidan amalga oshiriladi, chunki shaxsni jinoyat sodir etishda aybdor deb topish va unga jazo tayinlash sudning mutlaq vakolatidir.

Jazodan ozod qilishning har xil turlari JK «Jazodan ozod qilishning turlari» nomli XIII bobida tartibga solingan. Ularga quyidagilar kiradi: jazoni ijro etish muddati o‘tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 69-moddasi); shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish (JK 70-moddasi); aybdorni chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 71-moddasi); shartli hukm qilish (JK 72-moddasi); jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish (JK 73-moddasi); jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish (JK 74-moddasi); kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotish oqibatida jazodan ozod qilish (JK 75-moddasi); amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish (JK 76-moddasi).

Jazodan ozod qilishning ushbu turlari shartli yoki shartsiz tarzda bo‘lishi mumkin.

Jazodan ozod qilishning shartli turlariga shartli hukm qilish (JK 72-moddasi); jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish (JK 73-moddasi) va kasallik oqibatida jazodan ozod qilish (JK 75-moddasi 1–3-qismlari) kiradi. Jazodan ozod qilishning qolgan turlari shartsiz, ya’ni yakuniy bo‘ladi, chunki ularni qo‘llash jazodan ozod qilinuvchiga rioya qilinmaganligi ularni bekor qilish uchun asos bo‘la oladigan biror-bir majburiyatlarni yuklamaydi.

Jazodan ozod qilishni, shuningdek, to‘liq, qisman va aralash deb atalmish jazodan ozod qilish turlariga bo‘lish mumkin.

Jazodan to'liq ozod qilishga jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 69-moddasi); shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish (JK 70-moddasi); aybdorni chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 71-moddasi); shartli hukm qilish (JK 72-moddasi) tarzida jazodan ozod qilishlar kiradi. Jazodan to'liq ozod qilishda tayinlangan jazo sud qaroriga ko'ra ijro etilmaydi.

Jazodan qisman ozod qilish uni o'tash davrida jazodan ozod qilish yoki jazoning o'talmagan qismini yengilrog'i bilan almashtirishda ifodalanadi. Jazodan ozod qilishning ushbu turlari toifasiga jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish (JK 73-moddasi); jazoni yengilrog'i bilan almashtirish (JK 74-moddasi) kiradi.

Va nihoyat, jazodan ozod qilishning aralash turi to'liq va qisman jazodan ozod qilishni o'zida mujassamlantirgan bo'lib, ularga kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatida jazodan ozod qilish (JK 75-moddasi); amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish (JK 76-moddasi) kiradi.

2-§. Jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish

JK 69-moddasi ma'lum muddatlarning tugaganligini jazodan ozod qilish uchun asos sifatida ko'rsatadi. Ular tayinlangan jazoning chorasiga qarab farqlanadi. Ushbu asos jazoni ijro etish muddati deb nomlanadi va faqat sudlangan shaxsga nisbatan qo'llanadi.

NOTA BENE !

Jazoni ijro etish muddati qonunda belgilangan muddat bo'lib, u o'tib ketganidan so'ng, qonunda ko'rsatilgan shartlar mavjud bo'lganda, sud tomonidan tayinlangan jazo ijro etilishi mumkin bo'lmaydi.

Jazoni ijro etishning o'zi aybdorni axloqan tuzatish va yangi jinoyatlarning oldini olish maqsadida davlat organlari va jamoat tashkilotlarining jazoni amalga oshirish bo'yicha vakolatli faoliyatidan iborat.

Jazoni ijro etish muddati instituti asosan sudlangan shaxs ijtimoiy xavfining yo‘qolishi yoki ancha kamayishi tufayli ayblov hukmini ijro etishning maqsadga muvofiq bo‘lmay qolishiga asoslangan. Jazoni qo‘llash bu holda o‘z-o‘zi uchun maqsadga aylangan bo‘lib, tegishli davlat majburlov choralarining zarur tarbiyaviy va ogohlantiruvchi ta‘sirini ta‘minlay olmagan bo‘lar edi.

Ushbu muddatning mohiyati, avval qayd etilganidek, ma‘lum vaqtdan boshlab muayyan muddat tugashidan iborat. Agar javobgarlikdan ozod qilish institutini qo‘llash uchun bunday payt jinoyatni sodir etish payti bo‘lsa, jazodan ozod qilish uchun ushbu muddatni hisoblash boshlanadigan ayblov hukmining qonuniy kuchga kirish vaqtini aniqlash lozim bo‘ladi. Masalan, hukm uning ustidan apellatsiya shikoyati berish va protest bildirish muddati o‘tishi bilan qonuniy kuchga kiradi. Apellatsiya shikoyati berilgan yoki protest bildirilgan taqdirda hukm, agar u bekor qilinmagan bo‘lsa, ishni yuqori sud ko‘rib chiqqan kuni qonuniy kuchga kiradi (JPK 528-moddasi).

«Agar sud ishni sudda ko‘rish davomida JK 69-moddasiga muvofiq jazoni ijro etish muddati o‘tib ketganligi munosabati bilan sudlanuvchini jazodan ozod qilish lozimligi haqidagi xulosaga kelsa, u sudlanuvchiga nisbatan ayblov hukmini chiqara turib, uning tavsif qismida qabul qilingan qarorni asoslantirishi, qaror qismida esa sudlanuvchini aybdor deb tan olishi va unga JKning tegishli moddasi (moddalari) bo‘yicha jazoni tayinlashi, keyin esa qonunga havola qilib ko‘rsatgan holda sudlanuvchini jazodan ozod qilish haqida bildirishi lozim»¹.

Jazoni ijro etish muddati o‘tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish uchun muddatlar turlichadir. JK 69-moddasi 1-qismi qoidalariga muvofiq:

«Agar hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab:

a) uch yildan ortiq bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazoga hukm qilinganda — uch yil;

¹ См.: Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 2 мая 1997 г. № 2 «О судебном приговоре» (с изменениями и дополнениями, внесенными постановлениями Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 14 июня 2002 г. № 10, 19 декабря 2003 г. № 20 и 3 февраля 2006 г. № 5) // Сборник, Т.1. – С. 343.

b) besh yildan ortiq bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganda — besh yil;

v) o‘n yildan ortiq bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganda — o‘n yil;

g) o‘n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganda — o‘n besh yil ichida ijro etilmagan bo‘lsa, mahkum asosiy va qo‘shimcha jazolardan ozod qilinadi».

Ushbu ko‘rsatilgan muddatlar, ko‘rinib turganidek, jinoyatning toifasi (uning ijtimoiy xavfining darajasi)ga emas, balki sud tomonidan tayinlangan jazoning chorasiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, JK 97-moddasi 1-qismi bo‘yicha qasddan odam o‘ldirganligi uchun jazoni ijro etish muddatlari o‘n yildan o‘n besh yilgacha bo‘lishi mumkin. Lekin ma’lum holatlarda sud moddaning sanksiyasida ko‘rsatilgan eng kam chegaradan ham kamroq jazoni tayinlashi mumkin, bu tegishli tarzda jazoni ijro etish muddatini ham kamaytiradi. Bundan tashqari, sud qonunda nazarda tutilganidan boshqa, ozodlikdan mahrum etishga qaraganda yengilroq jazo turini tayinlashi mumkin. Jazoni bu tarzda almashtirish, jazodan ozod qilish institutining turlaridan biriga kiradigan JK 74-moddasidagi jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishga taalluqli bo‘lmaydi.

Bir necha jinoyatlar majmui bo‘yicha tayinlangan jazoni ijro etish muddatlarini aniqlashga alohida e’tibor berish lozim. Bunday vaziyatlarda sud, ma’lumki, sodir etilgan jinoyatlarning butun majmuini inobatga oladi va yagona jazoni tayinlaydi. Va JK 69-moddasining ma’nosiga ko‘ra, JK 54-, 59- va 61-moddalari qoidalari bo‘yicha tayinlanadigan jazoning butun muddati hisobga olinishi lozim, ya’ni bir necha jinoyatlar bo‘yicha jazolar qo‘shilganda yakuniy jazo jazoni ijro etish muddatini belgilaydi, bu muddat o‘tgach biron-bir jazo ijro etilishi mumkin emas.

Jazoni ijro etish muddatlarini aniqlashning mohiyatidan kelib chiqib, JK 69-moddasi 1-qismiga muvofiq, jazoning ijro etilmaganligi masalasi sud tomonidan belgilangan jazo muddati tugashidan avval yuzaga kelishi mumkin emas. Aks holda sud hukmi ijro etilmagan shaxs aslida jazoni o‘tagan shaxsdan avvalroq jazodan ozod qilingan bo‘lib qolar edi. Qaralayotgan moddaning qoidalari to‘liq hajmida sud tomonidan

tayinlangan ham asosiy jazoga, ham qo‘shimcha jazoga taalluqlidir. Masalan, agar sudlangan shaxs unga sud tomonidan belgilangan ozodlikdan mahrum etish tarzidagi jazodan ijro etish muddati tugaganligi munosabati bilan ozod etilsa, qo‘shimcha jazoni ijro etish ham mumkin bo‘lmaydi.

Agar asosiy jazo bo‘yicha ijro etish muddati tugamagan bo‘lsa, u holda qo‘shimcha jazoni ijro etish muddati asosiy jazoni o‘tash paytidan boshlab hisoblanadi.

Ijro etish muddati uzluksiz ravishda, sud hukmining qonuniy kuchga kirganidan boshlab to JK 69-moddasi 1-qismida ko‘rsatilgan muddatlar tugaguncha hisoblanadi. Bunda ijro etish muddatiga sud hukmi sudlangan shaxsning harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan (sudlangan shaxsning og‘ir kasalligi, sud xodimlari yoki jazoni ijro etish vakolati yuklatilgan organlar xodimlarining o‘z xizmat vazifalariga vijdonan yondashmaganligi) va jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlash yoki yangi jinoyatni sodir etishda ifodalanmagan bir qator sabablar tufayli bajarilmagan vaqt kiritiladi.

JK 69-moddasi 2-qismiga muvofiq, «Agar mahkum ushbu moddada nazarda tutilgan jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlasa, jazoni ijro etish muddati ikki baravar ko‘payadi va jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlagan kundan boshlab hisoblanadi, lekin yigirma besh yildan oshmasligi kerak».

Mahkum shaxsning jazodan bo‘yin tovlashi deb, sud tomonidan tayinlangan jazoni ijro etishdan qochishga qaratilgan har qanday qasddan sodir etilgan harakatlarini tushunish lozim. Jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlash odatda jinoyat tarkibini hosil qilmagan harakatlarda ifodalanadi. Ammo u jazoni o‘tash joyidan qochishda ham ifodalanishi mumkin. Lekin bunday holda ijro etish muddatlari ikki baravar oshirilmaydi, balki to‘xtatiladi va JK 69-moddasi 3-qismining qoidalariga muvofiq, qochish sodir etilganidan boshlab qaytadan hisoblanadi.

Jazoni ijro etishdan bo‘yin tovlash harakatlari deb, sudlangan shaxsning jazoni ijro etishni mumkin bo‘lmaydigan qilib qo‘yadigan ongli harakatlarini tushunish lozim. Ularga, chunonchi, yashash, ishlash joyini o‘zgartirish, boshqa mintaqaga ko‘chib ketish, hujjatlarini o‘zgartirish va boshqalar kiradi. Sudlangan shaxsning u yoki bu harakatlari jazoni ijro

etishdan bo‘yin tovlashga qaratilganligi masalasini hal etishda har bir muayyan holatda sudlangan shaxsning harakatlarini alohida baholash lozim bo‘ladi.

JK 69-moddasi 2-qismi JK 69-moddasi 1-qismida ko‘rsatilgan ijro etish muddatlarining ikki baravar oshirilishini nazarda tutadi. Bunda shu tarzda uzaytirilgan ijro etish muddatlarini hisoblash sud hukmining qonuniy kuchga kirgan paytidan boshlab emas, shaxsning jazoni ijro etishdan bo‘yin tovlash paytidan boshlab hisoblanadi.

JK 69-moddasi 3-qismiga muvofiq, «Agar shaxs ushbu moddada ko‘rsatilgan muddatlar o‘tmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etsa, muddatlarning o‘tishi uziladi. Bunday holda muddatlarning o‘tishini hisoblash yangi jinoyat sodir etilgan paytdan qaytadan boshlanadi».

Jazoni ijro etish muddatlari bekor qilinib, qaytadan hisoblanishi uchun sudlangan shaxs tomonidan yangi jinoyatning qasddan sodir etilishi va avvalgi jinoyat uchun ijro etish muddatining saqlanishi (tugamaganligi) kabi shartlar belgilanishi lozim. Bu holda qonun chiqaruvchi jinoiy javobgarlikka tortilish muddatlaridan farqli ravishda, aynan qanday (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida; og‘ir, o‘ta og‘ir yoki boshqa turdagi) jinoyatdan keyin ijro etish muddatlari bekor qilinishini ko‘rsatmaydi. Qaralayotgan moddaning ma’nosiga ko‘ra, sud hukmlarining majmui bo‘yicha jazoni tayinlash uchun jazoni ijro etish muddatining uzilishi faqat birinchisi uchun jazo tayinlangan ikkita jinoyatni qasddan sodir etishdan keyingina amalga oshirilishi mumkin.

Bunday holatlarda ijro etish muddatlarini hisoblash amaliyoti alohida diqqatga sazovordir. Ijro etish muddatlarining uzilishi benihoya davom eta olmaydi. Yangi jinoyatni qasddan sodir etish tufayli jazoni ijro etish muddati uzilganda aybdor shaxs javobgarlikka tortiladi va ushbu muddatni hisoblash yangi jinoyat uchun sud hukmi qonuniy kuchga kirganidan boshlab emas, balki yangi jinoyatni qasddan sodir etish paytidan boshlab amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, aybdor shaxsni sud qilish va unga bir necha sud hukmi bo‘yicha jazo tayinlashda jazoni ijro etish muddatini hisoblash qaytadan boshlanadi va JK 69-moddasi 1-qismining qoidalariga

muvofiq belgilanadi. Bu holda ijro etish muddatini hisoblash yangi jinoyatni qasddan sodir etish paytidan boshlab amalga oshiriladi.

JK 69-moddasi 3-qismi shunday belgilaydi: «Agar jazo tayinlangan kundan boshlab yigirma besh yil o'tgan bo'lsa, jazoni ijro etish mumkin emas». Har bir mahkum jazoni ijro etishdan ozod qilish asosini qo'llashga haqli bo'ladi, shu jumladan jazoni ijro etishdan bo'yin tovlash yoki yangi jinoyatni qasddan sodir etish munosabati bilan jazoni ijro etish muddatlari uzaytirilgan va uzilgan holatlarda. Bu holda yigirma besh yilning o'tib ketganligi jazoning maqsadga muvofiq bo'lmagani uchun jazoni qo'llashni bekor qiladi.

Jazoni ijro etish muddati tugaganligi munosabati bilan jazoni ijro etishdan ozod qilish yuzasidan umumiy qoidalar umrbod ozodlikdan mahrum etish tarzida jazo tayinlangan holatlarda qo'llanmaydi. Xususan, JK 69-moddasi 5-qismiga muvofiq, «Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilgan shaxsga nisbatan muddatlar o'tishini qo'llash masalasi sud tomonidan hal qilinadi. Agar sud muddatlar o'tishini qo'llashni lozim topmasa, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtiriladi».

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilgan shaxsga nisbatan muddatlar o'tishini qo'llashga alohida yondashuv ushbu choraning mutlaq favqulodda ekanligi bilan izohlanadi. Ushbu masalani hal etish sodir etilgan jinoyatning xususiyatlariga hamda yuzaga kelgan oqibatlarining og'irligiga bog'liq bo'lishi lozim emas va faqat shaxsning sud hukmi qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab ancha vaqt o'tib ketganligi sababli ijtimoiy xavfli bo'lmay qolganligi bilangina belgilanadi. Sud hukmining qonuniy kuchga kirgan paytidan boshlab o'tgan vaqt qanchalik davomli bo'lsa, mahkum shaxs o'z tuzalganligini yangi jinoyatlarni sodir etmaslik va ijtimoiy foydali faoliyat bilan isbotlagan bo'lsa, uni ijtimoiy xavfli bo'lmagan deb tan olish uchun asoslar shunchalik ko'p bo'ladi.

Jinoyat qonunchiligi sudning umrbod ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etishdan ozod qilish uchun ijro etish muddatlarini qo'llash mumkin bo'lmaganda uni ozodlikdan mahrum etish bilan

almashtirish huquqini tan oladi. Bunda umrbod ozodlikdan mahrum etish JK Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum etish muddatiga almashtiriladi. Ijro etish muddati qo'llanmagan holda umrbod ozodlikdan mahrum qilishni ozodlikdan mahrum etish bilan almashtirib, sud shu bilan sud hukmi bo'yicha tayinlangan jazoning to'g'riligini nazorat qilmaydi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum etish jazosiga almashtirilishi mazkur sud hukmini chiqargan sud shu hukmida xatoga yo'l qo'yganligi uchun emas, balki hukmning qonuniy kuchga kirganligi paytidan ancha vaqt o'tganligi tufayli umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lmay qolganligi uchun amalga oshiriladi. Agar favqulodda jazo chorasi sud tomonidan unga yetarli asoslar bo'lmagan holda tayinlangan bo'lsa, ushbu jazoni boshqasiga faqat nazorat tartibida almashtirish mumkin bo'ladi, chunki bu holda sud hukmini mohiyatiga ko'ra qayta ko'rib chiqish haqida gap ketadi. Sud nazorat instansiyasining vakolatlarini o'ziga olishga haqli bo'lmaydi. U umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tegishli jinoiy-huquqiy normaning sanksiyasida yo'lga qo'yiladigan muddatga almashtirishi lozim.

JK 69-moddasi 6-qismi jazoni ijro etish muddatlari qo'llanilmaydigan yagona asosni belgilaydi. Bu holatlar 150-157 moddalar, 158-moddaning 1-qismi, 159-moddaning 3 va 4-qismlari, 160, 161 va 244²-moddalarda ko'rsatilgan jinoyatlardir.

3-§. Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish

JK 70-moddasida «jinoiyat sodir etgan shaxs agar ish sudda ko'rilayotgan vaqtgacha sharoit o'zgardi yoki shaxs namunali xulqi, mehnatga yoki o'qishga halol munosabati bilan o'zini ko'rsatib, ijtimoiy xavfliligini yo'qotdi deb e'tirof etilsa, sud uni jazodan ozod qilishi mumkin» deb belgilanadi. Ushbu norma shaxsni jazodan ozod qilishning bir-biridan mustaqil bo'lgan ikkita asosini belgilaydi: vaziyatning o'zgarishi va shaxsning o'z ijtimoiy xavfliligini yo'qotishi. Jazodan ozod

qilish uchun ushbu asoslardan hech bo'lmasa bittasining mavjud bo'lishi yetarlidir.

Ishni sudda ko'rish vaqti, sharoitning o'zgarishi yoki shaxsning namunali xulq-atvori natijasida uning ijtimoiy xavfliligini yo'qotishi bilan bog'liq tushuncha mazkur tom IV bobining «Qilmish yoki shaxsning ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish» deb nomlangan 3-§ da belgilangan ishning sudda ko'rilishi vaqtiga aynan o'xshashdir.

Sharoitning o'zgarishi aybdor shaxsning irodasiga bog'liq bo'lmagan obyektiv omil sifatida jinoyat sodir etilgan sharoitlarning o'zgarishidan iborat bo'ladi. Bular butun davlat miqyosidagi, alohida mintaqqa, ayrim korxonalar, tashkilotlar va muassasalar miqyosidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-xo'jalik va hokazo sharoitlar bo'lishi mumkin (masalan, tugatilishi, qayta tashkil etilishi va hokazolar). Shuni aytish kerakki, vaziyatni o'zgartirish o'z mazmuniga ko'ra JK 65-moddasida nazarda tutilgan shunga o'xshash tushunchaga aynan mos tushadi.

JK 70-moddasi ma'nosidagi sharoitning o'zgarishi to'g'risida ishning sud tomonidan ko'rilishi paytigacha istalgan vaqtda yuzaga kelishi mumkin. Agar shu vaqtga kelib jinoiy javobgarlikka tortish muddati tugaydigan bo'lsa, u holda aybdor shaxs JK 64-moddasining qoidalariga muvofiq jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.

JK 70-moddasi ma'nosidagi **ijtimoiy xavflilikning yo'qolishi** deganda, ishning sudda ko'rilishi paytiga kelib jinoyatni sodir etish va ijtimoiy xavfli bo'lgan oqibatlarining yuzaga kelishida tarkibiy qism bo'lgan, shuningdek, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligi uchun jinoiy ta'qib etish uchun shartlar bo'lib xizmat qilgan holatlar, sabablarning bartaraf etilishi tushuniladi.

JK 70-moddasi qoidalaridan kelib chiqib, **shaxsning ijtimoiy xavfliligi yo'qolishiga** uning namunali xulqi, mehnatga yoki o'qishga halol munosabati kabi omillar yordam beradi.

Shaxsning namunali xulqi subyektiv omillardan biri sifatida jinoyat sodir etgan shaxsning o'zini tutishi va xulqi huquq va ma'naviyat me'yorlariga, insonlarning birga yashash qoidalariga mos kelishi, uning

tomonidan jamoat tartibi me'yorlarini buzish, spirtli ichimliklarni, giyohvandlik moddalari, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni suiste'mol qilish kabilar bo'lmisligi, uning tomonidan jinoyat oqibatida yetkazilgan zararning ixtiyoriy qoplanishi va boshqalarni bildiradi.

Shaxsning mehnatga halol munosabati aybdor shaxsning o'z mehnat vazifalarini tegishli darajada bajarishini, mehnat qonunchiligi normalarini va mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzmasligi, mehnat intizomiga qat'iy rioya qilishi va ijtimoiy foydali faoliyatni amalga oshirishini bildiradi.

Shaxsning o'qishga halol munosabati o'qishda o'zlashtirish, qoidalar va intizomga rioya qilishi, o'quv jarayonini buzmasligi, namunali xulqi va tirishqoqligi hamda ilmiy-amaliy faoliyatni davom ettirishga harakat qilishida ifodalanadi.

Shaxsning namunali xulqi, mehnatga yoki o'qishga halol munosabati to'g'risidagi xulosa, u o'zining tuzalganligi holatini isbotlashi mumkinligi uchun, faqat jinoyatni sodir etgan shaxsning xulqini nisbatan uzoq vaqt davomida kuzatilgan holda qilinishi mumkin. Bu holatda jazoning jinoyatlarni maxsus oldini olish va aybdor shaxsni tuzatish kabi maqsadlariga erishilgan bo'ladi, bu esa unga jazo tayinlanishining maqsadga muvofiq emasligini va sudning aybdor shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligiga ishonchini belgilab beradi.

Jinoyatni sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilishda jinoyatning turi va ijtimoiy xavfliligining darajasiga emas, balki aybdor shaxsning shaxsiyat xususiyatlariga va ishning sudda ko'rilishi paytiga kelib o'zgargan vaziyatga hal qiluvchi ahamiyat beriladi (lekin u ham, albatta, e'tiborga olinadi). Mazkur holatda, shuningdek, shaxsning ushbu qaralayotgan asoslar bo'yicha javobgarlikdan ozod qilishga roziligi mavjudligini inobatga olish kerak (JPK 84-moddasi 5-qismi 1-bandi). Mazkur holatlarning mavjudligi va shaxsning javobgarlikdan ozod qilishga rozi emasligi ishni mohiyati bo'yicha ko'rib chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, bu uni aybdor deb tan olingan holda jazodan ozod qilish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilishni qo‘llash sudning majburiyati emas, huquqidir. Sud hukmini chiqarishda JK 70-moddasi asosida ishning sudda ko‘rilishi paytiga kelib, ushbu shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotganligini tan olganda sud o‘z hukmining tavsif qismida qabul qilingan qarorni aniq holatlarni keltirgan holda asoslantirishi, qaror qismida esa sudlanuvchini aybdor deb topishi va qonun talablariga ko‘ra unga jazo tayinlamasligini ko‘rsatishi lozim.

Jazodan ozod qilishning ko‘rib chiqilgan turi shartsizlik xususiyatiga ega, ya’ni ozod qilinganning xulqiga maxsus talablar qo‘yilmaydi.

4-§. Aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish

Ba’zi holatlarda jazoni qo‘llamaslik yanada samarali va oqilona bo‘ladi, chunki jinoiy javobgarlik qasos olishga yo‘l qo‘ymaydi hamda ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni sodir etgan shaxslarga nisbatan ma’lum darajada insonparvarlikni namoyon qiladi.

JK 71-moddasi 1-qismi aybdor o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish qo‘llanishining shartlari sifatida quyidagilarni nazarda tutadi:

- jinoyatni birinchi marta sodir etish;
- ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatni sodir etish;
- o‘z ixtiyori bilan aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish;
- jinoyatning ochilishiga faol yordam berish;
- keltirilgan zararni bartaraf qilish.

Ushbu shartlardan hech bo‘lmasa bittasining bo‘lmasligi ko‘rib chiqilayotgan jazodan ozod qilish institutini qo‘llash uchun to‘sqinlik qiluvchi holat bo‘ladi.

JK 71-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan aybdorni chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilishning ushbu shartlari JK 66-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan shunga o‘xshash

asoslarga ko'ra javobgarlikdan ozod etilishining ba'zi shartlariga to'liq mos tushadi.

(Ushbu shartlar to'g'risida, shuningdek, «aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi» tushunchasi to'g'risida batafsilroq bilish uchun mazkur tom IV bobining «Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish» deb nomlangan 4-§, shuningdek, III bobining «Jazoni yengillashtiruvchi holatlar» deb nomlangan 2-§ ga qarang.)

JK 71-moddasi 2-qismi boshqa shaxslar bilan birgalikda jinoyat sodir etishda ishtirok qilgan yoki uyushgan guruh yoxud jinoiy uyushma a'zosi bo'lgan shaxsni jazodan ozod qilish uchun zarur va yetarli bo'lgan shartlarni belgilaydi.

Bunday shartlarga qonun chiqaruvchi quyidagilarni kiritadi:

- aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilishi;
- chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi;
- jinoyatning oldini olish, jinoyatni ochish yoki uning tashkilotchilarini yoxud boshqa ishtirokchilarini aniqlash va fosh qilishga yordam bergan bo'lishi;
- og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etishda bevosita ishtirok etmagan bo'lishi.

Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish uchun, shuningdek, uning shunga o'xshash asoslar bo'yicha jinoiy javobgarlikdan ozod qilishdan voz kechishini belgilash lozim. Aks holda JPK 84-moddasi 5-qismi 2-bandi asosida jinoyat ishi shaxsning aybdorligi masalasi hal etilmagan holda tugatilishi lozim.

(Bu haqda batafsilroq bilish uchun mazkur tom IV bobining «Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish» deb nomlangan 4-§ ga qarang.)

JK 71-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jazodan ozod qilish asoslarini qo'llash uchun eng avval aybdor shaxs boshqa shaxslar bilan birgalikda jinoyatni sodir etishda ishtirok qilganligini (ya'ni, jinoiy sherik bo'lganligi yoki rollarini taqsimlagan holda sherikchilik mavjud

bo'lganligini), uyushgan guruh yoxud jinoiy uyushma a'zosi bo'lganligini aniqlash lozim.

(«Aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilish» va «chin ko'ngildan pushaymon bo'lish» tushunchalari to'g'risida mazkur tom IV bobining «Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish» deb nomlangan 4-§, shuningdek, III bobining «Jazoni yengillashtiruvchi holatlar» deb nomlangan 2-§ ga qarang.)

Shu bilan birga, qonunning bevosita ko'rsatmasiga binoan, aybdor shaxs nafaqat sodir etgan qilmishiga pushaymon bo'lishi, balki jinoyatning oldini olish, jinoyatni ochish yoki uning tashkilotchilarini yoxud boshqa ishtirokchilarini aniqlash va fosh qilishga yordam berishi lozim. JKning 71-moddasi 2-qismini tahlil qilishdan ko'rinib turganidek, aybdor shaxsning xulqi muqobil harakatlarda ifodalanishi mumkin, ular odil sudlov organlariga quyidagilarda yordam berishdan iborat bo'ladi:

- jinoyatning oldini olishda;
- jinoyatni ochishda;
- jinoyatning tashkilotchilarini yoxud boshqa ishtirokchilarini aniqlash va fosh qilishda.

Jinoyatning **oldini olishda** yordam ko'rsatish shaxs tomonidan axborot berilishi yoki uning ham bevosita ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etishining oldini olishga, ham uni sodir etishining jinoiy oqibatlar yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan muayyan harakatlarini sodir etishidan iborat.

Jinoyatni **ochishda** yordam ko'rsatish shaxsning dastlabki tergov organlariga va sudga ish bo'yicha dalil-isbotlarni yig'ish va baholashda faol yordam ko'rsatishidan iborat (sodir etilgan jinoyatning qurollari va vositalari, jinoyat izlari va hokazolar).

Jinoyatning **tashkilotchilarini yoxud boshqa ishtirokchilarini aniqlash va fosh qilishga** yordam berish ushbu jinoyatni kim tashkil etganligi haqidagi axborotni berish, jinoyatning boshqa ishtirokchilarini fosh qilish va topishga yordam berish va hokazolardan iborat.

Shuni ta'kidlash lozimki, yordam ko'rsatishning qonunchilikda bunday belgilanishi muayyan shaxs o'zini tutishining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Masalan, agar shaxs faqat hali jinoyat sodir etmagan uyushgan qurolli guruhda ishtirok etishga rozilik bergan bo'lsa va ushbu

shaxs mazkur guruh tashkilotchilarining jinoiy rejalari haqida xabardor bo'lmasa, u guruhdagi boshqa sheriklarini aniqlash va fosh etishda amaliy yordam ko'rsatishi va shu bilan ushbu guruh tomonidan jinoiy faoliyatni amalga oshirilishining oldini olishi mumkin. Ushbu shaxs boshqa shaxslar bilan birgalikda jinoyat sodir etgan bo'lsa, u jinoyatni ochib berishda yordam ko'rsatishi mumkin va hokazo. Shu bilan birga, agar shaxs jinoyatning oldini olish, jinoyatni ochish yoki uning tashkilotchilarini yoxud boshqa ishtirokchilarini fosh qilishga yordam beradigan axborotga ega bo'lsa, u odil sudlov organlariga unga ma'lum bo'lgan barcha holatlar va ma'lumotlar to'g'risida xabar berishi lozim, bu uning amalda pushaymon bo'lganligining isboti bo'ladi.

Qonun, shuningdek, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan shaxsning **og'ir yoki o'ta og'ir** jinoyat sodir etishda bevosita ishtirok etmagan bo'lishini talab etadi. Ushbu shart og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxsning amalda pushaymon bo'lishi uni jazodan ozod qiluvchi holat deb tan olinmasligini bildiradi, lekin u albatta sud tomonidan JK 55-moddasi 1-qismi «a» bandining qoidalari asosida jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida hisobga olinishi lozim.

Sud hukm chiqarish paytida JK 71-moddasiga asosan ishning sudda ko'rilishi paytiga kelib shaxs amalda pushaymon bo'lgan deb topsa, sud hukmning tavsif qismida qabul qilingan qarorni aniq holatlarni keltirgan holda asoslantirishi, qaror qismida esa sudlanuvchini aybdor deb topish va qonun talabiga ko'ra unga jazo tayinlamasligini ko'rsatishi lozim.

JK 71-moddasi 3-qismiga binoan, «Ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida alohida ko'rsatilgan hollarda, jinoyat sodir etgan shaxs o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lgan taqdirda jazodan ozod qilinishi lozim».

5-§. Shartli hukm qilish

O'zida insonparvarlik, jazoni individuallashtirish va uning muqarrarligi tamoyillarini ifoda etgan holda **JK 72-moddasida** belgilab berilgan shartli hukm qilish aybdorni jazodan ozod qilishning alohida shaklidan iborat bo'ladi.

NOTA BENE !

Shartli hukm qilish qonun bilan belgilangan shartlar mavjud bo'lganda ma'lum sinov muddati belgilangan holda shaxsni sud tomonidan belgilagan jazoni amalda o'tashdan ozod qilishdan iborat, ushbu muddat davomida mahkum ustidan sud tomonidan qabul qilingan qarorning to'g'riligini tekshirish va shaxs unga ko'rsatilgan ishonchni oqlaganligini tekshirish maqsadida nazorat amalga oshiriladi.

JK 72-moddasi 1-qismiga muvofiq, «Agar sud ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlari jazolarini tayinlash vaqtida sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, aybdorning shaxsi va ishdagi boshqa holatlarni e'tiborga olib, aybdor tayinlangan jazoni o'tamasdan turib ham uning xulqini nazorat qilish orqali tuzatish mumkin, degan qat'iy fikrga kelsa, shartli hukm qo'llashi mumkin. Bunday holda sud, basharti, belgilangan sinov muddati davomida jazoning shartliligini bekor qilish asoslari kelib chiqmasa, tayinlangan jazoni ijro etmaslik to'g'risida qaror chiqaradi».

Shartli hukm qilishning mohiyati shundan iboratki, sud ayblov hukmini chiqara turib, mahkumga muayyan jazo turini tayinlaydi va uning miqdorini belgilaydi, lekin tayinlangan jazoni shartli deb hisoblashga qaror qiladi, ya'ni mahkumning muayyan talablarni bajarishi sharti bilan jazoni ijro etmaslik to'g'risida qaror qiladi. Demak, shartli hukm qilishning yuridik mohiyati mahkumni unga tayinlangan jazoni amalda o'tashdan shartli ozod qilishdan iborat.

Shartli hukm qilish jinoyat qonuni bilan belgilangan jazo maqsadlariga amaldagi jazoni qo'llash orqali emas, balki mahkumga ijtimoiy ta'sir bilan birga keluvchi ma'lum majburiy ta'sir choralarini qo'llash vositasida erishilishini ta'minlaydi (sinov muddati davomida mahkum ustidan nazoratni amalga oshirish; unga sudning ixtiyoriga ko'ra turli majburiyatlarni yuklash).

Shartli hukm qilishda shartsiz hukm chiqariladi, u belgilangan tartibda qonuniy kuchga kiradi. Ushbu hukm ustidan shikoyat qilinishi yoki protest

keltirilishi mumkin. JPK 484-, 492- va 513-moddalarining mazmunidan kelib chiqishicha, ishni apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko‘rib chiqish natijasida sud ushbu shartli hukm qilish yuzasidan hukmni o‘zgartirishsiz qoldirishi, uni bekor qilib, ishni qaytadan sudda ko‘rishga yuborishi, sud hukmini bekor qilish va ishni tugatishi yoki shartli hukm qilish o‘rniga jazoning ijro etilishini belgilashga haqlidir. Shunday qilib bunday sud hukmini chiqarishda faqat jazo shartli bo‘lib qoladi.

«**JK 72-moddasi birinchi qismiga** muvofiq, shartli hukm qilish faqat axloq tuzatish ishlari, xizmat bo‘yicha cheklash, intizomiy qismga jo‘natish, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolar tayinlagan holda qo‘llanilishi mumkin»¹. Shunga muvofiq, shartli hukm boshqa jazo turlariga qo‘llanilmaydi. Buning ayrimlari (jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, harbiy va maxsus unvondan mahrum qilish) yengil jazo turlari hisoblansa, (umrbod ozodlikdan mahrum qilish) u real ijro etilishda yanada ta’sirliroq bo‘ladi. Muayyan huquq yoki unvonlardan (harbiy yoki maxsus) mahrum etishga nisbatan shartli hukm qilishning mazmuni yo‘qoladi, chunki bunday imtiyozlardan qonun shartli mahrum qila olmaydi. Sud sinov muddatini belgilashda shu muddat ichida bajarilishi yoki rioya qilinishi kerak bo‘lgan shartlarni belgilab beradi. Bu chora jazo tayinlash bilan bog‘liq emas va u shartli hukm qilishda sinov muddati shartlaridan biri sifatida qaralishi zarur.

Shuni ta’kidlash lozimki, ko‘p holatlarda sud shartli hukm chiqarganda, uning muddatini nisbatan katta bo‘lmagan muddatga belgilaydi (5 yilgacha). Axloq tuzatish ishlarini belgilashda esa, xizmatdan ajratish, intizomiy qismga jo‘natish yoki ozodlikdan mahrum qilishning muddatlarini 5 yildan ko‘p muddatga belgilanadi. **JK 72-moddasi** kamdan-kam qo‘llaniladi, chunki qo‘llanishning mazmuni va asosi mavjud.

Tayinlangan jazoning faqat to‘la muddatiga nisbatan shartli hukm qo‘llanilishi mumkin. Masalan, agar sudlanuvchi biron-bir sodir etilgan jinoyat uchun besh yil muddatga ozodlikdan mahkum qilish jazosiga hukm qilingan bo‘lsa, uni nisbatan 2 yil real ozodlikdan mahrum qilishga va 3 yil

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 31-банд, 1-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 233-б.

shartli ravishda ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilib bo'lmaydi. Aybdorning hech bo'lmaganda jazoning bir qismini real o'tashi zaruriyati sezilsa, bu sudning mahkumga nisbatan ishonchi yo'qligidan dalolat beradi, bu o'z navbatida unga nisbatan shartli hukmni qo'llash imkoni yo'qligini ko'rsatadi.

Shartli hukm faqat JK 72-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan bir yoki bir necha jazo turi tayinlangan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Agar tayinlangan jazo turidan biri qonunning ushbu normasida ko'rsatilmagan bo'lsa, sud JK 72-moddasi 1-qismida qayd etilgan jinoyatlarga nisbatan shartli hukm qo'llab, boshqa turdagi jazoni (masalan, muayyan huquqdan mahrum qilish, jarima) real ijro etish to'g'risida qaror qiladi.

Qonunga ko'ra, shartli hukm qilishda qo'shimcha jazolar ham qo'llanilishi mumkinligini va ular real tarzda ijroga qaratilishini nazarda tutib, bu haqda hukmning qaror qismida alohida ko'rsatish lozim.

Shartli hukm qilish jinoyatlar jamida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday hollarda shartli hukm majmuiga kiruvchi jinoyatlardan biriga emas, «balki aybdor shaxsi va qilmishining butun majmuini inobatga olib qo'llaniladi». Sud bir necha jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan shartli hukm qo'llashni lozim topgan hollarda, har bir jinoyat uchun alohida jazoni aniqlab jinoyatlar jami bo'yicha jazoni shartli tayinlashi zarur.

Shartli hukm qilishda sud sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini va xususiyatini, aybdorning shaxsini, javobgarlikni og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olishi lozim.

Shartli hukm qilishning asosiy jihatlaridan biri shundan iboratki, sud tomonidan ikki muddat tayinlanadi: jazo muddati (ozodlikdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari va boshqalar) va sinov muddati. Jazo muddati – doimiy o'lchov, chunki (ozodlikdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari va boshqa turdagi) jazo amalda ijro qilinmaydi va to'la hajmda uni ijro etish xavfi butun sinov muddati davomida doimo mahbusga bosim o'tkazadi.

Sinov muddati – bu vaqt mobaynida shartli hukm qilingan shaxs o'z xulqi bilan o'zgarganligini isbotlashi zarur bo'lgan muayyan davrdir. Sinov muddati, begumon, mahkumning tuzalishi uchun tazyiq o'tkazishni

tashkil qilish va shartli hukm qilishni qo'llash asosli ekanligini tekshirish uchun nazarda tutilgan. Sinov muddati davomiyligiga shartli hukmni kuzatib boruvchi majburlov hajmi ham bog'liq (muayyan majburiyatlar, sudlanganlik holati, huquqbuzarlik sodir etilganda shartli hukm real jazoga almashtirilishi mumkin va shartli hukm muddati davrida sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlashda Jinoyat kodeksining 60-moddasiga asosan shartli tayinlangan jazo qisman yoki to'la qo'shish yo'li bilan sud tomonidan amalga oshiriladi).

JK 72-moddasi 2-qismiga muvofiq, «Sinov muddati bir yildan uch yilgacha belgilanib, hukm chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi. Basharti, shartli hukm qilish to'g'risidagi qaror yuqori sud tomonidan chiqarilgan taqdirda ham, sinov muddatini hisoblash shu kundan boshlanadi». Sinov muddati eng kam miqdorini kamaytirish yoki eng ko'p miqdorini ko'paytirish mumkin emas.

«Qonun sinov muddati davomiyligini tayinlangan jazo miqdori bilan bog'lamaydi. Bu masala sud tomonidan har safar sodir etilgan jinoyatning xususiyati va sudlanuvchining shaxsidan kelib chiqib hal etiladi»¹. Sinov muddati u yoki bu modda sanksiyasiga ham shartsiz bog'liq emas. Shu bilan birga sud shartli hukm qilish va sinov muddatini belgilashda hisobga olishi lozim bo'lgan ko'pgina holatlar bilan bog'liq. Masalan, sinov muddatining davomiyligi shartli hukm qilingan shaxsni kuzatish majburiyatini o'ziga olgan yoki shartli hukm qilish to'g'risida iltimosnoma kiritgan jamoadagi muhitga bog'liq bo'lishi mumkin. Agar sud jamoa inoq, sog'lomligi, u yerda tarbiyaviy ishlar yaxshi yo'lga qo'yilganligi to'g'risida aniq bir xulosaga kelsa, tabiiyki, bu holda sinov muddatini uzaytirishga zarurat qolmaydi (JPK 459-moddasi). Bunda sud shartli hukm qilingan shaxsning xulq-atvorini kuzatish uchun uni jamoat birlashmasi yoki jamoaga topshirishi mumkin.

Bu asosan shartli ravishda hukm qilingan voyaga yetmaganlarga, yoshlarga, tashqi ta'sirga tez beriladigan jamoaning va mehnat jamoasining tarbiyasiga tashqi ta'sir etadigan shaxslarga, ayniqsa, zarurdir. Shartli hukm qilingan shaxsni jamoat tashkilotiga yoki mehnat jamoasiga

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 34-банд, 2-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 233–234-б.

topshirish faqatgina mahkum o'zining namunali xulqi bilan, shuningdek, sidqidildan mehnat qilib to'g'ri yo'lga tuzalishiga va'da bergan holdagina yo'l qo'yiladi.

Sinov muddati davomiyligini belgilashda muddatni kamaytirish shartli hukm qilingan shaxsning tuzalishiga yetarli darajada ta'sir o'tkazmasligi mumkinligini nazarda tutish kerak. Boshqa tarafdin, ish holatidan kelib chiqmagan sinov muddatini uzaytirish ham shartli hukm qilingan shaxsning holatini sezilarli darajada og'irlashtiradi. Ish kassatsiya va nazorat instansiyalarida ko'rib chiqilayotganda shartli hukmni qo'llash asosli ekanligiga baho berish shartli ravishda belgilangan jazo turini va uning miqdorini to'g'ri tanlaganligi bilan bog'liq masalalar tahlil qilinibgina qolmay, balki sinov muddati davomiyligining to'g'ri belgilanganligini ham tekshirishi lozim.

Shartli hukm qilish aybdorga bildirilgan ishonch ekanligi sababli, sinov muddati hukm chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi, ya'ni jinoyat-protsessual qonun hujjatlaridan kelib chiqilsa, hukm o'qib eshittirilgan paytdan boshlab (JPK 454-, 473-moddalari) shaxs qandaydir jazoga shartli hukm qilingan va belgilangan muddat mobaynida aybdor shaxs muayyan talablarni bajarishga majbur. Shartli hukm qilishni hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab emas, balki hukm o'qib eshittirilgan vaqtdan boshlab qo'llash shaxsning muayyan sifatlari va xulqi tufayli jazoni o'tashdan ozod etilganligi to'g'risida dalolat beradi. Bu holat bilan boshqa holat, ya'ni yuqori turuvchi sudning kvalifikatsiya noto'g'ri qilingan deb topib va sudlanuvchiga nisbatan shartli hukm chiqarishi aniqlanadi.

Sud shartli jazo belgilashi bilan birga aybdorga bir qator majburiyatlar yuklaydi. Bular: «shartli hukm qilinganda, basharti, bunga asoslar mavjud bo'lsa, sud mahkumga muayyan vaqt mobaynida yetkazilgan zararni bartaraf qilish, ishga yoki o'qishga kirish, yashash joyi, ish yoki o'qish joyi o'zgarib qolsa, bu haqda shartli hukm qilingan shaxsning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organga xabar berib turish, vaqti-vaqti bilan kelib bu organlarda ro'yxatdan o'tib turish, muayyan joylarda bo'lmaslik, muayyan vaqtda yashash joyida bo'lishi, alkogolizm, giyohvandlik,

zaharvandlik yoki tanosil kasalligidan davolanish kursini o'tashi kabi majburiyatlarni yuklashi mumkin» (JK 72-moddasi 3-qismi).

Mazkur shartlarning har biri sodir etilgan jinoyatdan, shuningdek, tayinlangan jazodan kelib chiqqan holda mahkumga yuklatiladi.

Bunday hollarda **zararni qoplash** o'g'irlangan, yo'q qilingan narsaning o'rnini qoplashda, davolanishga sarf qilinadigan moddiy xarajatlarni qoplashda, ma'naviy zararni qoplashda kechirim so'rashda namoyon bo'lishi mumkin.

Ishga yoki o'qishga kirish majburiyati shaxs ishlamagan yoki ma'lumot olmagan hollarda yuzaga keladi. Ishlash yoki o'qish majburiyat emas, balki har bir shaxsning shaxsiy huquqidir (umumiy o'rta ma'lumot bundan mustasno) va uni foydali mehnatga jalb qilish aybdorning ijtimoiylashganligi to'g'risida dalolat beradi, o'qishga kirishi esa, mahkumni muayyan kasbni egallamoqchi ekanligini tasdiqlaydi va bu, shubhasiz, uni turli xil nojo'ya xatti-harakatlarni sodir qilishdan tiyib turadi. Shuni inobatga olish lozimki, ushbu majburiyatlar har doim ham mahkumning imkoniyatidan kelib chiqmaydi, chunki ishga joylashish mehnat bozoridagi talab va taklifga bog'liqdir. Shuning uchun davlat tomonidan mahkumlarni va jazoni o'tab chiqqan shaxslarni ishga joylashtirish masalasiga imkon boricha ustuvor daraja sifatida qaraladi (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 58-moddasi). Ma'lumot olishga kelsak, bu ma'noda ham mahkum foydalangan imkoniyatlarga e'tibor qaratish lozim. Bunday hollarda ishga joylashmaganligi va o'qishga kirmaganligi sinov muddati mobaynida belgilangan majburiyatlar bajarilmagan deb baholashga, shuningdek, shartli hukmni bekor qilishga asos bo'lmaydi.

Shartli hukm qilinganlar muayyan vaqt davomida shartli hukm qilinganlar ustidan nazorat qiluvchi organlarga (O'zbekiston Respublikasi IIBning maxsuslashtirilgan organlari) kelishi va yashash joyi, o'qishi yoki ishi o'zgarganligi to'g'risida ma'lumot yetkazishlari shart. Bu majburiyat JK 72-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan jazolarning har biriga shartli hukm qilinganlarga teng ravishda qo'llaniladi, chunki shartli hukm

qilinganlarning ustidan nazorat jazoni o'tashdan ozod qilish asosiy turini qo'llash sharti hisoblanadi.

Muayyan joylarga bormaslik majburiyati, qonun chiqaruvchi va sud fikriga ko'ra, mahkumlarning xulqini tuzatishga to'sqinlik qiladigan va uning xulqiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan va sud tomonidan belgilangan (masalan restoran, bar, kazino, ippodrom va boshqalar) joylarga bormaslik hisoblanadi. Mazkur majburiyat, asosan, voyaga yetmaganlarga qo'llaniladi, chunki ular tashqi salbiy ta'sirlarga tez beriladigan bo'ladilar.

Muayyan vaqtda yashash joyida bo'lish majburiyati qisman cheklanish hisoblanib va shartli ravishda hukm qilingan shaxsdan turar joyida muayyan vaqtda bo'lishini talab qiladi. Mazkur majburiyat ham asosan voyaga yetmaganlarga qo'llaniladi, chunki ular bezorilikka va boshqa ijtimoiy xavfli harakatlarni sodir qilishga moyil bo'lishadi.

Giyohvandlik, zaharvandlik yoki tanosil kasalligidan davolanish kurslarini o'tash majburiyati tibbiy yo'sindagi majburlov choralari stasionar tartibda qo'llash maqsadga muvofiq bo'lmagan yoki bunga imkoniyat bo'lmagan sharoitlarda qo'llaniladi.

Qonun to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan majburiyatlardan tashqari mahkumning tuzalishiga ijobiy ta'sir qiladigan boshqa bir qator majburiyatlarni ham yuklashi mumkin. Sud shartli hukm qilish to'g'risida hukm chiqarayotganida JK 72-moddasi 5-qismida belgilangan tartibda mahkumning oila a'zolariga moddiy yordam ko'rsatish va boshqa majburiyatlarni tayinlashi mumkin. Ko'rsatilgan majburiyatlar yalpi holda yoki alohida-alohida yuklanishi mumkin.

JK 72-moddasi 4-qismiga ko'ra, shartli hukm qilinganlar ustidan nazoratni ichki ishlar organlari va harbiy xizmatchilar ustidan harbiy qism yoki muassasa qo'mondonligi amalga oshiradi. Ichki ishlar organlarining maxsus organi esa, jazoni ijro etish inspeksiyasi hisoblanadi. Shartli hukm qilingan voyaga yetmaganlar ustidan esa, nazoratni hokimiyatlar huzurida tashkil etilgan voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya amalga oshiradi¹. Mahkumlar xulqi ustidan olib boriladigan mazkur nazoratning

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2011 йил 17 январдаги 13-сонли қарори билан тасдиқланган Вояга етмаганлар ишлари бўйича комиссиялар тўғрисидаги низом, 15-банд // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2011 й., 3-сон, 23-модда.

maqsadi qonun tomonidan o'rnatilgan majburiyatning bajarilishini ta'minlash, ular tomonidan huquqbuzarlikning oldini olish, ularni amalga oshirish sabab va shartlarini aniqlashdan iboratdir.

Shunday qilib, sinov muddati davomida mahkumda sudlanganlik saqlanib qoladi, u unga qo'yilgan barcha talablarga rioya qilishi shart, xulq-atvori bilan tuzalganligini isbotlashi yoki aksincha, unga qo'llanilgan choralar yetarli darajada emasligini ko'rsatishi va shu bilan u o'ziga nisbatan sud tomonidan nazoratni kuchaytirishi, shartli hukmni bekor qilib jazoni real o'tashiga olib kelishi mumkin. Agar bunday holatda sudlanuvchi o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarsa va xulq-atvori bilan o'zgarganini tasdiqlasa, sinov muddati o'tash mobaynida jinoiy-huquqiy munosabat to'xtatiladi va JK 78-moddasi 1-qismi «a» bandiga binoan u sudlanmagan hisoblanadi. Va aksincha, shartli hukm qilingan o'zining xulqi bilan unga qo'llanilayotgan vositalarning kamligini ko'rsatishi va shu orqali sudni nazoratni kuchaytirishga va hatto shartli hukmni jazoni real o'tash yo'li bilan o'zgartirishga majbur qilishi mumkin.

JK 72-moddasi 5-qismiga ko'ra, «hukm qilingan shaxsning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organning taqdimi bilan sud sinov muddati davomida unga yuklatilgan majburiyatlarning hammasini yoki bir qismini olib tashlashi yoki uning zimmasiga yangi majburiyatlar yuklashi mumkin». Bunday holatda mazkur qarorlarga sudning sinov muddati mobaynida mahkum o'zini ijobiy tomondan ko'rsatganligi haqida tavsiflanishi bois nazorat yuklangan organning belgilangan majburiyatni to'liq yoki qisman bekor qilish to'g'risidagi taqdimnomasi yoki aksincha mazmundagi xulosasi asos bo'lishi mumkin. Bu holatda sudga sudlangan shaxsning ishonchni oqlayotganligi tufayli uning ustidan qattiq nazorat shart emasligi ko'rsatiladi. Shu sabablar va asoslar bo'yicha sud shartli hukmda sinov muddatini qisqartirish masalasini ham ko'rishi mumkin. JPK 541-moddasi 3-qismiga ko'ra bu masala tuman (shahar) sudlari tomonidan ko'riladi¹. JPK 541-moddasi holatlariga ko'ra, «sud shartli sudlanganga sinov muddatini qisqartirish masalasini ko'rish paytida sud majlisiga uning xulq-atvori ustidan nazorat olib boruvchi organlar vakillari

¹ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 34-банд, 4-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 234-б.

hamda uni kuzatuvchi va tarbiyaviy ishlar olib boruvchi jamoa vakillari chaqiriladi».

Shu bilan birga shartli sudlangan insofsizlik qilsa, unga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishda tartib-qoidalarni buzsa, nazorat qiluvchi organ unga yuklatilgan majburiyatlarni yangilash bilan to'ldirishni so'rashi mumkin. Nazorat qiluvchi organning so'rog'ini sud ham amalga oshirishi, ham oshirmasligi mumkin. Qonun chiqaruvchi tomonidan JK 72-moddasi 3-qismida ko'rsatilgan majburiyatlarni qo'shish sudning huquqi hisoblanadi. Bunday holda shartli sudlangan shaxsning qoniqarsiz xatti-harakati sinov muddati talablarini buzishda ko'rilishi kerak va har qanday holda sud yuklagan majburiyatlarni bir necha bor buzish yoki ularni bajarishdan bosh tortish degan xulosaga sudni keltirmaslik kerak. Boshqa holda, shartli sudlanganga majburiyatlar qo'shish jazo maqsadi nuqtai nazaridan ijobiy ta'sir keltiruvchi bo'lmasligi mumkin.

Sharhlanayotgan moddaning oltinchi qismida shartli hukmni bekor qilishning muayyan holatlari ko'rsatilib o'tilgan. Aynan shunda shartli hukm qilingan shaxslarning yuklatilgan vazifalarni bajarmaslik yoki ularning xulq-atvorining o'zgarganligi holatlari namoyon bo'ladi. Bunday hollarda sud shartli hukm qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan nazorat olib borayotgan organ taqdimnomasiga asosan shartli hukmni bekor qilib, tayinlangan jazoni real qo'llashi mumkin. Shu bilan birga konkret vaziyatlarga va sodir etilgan jinoyat tavsifi, sudlangan shaxsi haqida ma'lumotlar va uning sinov muddati mobaynidagi xatti-harakatiga asoslanib sud shartli sudlanganlikni qoldirish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin¹.

Jinoyat kodeksining 72-moddasi sharhlanayotgan qismi quyidagi asoslar mavjud bo'lganda hukm bilan belgilangan real jazoni bajarish bilan shartli hukmni bekor qilishni nazarda tutadi:

- shartli hukm qilingan shaxsning sud tomonidan belgilangan majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlashi;
- jamoat tartibi yoki mehnat intizomini buzganligi uchun unga ma'muriy yoki intizomiy ta'sir chorasi qo'llanganligi.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 35-банд, 2-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 234-б.

Majburiyatlarni bajarishdan bo‘yin tovlash deganda, sud tomonidan shartli hukm qilingan shaxsning belgilangan majburiyatlarni uzoq vaqt mobaynida bajarmasligi tushuniladi. Bunday hollarda sud tomonidan shartli hukm etilgan shaxsning haqiqatan ham majburiyatlarni bajarmaganligini va nima sababdan bajarmaganligini aniqlash lozim. Masalan, agar shaxsga qonunda ko‘rsatilmagan majburiyatlar yuklatilgani aniqlansa yoki bu majburiyatlar (talablar) unga bog‘liq bo‘lmagan vaziyatlar tufayli, ya’ni uzrli sabablarga ko‘ra bajarilmaganda, sud shartli hukmni bekor qilish va haqiqiy jazoni o‘tashni qo‘llashdan voz kechadi.

Shartlilikning bekor qilinishi va jazoni amalda o‘tashning belgilanishiga jamoat tartibi yoki mehnat intizomining buzilishi ikkinchi asos bo‘lib hisoblanadi. Har qanday huquqbuzarlik javobgarlikni keltirib chiqaradi. Jumladan, jamoat tartibini buzgan shartli hukm qilingan shaxs ma‘muriy javobgarlikka tortilishi mumkin. Ma‘muriy javobgarlik davlatning huquqiy majburlov chorasining bir ko‘rinishi bo‘lganligi va ma‘lum darajada jinoiy javobgarlik uchun preyuditsiya rolini o‘ynaganligi uchun bunday javobgarlikka tortilish holati shartli hukm qilingan shaxsni jinoiy-huquqiy ta‘sir etishning yanada qat‘iy choralarini real qo‘llamasdan turib tuzalishining imkoni yo‘qligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, sud ma‘muriy huquqbuzarlik holatini inobatga olishi lozim va basharti bunday holatlar huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligidan dalolat bersa (masalan, MJtK 192-moddasi – «Maishiy shovqinga qarshi kurash talablarini buzish») sinov muddati talablarini qo‘shimcha majburiyat bilan to‘ldirishi mumkin.

Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 36-moddasiga muvofiq, ma‘muriy jazo huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbuzarliklar uchun esa, huquqbuzarlik aniqlangan kundan boshlab ikki oydan kechiktirmay qo‘llanilishi mumkin. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish rad etilgan yoki jinoyat ishi to‘xtatilgan bo‘lsa-yu, lekin huquqbuzarning harakatlarida ma‘muriy huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo‘lsa, ma‘muriy jazo chorasi jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish yoki jinoyat ishini to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan boshlab bir oydan kechiktirmay qo‘llanilishi mumkin. Basharti, ma‘muriy jazoga

tortilgan shaxs shu jazoni o'tash muddati tugagan kundan boshlab bir yil mobaynida yangi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan bo'lsa, mazkur shaxs ma'muriy jazoga tortilmagan deb hisoblanadi. Shunga ko'ra, ijtimoiy tartib buzilgan holatda ma'muriy jazo sud tomonidan o'rnatilgan sinov muddati mobaynida tortilishi va ijro etilishi talabi amalga oshirilishi kerak. Bunday shartga amal qilish shartli sudlanganlikni bekor qilishda qonuniylikni ta'minlaydi. Boshqa holda, aybdor shaxs ma'muriy jazoga tortilmagan hisoblanadi va shunga ko'ra shartli hukmni bekor qilish asoslaridan biri tushib qoladi (MJtK 37-moddasi).

Shartli hukmning bekor bo'lishiga asos bo'lgan boshqa huquqbuzarlik sifatida mehnat intizomini buzish ham qaralishi mumkin. Mehnat intizomi mehnat qonunchiligi hamda tashkilot va muassasalarning mehnat to'g'risidagi ichki normativ aktlari bilan belgilanadi.

Ro'yxatga olingan yoki avvalgi ish joyini qoldirgan kundan boshlab 15 kun ichida uzrsiz sabablarga ko'ra ishga kirmaslik; yangi yashash joyiga ko'chib kelgandan so'ng 15 kun ichida uzrsiz sabablarga ko'ra axloq tuzatish ishi qo'llanilishini ta'minlovchi organlarga uchramaslik; tayinlangan jazo muddati davomida muttasil tarzda uzrsiz sabab bilan ishga chiqmaslik (progul) yoki ish joyida mast holda bo'lish – mehnat intizomini buzish hisoblanadi.

Ataylab sodir qilingan mehnat intizomi buzilishlari shartli hukmni bekor qilish uchun mehnat intizomiga rioya qilmaslik motivlaridan kelib chiquvchi asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, progullar, ishga mast holda kelish, mehnat shartnomasi yoki mehnat tartibi talablari bilan belgilangan majburiyatlarni sababsiz muntazam ravishda bajarmaslik.

Sud shartli hukmni bekor qilish to'g'risida taqdimnomani ko'rib chiqayotganida mahkumning sinov muddati mobaynida unga nisbatan jazo qo'llangan-qo'llanmaganligi, belgilangan biron-bir shartlarni bajarmaganligini aniqlashi lozim. Bunday holatda, shartli hukm qilingan shaxs unga bildirilgan ishonchni oqlaganligi va xulqi tuzalganligini aniqlash maqsadida, sud mahkumga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanish qonuniyligini hamda intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarorning asosliligini aniqlaydi.

Mahkum zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan bo‘yin tovlagan yoki ma‘muriy yoxud intizomiy javobgarlikka tortilgan hollarda mahkum xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organ jinoyat-huquqiy ta‘sir chorasini bekor qilishi hamda hukmda tayinlangan jazo chorasini ijro etish to‘g‘risida taqdimnoma kiritishi mumkin. Sud ushbu taqdimnomaga asosan, shartli jazoni bekor qilib, hukmda tayinlangan jazoni ijro etish to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkin. Agar sud nazorat qiluvchi organning kiritgan taqdimnomasini ko‘rayotganda shartli hukm qilingan shaxsning xulqida sinov shartlarini buzganlik alomatlarini ko‘rmasa (topmasa), hukm ijro etilmaydi.

Biron-bir jinoyatning sodir etilishi shartli hukmni bekor qilishga asos bo‘ladi, holbuki, ushbu holat sharhlanayotgan moddada ko‘rsatilmagan bo‘lsa ham. Ushbu xulosa sinov muddati mobaynida yangi jinoyatni sodir etgan shaxsni shartli hukm qilishning imkoni yo‘qligiga asoslanadi. Bunday holat shartli sudlangan shaxsning o‘zgarayotganligiga dalil bo‘la olmaydi. Yangi jinoyatning sodir etilishi shaxsning G‘ayrihuquqiy xulq-atvoridan darak berib va shartli sudlanishga nisbatan qattiqroq jazo choralarini ko‘rishini talab qiladi. Shuning uchun qonun chiqaruvchi JK 72-moddasida yangi jinoyatni sodir etish shartli sudlanishni bekor qilish asosi hisoblanishini ko‘rsatmagan, chunki shartli sudlanishni bekor qilish asosi sifatidagi huquqbuzarlikning mavjudligi jinoyat sodir etishda shartli sudlanishini so‘zsiz bekor qilishiga guvohlik beradi.

«Qonunga ko‘ra (**JK 72-moddasi 8-qismi**), agar shartli hukm qilingan shaxs sinov muddati o‘tmay turib, yangi jinoyat sodir etsa, aybdorga bir necha hukm yuzasidan Jinoyat kodeksining 60-moddasiga muvofiq jazo tayinlanadi. Shunga ko‘ra sud yakuniy jazoni tayinlashda birinchi hukm bo‘yicha shartli sudlangan shaxs xulqini nazorat qiluvchi organlarning fikridan qat‘i nazar shartli hukmni bekor qiladi». Sud yangi hukm bo‘yicha tayinlangan jazo muddatiga ilgarigi hukm yuzasidan o‘talmay qolgan jazo muddatini to‘la yoki qisman qo‘shadi. Yakuniy jazo chorasini shartli belgilanganiga qaraganda har holda kattaroq bo‘lishi kerak¹ (Jinoyat kodeksining 60-moddasi sharhiga batafsilroq qarang). Shu bilan birga

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 36-банд, 1-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 235-б.

sinov muddatining o'tishi mobaynida sodir etilgan jinoyat fakti sud tomonidan inobatga olinib, bitta hukmda ko'rsatiladi va alohida ajrim chiqarilishi talab qilinmaydi.

JK 72-moddasi 7-qismi shartli hukm qilishning qo'llanish chegaralarini belgilaydi. Aniqrog'i, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tushuntirishlariga ko'ra, «bunday holda, bir necha hukm yuzasidan jazo tayinlash paytida sud, JK 72-moddasining yettinchi qismida nazarda tutilgan shartlarga rioya etgan holda yana shartli hukm qo'llashi mumkin.

Ayni paytda, shuni nazarda tutish kerakki, JK 72-moddasida shartli hukmni bekor qilish uchun asos bo'ladigan holatlar doirasi qat'iy belgilangan. Shu sababli, agar shartli hukm qilingan shaxsning o'sha ish bo'yicha hukm chiqarilgunga qadar sodir etilgan boshqa jinoyatda ham aybdorligi aniqlansa, ushbu holat jazoning shartlilikini bekor qilish uchun asos bo'la olmaydi. Bunday holda JK 59-moddasi qoidalari qo'llanilmaydi (chunki shartli hukm yuridik tabiatiga ko'ra jinoiy jazodan ozod qilishning bir turi hisoblanadi) va birinchi hamda ikkinchi ish bo'yicha chiqarilgan har qaysi hukm alohida ijro qilinadi».

O'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxslarga, qonun bo'yicha o'n yildan ortiq yoki umrbod ozodlikdan mahrum qiladigan jazo tayinlanadigan, qasddan sodir etgan jinoyat uchun sudlanganlar kiradi (Jinoyat kodeksining 15-moddasi 5-qismi).

Avval qasddan jinoyat sodir etgani uchun ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jazoga hukm qilingan deb, avvalgi jinoyati uchun sudlanganligi olib tashlanmagan yoki sudlanganlik holati tugallanmagan shaxs tushuniladi. Sudlanganlikning olib tashlanishi yoki tugallanishi ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun sudlanganlik va ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'taganligining barcha huquqiy oqibatlarini bartaraf etadi va shartli hukm qilishni qo'llashga monelik qilmaydi.

JK 72-moddasi 7-qismida belgilangan chegaralanishlar quyidagi holatlarga tegishli emas:

- o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga nisbatan;
- birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga;

- ayollarga;
- 60 yoshdan oshgan erkaklarga.

Mazkur shaxslar o‘ta og‘ir jinoyat sodir etgan holda ham ularga nisbatan shartli jazo belgilash mumkinligi ushbu moddada mustahkamlangan.

Voyaga yetganlik yoshini aniqlaganda, jinoyatni sodir etish vaqti inobatga olinadi. Jinoyatni sodir etgan vaqtda shaxs voyaga yetmagan bo‘lishi lozim va ushbu holat shartli hukm qilishga asos bo‘lishi mumkin.

Birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga nisbatan shartli hukm qilishni qo‘llashda nogironlik darajasini olganlik vaqti ahamiyatga ega emas.

6-§. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunining insonparvarlik prinsipi jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishda ham namoyon bo‘ladi.

Bu huquqiy institutning mohiyati mahkumni kelajakdagi jazoni o‘tashdan shartli ravishda ozod qilishda ifodalanadi. Uning shartli xususiyati shundaki, u qonunda ko‘rsatilgan shartlar asosida amalga oshiriladi, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning qoidalariga rioya qilmaslik belgilangan jazo muddatini to‘liq yoki qisman o‘tashga olib keladi (Jinoyat kodeksining 73-moddasi). Bunday hollarda hukm qilingan mahkumning tuzalganligi to‘g‘risidagi sud tomonidan aniqlangan holatlarning mavjudligi va mahkum tomonidan jazoning ma‘lum bir qismini o‘taganligi bu institutni qo‘llashning dastlabki sharti bo‘lib hisoblanadi.

NOTA BENE !

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish – sudlanuvchini jazoning o‘talmagan vaqt davomida unga sud tomonidan yuklangan majburiyatlarni bajarishi hamda ijtimoiy tartibni saqlash va yangi jinoyatni sodir etmaslik sharti bilan jazoni o‘tashni davom ettirishdan ozod qilishdir.

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo‘llash muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, maqbul huquqiy xatti-harakatni rag‘batlantirishning samarali vositalaridan hisoblanadi. Muddatning o‘talmagan qismi bu yerda shaxs o‘z xulq-atvori bilan o‘zining o‘zgarganligini isbotlashi va davlat tomonidan bildirgan ishonchni oqlashi kerak bo‘lgan sinov muddati hisobida ko‘riladi.

Sharhlanayotgan moddaning birinchi qismi «Ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo‘natish, xizmat bo‘yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo‘llanilishi mumkin. Shaxs ijro etilmagan qo‘shimcha jazodan ham ozod qilinishi mumkinligini» nazarda tutadi. Bu normada jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish mumkin bo‘lgan jazolarning barchasi ko‘rsatib o‘tiladi.

Sharhlanayotgan moddaning to‘rtinchi qismi bundan istisno bo‘lib, unda muddatidan ilgari shartli ozod qilish instituti qo‘llanilmaydigan shaxslar va jinoyatlar ro‘yxati ko‘rsatilgan. Ushbu jazo choralari muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish, ularning muddatidan qat’i nazar, qo‘llanilishi mumkin. Jinoyat-ijroiya kodeksining 164-moddasi to‘rtinchi qismi mazmuniga ko‘ra, sudga muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazodan muddatidan ilgari ozod qilish masalasida jamoat birlashmasi, jamoa, mahkumning o‘zi yoki uning himoyachisi iltimosnoma bilan murojaat etishga haqli.

Muddatli xarakterga ega bo‘lgan ma’lum bir huquqdan mahrum qilish jazosi maqsadlariga sud tomonidan qo‘llanilgan muddatlardan ko‘ra qisqa muddatda ham erishish mumkin.

Qo‘shimcha jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo‘llash tartibi asosiy jazolardan muddatdan ilgari shartli ozod qilishdan ayrim xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi.

Qo‘shimcha jazo choralari xususiyati ularning mohiyatidan va jazoni amalga oshirishdagi vazifa va maqsadlaridan kelib chiqadi. Qo‘shimcha jazo choralari qo‘llashni tartibga soluvchi amaldagi jinoyat qonuni shuni ko‘rsatmoqdaki, odatda, sudlar tomonidan qo‘shimcha jazo ancha xavfli bo‘lgan jinoyatlarni sodir etganlik uchun jazoning qismi

sifatida tayinlanayapti. Jinoyatning oldini olish va mahkumlarni tuzatishda asosiy jazo choralariga qaraganda qo‘shimcha jazolarning ahamiyati kamrog‘dir. Qo‘shimcha jazolar o‘zining qattiq qo‘lligi bilan sudlanganlarning o‘zgarishi va jinoiylikning oldini olishda qo‘llaniladigan asosiy jazoga qaraganda kam ahamiyatga ega.

Qo‘shimcha jazoning tayinlanishi jinoyat sodir etgan shaxsning javobgarligini kuchaytirish tomonga ham, kamaytirish tomonga ham individuallashtirishning asosiy vositalaridan biridir. Jazoning ogohlantirish vazifasini, ya‘ni ularni qo‘llash orqali mahkumning jinoiy faoliyatini davom ettirishiga yordam beruvchi sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek, yangi jinoyat sodir etishga qarshi zarur kafolatlarni yaratishni ta‘minlash qo‘shimcha jazoning maqsadi hisoblanadi. Qo‘shimcha jazo choralari jinoyatning alohida holatlariga, ularni sodir etishga yordamlashuvchi sabab va sharoitga, shuningdek, mahkumning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq. Shuning uchun, har bir alohida holatda qo‘shimcha jazoning u yoki bu vazifasi birinchi o‘ringa chiqadi.

Aynan jazo maqsadini amalga oshirishdagi qo‘shimcha jazoning yordamchi roli, qonun chiqaruvchiga undan ozod qilish masalasiga ruxsat berish yo‘lini shart qilib qo‘yadi. Sharhlanayotgan modda qo‘shimcha jazodan ozod qilishning qandaydir mustaqil asos va shartlarini belgilamaydi. Mahkumning asosiy jazoning ma‘lum bir qismini o‘taganligi va shu bilan bir vaqtda uning axloqan tuzalganligi qo‘shimcha jazodan ozod qilishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun, jazoni kuchaytiruvchi chora sifatida qo‘shimcha jazo tayinlanganda, ayniqsa, uni yengillashtirish maqsadida asosiy jazodan shaxs muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinganda, uni qo‘shimcha jazolardan ham ozod qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda, qo‘shimcha jazo ozodlikdan mahrum etish bilan birga tayinlansa, undan ozod qilish uni ijro etishdan oldin ham amalga oshirilishi mumkin. Boshqa holatlarda agar qo‘shimcha jazoni ijro etish asosiy jazoning ijro etilishi bilan bir paytda boshlansa, masalan, muayyan huquqdan mahrum qilish axloq tuzatish ishlariga qo‘shimcha jazo sifatida tayinlanganda, asosiy jazodan ozod qilinayotgan paytga qadar

uning qanday qismi o'talغانligidan qat'i nazar, qo'shimcha jazodan ham ozod qilinadi.

Basharti jazoni o'tagan shaxs tomonidan yangi jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladigan qo'shimcha jazolardan ozod qilish masalasi ko'rilishi kerak.

Maqsadga erishish doim qo'shimcha jazoni ijro etish zarurligini istisno etmaydi, xususan, asosiy jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun asoslarning paydo bo'lishi bu hali o'z-o'zidan qo'shimcha jazolarni qo'llashdan ozod qilish kerak, degani emas. Shuning uchun, qonun chiqaruvchi asosiy jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish bilan bir vaqtda qo'shimcha jazodan ozod qilish majburiyatini emas, balki huquqini belgilagan. Asosiy jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinganda, qo'shimcha jazolarni, ular profilaktik maqsadlarda tayinlangandagina, saqlab qolish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jazo keltiradigan maqsadlarga erishish uchungina jazoni o'tashni muddatidan oldin shartli ozod qilish qo'llaniladi. Aynan shu holda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asosi – mahkumning ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi va sud tayinlagan jazoni to'la o'tamasdan oxirigacha o'zgarganligidir. Bu sharoit JK 73-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan mezonlar orqali aniqlanadi, unga ko'ra «jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan jazo turlari uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lgan mahkumga nisbatan qo'llaniladi».

Rejim deganda, ko'rilayotgan norma ma'nosiga ko'ra jazoni o'tash va ijro etish tartibi tushuniladi. Rejim mahkumning o'zgarishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Mahkumni axloqan tuzatishning asosiy vositalariga jazoni ijro etish va o'tashning belgilangan tartibi (rejimi), ijtimoiy foydali mehnat, tarbiyaviy ish, umumiy va hunar ta'limi, kasb tayyorgarligi va jamoat ta'siri kiradi (JIK 7-moddasi). JK 73-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan jazolarning har birini ijro etish va o'tash tartibi Jinoyat-ijroiya kodeksi bilan belgilanadi. Jazoni o'tashda intizom buzilishlarining mavjud emasligi, jazoni ijro etish bo'yicha

ma'muriyatning qonuniy talablariga rioya etish, mahkumlar uchun ruxsat etilgan jamoat tashkilotlarining ishlarida qatnashish, tashabbuskorlik ko'rsatish, tartibni saqlashda ma'muriyatga yordam berish, maktablarda o'quv mashg'ulotlariga doimiy ravishda qatnashish uning tuzalish yo'lidan borayotganligini ifodalovchi holatlar yig'indisi sifatida e'tirof etiladi.

Mehnatga halol munosabat deganda, mahkumlar mehnatga jalb qilinib, o'ziga yuklatilgan mehnat vazifasini va belgilangan normani muttasil, sidqidildan halol bajarib kelayotganligi uning halol mehnat yo'liga o'tib olganligini ko'rsatuvchi mezon hisoblanib, uni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun taqdim qilishga asos bo'ladi. Bu asosni mahkumning jazoni ijro etish va o'tash tartibiga rioya etish majmui sifatida qarash kerak. Bir qancha holatlarda mehnatga halol munosabatda bo'lish (masalan, ozodlikdan mahrum qilish va axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo tayinlanganda) alohida ahamiyat kasb etishi mumkin.

O'zgarishi mumkinligi haqidagi sudning xulosasi uning xulq-atvori to'g'risidagi ma'lumotlardan kelib chiqadi, ya'ni faqat muddatdan ilgari shartli ozod qilish to'g'risidagi masalani ko'rish paytidagina emas, balki butun jazoni o'tash mobaynidagi rejimga rioya qilish, mehnatga munosabati hisobga olinadi.

Mehnatga halol munosabat birinchi navbatda mahkumning jazoni o'tash muassasalarida tashkil etilgan mehnat faoliyatida o'z xohishi bilan faol ishtirok etishi bilan belgilanadi. Bunday munosabat mahkumning ishlab chiqarishda, qishloq xo'jaligida, xo'jalik ishida, koloniya hududidagi obodonchilik ishida va boshqa turli ijtimoiy foydali ishlarni halol bajarishida ifodalanadi. Mehnatga halol munosabati, shuningdek, mahkumning muayyan bir hunar o'rganishi, o'z malakasini oshirishi, ish tajribalarini boshqalarga o'rgatishi bilan tavsiflanadi.

Mahkumning tuzalganlik darajasini aniqlashda mehnatga halol munosabatda bo'lish, jazoni ijro etish va o'tash tartib-qoidalariga rioya etish kabi holatlardan tashqari, mahkum shaxsini xarakterlovchi boshqa holatlarga ham, masalan, jinoyat natijasida jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni tezroq qoplash uchun harakat qilishi, o'zining aybini tan olganligi,

jazoni o'tab bo'lganidan keyin to'g'ri hayot boshlashga va jinoiy o'tmishdan qutulishga harakat qilganligiga ham e'tibor qaratish lozim. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish masalasini hal etishda sudga mahkumning shaxsini aniqlashga imkon beruvchi, yashash joyi, oilasi yoki boshqa qarindoshlarining mavjudligi, mehnat jamoasining roziligi bilan aniq bir korxonaga ishga joylashish imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar, uning ozodlikdagi xulq-atvorini oldindan aytib berish, jazoni o'tashdan ozod qilingan shaxsga nisbatan tegishli yordam ko'rsatish choralari ko'rish, mehnat jamoalari va jamoat birlashmalari tomonidan kuzatuvni o'rnatish va tarbiyaviy ishlarni olib borish masalalarini hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mahkumning tuzalganligi to'g'risida isbotlovchi holatlar bo'lganda, uni asossiz ravishda jazoni o'tashdan ozod qilish masalasini hal qilishni rad etish mumkin emas.

Shu vaqtda o'zining o'zgarganligini isbotlagan mahkumlarni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni rad qilish hollari bo'lmasligi kerak. Xususan, sudlar qonunda ko'rsatilmagan sabablarga ko'ra (masalan, tayinlangan jazoning yengilligi, jazoni ijro etish yuzasidan muassasada kam vaqt bo'lganligi va boshqalar) jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilishni rad qilishga haqli emas.

JK 73-moddasi 3-qismida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishni qo'llashning asoslari ko'rib chiqiladi. Modomiki, mahkumning tuzalish jarayoni sekin davom etayotgan bo'lib, ma'lum bir vaqt – fursat talab qilar ekan, qonun sud tomonidan tayinlangan jazoning ma'lum bir qismini haqiqatan o'talishini ko'rilayotgan institutni qo'llashning majburiy sharti deb hisoblaydi. Muddatning kattaligi (uzoqligi) turli xil belgilarga bog'liq. Shuni aytib o'tish lozimki, jazodan ozod qilishning obyektiv shartlaridan yana biri mahkumni belgilangan jazo muddatining muayyan qismini o'taganligi hisoblanadi. Bu mahkum tomonidan sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga bog'liq. Jazodan shartli ozod qilish mahkum tomonidan faktik jihatdan jazoning:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini;

b) og‘ir jinoyati uchun, shuningdek, qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo‘lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini;

v) o‘ta og‘ir jinoyati uchun, shuningdek, jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan yoki jazosi yengilrog‘i bilan almashtirilgan shaxs jazoning o‘talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilingan bo‘lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan ikki qismini haqiqatda o‘tab bo‘lganidan keyin qo‘llanilishi mumkin.

Sanab o‘tilgan haqiqatda o‘talgan muddatlar amnistiya va afv etishga ham bog‘liq. Agar jazoni o‘tash davrida jazo muddatini kamaytiruvchi amnistiya akti chiqarilsa, unda mahkumning JK 73-moddasi 3-qismida ko‘rsatilgan haqiqatda o‘tagan muddatlari to‘g‘risidagi masalani hal qilishda sud tomonidan tayinlangan muddatga qarab emas, balki amnistiya aktiga muvofiq holda kamaytirilgan muddatlarga rioya qilish kerak.

Jinoyat kodeksining 15-moddasi va sharhlanayotgan moddaning uchinchi qismi ushbu bandining tahlili shundan dalolat beradiki, jazoni uchdan birini o‘tagan shaxslarga nisbatan jazoni o‘tashdan shartli ozod qilish qo‘llaniladi, ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan har qanday jinoyat uchun sudlangan shaxslarga, shuningdek, qasddan sodir etilib besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo‘llanilishi mumkin. Axloq tuzatish ishlari, xizmat bo‘yicha cheklash yoki intizomiy qismga jo‘natish tariqasidagi jazolar tayinlangan mahkumlar, asoslar mavjud bo‘lganda, Jinoyat kodeksi 73-moddasi 3-qismi «a» bandiga binoan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinishi mumkin.

JK 73-moddasi 3-qismi «b» bandi og‘ir jinoyati uchun, shuningdek, qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun qonun tomonidan besh yildan ko‘p, ammo o‘n yildan oshmagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini o‘tagan shaxslarga yoki avval shaxs qasddan

sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilingan holda sudlanganlik holati tugallanmagan yoki olib tashlanmagan hollarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin.

Mahkum ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etganligi uchun javobgarlikka tortilib, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo tayinlangan hollarda JK 73-moddasi 3-qismi «a» bandida ko‘rsatilgan shartlar qo‘llaniladi.

JK 73-moddasi 3-qismi «v» bandi jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan yoki jazosi yengilrog‘i bilan almashtirilgan va qasddan yangi jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan ancha og‘ir shartlarni belgilaydi. O‘ta og‘ir jinoyat sodir etish, shuningdek, jazoni o‘tashdan ozod qilingandan keyin jinoyat sodir etish jinoiy maqsadlarning barqarorligidan dalolat beradi. Boshqa o‘xshash holatlarda mahkumning tuzalganligi to‘g‘risida dalillar yo‘qligi sababli ozod qilish uchun asoslar mavjud bo‘lmaydi.

Qonun chiqaruvchi bu kabi holatlarda mahkumning tuzalishini inkor qilmasdan, jazoni haqiqatda o‘taganlik chegaralarini oshirib, ushbu asoslarni qo‘llash bo‘yicha birmuncha qattiqroq choralar belgilaydi.

Qonun chiqaruvchi **JK 73-moddasi to‘rtinchi qismida** muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishni qo‘llash bo‘yicha istisnolarni belgilaydi. Muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish ayrim toifadagi shaxslarga va ayrim jinoyatlarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

JK 73-moddasi dastlabki uch bandida jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish mumkin bo‘lmagan shaxslar aniqlanadi:

- umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslar;
- o‘ta xavfli retsividlar;
- uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tashkilotchilari yoki ishtirokchilari.

Jinoyat kodeksining **73-moddasi 4-qismi «g»** bandida mahkumni jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishni qo‘llash mumkin bo‘lmagan jinoyatlar tarkibi sanab o‘tilgan. Bular quyidagilardir:

– javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish (JK 97-moddasi 2-qismi);

– o‘n to‘rt yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsning nomusiga tegish (JK 118-moddasi 4-qismi);

– o‘n to‘rt yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsga nisbatan zo‘rluk ishlatib, jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish (JK 119-moddasi 4-qismi);

– tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etish (JK Maxsus qismi VIII bobi);

– O‘zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyat sodir etish (JK Maxsus qismi IX bobi);

– yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg‘in qurolining boshqa turlarini, shunday qurollarni yaratishda foydalanilishi mumkinligi ayon bo‘lgan material va moslamalarni, shuningdek, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni ko‘p miqdorda kontrabanda qilish (JK 246-moddasi 2-qismi).

Muddatidan ilgari shartli ozod qilish jazoni ijro etuvchi organlar va muassasalar taqdimnomasiga binoan amalga oshiriladi (IIV O‘zxavfsizlik xizmati, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish muassasasi yoki intizomiy qismga jo‘natish tayinlanganda harbiy qism qo‘mondonligi). Ozodlikdan mahrum qilishga muvofiq holda muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish masalasiga mahkum tomonidan Jinoyat kodeksining 73-moddasi 3-qismiga rioya qilgan holda jazoning kamida olti oyini o‘tagandan keyingina ruxsat etilishini e‘tirof etish zarur.

Sud jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishni rad etgan taqdirda, bu haqda ajrim chiqqan kundan boshlab kamida olti oy o‘tganidan keyin taqdimnoma takroran kiritilishi yoki iltimosnoma takroran berilishi mumkin (JIK 164-moddasi 5-qismi).

Muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish jazoni o‘tash joyidagi sud tomonidan jazoni ijro etish yuklatilgan vakolatli maxsus organning taqdimnomasiga binoan qo‘llaniladi. Jazoni o‘tovchi shaxs, sud tayinlagan muddatning qonun talab qilgan qismini o‘tasa, sudya uning

majburiyatlarini ijro etish va xulq-atvoriga ko'ra, uning tuzalishi uchun jazoni to'la ravishda o'tashi zarur emas, deb topsa, sud tayinlangan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish to'g'risida ajrim chiqaradi. Bunday holatda uning o'talmay qolgan qismi sinov muddati vazifasini bajarganligi sababli, ozod qilingan shaxsga nisbatan sinov muddati tayinlanmaydi. Ushbu ta'rif orqali sud mahkumni qo'shimcha jazolarni o'tashdan to'liq yoki qisman ozod qilishi mumkin.

JK 73-moddasi 5-qismiga ko'ra, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinib, jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan JK 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq, bir necha hukmlar yuzasidan jazo tayinlanadi. Shunday qilib, «Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinib, jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan sud ushbu Kodeksning 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq jazo tayinlaydi» (JK 73-moddasi 5- qismi). Bunday normani qo'llashda, birinchi navbatda, yangi jinoyat avvalgisini o'talmagan muddati mobaynida sodir etilganini aniqlash zarur.

Muddatidan ilgari shartli ozod qilishning o'talmagan muddati deganda, sud tomonidan tayinlangan jazoning o'talmay qolgan qismini tushunish kerak. Amaliyotda yangi jinoyat asosiy jazoning o'talmay qolgan qismi o'tib bo'lgandan keyin, lekin qo'shimcha jazoni ijro etish vaqtida sodir etish hollari ham uchraydi. Qo'shimcha jazoning o'talmay qolgan qismi mobaynida jinoyat sodir etish, muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishning o'talmay qolgan qismi mobaynida jinoyat sodir etilganligi to'g'risida dalolat beruvchi holat hisoblanmaydi, demak, hukmlar majmui to'g'risidagi qoidani qo'llash mumkin emas.

7-§. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish

Jinoyat qonuni alohida hollarda jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni nazarda tutadi. Bunday hollarda mahkum jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilinmaydi, lekin jazoning o'talmay qolgan qismi yengilrog'i bilan almashtiriladi.

NOTA BENE !

Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish — jazoni o‘tash davrida uni individuallashtirish prinsipini amalga oshirishning mustaqil shakli bo‘lib, mahkumga tayinlangan jazoning muayyan turini yengilrog‘i bilan almashtirishda ifodalanadi.

Bu bilan mazkur jazoni o‘tashdan ozod qilish instituti muddatidan oldin shartli ozod qilish va mazkur jinoyat uchun qonunda nazarda tutilganidan yengilroq jazo tayinlash institutidan farq qiladi (JK 57-moddasi). Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish uni butunlay o‘tashdan ozod qilmaydi hamda faqat istisno holatlarga tegishli, ya’ni avvalgi sodir etgan jinoyati uchun tayinlangan jazoni yengilroq jazo bilan almashtirish, o‘z navbatida, hukmning asosliligiga ishonchni yo‘qotmaydi.

JK 74-moddasi jazoning o‘talmagan qismini jazoning boshqa yengilroq turiga almashtirishni ko‘rsatib o‘tgan. Ko‘rsatilgan moddaning birinchi qismiga binoan «Ozodlikdan mahrum etilgan, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan sud jazoning o‘talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirishi mumkin».

Ozodlikdan mahrum qilish va axloq tuzatish ishlari kabi jazolar Jinoyat kodeksining 43-moddasida nazarda tutilgan boshqa yengilroq jazolarga almashtirishni nazarda tutadi. Jinoyat kodeksining 43-moddasi mazmunidan kelib chiqib, ozodlikdan mahrum qilish va axloq tuzatish ishlariga nisbatan almashtirish mumkin bo‘lgan yengilroq jazolar deb, qonun chiqaruvchi tomonidan quyiroqda joylashtirilgan jazolar tan olinadi. Ozodlikdan mahrum qilishni jarima (JK 44-moddasi), muayyan huquqdan mahrum qilish (JK 45-moddasi), majburiy jamoat ishlari (JKning 45¹-modda), axloq tuzatish ishlari (JK 46-moddasi), xizmat bo‘yicha cheklash (JK 47-moddasi), qamoq (JK 48-moddasi), intizomiy qismga jo‘natish (JK 49-moddasi) kabi jazolarga almashtirish mumkin. Axloq tuzatish ishlarini faqat jarima va muayyan huquqdan mahrum qilishga almashtirish mumkin.

Jazoning o‘talmay qolgan qismini muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishda qo‘llaniladigan asoslar mavjud bo‘lganda jazoni yengilrog‘i

bilan almashtirish qo'llaniladi. Bu asoslar **JK 74-moddasi 2-qismida** ko'rsatilgan:

– ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish kabi jazolarni o'tash uchun o'rnatilgan tartib-qoidalar talablarini bajarish;

– mehnatga halol munosabatda bo'lish.

(Bu tushunchalar to'g'risida to'liqroq shu bobning «Muddatidan ilgari shartli ozod qilish» deb nomlangan 6-§ da ko'ring.)

Shuni aytib o'tish kerakki, bu yerda mahkumning shaxsidagi ijobiy o'zgarishlarning xususiyati va hajmi to'g'risidagi masala katta ahamiyatga ega bo'lib, axloqan tuzalishning darajasi shularda namoyon bo'ladi. Agar muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish uchun shaxsning to'liq tuzalganligi va uning kelajakdagi jazoni o'tashi maqsadga muvofiq emasligi belgilansa, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish uchun mahkumning tuzalish yo'liga o'tganligiga ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlarini o'tash sharoitida emas, balki boshqa yengilroq jazo bilan yetarli ta'sir etishni amalga oshirish mumkinligini e'tirof etish kerak.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutini qo'llashning asosiy sharti bo'lib, mahkum tomonidan jazoning ma'lum bir qismini amalda o'talغانligi hisoblanadi.

JK 74-moddasi 3-qismiga ko'ra, «Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish mahkum:

– ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida to'rt dan bir qismini;

– og'ir jinoyati uchun, shuningdek, qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar u ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini;

– o'ta og'ir jinoyati uchun, shuningdek, jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilgan va jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan sodir etgan yangi jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llanilishi mumkin».

Mazkur holatni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, qonun chiqaruvchi muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishdan farqli ravishda jazoni haqiqatda o'taganlikning yengilroq muddatini nazarda tutadi. Sud tomonidan tayinlangan jazoning haqiqatda o'taganlikning quyi chegarasi jazoning to'rtidan bir qismini tashkil qilsa, yuqori chegarasi sud tomonidan tayinlangan jazoning kamida yarmini o'tash yetarliligidan dalolat beradi. Tayinlangan jazoning o'talgan muddatini aniqlashdagi bunday yo'l, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish kamroq jazo hisoblanishini belgilovchi yoki muddatidan ilgari ozod qilishga qaraganda mahkumning holatini yaxshilovchi holat sifatida qaralmasligi kerak.

Agar muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishda mahkum jazoni o'tashdan butunlay ozod qilinsa, sharhlanayotgan institutni qo'llashda jazo turi oldingisiga qaraganda yengilroq jazoga almashtiriladi.

O'talgan muddatlarni to'g'ri hisoblash va ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlarining o'talmay qolgan qismini yengilrog'i bilan almashtirish, oldingi holati bilan solishtirganda mahkumning ahvolini yomonlashtirmasligi jinoiy jazoning odillik va qonuniylik kafolati bo'lib hisoblanadi. Har qanday holatda ham yengilroq jazoning muddati qonun bilan o'rnatilgan yuqori chegarasidan oshib ketmasligi kerak. Hatto, ozodlikdan mahrum qilishning muddati bu muddatlardan oshsa ham, axloq tuzatish ishlari va xizmat bo'yicha cheklashning davom etish muddati uch yildan, intizomiy qismga jo'natish bir yildan, qamoq olti oydan oshmasligi kerak. Axloq tuzatish ishlariga muvofiq holda muayyan huquqdan mahrum qilish asosiy jazo sifatida besh yilgacha tayinlanishi mumkin. Jarimaning miqdorini esa, o'talmay qolgan qism doirasida ushlab qolingani umumiy miqdordan kelib chiqib belgilash zarur. **JK 74-moddasi 4-qismiga ko'ra**, sud hukmi asosida tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoning o'talmagan qismi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazosining o'talmagan qismi muddatiga tayinlanadi.

Bu shuni anglatadiki, masalan, ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazosining o'talmagan muddati JK 46-moddasi 2-

qismida ko'rsatilgan (olti oydan uch yilgacha) axloq tuzatish ishlari jazosi bilan almashtirilganda, axloq tuzatish ishlarining umumiy muddati, olti oydan kam bo'lishi va uch yildan ortiq bo'lishi mumkin emas. Ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash jazosining o'talmagan qismini axloq tuzatish ishlariga almashtirishda sud bu qoida bilan bog'liq emas. Masalan, og'ir jinoyat sodir etgan shaxsni olti yilga ozodlikdan mahrum qilinganda, JK 74-moddasi 3-qismi «b» bandiga ko'ra, tayinlangan jazoning ikki yilini o'tagandan so'ng (olti yilning uchdan bir qismi) va boshqa kerakli shartlarga rioya qilgan holda o'talmagan muddat yengilroq jazoga almashtirilishi, ya'ni to'rt yilga axloq tuzatish ishlariga jalb qilinishi mumkin

Ko'rinib turibdiki, berilgan vaziyatda amaliyotda qo'llaniladigan va qonun chiqaruvchi tomonidan qo'llaniladigan bunday yo'nalish JK 54-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan jazo tayinlash qoidalariga to'g'ri kelmaydi, unga ko'ra «Jinoyat sodir etishda qonunda belgilangan tartibda aybli deb topilgan shaxs jazoga tortiladi. Sud ushbu Kodeks Maxsus qismining jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddasida belgilangan doirada Umumiy qismining qoidalariga muvofiq jazo tayinlaydi». Ya'ni, shu qoidaga muvofiq konkret jazo turini tayinlash mobaynida, sud hech qanaqa holatda (jazo tayinlashda ham, jazodan ozod qilishda ham) JK Umumiy qismida ko'rsatilgan eng kam va eng ko'p chegaralaridan chiqmasligi kerak.

Ko'rsatilgan jinoyat-huquqiy kolliziya JK 74-moddasi 4-qismi dispozitsiyasining 2003 yil 12 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Qonuni¹ tahririda bayon etilishi bilan JK 46-moddasi 2-qismi ham tegishli ravishda o'zgarmaganligi sabab bo'lgan (Axloq tuzatish ishlari), ya'ni JK 46-moddasini «mazkur Kodeksning 74-moddasi 4-qismi bundan mustasno» degan so'zlar bilan to'ldirilishi kerak bo'lganligidan kelib chiqqan.

Yana bir varianti: JK 74-moddasi 4-qismiga «uch yildan ko'p bo'lmagan» degan mazmundagi qo'shimcha kiritish bilan yanada

¹ См.: Закон Республики Узбекистан от 12 декабря 2003 г. № 568-II «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан», п. 3 раздел V // Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2004 г., № 6, ст. 69, № 51, ст. 514; 2005 г., № 1, ст. 4.

takomillashtirish orqali paydo bo'lgan qarama-qarshilik yechimiga erishish mumkin.

Axloq tuzatish ishlarini ma'lum bir huquqdan cheklash yoki jarima tayinlash bilan o'zgartirish mumkin. Axloq tuzatish ishlarini ma'lum bir huquqdan cheklashga o'zgartirishda qaysi huquqni cheklash uni qo'llashda ta'sirliroq bo'lishi mumkinligini aniqlash lozim. Shunday qilib, mansabdorga nisbatan qo'llanilgan axloq tuzatish ishlari jazosi huquqni cheklovchi jazoga almashtirilishi mumkin.

JK 74-moddasi 5-qismiga ko'ra, «Jazoni almashtirish instituti tayinlangan jazoni yengilrog'iga almashtirishda ayrim shaxslarga va jinoyat tarkiblariga cheklovni nazarda tutadi». Jazoning qolgan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish quyidagilarga nisbatan qo'llanilmaydi:

- o'lim jazosi afv etish tariqasida ozodlikdan mahrum etish jazosi bilan almashtirilgan shaxsga;

- o'ta xavfli retsivistga;

- uyushgan guruh yoki jinoiy uyushmaning tashkilotchi va qatnashuvchilariga;

- Jinoyat kodeksining 73-moddasi 4-qismi «g» bandida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir qilganlarga (batafsil Jinoyat kodeksining 73-moddasi 4-qismi sharhiga qarang).

(Bu haqda shu bobning «Muddatidan ilgari shartli ozod qilish» deb nomlangan 6-§ da batafsilroq ko'ring.)

JK 74-moddasi 6-qismi jazosi ushbu modda asosida almashtirilgan mahkumni muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish imkoniyatlarini nazarda tutadi.

Muddatidan oldin shartli ozod qilish shartlari va asoslari avvalgiday qoladi: «Jazosi yengilroq jazo bilan almashtirilgan shaxslar yengilroq jazoning tegishli qismini o'tab bo'lganlaridan keyin ushbu Kodeksning 73-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga binoan jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilinishlari mumkin» (JK 74-moddasi 6-qismi). Sud tomonidan ko'riladigan mahkumning o'zgarganligi darajasi masalasi muhim bo'lib qoladi. Bunday holatda sud mahkumni tavsiflovchi jazoni almashtirgunga qadar va jazo almashtirilgandan keyingi barcha holatlariga

diqqatini qaratadi. Agar sud mahkumning o'zgarish yo'lida ekanligiga va keyinchalik yengil jazo muddatini o'tash mobaynida tartibga rioya qilganligi va mehnatga bo'lgan o'zgacha munosabatiga ishonchi komil bo'lsa, sud almashtirilgan jazoni o'tashdan shartli ozod qilishi mumkin. Shunga ko'ra, jazoni muddati almashtirilgan yengilroq jazo emas, yangisidan boshlab hisoblanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishi tariqasidagi jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazoga almashtirish sudning majburiyati emas, balki huquqidir. Ozod qilish so'zsiz va yakuniydir, shu bois mahkumning noto'g'ri xatti-harakati unga xalaqit bermaydi.

JK 74-moddasi 7-qismi, jazosi yengilroq jazo bilan almashtirilgan shaxs jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etsa, sud unga JK 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq jazo tayinlaydi.

Jazoning o'talmay qolgan qismini yengilroq'i bilan almashtirish tartibi muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishning tartibiga o'xshashdir. Jinoyat kodeksining 74-moddasini qo'llash masalasi, sud tomonidan jazoni ijro etish muassasasi joylashgan muassasa ma'muriyati (ozodlikdan mahrum qilish to'g'risida) yoki jazoni ijro etish bo'yicha inspeksiyasi (axloq tuzatish ishlari bo'yicha), shuningdek, voyaga yetmagan mahkumlarga nisbatan esa, voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiya taqdim etgan taqdimnomaga, shuningdek, mahkumning, uning himoyachisining iltimosnomasiga asosan ko'rib chiqiladi. Sud zarur bo'lgan asoslar va shartlarni mavjudligini belgilab, ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklashning va axloq tuzatish ishlarining o'talmay qolgan qismini Jinoyat kodeksining 43-moddasida belgilangan tegishli yengilroq jazolarga: majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish yoki jarima, harbiy xizmatchilarga nisbatan intizomiy qismga jo'natish yoki xizmat bo'yicha cheklash kabi jazo turlariga almashtirishi mumkin. Ozodlikdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishlarining o'talmagan

qismini boshqa jazo turi bilan almashtirayotganda sud mahkumning tuzalish yo‘liga o‘tayotganlik darajasini hisobga olishi lozim.(JIK 536-m)

Jinoyat kodeksining 80-moddasi 2 va 3-qismlari mohiyatidan kelib chiqib, ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklashning o‘talmay qolgan qismini yengilroq jazoga almashtirilgan shaxsga nisbatan sudlanganlik asosiy va qo‘shimcha jazolarni o‘tashdan ozod qilingandan keyin ozodliqdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklashning haqiqatda o‘tab bo‘lingan muddatidan kelib chiqib hisoblanadi. Axloq tuzatish ishlari jarimaga almashtirilganda shaxs sudlanganligining tugallanganligi muddati jazoning o‘talganligi yoki ijro etilganligidan hisoblanadi.

8-§. Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotish oqibatida jazodan ozod qilish

Jinoyat sodir etgan shaxsni jazodan ozod qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar orasida shaxsni kasalligi tufayli jazodan ozod qilish alohida o‘rin egallaydi.

O‘z qilmishi ma’nosini tushunish, ya’ni jinoyatni sodir etganini va bu uchun u jazolanishini bilishlik o‘zgarishning har jarayonida bo‘lishi kerak. Ruhiiy kasallik mahkumning o‘zgarishida va qilmishi uchun javobgarlikdan qochib bo‘lmaslikni tushunishida tabiiy to‘siq hisoblanadi. Biroq amaliyotda, shaxs hukm chiqarilgandan so‘ng o‘z qilmishining ahamiyatini anglay olmaydigan darajada ruhiy kasallikka chalinib qolsa, jazodan ozod qilinadi. Jismoniy, ruhiy holatlarning buzilganligi ruhiy kasallikka chalingan shaxsning aqliy faoliyatiga ta’sir etadi. Ruhiiy kasallik bilan bog‘liq bo‘lmagan og‘ir kasallik jinoyat-huquqiy yondashishni ma’lum darajada og‘irlashtiradi.

Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotishi oqibatida jazodan ozod qilish asoslari JK 75-moddasida ko‘rsatilgan. Berilgan **moddani**ng 1-qismiga binoan, «Shaxs hukm chiqarilganidan keyin o‘z harakatlarning ahamiyatini anglay olmaydigan va boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka, shuningdek, jazoni o‘tashga to‘sqinlik qiladigan boshqacha og‘ir kasallikka chalinib qolsa, jazoni o‘tashdan ozod qilinishi lozim».

Qonun bo'yicha jazo tayinlashni istisno qiluvchi ruhiy kasallik mahkumning aqli norasolik holatini keltirib chiqarishi kerak.

(«**Shaxsni o'zining xatti-harakatlarini tushunish va ularni boshqarishdan mahrum qiluvchi ruhiy kasallik**» tushunchasi JK 67-moddasi 1-qismida va ushbu tom IV bobining «Kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish» deb nomlangan 6-§ da ko'rsatilgan tushuncha bilan o'xshash.)

Shuni aytib o'tish kerakki, o'z xatti-harakatlarini tushunish va ularni boshqarish imkoniyatidan mahrum qiluvchi ruhiy kasalliklarga, asosan, xronik ruhiy kasalliklar kiradi, ular o'zining davomiyligi, o'sishi, progressivlashishi va tuzalishi qiyinligi bilan ajralib turadi. Qisqa muddatli kasalliklar, tez o'tib ketadigan kasalliklar jazodan ozod qilish masalasining asosi bo'la olmaydi.

Afsuski, qonun chiqaruvchi jazoni o'tashga to'sqinlik qiluvchi boshqa og'ir kasallik tushunchasini ochib bermagan. JK 75-moddasi 1-qismida birinchi galda tuzatib bo'lmaydigan yoki og'ir kasallik shaxs ongli faoliyatini buzishi bilan bog'liq bo'lmagan, balki jismoniy kuchsizlikni keltiruvchi, rivojlanayotgan xarakterli, mahkum majburiyatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi hamda sudlanuvchining hayotiga tahdid qiluvchi kasalliklar nazarda tutilgan. Masalan, sil kasalligi va nafas organlari sistemasi kasalliklarining II-III darajasi, qandli diabet (insult miqdori kuniga 60 birlikdan ortiq), bosh miya shishi, orttirilgan yoki tug'ma yurak nuqsoni (yurak ishemiyasi, kardiomiopatiya kasalligi), gipertoniya kasalligining III bosqichi, jazo oxirgi muddatini o'tash davridagi kasalliklar yoki jarohatlar oqibatidagi anatomik nuqsonlar, qo'l-oyoqlarning yuqori yoki pastki qismini kesib tashlash, shuningdek, bitta yuqori va bitta quyi qo'l-oyoqlarni kesish va h.k.

Bu kasalliklar (jarohatlar) inson sog'lig'i buzilishining shunday bosqichiki, bunday kasalga organizmning hayot faoliyatini normal ushlab turish uchun alohida parvarish va davolash zarur bo'ladi. Kasallikning boshqacha og'irligi oqibatida jazodan ozod qilish masalasini hamma jazolar holatidan emas, balki ijro etish maqsadga muvofiq emas deb topilgan kasalliklar holatidan kelib chiqib ko'rish kerak. Masalan, boshqa

og'ir kasallik bilan og'rikan mahkumni muayyan huquqdan mahrum qilish jazosidan ozod qilish jazoning maqsadiga doim ham muvofiq kelavermaydi. Bunday shaxslarni davolashni jazoni o'tash (ijro etish) sharoitida tashkil qilish zarur.

Og'ir kasallik bilan zararlangan shaxslarni jazoni o'tashdan ozod qilish haqida gap ketganda qo'shimcha asos sifatida sudlangan shaxsning ijtimoiy xavfliligi yo'qolganligi yoki pasayishi hisobga olinishi kerak. Bularga asoslangan holda unga nisbatan jinoiy-huquqiy choralarni qo'llashga to'liq tarzda imkon bo'lmaydi, chunki shaxs o'zining xavflilik darajasini yo'qotadi. Bunday shaxslar sodir etgan jinoyatining og'irligi, sudlanganligi, jazo muddati, jazoni o'talmagan qismidan va boshqa vaziyatlardan qat'i nazar ozod qilinadi.

JK 75-moddasiga asosan jazodan ozod qilish sudning majburiyati, huquqi emas va sodir etilgan jinoyatning og'irligi, tayinlangan jazoning turi va muddati, o'talmagan qismi miqdori, jazoni o'tash mobaynidagi mahkumning xulqi va boshqa vaziyatlardan qat'i nazar bajariladi. U jazoni o'tash mobaynida ham, ijro etish jarayonida ham o'z o'rniga ega.

Sud jazoni ijro etish uchun maxsuslashtirilgan davlat organi, jazoni ijro etish boshqarmasi tomonidan berilgan taqdimnomaga asosan og'ir kasallik yoki ruhiy kasallikka chalingan, sodir etgan jinoyati uchun jazoni o'tayotgan shaxsni keyingi o'tashdan ozod qilish masalasini ko'rib chiqadi.

Sudga taqdimnoma bilan birga tibbiy komissiya qarori va mahkumning shaxsiy hujjatlari yuboriladi.

Qonun sudga JK 75-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarni qo'llash huquqini beradi. Bu choralarni qo'llash imkoni bo'lmaganda, xasta shaxsni sog'aytirish organlari qaroviga topshiradi (masalan, OIV kasalligi/OITS yoki tanosil kasalliklari).

(«Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari» tushunchasi, asoslari va qo'llash tartibi to'g'risida ushbu tomning VII bobida ko'ring.)

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari JK 92-moddasiga asosan ruhiy xasta, alkogolizm, toksikomaniya va (yoki) giyohvandlik bilan kasallangan

shaxslarga nisbatan qo'llaniladi va shunga ko'ra boshqa og'ir kasallik bilan kasallangan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Kasallik tufayli jazoni o'tashdan ozod qilish shartli hisoblanadi. Jinoyat kodeksining **75-moddasi 3-qismiga** muvofiq, bunday shaxslar tuzalgandan keyin Jinoyat kodeksining 69-moddasida nazarda tutilgan jazoni ijro etish muddatlari o'tib ketmagan bo'lsa, jazo ijro etiladi. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlash bilan kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatida shaxsni jazoni o'tashdan ozod qilishda, jazoni ijro etish muddatini hisoblash majburlov choralari qo'llanilgan paytdan boshlanadi.

JK 75-moddasi 4-qismiga ko'ra, «Intizomiy qismga jo'natish yoxud xizmat bo'yicha cheklash jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchilar, ularning sog'lig'i harbiy xizmat uchun yaroqsiz deb topilgan bo'lsa, jazoni o'tashdan ozod qilinadilar. Xizmat bo'yicha cheklash jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchi ayollar ularga homiladorlik va tug'ish ta'tili berilishi munosabati bilan ham jazoni o'tashdan ozod qilinadilar».

Sharhlanayotgan moddaga muvofiq, harbiy xizmatchilar ularni harbiy xizmatga yaroqsiz deb topishga asos bo'luvchi kasallikka chalingan taqdirda jazodan ozod qilinishi mumkin. Harbiy xizmatchi ayollar homiladorlik va tug'ruq paytida xizmatdagi cheklashlar bilan jazoni o'tashdan ozod qilinadi. Bu holat faqat xizmat bo'yicha cheklash va intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazoni o'tovchi harbiy xizmatchilargagina taalluqlidir. Intizomiy qismning ixtisoslashtirilgan sharoitlarida harbiy majburiyatni bajarishi yoki jamiyatdan ajratilgan holatda qattiq jazoni ijro etishning imkoni bo'lmaganligi ularni jazoni o'tashdan ozod qilishning asosi bo'lib hisoblanadi. Ularni ijro etish mumkin emasligi harbiy xizmatchining butunlay harbiy xizmatga yaroqsiz deb tan olinishiga sabab bo'luvchi jiddiy kasallik bilan xarakterlanadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, tegishli harbiy tibbiy komissiyaning xulosasi harbiy xizmatchini harbiy xizmatga yaroqsiz deb topish uchun asos bo'ladi.

Ruhiy kasallikka yoki boshqa og'ir kasallikka chalingan shaxsni jazoni o'tashdan ozod qilishda ushbu holatlarni hisobga olish lozim. Jazoning

o'talmay qolgan qismini o'tashga to'sqinlik qilmaydigan yengilroq jazo bilan almashtirish kasallikning xususiyatidan kelib chiqqan holda mumkin bo'lsa, unda jazoning o'talmay qolgan qismi yengilrog'i bilan almashtirilishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddaning beshinchi qismiga muvofiq:

– Majburiy jamoat ishlari va axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslar jazoni o'tash vaqtida mehnatga yaroqsiz bo'lib qolsalar yoxud pensiya yoshiga yetgan bo'lsalar;

– ayollar shunday jazoni o'tayotgan vaqtda homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqsalar, jazoni o'tashdan ozod qilinadilar.

Ushbu moddaning sharhlanayotgan qismi sanab o'tilgan shaxslarni axloq tuzatish ishlari jazosini o'tashdan ozod qilishni ham nazarda tutadi. Ushbu asoslar Jinoyat kodeksining 46-moddasi 3-qismining holatidan ham kelib chiqadi.

9-§. Amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish

Davlat insonparvarligining ko'rinishi hisoblanuvchi amnistiya va afv etish, sud hukmining qonuniyligi va asoslilikini shubha ostiga qo'ymasdan, jinoyat sodir etgan shaxslar ahvolini yengillashtiradi.

(«**Amnistiya**» tushunchasi, shuningdek, uni qo'llash xususiyati mazkur tom IV bobining «Amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish» deb nomlanuvchi 7-§ da berilgan.)

Amnistiya akti, odatda, jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilishni o'zida mujassamlashtiradi. Odatda, aybdorlar jinoiy javobgarlik yoki jazodan ozod qilinishi kerak bo'lgan jinoyatlar ayrim doirasi ham mos keladi. Bunda, mazkur hujjatni qo'llashning protsessual xususiyatlarida farqni ko'rish mumkin. Shu asnoda, amnistiya asosida jazodan (to'liq yoki uning bir qismidan) ozod qilish ayblov hukmini chiqarish paytida ham, jazoni o'tash davrida ham amalga oshirilishi mumkin. Agarda shaxs sodir etgan jinoyati uchun hukm chiqarilmagan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

JK 76-moddasi 1-qismi qoidasiga muvofiq, «hukm etilgan shaxs amnistiya akti yoki afv etish asosida asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha

jazolardan ozod qilinishi yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi yoki unga tayinlangan jazoning o‘talmay qolgan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin».

«Birinchi, apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat instansiyasi sudi tomonidan amnistiya aktining jazo muddatini qisqartirishni nazarda tutuvchi bandini qo‘llash chog‘ida jazoning amnistiya akti chiqqan kunga qadar amalda o‘talgan muddati chegirib tashlangandan so‘ng qolgan qismi qisqartiriladi.

Amnistiya akti kassatsiya yoki nazorat instansiyasi sudi tomonidan qo‘llanilganda jazoning amnistiya akti chiqqan kunga qadar amalda o‘talgan vaqt chegirib tashlangandan so‘ng qolgan muddati qisqartiriladi.

Shartli hukm qilinganda amnistiya aktiga asosan jazo muddati qisqartirilib, so‘ngra JK 72-moddasi qo‘llaniladi.

Bir necha amnistiya akti qo‘llanilgan hollarda ilgari amnistiya akti qo‘llanilgandan keyin qolgan va keyingi amnistiya akti chiqqan kunga qadar o‘talmagan jazo muddati qisqartiriladi»¹.

Amnistiya munosabati bilan jazodan yoki uning bir qismidan ozod qilish shartsiz hisoblanadi.

Amnistiya aktiga muvofiq sudlanganlik ham olib tashlanishi mumkin.

JK 76-moddasi 1-qismi dispozitsiyasini tuzishda, qonun chiqaruvchi amnistiya akti asosida jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoning o‘talmagan qismini yengilrog‘i bilan almashtirish imkoniyatini ham nazarda tutgan. Bunday imkoniyat so‘nggi yillarda chiqqan ayrim amnistiya aktlarida nazarda tutilgan. Bunda, ushbu aktlarda faqat, mahkumga nisbatan amnistiya akti chiqqan kunga qadar qonunga muvofiq muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki tayinlangan jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishni qo‘llash mumkin bo‘lgan hollardagina u ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod qilinishi mumkinligi nazarda tutilgan².

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 22 декабрдаги «Судлар томонидан амнистия актларини қўллашнинг айрим масалалари тўғрисида»ги 16-сонли қарори, 23-банд.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1999 йил 30 апрелдаги «9 майни Хотира ва Қадрлаш куни деб эълон қилиниши муносабати билан амнистия тўғрисида»ги ПФ-2287-сон Фармони, 6-банд // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 4-сон, 98-модда. Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2000 йил 28 августдаги «Ўзбекистон Республикаси мустақиллиги эълон қилинганлигининг тўққиз йиллиги муносабати билан амнистия тўғрисида»ги ПФ-2707-сон Фармони, 6-банд // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 7-8-сон, 256-модда.

Qolgan amnistiya aktlarida bunday qoida ko'rsatilmagan edi, chunki muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoni almashtirish masalalari, amnistiya aktlarida ko'rsatilmagan holda jinoyat qonuni qoidalariga muvofiq (JK 73-, 74-moddalari) hal qilinishi lozim.

Amnistiya akti asosida jazodan ozod qilishni ijro etish jazoni ijro etish muassasasi boshlig'i, ichki ishlar organlari, intizomiy qism komandiri va alohida hollarda, jazodan ozod qilish to'g'risidagi materiallarni prokuror ishtirokida ko'rib chiquvchi sudga yuklatiladi.

Afv etish ham, amnistiya kabi, o'zining yuridik tabiatiga ko'ra sud hujjati hisoblanmaydi. Konstitutsiyaning 93-moddasi 1-qismi 23-bandiga muvofiq¹, uni amalga oshirish vakolati O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tegishli.

NOTA BENE !

Afv etish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining aniq-individual hujjati bo'lib, uning asosida jinoyat sodir etgan muayyan shaxs yoki shaxslarning muayyan guruhi sud tomonidan tayinlangan jazodan ozod qilinishi yoki jazo yengillashtirilishi yoxud boshqa turiga almashtirilishi mumkin.

Afv etish qo'llaniladigan shaxslar doirasiga ko'ra, shuningdek, yuridik tabiatiga ko'ra amnistiyadan farqlanadi. Agar amnistiya ko'pchilik

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақирик Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. (2002 йил 27 январда ўтказилган умумхалқ референдуми натижаларига кўра ҳамда унинг асосида Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 24 апрелда қабул қилинган Қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси XVIII, XIX, XX, XXIII бобларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 11 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига тузатишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 25 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 77-моддасининг биринчи қисмига ўзгартириш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 12 декабрда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 90-моддасининг иккинчи қисмига тузатиш киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 16 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 32, 78, 93, 98, 103 ва 117 моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 4-бандига, 81-моддасининг еттинчи қисмига, 83-моддасига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13 ва 14- бандларига, 107-моддасининг биринчи қисмига, 110-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларига, 111-моддасига ўзгартишлар ва қўшимча киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 31 майда қабул қилинган Қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 80-моддасининг 5 ва 12-бандларига, 93-моддаси биринчи қисмининг 13-бандига ҳамда 108, 109-моддаларига ўзгартишлар киритилган. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августда қабул қилинган қонуни билан Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 99 ва 10-моддаларига ўзгартишлар киритилган.) – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – б.

shaxslar guruhini jazodan ozod qilishga yo'naltirilsa, afv etish individual xarakter kasb etadi va Nizomda nazarda tutilgan muddatda va tartibda ruxsat etiladi. Amnistiya akti muayyan jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan jinoyat qonunini bekor qilmasdan, sud hukmining qarorlari asosli va qonuniyligini shubha ostiga olmasdan aybdorni jazodan yoki jinoiy javobgarlikdan ozod qiladi, jazoni yengil jazo bilan almashtiradi yoxud belgilangan muddatlarni qisqartiradi, shuningdek, jazoni o'taganlikning oqibati bo'lgan sudlanganlikni bekor qiladi, ya'ni amalda insonparvarlik prinsipining turli ko'rinishlarini nazarda tutadi. Qoida tariqasida afv etish, o'lim jazosini ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirishda, asosiy va qo'shimcha jazolarni o'tashdan to'liq yoki qisman ozod qilishda, shuningdek, jazoning o'talmay qolgan qismini yengilroq jazo bilan almashtirishda va sudlanganlikni olib tashlashda qo'llaniladi.

Afv etish amnistiya bilan farqli ravishda javobgarlikdan ozod qilishga qaratilmagan. Agar amnistiya gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va mahkumlarga nisbatan umumiy kechirishni qamrab olsa, afv etish esa muayyan bir mahkumni kechirish aktidir. Afv etishda mahkumning o'zi yoki boshqa shaxs afv etish to'g'risidagi iltimosnoma bilan murojaat qilishi mumkin. Afv etish to'g'risidagi iltimosnoma rad etilganda, shunday iltimosnoma bilan qayta murojaat qilish ham mumkin.

Afv etish har qanday shaxsga nisbatan, shu jumladan, o'ta og'ir jinoyat sodir etgan va umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxsga ham qo'llanilishi mumkin, amnistiya akti esa, odatda, bunday shaxslarga va jinoyatlarga joriy qilinmaydi. O'ta xavfli retsivistlar, oldin amnistiya akti yoki afv etish qo'llanilgan yoxud muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilingan yoki jazoning qolgan qismini yengilroq jazo bilan almashtirilgan shaxslar, agar ularning sudlanganlik muddati tugamasdan qasddan sodir etgan jinoyati uchun hukm qilingan, jazoni o'tash vaqtida tuzalish yo'lga o'tib olmagan, o'ta og'ir jinoyat sodir qilgan shaxslar alohida hollardagina afv etilishi mumkinligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 11 sentyabrdagi Farmoni bilan

«O‘zbekiston Respublikasida afv etishni amalga oshirish to‘g‘risidagi Nizom»da belgilab o‘tilgan.

Amnistiya akti gumonlanuvchi, ayblanuvchi va mahkumlarga nisbatan umumiy kechirish akti bo‘lsa, afv etish muayyan mahkumni kechirish aktidir. Amnistiya davlat tashabbusi bilan chiqarilsa, afv etishda mahkumning o‘zi, uning yaqin qarindoshlari yoki jazoni ijro etish muassasasining ma‘muriyati afv etish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan murojaat qilishlari mumkin. Afv etish to‘g‘risidagi materiallar dastlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi afv etish masalalari bo‘yicha Komissiya tomonidan ko‘rib chiqiladi. Bunda sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasi, mahkumning shaxsi, xulq-atvori, mehnatga munosabati, ozodlikdan mahrum qilish joylaridagi havaskorlik tashkilotlaridagi ishtiroki, jazoning o‘talgan muddati, zararning qoplangan miqdori va boshqa holatlar e‘tiborga olinadi. Jazoni ijro etish muassasasi ma‘muriyati, jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalarining fikri ham inobatga olinadi, moddiy zararni qoplashdan ozod qilish to‘g‘risidagi arizalar bo‘yicha esa zarar yetkazilgan tashkilot, tuman (shahar) hokimiyatining fikri va harbiy sudlar tomonidan hukm qilingan shaxslarning arizalari bo‘yicha – O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining fikri ham inobatga olinadi. Afv etish masalalari bo‘yicha Komissiya qanday qaror qabul qilganligidan qat’i nazar, qat’iy qaror O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, Komissiya qarori tavsiyaviy xususiyatga ega.

«Hukm e‘lon qilingandan so‘ng raislik etuvchi umrbod ozodlikdan mahrum qilish yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan mahkumga JPK 473-moddasi to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan afv to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan murojaat qilish huquqi va muddatlarini tushuntirishi shart bo‘lib, bu haqda sud majlisi bayonnomasida qayd etiladi»¹.

JK 76-moddasi 3 va 4-qismlariga muvofiq, «Afv etish to‘g‘risidagi iltimosnoma umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxs

¹ См.: Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 14 ноября 2007 г. № 15 «О некоторых вопросах применения наказания в виде пожизненного лишения свободы» // Постановления Пленума Верховного суда Республики Узбекистан. – С. 31.

tomonidan u tayinlangan jazoning yigirma besh yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin, agar jazoni o'tash davrida mahkum qat'iy tuzalish yo'liga o'tgan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan, mehnat va o'qishga nisbatan vijdonan munosabatda bo'layotgan, tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishda faol ishtirok etayotgan taqdirda esa, tayinlangan jazoning yigirma yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin berilishi mumkin.

Afv etish to'g'risidagi iltimosnoma uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxs tomonidan u tayinlangan jazo muddatining yigirma yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin, agar jazoni o'tash davrida mahkum qat'iy tuzalish yo'liga o'tgan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan, mehnat va o'qishga nisbatan vijdonan munosabatda bo'layotgan, tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishda faol ishtirok etayotgan taqdirda esa, tayinlangan jazoning o'n besh yilini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin berilishi mumkin».

Bunda sud tomonidan tayinlangan jazoning amalda o'talgan qismini haqiqatda o'talgan jazo deb hisoblash kerak.

Sud, afv etish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqishda, jazoni ijro etish muassasasining mahkumning shaxsi, jazoni o'tash vaqtidagi uning xulq-atvoriga tegishli bo'lgan taqdimnomasini inobatga oladi.

Afv etish to'g'risidagi iltimosnomaning rad etilishi bunday iltimosnoma bilan yana murojaat qilish mumkinligini istisno qilmaydi.

Afv etish akti – shaxs jazodan ozod qilinishi yoki jazo yengilrog'i bilan almashtirilishining shartsiz asosi hisoblanadi. Bunday holatlarda afv etish akti asosida jazodan ozod qilingan yoki jazosi yengilrog'i bilan almashtirilgan shaxsning huquqbuzarligi yoki yomon xulqi mazkur asosning yuridik kuchini tugatmaydi.

JK 76-moddasi 2-qismi yangi jinoyat sodir etganda jazoni hisoblash qoidasini ko'rsatadi. Mazkur qoidaga muvofiq, «Agar amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoxud jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilgan shaxs jazoning o'talmay qolgan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etsa, sud unga ushbu Kodeksning 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha

jazo tayinlaydi». Ya'ni, sodir etilgan yangi jinoyat uchun uzil-kesil jazo, yangi jinoyati uchun tayinlangan jazoga muddatidan ilgari shartli ozod qilingan jazoning o'talmagan qismini yoki almashtirilgan yengilroq jazoning o'talmagan qismini qo'shish orqali bir necha hukmlar bo'yicha tayinlanadi.

10-§. Sudlanganlik tushunchasi va uning jinoyat-huquqiy ahamiyati

Qonun sudlanganlikni faqat shaxsning sodir etgan jinoyati uchun **hukm qilinish** fakti bilan bog'laydi.

Shaxs JK Maxsus qismi moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha belgilari mavjud bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganlikda aybdor deb topilib, ayblov hukmi e'lon qilingandan so'ng sudlangan deb hisoblanadi. Ammo hukm qilinishning har qanday fakti ham sudlanganlikni keltirib chiqarmaydi. Hukm qilish aybdorga jazo tayinlashda ham, qonunda mavjud bo'lgan asoslarga ko'ra jazodan ozod qilishda ham mavjud bo'lishi mumkin. Sudlanganlikning kelib chiqishi esa jazoning muayyan turi va miqdorini tayinlagan holda ayblov hukmini chiqarish bilan bog'liq. Mazkur qoida JK 77-moddasi 2-qismida belgilangan: «Jazo tayinlangan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab shaxs sudlangan deb hisoblanadi. Sud tomonidan jazodan ozod qilingan shaxs sudlanmagan deb hisoblanadi».

JPKga muvofiq, hukm apellatsiya tartibida shikoyat berish va protest keltirish muddati o'tganidan keyin kuchga kiradi. Apellatsiya tartibida shikoyat yoki protest keltirilgan taqdirda hukm, basharti u bekor qilinmagan bo'lsa, yuqori turuvchi sud tomonidan ko'rib chiqilgan kundan kuchga kiradi (JPK 528-moddasi 1-qismi). Mahkumlar ikki va undan ortiq bo'lgan taqdirda, basharti, shulardan loaqal biriga nisbatan hukm ustidan shikoyat berilgan yoki protest bildirilgan bo'lsa, yuqori sud ishni ko'rib chiqquniga qadar mahkumlarning hammasiga nisbatan hukm qonuniy kuchga kirmay turadi (JPK 528-moddasi 2-qismi).

Shunday qilib, shaxs faqat jazoni o'tab bo'lganidan keyingina emas, balki uni ijro etish davomida ham sudlangan hisoblanadi va bu sud tomonidan inobatga olinishi lozim. Bunda, shaxsga nisbatan dastlabki

tergov vaqtida ham, hukm e'lon qilinganidan keyin ham shaxsga nisbatan tanlangan ehtiyot chorasining ahamiyati yo'q – ushbu vaqt davomida shaxs sudlangan deb topilishi mumkin emas.

Shaxsni jazodan ozod qilish, hatto jazo o'rniga unga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi yoxud, agarda mahkum voyaga yetmagan bo'lsa, tarbiyaviy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan hollarda ham, uning sudlanganligini keltirib chiqarmaydi.

NOTA BENE !

Sudlanganlik – bu shaxs uchun salbiy, birinchi navbatda, jinoyat-huquqiy xususiyatdagi oqibatlarining kelib chiqargan jazoning muayyan turi va miqdoriga hukm qilinishidan kelib chiqqan shaxsning alohida huquqiy holatidir.

JK 77-moddasi 3-qismida sudlanganlik jinoyat qonunida nazarda tutilgan va faqat shaxs tomonidan yangi jinoyat sodir etilgan hollardagina huquqiy ahamiyatga egaligi ko'rsatilgan.

Shaxsning sudlanganligi ham umumhuquqiy, ham jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega.

Jinoyat sodir etganlik uchun hukm qilingan shaxs huquqiy holatining **umumhuquqiy ahamiyati** uning O'zbekistonning jinoyat qonunini tashkil qilmaydigan normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlanishida va jinoyat-huquqiy ma'noda ahamiyatga ega bo'lmasligidadir.

Sudlanganlik, shaxs huquqiy maqomining tavsifi bo'lib, sudlanmagan shaxs bilan solishtirganda, sudlangan shaxsga huquqlarni cheklash bilan birga unga majburiyat ham yuklaydi va boshqa huquqiy bo'lmagan oqibatlarni keltirib chiqarmaydi. Sudlanganlik shaxs sodir etgan jinoyat uchun hukm qilinganligidan kelib chiqadigan huquqiy holatdir. Qonun sudlanganlikni faqat shaxsning sodir etgan jinoyati uchun hukm etilganligi bilan bog'lashni nazarda tutadi.

Shaxsni hukm qilish deganda, shaxsni qilmishida jinoyat tarkibining barcha elementlari mavjud bo'lgan aniq jinoyatni sodir etishda aybdor deb topish, shuningdek, bu shaxsga nisbatan muayyan turdagi va miqdordagi

jazoning tayinlanishi tushuniladi. Jazoning turi va miqdori shaxsni sudlangan deb topish va hisoblash uchun ahamiyatga ega emas, lekin bu sudlanganlikning tugallanishi yoki olib tashlanishiga ta'sir qiladi.

Shaxsning sudlanganligi umumhuquqiy va jinoyat-huquqiy ahamiyatga egadir. Jinoyat sodir etganlikda hukm qilingan shaxs huquqiy holatining umumhuquqiy ahamiyati uning O'zbekiston Respublikasi jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarini tashkil etmaydigan normativ-huquqiy aktlarida mustahkamlanganligi va ular jinoyat-huquqiy ma'noda ahamiyatga ega emasligi bilan tavsiflanadi. Xususan, sudlanganlikning umumhuquqiy ahamiyati shaxsning sudlanganligi uning rasmiy organlarga tugatilmagan yoki olib tashlanmagan sudlanganlik mavjudligi to'g'risida ma'lum qilish majburiyatida, ma'lum bir mansabni egallash yoki ayrim faoliyat bilan shug'ullanishdagi cheklovlarda namoyon bo'ladi (masalan, advokatlik faoliyatini amalga oshirishni cheklash¹). Bundan tashqari, sudlangan shaxslarga muayyan bir hududlarga borish va joylarda bo'lish taqiqlanishi mumkin².

Sharhlanayotgan moddaning ikkinchi qismi shaxsni sudlangan deb topishning boshlang'ich vaqtini hukm kuchga kirgandan keyingi vaqt deb belgilaydi. Jinoyat-protsessual qonunga muvofiq, hukm uning apellatsiya shikoyati berish yoki protest bildirish muddati o'tishi bilan qonuniy kuchga kiradi. Apellatsiya shikoyati berilgan yoki protest bildirilgan taqdirda hukm, agar u bekor qilinmagan bo'lsa, ishni yuqori sud ko'rib chiqqan kuni qonuniy kuchga kiradi. Masalan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kelishlari, O'zbekiston Respublikasidan ketishlari tartibi to'g'risida»gi 408-sonli qarorning 19-bandiga muvofiq, xorijiy fuqaroning O'zbekiston Respublikasiga kirishi,

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 27 декабрдаги «Адвокатура тўғрисида»ги 349–I-сон Қонуни, 3-модда 2-қисми // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 2-сон, 48-модда.

² Наприклад, иностранному гражданину может быть отказано во въезде в Республику Узбекистан при условии, если он имеет не погашенную и не снятую в установленном порядке судимость за нарушение законодательства Республики Узбекистан (Порядок въезда в Республику Узбекистан и выезда из Республики Узбекистан иностранных граждан и лиц без гражданства (Приложение № 1 к Постановлению Кабинета Министров Республики Узбекистан от 21 ноября 1996 г. № 408), п. «в» п.19) // Сборник постановлений Кабинета Министров Республики Узбекистан 1996 г. ноябрь; Собрание постановлений Правительства Республики Узбекистан, 1999 г., № 4, ст.20; 2000 г., № 10, ст. 68; 2001 г., № 4, ст. 21; Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2001 г., № 14, ст. 95; 2002 г., № 10, ст. 80; 2004 г., № 17, ст. 199; 2005 г., № 34-36, ст. 264)

basharti, shaxs O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ilgari jinoiy javobgarlikka tortilgan va undan sudlanganligi belgilangan tartibda olib tashlanmagan bo'lsa, rad etiladi. Shunday qilib, shaxs faqat jazoni o'tab bo'lgandan keyingina emas, uning ijro etilishi vaqtida ham sudlangan hisoblanadi, bu narsa sud tomonidan inobatga olinishi kerak. Bunda, dastlabki tergov jarayonida tayinlangan jinoyatning oldini olish choralari ahamiyatga ega emas, shuningdek, hukm e'lon qilingandan keyin bu vaqt davomida shaxs sudlangan deb tan olinishi mumkin emas.

Qonun ko'rsatmasiga muvofiq, jazodan ozod qilingan shaxs sudlangan deb e'tirof etilmaydi. Bunday paytda jazo tayinlanmasdan qabul qilingan ayblov hukmi, shuningdek, kuchga kirgan amnistiya akti bilan jazodan ozod qilingan yoki javobgarlikka tortish muddati o'tishi sharoitida shaxs sudlanmagan deb tan olinishi kerak. Shaxs, shartli hukm qilinishi munosabati bilan jazodan ozod qilinganda yoki jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinganda (JK 72-, 73-, 89-moddalari) u sinov muddati davomida sudlangan deb e'tirof etiladi. Hatto jazo bilan birga tarbiyaviy xarakterdagi majburlov choralari tayinlanganda ham shaxsni jazodan ozod qilish sudlanganlikni keltirib chiqarmaydi (JK 87-, 88-moddalari). Albatta, shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinganda, shuningdek, unga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilganda, u sudlangan deb tan olinishi mumkin emas.

Sharhlanayotgan moddaning uchinchi qismi, sudlanganlik ushbu kodeksda nazarda tutilgan hollarda shaxs yangi jinoyat sodir etganda ahamiyat kasb etishini belgilaydi. Bunda sudlanganlikning faqat jinoiy-huquqiy ahamiyati nazarda tutiladi. Sudlanganlikning jinoiy-huquqiy ahamiyati shaxsning oldingi jinoyat uchun sudlanganlik muddati o'tmasdan yoki qonunda belgilangan tartibda olib tashlanmasdan yangi jinoyat sodir etganidagina vujudga keladi. Sudlanganlikning umumhuquqiy oqibatlari kabi jinoiy-huquqiy oqibatlari ham jinoiy jazo samaradorligini oshirish va mahkumni tarbiyalashga qaratilgan choralarni mustahkamlash, shuningdek, avval sudlangan shaxslar tomonidan yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga qaratilgandir.

Sudlanganlikning jinoiy-huquqiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

- shaxsda sudlanganlik holatining mavjudligi xavfli va o‘ta xavfli retsdivist deb topilishiga ta’sir etadi (JK 34-moddasi);
- shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga to‘sqinlik qiladi;
- qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta’sir ko‘rsatadi (JK 140-moddasi);
- jazo tayinlashda og‘irlashtiruvchi holat sifatida e’tirof etiladi;
- sudlanganlik ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlashda jazoni ijro etish muassasasi turini aniqlashga ta’sir qiladi (JK 50-moddasi);
- alohida tartibda jazo tayinlanishiga sabab bo‘ladi.

Sudlanganlikning jinoiy-huquqiy ahamiyati shaxs yangi jinoyat sodir etganda vujudga keladi. Boshqacha aytganda, shaxsning sudlanganligi sud tomonidan, u sudlangan deb topilgan davrda, ya’ni hukm qonuniy kuchga kirgan vaqtdan uning tugatilishi yoki olib tashlangungacha bo‘lgan davrdan keyin jinoyat sodir etgan hollarda hisobga olinadi. Sudlanganlik boshlanguniga qadar yoki u tugagandan keyin jinoyat sodir etish hech qanday jinoiy-huquqiy oqibat keltirib chiqarmaydi.

Sharhlanayotgan moddaning to‘rtinchi qismi sudlanganlikning oxirgi muddati tugatilishi yoki olib tashlanishini umumiy asoslarda aniqlaydi. Sudlanganlik holati tugallanganda, shaxs sudlanmagan deb hisoblanadi. Sudlanganlik holatining tugallanishi, shaxsning yangi jinoyat sodir etishi bilan uziladi. Bunday holda sudlanganlikning birinchi jinoyat bo‘yicha tugallanish muddati aybdorning oxirgi jinoyat uchun jazoni haqiqiy o‘tab bo‘lganidan so‘ng hisobga olinadi. Sudlanganlik holati tugallanishi bilan uning barcha huquqiy oqibatlari bekor bo‘ladi va shaxs yangi jinoyat sodir etgan taqdirda, uning jinoiy javobgarligini og‘irlashtiruvchi holat deb hisoblanmaydi.

Jinoyat kodeksining 77-moddasi, beshinchi qismi jazoni o‘tagan, ammo qonunning o‘zgarishi bilan bunday qilmish jinoyat deb hisoblanmay qolgan taqdirda, shuningdek, sodir qilingan jinoyat uchun tayinlangan jazoni o‘tab bo‘linishi bilan sudlanganlik holatining tugallanishi belgilangan bo‘lsa, shaxs sudlanmagan deb hisoblanishini belgilaydi.

11-§. Sudlanganlik holatining tugallanishi va uning olib tashlanishi

NOTA BENE !

Sudlanganlik holatining tugallanishi deganda, muayyan muddatlarning o'tishi bilan mazkur masalaga oid sudning maxsus qarori qabul qilinmasdan barcha huquqiy oqibatlar va cheklanishlarning tugallanishi tushuniladi.

Sudlanganlik holatining bekor bo'lishini tasdiqlash uchun qandaydir maxsus hujjatlar talab qilinmaydi.

Shaxsning sudlanganlik holati quyidagi paytlarda tugallanadi:

a) shartli hukm qilinganlarga nisbatan – sinov muddati tugagan kundan boshlab;

b) majburiy jamoat ishlari, xizmat bo'yicha cheklash yoki intizomiy qismga jo'natish tarzidagi jazolarini o'tab chiqqach;

v) jarima jazosi ijro etilgan kundan keyin, shuningdek muayyan huquqdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazolari o'talganidan keyin bir yil o'tgach;

g) ozodlikni cheklash jazosi o'talganidan keyin – ikki yil o'tgach;

d) besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin – to'rt yil o'tgach;

e) besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin – yetti yil o'tgach;

j) o'n yildan ortiq, lekin o'n besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin – o'n yil o'tgach.

Shaxs sudlanganlik muddati o'tmasidan yangi jinoyat sodir qilsa, bu muddatning o'tishi uziladi. Ilgari sudlangan shaxs tomonidan yangi jinoyat sodir etilganda sudlanganlikning tugatilganligi masalasi sharhlanayotgan modda va Jinoyat kodeksining 80-moddasida ko'rsatilgan qoidalar asosida sud-tergov organlari tomonidan hal qilinadi.

Ushbu modda qoidalariga muvofiq, sudlanganlikning tugatilishi, sudlanganlik huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan tegishli muddatlarning

o'tishiga bog'liq bo'ladi. Ushbu muddatlarning davomiyligi tayinlangan jazo, uning turi, hajmi va shartli yoki shartli emasligiga bog'liq bo'ladi.

Shaxs shartli hukm qilinganda, sudlanganlik muddati bir yildan uch yilgacha bo'lgan sinov muddati o'tganidan so'ng tugallangan hisoblanadi. Agar shartli hukm qilingan shaxsga nisbatan qo'shimcha jazo chorasi qo'llanilgan bo'lsa, bu muddat sudlanganlik muddatidan ko'p bo'lsa, sudlanganlik qo'shimcha jazo muddati tugagach, tamom bo'lgan hisoblanadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, sudlanganlik muddatining tugashini hisoblashda, sudlangan shaxsning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra, ijro etilmagan muddat hamda ijroning to'xtaganlik muddati ham inobatga olinadi. Bunday holda sud ayblov hukmining ijro etish muddatiga ham e'tibor berishi kerak. Chunki shaxsning amalda jazoni o'tamaganligi va muddatning o'tishi shaxs sudlangan deb hisoblanishining oldini oladi.

O'n besh yil va undan ortiq muddatga hukm qilingan shaxs ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqanidan so'ng, shuningdek, o'ta xavfli retsidivist deb topilgan shaxslarga nisbatan sudlanganlik holati tugallanmaydi. Ularga nisbatan sudlanganlik muddati Jinoyat kodeksining **79-moddasi 2-qismiga** ko'ra olib tashlanishi mumkin.

NOTA BENE !

Sudlanganlikning olib tashlanishi – bu qonunda ko'rsatilgan sudlanganlikning tugallanishi muddati o'tmasdan bekor qilinishidir.

Sudlanganlikning olib tashlanishi, sud tomonidan uning ajrimi asosida yoxud tegishli afv etish yoki amnistiya akti asosida amalga oshiriladi. Bunda shuni inobatga olish kerakki, faqat ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarga nisbatan sudlanganlik olib tashlanishi mumkin. Jinoyat kodeksining 13-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Ushbu moddaning birinchi qismi o'n besh yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarga nisbatan sudlanganlikning muddatidan ilgari tugatilishi masalasini hal etadi. Qonunga ko'ra, yuqorida

ko'rsatilgan shaxslarga nisbatan muddatidan ilgari sudlanganlikning tugatilishi, faqat shaxsga nisbatan jazoni o'tab bo'lgach, ma'muriy yoki intizomiy ta'sir chorasi qo'llanilmaganligi sharti bilangina yo'l qo'yiladi. Bunda ko'rsatilgan choralarni qo'llash asosi ahamiyatsizdir, ular mavjudligining o'zi sudlanganlikni olib tashlashga to'sqinlik qiladi. Shu bilan birga, mazkur choralarni tayinlashda, sud, ular o'tgandan keyin shaxsga ma'muriy jazo yoki ta'sir choralari qo'llanilgan deb hisoblanmaydigan muddatlardan kelib chiqishi kerak. Shuni e'tiborda tutish kerakki, sudlanganlikning muddatidan ilgari tugatilishi, faqat Jinoyat kodeksining 78-moddasida ko'rsatilgan muddatning kamida yarmi o'talgandan so'ng qo'llanilishi mumkin. Qonunning mazkur talabi imperativ xarakterga ega va u so'zsiz bajarilishi kerak.

Sudlanganlikni olib tashlash to'g'risidagi masala sudya tomonidan jazoni o'tab bo'lgan shaxsning, uning himoyachisi yoki qonuniy vakilining yoxud jamoat birlashmasi yoki jamoaning iltimosnomasiga asosan ko'rib chiqiladi.

Sudlanganlikni olib tashlash to'g'risidagi iltimosnoma ko'rib chiqilayotganda iltimosnoma kim haqida berilgan bo'lsa, shu shaxsning sud majlisida qatnashishi shart bo'ladi. U himoyaga olish huquqi bilan ta'minlanadi. Sudlanganlikni olib tashlash rad etilsa, sudyaga bu masalaga doir qayta iltimosnoma rad etilgani haqida ajrim chiqqan kundan boshlab kamida bir yil o'tgandan keyin kiritilishi mumkin.

Sharhlanayotgan moddaning ikkinchi qismida o'n besh yil va undan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqanlar hamda o'ta xavfli retsivistlarning sudlanganligini olib tashlash masalasi bayon etilgan. O'n besh yil va undan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tagan shaxslar deganda, uzluksiz bir yoki bir necha jinoyatlar (ulardan loaqal bittasi og'ir jinoyat bo'lsa) sodir etgan shaxslar tushuniladi.

Ushbu toifa shaxslarga nisbatan sudlanganlikni olib tashlash masalasini muhokama qilish uchun ikki asos bo'lishi lozim. Bular:

- jazoni o'tagandan so'ng o'n besh yillik muddatning o'tishi;
- shu muddat ichida yangi jinoyat sodir etmaslik.

Shuni ham e'tiborga olish kerakki, o'ta xavfli retsivist deb topilgan shaxsning sudlanganligi ushbu moddada ko'rsatilgan tartibda, o'talغان jazo muddati, barcha jazolarning muddatidan qat'i nazar, olib tashlanishi kerak.

JK 79-moddasi 3-qismi qoidalarida qilmishning jinoiyiligini bekor qiladigan, jazoni yengillashtiradigan yoki shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yaxshilaydigan qonun orqaga qaytish kuchiga ega bo'lib, ushbu qonun kuchga kiringunga qadar, tegishli jinoiy qilmish sodir etgan shaxslarga, shu jumladan, jazoni o'tayotgan yoki o'tab bo'lgan shaxslarning, agar ular hali sudlangan hisoblanishsa, sudlanganligi olib tashlanishi mumkinligi o'rnatilgan.

Sudlanganlikning olib tashlanishi sud tomonidan ajrim chiqarish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ushbu moddaning to'rtinchi qismiga muvofiq, sudlanganlik amnistiya akti yoki afv etish asosida olib tashlanishi mumkin.

JK 80-moddasi 2-qismiga ko'ra, shaxs tayinlangan jazodan muddatidan ilgari ozod etilganda yoxud jazo yengilrog'i bilan almashtirilganda, sudlanganlik muddati, muddatidan ilgari ozod qilingan yoki yengilrog'i bilan almashtirilgan jazoning amalda o'tab bo'lingan qismidan hisoblanadi. Qonunda ko'rsatilishiga muvofiq bunday holatlarda, sudlanganlik holatining tugallanishi, shaxsni muddatidan ilgari ozod qilingan yoki yengilrog'i bilan almashtirgunga qadar bo'lgan davrda amalda jazoni o'tash muddatidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Jazoni amalda o'tash deb, muddatidan ilgari ozod etilganda, sud hukmiga asosan belgilangan jazoning o'talغان qismi tan olinishi lozim. Masalan, agar shaxs olti yilga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa, ammo JK 73-moddasiga binoan to'rt yildan so'ng muddatidan ilgari ozod etilsa, unda sudlanganlik muddati jazo o'talغان vaqtdan kelib chiqib, ya'ni to'rt yil deb belgilanadi. Agarda, shaxsga jazodan ozod qilish tartibida JK 74-moddasiga asosan boshqa yengilroq jazo bilan almashtirilganda, jazoni amalda o'tash muddati, birlamchi o'talغان jazo muddatini va yengilroq jazo muddatini qo'shish bilan hisoblanadi. Bunday vaziyatda turli xildagi

jazolarni qo‘shishda JK 61-moddasida nazarda tutilgan qoidalaridan kelib chiqish lozim.

JK 80-moddasi 3-qismi birlamchi belgilangan jazo uni bajarishdan bosh tortganligi uchun o‘zgartirilgan vaziyatlarda, jazo o‘tash yoki sudlanganlikni olib tashlashni aniqlash qoidalarini belgilaydi. Bunday vaziyatlarda, birlamchi jazoni JK 44- va 46-moddalarida ko‘rsatilganidek yengilrog‘iga almashtirishni taqozo etadi. Bunday vaziyatda o‘tash muddati yoki sudlanganlikni olib tashlash amaldagi jazo o‘tash yoki jazoning bajarilishidan kelib chiqib, bir-biridan mustaqil ravishda sudlanganlik muddatini mos ravishda ajratish orqali muddatni hisoblash lozim bo‘ladi. O‘tash muddati yoki sudlanganlikni olib tashlash alohida, birlamchi tayinlangan jazodan va bajarilmagan, birlamchisi o‘rniga tayinlangan jazodan kelib chiqib aniqlangan bo‘lishi lozim. Agar jazoni o‘tab chiqqan shaxs sudlanganlik holatining muddati tugamay yana jinoyat sodir etsa, sudlanganlik holatini tugatuvchi muddatning o‘tishi to‘xtatiladi. Ilgari sodir etilgan jinoyat uchun sudlanganlik holatining tugash muddati oxirgi sodir etilgan jinoyat uchun (asosiy va qo‘shimcha) jazoni amalda o‘tab bo‘lganidan boshlab hisoblanadi (JK 80-moddasi 4-qismi). Aniqroq qilib aytsak, shaxs yangi jinoyat uchun jazoni o‘tab kelganidan so‘ng, parallel ravishda ham birinchi jinoyat uchun, ham yangi jinoyat uchun sudlanganlik holatini tugatish muddati o‘tadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, shaxs sodir etgan bir necha jinoyat uchun hukm qilingan vaziyatda, sudlanganlik holatining tugash muddati har bir jinoyat uchun alohida emas, balki hamma jinoyatlar uchun tayinlangan jazodan kelib chiqib hisoblanadi.

«Jazodan ozod qilish. Sudlanganlik» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar

1. Jazodan ozod qilish institutining yuridik tabiati qanday?
2. Jazodan ozod qilishdan jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning farqi nimada?

3. Jazodan ozod qilishning qanday turlari mavjud? Ularning qaysilari shartli, qaysilari shartli emas, qaysinisi huquqiy, qaysinisi sud majburiyati hisoblanadi?

4. Jazoni ijro etish muddati o'tganligi deganda nima tushuniladi? Qanday belgilariga qarab jazoni ijro etish muddati o'tganligi aniqlanadi? Jinoyatning qanday turlariga bu muddatlar tatbiq etilmaydi?

5. Qanday vaziyatlarda muddat o'tganlik davri uziladi? Bir umrga ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarga ijro etish muddatining o'tganligini qo'llash to'g'risidagi masala qanday tarzda yechiladi?

6. Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganligi munosabati bilan jazodan ozod qilishning asoslari qanday?

7. Chin ko'ngildan pushaymon bo'lganlik bilan ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganlikning farqi nimada? Birgalikda jinoyat sodir qilgan shaxsning chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi munosabati bilan ozod qilishning asoslari qanday?

8. Shartli hukm qilishning mazmuni nimada? Uni qo'llashning asoslari qanday?

9. Qanday vaziyatlarda shartli hukm qilish qo'llanmaydi?

10. Muddatidan ilgari ozod etish o'zida nimani ifodalaydi? Uni qo'llashning asoslari qanday? Shartli hukm qilishning muddatidan ilgari ozod qilishdan farqi nimada?

11. Muddatidan ilgari ozod qilish bilan yengilrog'i bilan almashtirilgan jazoni o'tashning o'xshashligi nimada?

12. Kasallik bo'yicha yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi oqibatida jazodan ozod qilishning jinoiy-huquqiy ahamiyati nimada? JK 75-moddasi mazmunida kasallik ostida nimani tushunish lozim (kasallik bo'yicha yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi oqibatida jazodan ozod qilish)?

13. Afv etishning amnistiya bilan farqi nimada?

14. Amnistiya va afv aktlarini qo'llash xususiyatlari.

15. Sudlanganlik nima?

16. Sudlanganlikning umumhuquqiy va jinoiy-huquqiy oqibatlari deganda nima tushuniladi?

17. Qaysi vaqtdan boshlab shaxs sudlangan hisoblanadi? Sudlanganlikni o'tash va sudlanganlikni tugatish asoslari qanday?

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanma, maxsus adabiyotlar

Дуюнов В.К. Освобождение от уголовной ответственности и уголовного наказания / Под ред. проф. Р.Л. Хачатурова. –Тольятти: 2001. –171 Б.

Минязева Т.Ф. Правовое положение осужденных. – М.: 2000. – 212 Б.

Мирзажанов К. Амнистия и помилование как принцип гуманизма в уголовной политике. – Т.: ИИВ Академияси, 1995. – 110 Б.

Музеник А.К., Уткин В.А., Филимонов О.В. Условное осуждение и отсрочка исполнения приговора. – Томск: 1990. – 173 Б.

Ilmiy maqolalar

Вырастайкин В. Условно-досрочное освобождение // Ж. Законность. 2006. № 2. – 31-б.

Иногамова-Хегай Л.В. Конкуренция норм об освобождении от наказания // Ж. Государство и право. 2000. № 2.

Кондалов А.Н. Условное осуждение и механизмы его обеспечения // Ж. Государство и право. 1999. № 7.

Кукушкин П., Курченко В. Условно-досрочное освобождение от отбывания наказания // Ж. Законность. 2006. № 6. – 2-б.

Курляндский М. Замена неотбытой части наказания более мягким видом наказания // Ж. Законность. 2007. № 7. – 50 Б.

Михлин А.С. Судимость: уголовно-правовая и уголовно-исполнительные характеристики // Криминологический журнал. 2001. № 1. – 42–47-б.

Питецкий В. Судимость в уголовном праве // Ж. Законность. – 2006. № 4. – 50-б.

Тўлаганова Г.З. Судланганлик ҳолати // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – 2017. №3. – Б.21-26.

Тўлаганова Г.З. Судланганлик ҳолатини олиб ташлашдаги айрим масалалар хусусида // Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана. – 2017. №2. – Б.47–52.

Щерба Д. Общественная опасность личности как основания условно-досрочного освобождения от отбывания наказания // Ж. Закон и право. 2006. № 12. – 42-б.

VI BOB. VOYAGA YETMAGANLAR JAVOBGARLIGINING XUSUSIYATLARI

1-§. Voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikka tortish va ularga jazo tayinlash xususiyatlari

«Bola, u jismoniy va aqliy jihatdan kamolatga yetmaganligi tufayli, maxsus ravishda muhofaza va g'amxo'rlikka, binobarin, tug'ilguncha va tug'ilgandan keyin ham munosib darajada huquqiy himoyaga muhtoj»¹. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada mustahkamlangan, ushbu xalqaro huquqiy qoida vatanimiz qonun ijodkorlari tomonidan mutanosib ravishda qabul qilinib, aytish mumkinki, 1994 yil Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikka tortish va jazoni individuallashtirish va differentsiallashtirish xalqaro huquq asoslari sifatida yoritilgan.

Shu munosabat bilan ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, 1994 yilda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini ishlab chiqishda, voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlarini belgilovchi maxsus normalarni bir bo'limda – JK Umumiy qismi oltinchi bo'limida jamlash to'g'risida mutlaq asoslangan qonunchilik qarori qabul qilindi. Mazkur bo'limga ikki bob (XV va XVI) kiritildi. Bu o'z navbatida, eng avvalo, voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligi va jazo masalalari bilan bog'liq barcha normalarni tizimlash, shuningdek, voyaga yetmaganlarning nisbatan fuqaroviy, jismoniy va ma'naviy kamolga yetmaganligini hisobga olgan holda ularga javobgarlikni yuklash va jazoni qo'llashning yanada insonparvar prinsiplari va shartlarini umumlashtirish imkonini berdi.

«**Jazo va uni tayinlash**» deb nomlangan XV bob voyaga yetmaganlarga qo'llaniladigan jazo tizimi va turlarini (81–85-moddalar), voyaga yetmaganlarga jazo tayinlash tartiblarini (86-modda) tavsiflovchi umumiy qoidalarni ifodalaydi, «**Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish**» deb nomlangan XVI bob esa voyaga yetmaganlarni javobgarlikdan va

¹ См.: Конвенция о правах ребенка (Принята и открыта для подписания, ратификации и присоединения Резолюцией № 44/25 Генеральной Ассамблеи ООН 20 ноября 1989 г., вступила в силу 2 сентября 1990 г., Республика Узбекистан присоединилась в соответствии с Постановлением Олий Мажлиса Республики Узбекистан от 9 декабря 1992 г. № 757-XII, вступление в силу для Республики Узбекистан с 29 июля 1994 г.), преамбула.

jazodan ozod qilish shartlarini tarbiyaviy ta'sirning majburiy choralari qo'llash va bu choralar tavsifi bilan (87–88-moddalar), jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish asoslarini (89-modda) va jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo turlariga almashtirishni (90-modda) ifodalaydi.

Jinoiy javobgarlik va jazoning u yoki bu masalasi (masalan, javobgarlikka tortish va jazo o'tash, sudlanganlikni o'tash va sudlanganlikni olib tashlash muddati o'tganligi va h.k.) ko'rsatilgan boblarda tartibga solinmagan bo'lsa, u holda, jinoyat sodir etgan barcha shaxslarga tegishli bo'lgan jinoiy javobgarlik va jazoning umumiy shartlarini nazarda tutuvchi JK Umumiy qismining tegishli qoidalariga rioya qilish lozim. Bunda, JK 17-moddasi 5-qismiga binoan: «o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar jinoyat sodir etgan shaxslar umumiy qoidalarga muvofiq va ushbu Kodeksning Umumiy qismi oltinchi bo'limida nazarda tutilgan xususiyatlar hisobga olingan holda javobgarlikka tortiladilar».

Shunday qilib, amaldagi JK Umumiy qismi oltinchi bo'limi odillik, insonparvarlik va ayb uchun javobgarlik prinsiplari rivojlanishining ma'lum jihatlari o'zida mujassam qildi. Bu, qisman, voyaga yetmaganlarga qo'llaniladigan ayrim jazo turlarini, alohida tizimini va yengillashtirishni o'rnatishda namoyon bo'ladi (masalan, voyaga yetmaganning yoshiga nisbatan va sodir etgan qilmishi ijtimoiy xavflilik darajasiga bog'liq ravishda differentsiyalash yo'li bilan ozodlikdan mahrum etish ko'rinishidagi jazo muddatlari kamaytirildi – 85-modda); 1994 yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksida birinchi bor voyaga yetmaganga jazo tayinlashda uning rivojlanish darajasi, hayotiy va tarbiyaviy sharoitlari, sog'lig'ining holati hamda kattalarning va uning shaxsiga ta'sir etuvchi boshqa holatlarni hisobga olish to'g'risida ko'rsatildi (JK 86-moddasi 1-qismi); hukmlar yig'indisi bo'yicha voyaga yetmaganlarni ozodlikdan mahrum etish muddatining mumkin bo'lgan eng ko'p chegarasi pasaytirildi (86-modda 2-,3-,4-qismlari); birinchi marta muqobillik asosida voyaga yetmagan jinoyatchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning majburlor choralari qo'llash imkoniyati nazarda tutildi (87-modda 2, 3-qismi va 88-modda) hamda voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha

idoralararo komissiyaning ko'rib chiqishiga materiallarni berib, javobgarlikdan ozod qilish imkoniyatiga yo'l qo'yiladi (87-modda 1-qism); muddatidan ilgari ozod qilishning yengilroq asoslari reglament qilindi va jazoni yengilroq jazoga almashtirish (89-, 90-moddalar) huquqiy jihatdan tartibga solindi.

Ta'kidlash joizki, qonunda Umumiy qismning maxsus nazarda tutilgan oltinchi bo'limidan tashqari, voyaga yetmaganlarni javobgarlikka tortish va jazo JK Umumiy qismining ayrim boshqa holatlarida ham yoritilgan. Masalan, JK 17-moddasi 4-qismi o'n sakkiz yoshga yetmaganlar sodir etganlari uchun javobgarlikka tortilmaydigan qator jinoyatlarni aniqlash imkonini beradi (qisman, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlaganligi uchun – JK 122-moddasi, ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlaganligi uchun JK 123-moddasi, nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun – 125¹-moddasi, voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatga jalb qilganlik uchun JK 127-moddasi, fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun JK 144-moddasi va boshqalar). o'z navbatida, JK 17-moddasi 2, 3-qismlari ayrim jinoyat turlariga nisbatan va ma'lum yoshga yetganligiga qarab (13, 14 va 16) voyaga yetmaganlar javobgarligi chegaralarini differensiyalaydi.

Shunday qilib, JK holatlariga muvofiq, jinoiy javobgarlikka tortish uchun voyaga yetmagan shaxslar deb, faqat jinoyat sodir etilgunga qadar 13 yoshga to'lgan, ammo 18 yoshga to'lmagan shaxslar nazarda tutiladi. Yoshlarning konkret miqdori (13, 14, 15, 16, 17 dan 18 yoshgacha), qaysi yoshdaligi ahamiyatga ega emas, ammo jazoni individuallashtirish jarayonida sud tomonidan hisobga olinishi lozim, ya'ni yoshroqlariga yengilroq jazoni, yoshi kattaroqlariga og'irroq jazoni qo'llash lozim. Har qanday vaziyatda, jazo tayinlash vaqtida, sud voyaga yetmagan shaxslarga qo'llaniladigan jazo turlari to'g'risidagi moddaning talablari bilan bog'langan.

Shuni ham belgilab qo'yamizki, shaxsning yoshini aniqlashda sud-tergov idoralari, shaxsning ma'lum yoshga yetganini aniqlashda «tug'ilgan kuni emas, balki shu kun to'g'ri kelgan sutka o'tganidan keyin, ya'ni

keyingi sutkaning «0» soatidan boshlab» hisoblashlari lozim. Shaxsning yoshi tegishli hujjatlarga qarab emas (pasport, tugʻilganlik toʻgʻrisidagi guvohnoma va boshqalar), balki sud-tibbiy ekspertiza xulosasiga asosan aniqlangan vaziyatlarda, uning tugʻilgan kuni qilib, ekspertlar tomonidan aytilgan yilning oxirgi kuni hisoblanadi, eng kam va eng koʻp yosh miqdorlari bilan yoshni aniqlashda, bunday shaxsni sud ekspertlari taxmin qilgan eng kam yoshdan aniqlaydi¹.

JK 34-moddasi 6-qismida «shaxsni oʻta xavfli retsivist deb topish toʻgʻrisidagi masala hal qilinayotgan vaqtda uning oʻn sakkiz yoshga toʻlgunga qadar sodir etgan jinoyati uchun sudlanganligi, shuningdek, qonunda belgilangan tartibda sudlanganlik muhlatlarining oʻtib ketganligi yoki olib tashlangan sudlanganligi inobatga olinmaydi». Shu bilan qonun chiqaruvchi voyaga yetmagan yoshda sodir etilgan jinoyatlar uchun oʻziga xos «imtiyozlar» oʻrnatilganligini belgilagan.

JK 51-moddasi 3-qismi koʻrilayotgan toifadagi shaxslar uchun maxsus jazo tizimini belgilovchi JK 81-moddasi 1-qismi holatini tasdiqlash uchun taʼkidlaydiki: oʻn sakkiz yoshga toʻlmaganlarga sodir etgan jinoyati uchun umrbod ozodlikdan mahrum etish koʻrinishidagi jazo tayinlanishi mumkin emas. Shunga oʻxshash holat **JK 50-moddasi 4-qismida** uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etishni qoʻllashni taqiqlaydi.

JK 55-moddasi 1-qismi «j» bandiga muvofiq, voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishi jinoyatni yengillashtiruvchi holat deb topiladi.

Axloq tuzatish ishlariga yoki ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan voyaga yetmaganlarga **JK 72-moddasi 7-qismi** qoidalari boʻyicha shartli hukm qilish cheklovlarisiz, yaʼni hatto oʻta xavfli jinoyat sodir etilganda ham yoki avval qasddan qilingan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish koʻrinishidagi jazoga hukm qilishda ham qoʻllanishi mumkin.

Taʼkidlab oʻtish zarurki, voyaga yetmagan jinoyatchilar uchun barcha yengilliklar ularning ijtimoiy, psixofiziologik va aqliy yetuk emasliklarini,

¹ См.: Постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 15 сентября 2000 г. № 21 «О судебной практике по делам о преступлениях несовершеннолетних» (с изменениями и дополнениями, внесенными постановлениями Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 14 июня 2002 г. № 10 и 3 февраля 2006 г. № 5) // Сборник, Т.2. – С. 300.

jamiyatda o'zini tutish yo'llarini tanlash imkoniyati cheklanganligini hisobga olib belgilangan.

2-§. Jazo tizimi va turlari

Jinoiy qonun (**JK 81-moddasi**) faqat voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan jazoning maxsus turlarini o'rnatmaydi, faqat JK 43-moddasida voyaga yetmaganlar uchun belgilangan jazo tizimida nazarda tutilgan alohida jazo turlarini qo'llanishini cheklaydi, xolos.

JK 81-moddasi 1-qismiga muvofiq, voyaga yetmaganlar uchun jazo tizimi asosiy jazolarning faqat beshta turini nazarda tutadi:

- jarima;
- majburiy jamoat ishlari;
- axloq tuzatish ishlari;
- (qamoq jazosi O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 martdagi O'RQ-421-sonli asosan chiqarilgan - O'R QHT, 2017 y., 13-son, 194-modda);
 - ozodliki cheklash
 - ozodlikdan mahrum qilish.

JK 81-moddasi 2-qismida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilganiga muvofiq, o'n sakkiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'shimcha jazolar tayinlanishi mumkin emas. Voyaga yetmagan sudlanganlarga qo'shimcha jazo tarzidagi davlat majburlov choralarini tayinlash hukmni bekor qilinishiga sabab bo'luvchi jinoyat qonunini qo'pol buzilishi sifatida tan olinadi.

(«Asosiy va qo'shimcha jazo» tushunchalari to'g'risida kengroq ushbu tom II bobining «Jazo tizimi, turlari va ularning tasnifi» deb nomlangan 1-§ ga qarang.)

Voyaga yetmagan shaxslar uchun jazo tizimi JK 43-moddasida belgilangan barcha xususiyatlarga ega:

- davlat majburlov choralarining alohida turlaridan tashkil topgan;
- jazo tizimi elementlari o'zaro bog'langan, o'zaro tobe va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi;

– **JK 81-moddasida** sanab o‘tilgan davlat majburlov choralari tugallangan yakunga ega va kengaytirilgan tarzda sharhlanishi mumkin emas. Shuning uchun voyaga yetmaganlarga jazoning qandaydir boshqa turlari, hatto qonunda nazarda tutilgan bo‘lsa ham (JK 43-moddasi), ammo **JK 81-moddasida** to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilmagan bo‘lsa qo‘llanishi mumkin emas;

– ushbu jazolar tizimda yengilidan og‘iriga qarab joylashtirilgan.

(Jazo tizimi xususiyatlari haqida kengroq ushbu tom II bobining «Jazo tizimi, turlari va ularning tasnifi» deb nomlangan 1-§ ga qarang.)

Jarima JK 81-moddasida nazarda tutilgan jazo turlarining eng yengilidir.

(Ushbu jazo turi tushunchasi to‘g‘risida ushbu tom II bobining «Jarima» deb nomlangan 2-§ ga qarang.)

Voyaga yetmagan shaxslarga qo‘llaniladigan davlat majburlov chorasi sifatidagi jarimaning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, uning hukm qilinganga ta‘sir etuvchi yetarli potensial ta‘sirga egaligi, jazo maqsadiga erishish bilan bir vaqtda, jinoyat qonuni prinsiplariga to‘la mos keluvchi insoniyligi hisoblanadi.

Jarimani jazo sifatida tayinlashda sud, har bir jinoiy jazo, jumladan, voyaga yetmagan shaxslarga qo‘llaniladigani ham, shaxsiy tavsifga ega ekanligi holatini alohida hisobga olishni taqozo etadi, ya‘ni aynan jinoyat sodir etganligi munosabati bilan bu jazo tayinlangan shaxs uni o‘tashi lozim. Shuning uchun voyaga yetmaganlarga jarima tayinlash faqat uni ijro etish uchun xususiy mablag‘lariga ega bo‘lgan vaziyatlardagina yo‘l qo‘yiladi. Xususiy mablag‘lari sifatida voyaga yetmaganning mulkchilik huquqi bo‘yicha ega bo‘lgan, unga undiruv qaratilishi mumkin bo‘lgan mol-mulkni yoki mustaqil daromad manbaini tushunish lozim.

O‘n sakkiz yoshga yetmagan shaxslarda xususiy mablag‘larning yo‘qligi jarima tayinlash uchun to‘siq bo‘ladi. Voyaga yetmagan shaxsga tayinlangan jarimani boshqa shaxslar mulki hisobiga to‘lanishi hech qanday vaziyatda yo‘l qo‘yilmaydi. Bunda xususiy mablag‘larning mavjudligi hukm e‘lon qilingan vaqtda aniqlanishi lozim. Shuning uchun, agar sudlangan hukm chiqqan vaqtda yetarli darajada xususiy mablag‘lar

hajmiga ega bo'lmasa, hukm qonuniy kuchga kirganidan so'ng uni olish imkoniyati bo'lsa ham, jarima tayinlanishiga yo'l qo'yilmaydi. Shu bilan bir vaqtda, jarima davlat majburlov chorasi sifatida sudlanganga, hatto shunday vaziyatlarda, jamiyat uchun xavfli qilmish sodir etgan vaqtda xususiy mablag'lariga ega bo'lmagan, ammo hukm e'lon qilingan vaqtgacha uni olgan bo'lsa (masalan, meros, hadya, zayom va boshqalar) qo'llanishi mumkin.

Ta'kidlab o'tish lozimki, jarima JK insonparvarlik prinsiplarini ketma-ket tatbiq etib, qisman, jarima miqdorining ancha pasaytirilishida namoyon bo'ladi. **JK 82-moddasi 1-qismiga** muvofiq, 18 yoshga yetmagan shaxslar uchun, jarima **eng kam oylik ish haqining ikki baravaridan yigirma baravarigacha** miqdorda tayinlanadi. Sud jarima tayinlayotganda, jarimaning konkret miqdori jazoni individuallashtirish vositasi ekanligini nazarda tutib, uning miqdoriga alohida e'tibor berishi lozim. Shu bilan bir vaqtda, jarima tayinlashda voyaga yetmagan sudlangan shaxsning qilmishi og'irligini va mulkiy ahvolini hisobga olishi lozim.

JK 82-moddasi 2-qismiga muvofiq, mahkum jarima to'lashdan olti oy muddat mobaynida bo'yin tovlasa, sud to'lanmagan jarima miqdorini majburiy jamoat ishlari yoki axloq tuzatish ishlari jazosi bilan almashtiradi. Bunday norma JK 44-moddasida ham ifodalangan. Ammo, JK 44-moddasi 3-qismi holatidan farq qilib, jarimani majburiy jamoat ishlari yoki axloq tuzatish ishlariga almashtirish **JK 82-moddasi** tartiblarida qator xususiyatlarni nazarda tutadi. Mahkumni jarima to'lashdan bo'yin tovlashi to'g'risidagi masala, faqat olti oy mobaynida to'lamagan vaziyatlarda qo'yilishi mumkin. Jarimani faqat shu kabi jazo turlariga, majburiy jamoat ishlari yoki axloq tuzatish ishlariga almashtirilishi mumkin. Bu vaziyatda axloq tuzatish ishlarining eng kam muddati to'lanmagan jarima summasiga bog'liq bo'lib, bir oydan kam, ammo bir yildan ko'p bo'lmasligi lozim.

Qonun bo'yicha voyaga yetmagan sudlangan jazo sifatida tayinlangan jarimani hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab olti oy ichida to'lashga majbur. Biroq sud JPK 533-moddasiga asosan sudlangan

shaxsning moddiy ahvolini hisobga olib hukmning bu qismi ijrosini kechiktirish masalasini yechadi.

Voyaga yetmagan shaxsga jarima ko‘rinishidagi jazo tayinlanishi, faqat bu jazo turi JK Maxsus qismining tegishli moddasi sanksiyasida nazarda tutilgan bo‘lsa va JK 57-moddasiga muvofiq ancha yengilroq jazo tayinlanganida qonuniydir. Agar, jarima ko‘rinishidagi jazo JK Maxsus qismi ma’lum moddasi sanksiyasida nazarda tutilgan bo‘lsa, unda voyaga yetmagan shaxsga ko‘rilayotgan davlat majburlov chorasi miqdorini tanlashda sud ham tegishli modda sanksiyasi hamda JK 82-moddasi holatlari bilan bog‘laydi. Qisman, agar Maxsus qism moddasining sanksiyasida jarimaning eng kam miqdori aniqlansa, sud bu jazoni tayinlashda, agar keyingisi JK 82-moddasi 1-qismida o‘rnatilgan chegaralarda turgan bo‘lsa, ko‘rsatilgan chegarani buzishi mumkin emas. Bunda, Maxsus qism moddasi sanksiyasida o‘rnatilgan eng kam cheklov, jarimaning **JK 82-moddasi 1-qismida** ko‘rsatilgan eng ko‘p chegarasidan katta bo‘lsa, unda sudlanganga JK Umumiy qismi maxsus normalarida nazarda tutilgan eng ko‘p miqdorga teng jarimani qo‘llash lozim bo‘ladi. Eng kam cheklov ko‘rsatilmagan bo‘lsa, u JK 82-moddasi holatlariga muvofiq aniqlanadi. Jarimaning eng ko‘p cheklovi har qanday holatda, JK Maxsus qismi moddasiga tegishli sanksiyadan mustaqil ravishda, ko‘rsatilgan modda aniqlagan chegaradan oshib ketishi mumkin emas. Agar, jarima ko‘rinishidagi jazo sudlanganga JK 57-moddasi tartibida tayinlansa, unda jarimaning eng kam va eng ko‘p chegaralari **JK 82-moddasiga** muvofiq aniqlanadi.

JK 82¹ -moddasi voyaga yetmagan sudlanganlarga majburiy jamoat ishlari kabi jazo turi tayinlashning xususiyatlarini tartibga soladi.

Majburiy jamoat ishlari faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan qo‘llanishi mumkin.

Qonunga ko‘ra, **majburiy jamoat ishlari** jazosi faqat mehnatga layoqatli shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

Mehnatga layoqatlilik – bu shaxsning mehnat qila olish qobiliyatiga ega ekanligidir. Qoida tariqasida, shaxs o‘n olti yoshga to‘lgandan so‘ng mehnatga layoqatli hisoblanadi (MK 77-m.1-q.).

Qonun voyaga yetmaganlarga nisbatan majburiy jamoat ishlari shartlarini belgilaydi, bu birinchidan majburiy jamoat ishlari voyaga yetmaganlarning sog‘lig‘iga va ma‘naviy jihatdan rivojlanishiga zarar yetkazmasligi, ikkinchidan, majburiy jamoat ishlari o‘qish jarayonini buzmasligi lozim.

Tayinlangan jazo voyaga yetmaganlarning sog‘lig‘iga jismoniy va ruhiy zarar yetkazmasligi kerak.

Mahkumnig majburiy jamoat ishlaridan bo‘yin tovlashi deganda, ishga chiqmaslik, vaqtini bo‘sh o‘tkazib belgilangan ish xajmini bajarmaslik va h.k. tushunilishi lozim.

Ko‘rsatilgan normaning 1-qismi asosida: «Axloq tuzatish ishlari faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan o‘z ish joyida o‘tash, aybdor hech qayerda ishlamasa, ushbu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan o‘zi yashaydigan hududdagi boshqa joylarda o‘tash tariqasida bir oydan bir yilgacha muddatga tayinlanadi».

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi o‘zining «Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida»gi qarorida, qonun bo‘yicha 16 yoshga to‘lmaganlarga axloq tuzatish ishlari qo‘llanilmasligini ko‘rsatgan¹. Ammo, mehnat qonunchiligiga muvofiq, voyaga yetmagan shaxslar mehnatga layoqatli sifatida ko‘rib chiqilishi lozim va umumiy o‘rnatilgan yoshga (16 yosh) yetmagan vaziyatlarda va ushbu shart bilan:

– o‘n besh yoshga to‘lgan shaxslar ota-onasidan birining yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxsning yozma ravishdagi roziligi bilan ishga qabul qilinishi mumkin (MK 77-moddasi 1-qismi);

– yoshlarni mehnatga tayyorlash maqsadida umumta‘lim maktablari, hunar-texnika bilim yurtlari va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining o‘quvchilarini o‘n to‘rt yoshga to‘lganlaridan keyin ota-onasidan birining yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxsning roziligi bilan bolalarning sog‘lig‘iga va kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan va ta‘lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishlarni o‘qishdan bo‘sh vaqtlarida bajarish uchun ishga qabul qilishga yo‘l qo‘yiladi (MK 77-moddasi 2-qismi).

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 19-банд // Тўплам, 2-жилд. – 230-б.

Shu munosabat bilan, mehnat qonunchiligi shartlariga rioya qilinganda o‘n to‘rt yoshga yetgan voyaga yetmaganlarga axloq tuzatish ishlari qo‘llanilishi mumkin.

O‘n olti yoshga yetmagan shaxslarga axloq tuzatish ishlarini tayinlashda, sud aybdorning mehnat majburiyatlarini ijro etish istagi borligini aniqlab olishi lozim, chunki shaxsning bu jazoni bajarishni istamasligi uni qo‘llash samaradorligini pasaytiradi. Bundan tashqari, axloq tuzatish ishlarining turi va miqdori masalasini yechayotganda sud ularni sudlangan shaxs sog‘lig‘iga va o‘quv jarayoniga ta‘sirini hisobga olishi zarur.

Axloq tuzatish ishlari voyaga yetmaganlar uchun **bir oydan bir yilgacha** muddatga tayinlanadi. Bu muddatlarga rioya qilmaslik jinoyat qonunining qo‘pol buzilishi bo‘lib, hukmning o‘zgarishiga olib keladi.

Voyaga yetmaganlar uchun **JK 83-moddasi 1-qismida** nazarda tutilgan axloq tuzatish ishlari JK Maxsus qismi tegishli moddasi sanksiyasining tahriridan qat‘i nazar sudlar tomonidan so‘zsiz bajarilishi lozim. Bunda quyidagilarni hisobga olish zarur.

Agar JK Maxsus qismi moddasining sanksiyasi sodir etilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoyatga axloq tuzatish ishlari tayinlanishi mumkin bo‘lgan eng kam muddatni nazarda tutsa, unda voyaga yetmaganga amalda tayinlanadigan bu turdagi jazo umumiy qoidalar bo‘yicha shu modda sanksiyasi ko‘rsatgan eng kam chegarasidan kam bo‘lishi mumkin emas. Biroq bu eng kam chegara JK 83-moddasida nazarda tutilgan eng ko‘p chegaradan ortiq bo‘lsa, axloq tuzatish ishlari JK 83-moddasi 1-qismi qoidalari bo‘yicha tayinlanishi lozim, ya‘ni bir oydan bir yilgacha. Agarda, JK Maxsus qismining to‘g‘ridan-to‘g‘ri modda sanksiyasi axloq tuzatish ishlarining eng kam yo‘l qo‘yiladigan chegarasini nazarda tutmagan bo‘lib, faqat uning eng ko‘p chegarasini nazarda tutgan bo‘lsa, unda voyaga yetmagan sudlangan uchun ko‘rilayotgan jazo turining eng kam miqdori **JK 83-moddasi** holatlariga muvofiq aniqlanadi. Bunday vaziyatlarda eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan jazo miqdorini ikkita variantda aniqlash mumkin:

– agar, JK Maxsus qismining moddasi sanksiyasida ko‘rsatilgan eng ko‘p chegara JK 83-moddasida nazarda tutilgan axloq tuzatish ishlarining eng ko‘p chegarasidan ortiq bo‘lsa, sud JK 83-moddasi 1-qismiga rioya qilishi lozim;

– agar axloq tuzatish ishlarining eng ko‘p muddati Maxsus qism moddalarining sanksiyasi JK 83-moddasida aniqlangan chegaralarda bo‘lsa, aybdorga axloq tuzatish ishlarini tayinlash JK Maxsus qismi muayyan moddasi sanksiyasiga yo‘naltirilishi lozim.

JK 83-moddasi 1-qismida ko‘rsatilgani kabi, voyaga yetmagan shaxsga ikki turdagi axloq tuzatish ishlari tayinlanishi mumkin:

– voyaga yetmaganning o‘z ish joyi bo‘yicha ijro etiladigan;

– ushbu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan o‘zi yashaydigan hududdagi boshqa joylarda ijro etiladigan.

Shu holatga alohida e‘tibor berish lozimki, voyaga yetmaganning yashash joyida ushbu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar tomonidan belgilangan boshqa joylarda ijro etiladigan axloq tuzatish ishlarini tayinlash, faqat bir vaziyatda, agar hukm chiqqanda aybdor hech qayerda ishlamayotgan bo‘lsagina yo‘l qo‘yiladi. Bunday vaziyatda voyaga yetmaganning mehnat majburiyatlarini amalda amalga oshirmaganligining ahamiyati yo‘q, masalan, unga nisbatan avvaldan tergov jarayonida qamoqqa olish chorasi ko‘rilgan bo‘lsa yoki u vaqtinchalik mehnatga layoqatsiz ahvolda bo‘lsa va h.k. Hukm chiqqanida shaxsni ishlovchi deb topish uchun faqat voyaga yetmagan sudlangan shaxsning haqiqiy mehnat shartnomasi ahamiyatga ega. Jazoni boshqa joylarda o‘tash sharti bilan axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslar jazolarni ijro etish inspeksiyasi belgilab beradigan korxonalar, muassasa va tashkilotlarga yuboriladi. Voyaga yetmagan mahkumlar yashash joyidagi korxonalar, muassasa va tashkilotlarga yuboriladi (JK 26-moddasi 5-qismi).

Voyaga yetmaganga axloq tuzatish ishlari jazo turini tayinlashda, sudlar uning turiga (sudlangan shaxsning ish joyida yoki ushbu jazo ijrosi nazoratini olib boruvchi idoralar tomonidan yashash joyida o‘tadigan) va jazo muddatiga hamda sudlangan shaxsning ish haqidagi chegirmalar

miqdoriga, bu ko'rsatkichlar jazoning individuallashtirish vositasi ekanligini nazarda tutib, alohida e'tibor berishlari lozim.

(Sudlangan shaxsning ish haqidan chegirmalar to'g'risida ushbu tom II bobining «Axloq tuzatish ishlari» deb nomlangan 4-§ ga qarang.)

Voyaga yetmagan shaxsga axloq tuzatish ishlari ko'rinishida jazo tayinlashda, sudlar voyaga yetmaganga yuklangan yoki yuklanadigan mehnat majburiyatlariga e'tibor berishlari lozim. Qisman, axloq tuzatish ishlarini o'tashda voyaga yetmagan shaxsga mehnat qonunchiligi o'z amalini to'la yoyadi. O'n sakkiz yoshdan yosh bo'lgan shaxslar mehnatidan noqulay mehnat sharoitlarida, yer osti ishlarida va sog'liqqa, xavfsizlikka yoki bu toifa ishchilarning axloqiga zarar yetkazuvchi ishlarda foydalanish taqiqlanadi¹. O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning belgilab qo'yilgan normadan ortiq og'ir yuk ko'tarishlari va tashishlariga yo'l qo'yilmaydi² (MK 241-moddasi 2-qismi)³. Voyaga yetmaganlar uchun qisqartirilgan ish kuni o'rnatiladi, bu axloq tuzatish ishlarini o'tashga ta'sir etmaydi: davomiyligidan qat'i nazar voyaga yetmaganlarning ish kuni 18 yoshga to'lganlarning ish kuni bilan bir xildir.

JK 83-moddasi 2-qismi ko'rsatilganidek, maxkum sud tomonidan tayinlangan axloq tuzatish ishlarini bajarishdan bo'yin tovlagan taqdirda, sud axloq tuzatish ishlarini ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtiradi. Maxkum tayinlangan axloq tuzatish ishlari muddatining o'ndan bir qismidan ko'prog'ini o'tashdan bo'yin tovlagan taqdirda jazo almashtirilishi mumkin.

Ahloq tuzatish ishlari faqatgina ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirilishi mumkin, bunda ahloq tuzatish

¹ Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги ва Соғлиқни сақлаш вазирлигининг қарори билан тасдиқланган Ўн саккиз ёшдан кичик шахсларнинг меҳнати қўлланиши тақиқланадиган ноқулай меҳнат шaroitлари ишлари рўйхати. Мазкур қарор Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2009 йил 29 июлда 1990-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган.

² Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги ва Соғлиқни сақлаш вазирлигининг қарори билан тасдиқланган «Ўн саккиз ёшга тўлмаган шахслар кўтаришлари ва ташишлари мумкин бўлган оғир юк нормаларининг чегарасини белгилаш тўғрисида»ги низом. Мазкур қарор Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2009 йил 12 майда 1954-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган.

³ Предельно допустимые нормы при подъеме и перемещении тяжестей лицами моложе 18 лет устанавливаются Министерством труда и социальной защиты населения Республики Узбекистан и Министерством здравоохранения Республики Узбекистан по консультации с Советом Федерации профсоюзов Узбекистана и представителями работодателей.

ishlarini uch kunini ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga tenglashtirilib hisoblanadi.

JKning 84¹-moddasiga muvofiq voyaga yetmaganlarga nisbatan davlat majburlov chorasining jazo tizimida eng qattiq qo‘llaniladigani bu – ozodlikni cheklashdir.

JKning 48¹-moddasi bilan sharhlanayotgan modda taqqoslanganda voyaga yetmagan shaxsga nisbatan tayinlanadigan ozodlikni cheklash jazosi bir necha xususiyatlarga egaligi ko‘rinadi. Ozodlikni cheklash – sud tomonidan mahkumga nisbatan yashash joyini u yoki bu sabab bilan tark etishni butunlay taqiqlashdan yoki sutkaning muayyan vaqtida yashash joyidan chiqishni cheklashdan iborat bo‘lib, voyaga yetmaganlarga nisbatan olti oydan ikki yilgacha bo‘lgan muddatga tayinlanadi. Voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qo‘llaniladigan ushbu davlat majburlov chorasining eng ko‘p muddati ikki yarim marta kamaytirilgan, ya’ni ikki yil qilib belgilangan. Ozodlikni cheklashning eng kam muddati esa, olti oy.

Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan tayinlanadigan ozodlikni cheklash jazosi mahkumni ijobiy tarafga o‘zgartirishda, jinoiy faoliyatining davom etishiga to‘sqinlik qilishda hamda umumiy va maxsus prevensiyada samarali hisoblanadi. Ushbu jazo turi ozodlikdan mahrum qilish jazosi kabi sudlanganni jamiyatdan ajratmagan holda qayta tarbiyalashga erishish mumkin bo‘lgan hollardagina qo‘llanilishi mumkin. Shu munosabat bilan, ozodlikni cheklash jazosi qo‘llangan sud hukmida shaxsni jamiyatdan ajratmay turib jazoning maqsadiga erishish mumkinligi to‘g‘risidagi holatlarni asoslantirilishi shart. (Bu haqida to‘laroq JKning 48¹-moddasi sharhiga qarang).

JK 85-moddasi voyaga yetmaganlarga qo‘llaniladigan jazo tizimidagi eng og‘ir davlat majburlovi – **ozodlikdan mahrum etishni** tayinlashning xususiyatlarini reglament qiladi. Bu jazoning og‘irligi shundan iboratki, u sudlangan shaxsni jamiyatdan ajratib tarbiya koloniyasiga joylashtirish orqali bajariladi. Shu vaqtning o‘zida, ozodlikdan mahrum etishning ahamiyati voyaga yetmaganlar uchun jinoiy jazo maqsadlariga etishisdagi samarasi bilan ifodalanadi.

JK 85-moddasi 1-qismiga muvofiq, «Voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi olti oydan o'n yilgacha muddatga tayinlanadi, ushbu Kodeks 86-moddasining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno». Voyaga yetmaganlar uchun ozodlikdan mahrum etishning ikki marta pasaytirilgan eng ko'p chegarasi jinoyat qonunida insoniylik va adolatlilik prinsiplarini ketma-ketlikda tatbiq etilayotganidan guvohlik beradi. Qonun chiqaruvchining bunday pozitsiyasi, voyaga yetmagan sudlanganlarning tuzalishlari maqsadida, jinoiy faoliyatlarini davom ettirishlariga to'sqinlik qilish hamda umumiy va maxsus prevensiyasi, sudlangan shaxsni jamiyatdan ancha kamroq muddatlarga ajratishga mos kelishi bilan tushuntiriladi, uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etishni qo'llash esa o'z samaradorligini yo'qotadi.

Voyaga yetmagan shaxsga sodir qilgan bitta jinoyati uchun jazoning ozodlikdan mahrum qilish turini o'n yildan ortiq muddatga tayinlashga yo'l qo'yilmaydi. Shuning uchun, agar Maxsus qismning aniq moddasi sanksiyasi **JK 85-moddasida** ko'rsatilgan jazoning eng ko'p chegarasini nazarda tutsa, unda tayinlanadigan eng ko'p jazo miqdori **JK 85-moddasi** holatlariga muvofiq chegaralanishi lozim. Biroq Maxsus qismning tegishli moddasi sanksiyasida nazarda tutilgan jazoning eng kam miqdori **JK 85-moddasida** ko'rsatilgan eng ko'p miqdordan oshib ketsa, sud jazoni umumiy holatlarga yo'naltirib tayinlashi lozim. Shu singari, masalan, og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish jinoyati sodir etilgan bo'lsa, bu jinoyatni sodir etganlik uchun JK 97-moddasi 2-qismi sanksiyasiga muvofiq, eng kam ozodlikdan mahrum etish muddati 15 yilni tashkil etishiga qaramasdan, voyaga yetmaganga nisbatan ozodlikdan mahrum etish jazo turi o'n yilgacha bo'lgan muddatga tayinlanadi (JK 85-moddasi 3-qismi «v» bandi). Bunday vaziyatlarda sudlarga JK 85-moddasi tegishli qismiga asoslanishga to'g'ri keladi, JK 57-moddasiga asoslanish JK Maxsus qismi aniq moddasi sanksiyasida nazarda tutilmagan ancha yengil jazo turini tayinlash holatini mustasno qilganda talab qilinmaydi. Masalaning boshqacha yechimi 18 yoshga yetmagan shaxslar uchun og'ir

va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlari uchun jazoning asoslanmagan pasaytirilishiga olib kelar edi.

Voyaga yetmagan shaxs tomonidan ikki yoki undan ortiq jinoyatlar sodir etilgan vaziyatlarda, ozodlikdan mahrum qilishning eng ko'p muddati oshadi. Bunday holatda jazoning eng ko'p muddati to'g'risidagi masala jinoyat qilgan shaxsning yoshidan hamda jinoyatdan kelib chiqib yechiladi.

(Bu haqda kengroq ushbu tom mazkur bobining «Voyaga yetmaganlarga jazo tayinlash» deb nomlanuvchi 3-§ ga qarang.)

Ozodlikdan mahrum etish eng qattiq jazo bo'lib, voyaga yetmaganga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan kuzatiladi. Shuning uchun «voyaga yetmaganlarga jazo tayinlash masalasini yechishda, sud, eng avvalo, sodir qilingan jinoyat tavsifini, jamiyatga xavflilik darajasini, shaxs to'g'risidagi ma'lumotni va jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazoni qo'llash imkoniyatlarini muhokama qilishi lozim. Sud voyaga yetmaganga ozodlikdan mahrum qilish ko'rinishidagi jazoni belgilashda, faqat shunday holatlarda, qachonki jamiyatdan ajralmagan holda uning tuzalishi mumkin bo'lmasa, hukmda, albatta, qabul qilingan qarorni asoslash bilan qabul qilishga haqlidir»¹.

Qisman, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir qilishda aybdor bo'lgan, avval sudlangan, ichki ishlar idoralarida qonunbuzarliklari uchun hisobda turgan voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan yengilliklarga yo'l qo'yilishi mumkin emas. **JK 85-moddasi 2-qismi** ozodlikdan mahrum qilish jazosi jinoyat sodir etish paytida o'n uch yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishini belgilaydi. Ozodlikdan mahrum qilish jazosining jinoyat sodir etish paytida o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishini esa **JK 85-moddasi 3-qismi** tartibga soladi. Ozodlikdan mahrum qilishda bunday chegaralashning zaruriyati, voyaga yetmaganlarga nisbatan, ularning psixik va jismoniy rivojlanishlarini hisobga olgan holda samarali va insoniy qo'llanilishi talablari bilan belgilangan.

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 15 сентябрдаги «Вояга етмаганларнинг жиноятлари хақидаги ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 21-сонли қарори, 9-банд // Тўшам, 2-жилд. – 27-б.

JK 85-moddasi 2-qismiga muvofiq, «Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etish paytida o‘n uch yoshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan:

- a) uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun – uch yilgacha;
- b) og‘ir jinoyat uchun – olti yilgacha;
- v) o‘ta og‘ir jinoyat uchun – o‘n yilgacha muddatga tayinlanadi».

Xuddi shu moddaning uchinchi qismiga muvofiq, «Ozodlikdan mahrum qilish jinoyat sodir etish paytida o‘n olti yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslarga nisbatan:

- a) uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun – to‘rt yilgacha;
- b) og‘ir jinoyat uchun – yetti yilgacha;
- v) o‘ta og‘ir jinoyat uchun – o‘n yilgacha muddatga tayinlanadi».

Mazkur moddaning **to‘rtinchi qismida** ta’kidlanganidek, voyaga yetmay turib ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etgan, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etgan yoxud qasddan uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanmaydi.

Bunda, voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilgan bunday qilmishlar soni ahamiyatga ega emas.

JK 85-moddasi 5-qismiga muvofiq, hukm chiqarish paytida o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini tarbiya koloniyalarida o‘tash tayinlanadi. Bu koloniyalar, ozodlikdan mahrum qilinganlar uchun mo‘ljallangan muassasalar tizimida alohida o‘rin egallaydi, bu birinchidan, voyaga yetgan jinoyatchilar sharoitlariga nisbatan imtiyozliroq sharoitlarni o‘rnatishda, ikkinchidan, voyaga yetmaganlarning beqaror psixikasini hisobga oluvchi, ularni o‘qitish jarayonida aybdorlarga ta’sir etuvchi asosiy vosita bo‘lgan, turli xil tarbiyaviy-psixologik-pedagogik usullarni qo‘llashga yo‘naltirishda, sport va madaniy tadbirlarni o‘tkazishda hamda mehnat faoliyati jarayonida ifodalanadi.

Tarbiya koloniyalarida sudlanganlar jazo muddatini o‘tagunlarigacha yoki JK 87, 89, 90-moddalari tartibida jinoiy jazodan ozod etilgunlarigacha yoki voyaga yetgunlarigacha saqlanadilar. 18 yoshga

to'lganlaridan keyin salbiy tavsifli sudlanganlar jazoni keyinchalik o'tash uchun tarbiya koloniyasidan umumiy tartibli koloniyaga o'tkaziladi.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga muvofiq, mahkumni tarbiya koloniyasidan jazoni ijro etish koloniyasiga o'tkazish tarbiya koloniyasi ma'muriyatining voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiya bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan sudya tomonidan amalga oshiriladi. O'n sakkiz yoshga to'lgan mahkumni tarbiya koloniyasidan jazoni ijro etish koloniyasiga o'tkazish masalasini hal etishda sudya uning tuzalish darajasini hisobga olishi lozim. Mahkum tarbiya koloniyasida jazoni o'tash muddatini davom ettirish uchun uzog'i bilan yigirma yoshga to'lgunga qadar qoldirilishi mumkin (JPK 537-moddasi 3 va 4-qismlari).

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan o'n sakkiz yoshga to'lgan mahkumlar, odatda, yigirma bir yoshga to'lgunga qadar tarbiya koloniyalarida qoldiriladi.

Mahkumlarni tarbiya koloniyalarida qoldirish muassasa boshlig'ining prokuror tomonidan tasdiqlangan qarori bilan amalga oshiriladi (JIK 128-moddasi).

Mahkumlar yigirma bir yoshga to'lganidan, salbiy tavsifga ega mahkumlar esa o'n sakkiz yoshga to'lganidan keyin jazo o'tashni davom ettirish uchun tarbiya koloniyasidan umumiy tartibli koloniyaga o'tkaziladi.

Nazarda tutish lozimki, voyaga yetmaganlarga nisbatan uning sodir qilgan qilmishi og'irligidan hamda aybdor shaxsining jamiyatga xavfidan qat'i nazar, turma qamog'i qo'llanilishi mumkin emas. Turmalar voyaga yetgan mahkumlarni saqlash uchun mo'ljallangan (JIK 45-moddasi 6-qismi).

3-§. Voyaga yetmaganlarga jazo tayinlash

Alohida normalarda tartibga solish - JK 86-moddasi voyaga yetmagan jinoyat sodir etgan shaxslarga jazo tayinlash xususiyati, jinoyat qonunini bir tarzda qo'llash uchun huquqni qo'llash faoliyatida voyaga yetmaganlarga nisbatan insonparvarlik va adolatlilik prinsiplarini ketma-

ket mujassamlanishiga sharoit yaratadi hamda shu toifa shaxslar uchun jazoning individuallashtirishini aniq o'tkazish imkonini beradi.

JK 86-moddasi 1-qismi holatlari voyaga yetmagan shaxslarga jazo tayinlashda umumiy talablarni biriktiradi. Bu talablarning mazmuni jazoni tanlashda faqat jazo tayinlashning umumiy asoslarini emas (JK 54-moddasi), balki aybdor shaxsiga ta'sir etuvchi holatlarni ham hisobga olish zaruratidan iboratdir. Shunday ekan, «sud voyaga yetmaganlarga jazo tayinlashda jazo tayinlashning umumiy asoslariga amal qiladi, voyaga yetmaganning rivojlanganlik darajasi, turmush sharoiti va tarbiyasini, sog'lig'ini, sodir etgan jinoyatining sabablarini, katta yoshdagilarning va boshqa holatlarning uning shaxsiga ta'sirini hisobga oladi» (**JK 86-moddasi 1-qismi**).

(Jazo tayinlashning umumiy asoslari to'g'risida ushbu tom III bobining «Jazo tayinlashning umumiy asoslari» deb nomlanuvchi 1-§ ga qarang.)

Voyaga yetmaganning rivojlanganlik darajasi deganda, ko'rsatilgan me'yorlar mazmunida, o'n sakkiz yoshga yetmagan shaxsning uning tengdoshiga nisbatan aniqlangan aqliy rivojlanish darajasi tushuniladi. Shaxsning rivojlanish darajasi, shunday yoshdagi shaxslarga qo'yiladigan umumiy talablarga mos bo'lishi (me'yoriy rivojlanish darajasi) yoki mos bo'lmasligi ham mumkin. Oxirgi holatda shaxsning rivojlanishi ilgarilab ketgan (shu yoshdagilarga nisbatan aqliy rivojlanish darajasi umumiy rivojlanish darajasidan ancha oshib ketadi) yoki orqada qolgan (aqliy rivojlanish darajasi me'yordan ancha past).

Nazarda tutish lozimki, JK 87-moddasi 3-qismiga muvofiq, voyaga yetmagan shaxs rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolgan bo'lsa va sodir etgan qilmishining ahamiyatini to'la ravishda anglab yetmasa, sud jazo o'rniga majburlov chorasi qo'llash maqsadga muvofiqligi masalasini ko'rib chiqishi shart.

(Bu haqda ushbu bobning «Voyaga yetmaganlarni majburlov choralari qo'llagan holda javobgarlikdan yoki jazodan ozod etish» deb nomlanuvchi 4-§ ga qarang.)

Intellectual rivojlanish darajasi bo'yicha o'z tengdoshlaridan ilgarilab ketgan, ammo sodir etgan qilmishlari uchun qonunda o'rnatilgan javobgarlik yoshiga yetmagan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilmaydilar.

Voyaga yetmaganlarning turmush sharoiti va tarbiyasi o'zida 18 yoshga yetmagan aniq shaxsga nisbatan o'rnatilgan, uning turmush sharoitini va unga qo'llanilgan uslublar, usullar va tarbiyalash vositalarini tavsiflovchi holatlarni nazarda tutadi.

Voyaga yetmagan shaxsni turmush sharoiti va tarbiyasini aniqlash tartibida sud uning ota-onasi yoki ular o'rmini bosuvchi shaxs borligini, ularning voyaga yetmagan shaxsga munosabatini hamda oiladagi boshqa shaxslarning borligini va ularning aybdor bilan munosabatlarini aniqlab chiqishi lozim. Bundan tashqari, 18 yoshga yetmagan shaxslarning turmush sharoiti va tarbiyasini aniqlashda sud, yana uning moddiy ta'minlanganligini, unga qo'llanilgan uslublar, usullar va tarbiyalash vositalari tavsifini yoxud ularning yo'qligini aniqlashi lozim. Bunda, shuni nazarda tutish lozimki, agar ishlab chiqarish jarayonida tarbiyalashda qo'llanilgan vositalarning yetarli emasligidan guvohlik beruvchi holatlar yoxud, aksincha, voyaga yetmagan shaxsning rivojlanishiga salbiy ta'siri aniqlansa, sud har bir vaziyatda ota-onalar yoki ular o'rmini bosuvchi shaxslar javobgarligi to'g'risidagi masalani muhokama qilishga kirishmog'i lozim. Qisman, agar shu shaxslar tomonidan, voyaga yetmaganning rivojlanishiga obyektiv salbiy ta'sir etadigan bunday tarbiya sharoitlari qo'llanilgan bo'lsa, sud ota-onasining ish joyiga yoki sudlangan shaxsning ota-onasining turar joyiga tegishli xususiy ajrim yo'llashi lozim.

Sog'lig'ining holati deganda, voyaga yetmagan shaxsning nafaqat kasallik yoki jismoniy kamchiliklari yo'qligi yoki mavjudligini, shu bilan birga uning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy holati darajasini ham tushunish zarur¹. Sog'liqining holatini aniqlashda sud, eng avvalo, uning jismoniy va psixik rivojlanishi darajasini hamda ijtimoiy munosabatlarni tavsiflovchi ish holatlarini o'rganmog'i lozim.

Voyaga yetmaganga jazo tayinlashda sud qilmishning subyektiv tomoniga jiddiy e'tibor qaratmog'i lozim bo'ladi. Lekin jazo tayinlashda

¹ Бутунжаҳон Соғлиқни Сақлаш Ташкилотининг Низоми (Конституцияси) (Нью-Йорк, 1946 йил 22 июль), муқаддиманинг 2-қисми.

motivlar, ya'ni voyaga yetmagan shaxsning jinoyat sodir etishga nisbatan ichki kechinmalari hisobga olinmog'i lozim. Past niyatli motivlar va maqsadlar (ko'rolmaslik, g'araz, millatlararo yoki irqiy dushmanlik, boshqa jinoyatni yashirish maqsadi yoki uni sodir etishni yengillashtirish va h.k.), odatda, sudlangan shaxsning ahvolini og'irlashtiradi, ijtimoiy qabul qilsa bo'ladigan motivlar (yolg'on o'rtoqlik tuyg'usi, ayrim holatlarda rashk, o'ch olish) uning ishtirokini yengillashtiradi.

Kattalarning voyaga yetmaganlarga ta'siri qonun bilan, voyaga yetmagan aybdor shaxsni tavsiflovchi va sud jazo tayinlayotganida hisobga olinishi lozim bo'lgan alohida holat sifatida ajratilgan. Bunda, voyaga yetmagan shaxslarga jazo tayinlash maqsadlari uchun, 18 yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan kattaning qanday munosabatda bo'lganligi: u jinoyat ishtirokchisimi yoki undan jabrlanganmi ahamiyatga ega emas. Shu bilan bir vaqtda, har bir vaziyatda ham sud «voyaga yetmaganlarning katta yoshlilar ishtirokida sodir etgan jinoyatlari haqidagi ish ko'rib chiqilayotganda, katta yoshdagi shaxs va o'smir o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xususiyatini sinchiklab aniqlashi lozim, chunki ana shu ma'lumotlar katta yoshli kishining voyaga yetmaganni jinoyat yoki g'ayriijtimoiy harakat sodir etishga jalb qilishdagi rolini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin».

Sudlarga 18 yoshga to'lgan va jinoyatni qasddan sodir etgan shaxslargina voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilgani uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin ekanligi tushuntirilsin. Shuningdek, katta yoshdagi kishi o'z harakatlari bilan voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilayotganini bilgani holda yoki shunday fikrga yo'l qo'yganini ham aniqlash lozim. Agarda katta yoshdagi kishi shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilsa-yu, uning voyaga yetmaganligini bilmasa yoki bilishi mumkin bo'lmasa, bu holda JK 127-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emas.

Agar voyaga yetmagan shaxsning jinoyat sodir etishiga katta yoshdagilarning, shu jumladan, ish yuzasidan jabrlanuvchi deb e'tirof etilgan shaxslarning g'ayriqonuniy yoki yomon xulq-atvori sabab bo'lgan

bo'lsa, sud bu holatni jazoni yengillashtiruvchi holat deb e'tirof etishi, shuningdek, zarur holda xususiy ajrim chiqarib, qayd etilgan shaxslarning ish yoki yashash joylariga muhokama qilish uchun yuborishi lozim.

Jinoyat kodeksining 55-moddasi «g» bandiga ko'ra, jinoyatning jismoniy yoki ruhiy tazyiq o'tkazilishi natijasida sodir etilishi yoxud voyaga yetmagan shaxsning moddiy tomondan, xizmat yoki boshqa jihatdan qaramliligi sababli sodir etilishi javobgarlikni yengillashtiruvchi holat ekanligini ham nazarda tutish kerak¹. Shu munosabat bilan sudlar voyaga yetmagan shaxsga nisbatan, aynan, qanday jismoniy yoki ruhiy tazyiq o'tkazilganligini aniqlashlari shart.

Jazo tayinlashda sud hisobga olishi lozim bo'lgan **voyaga yetmagan shaxsga ta'sir etuvchi boshqa holatlarga**, voyaga yetmaganning yoshi, birinchi marta jinoyat sodir etganligi, chin ko'ngildan pushaymonligi, aybini bo'yniga olib kelishi, jinoyatning ochilishiga faol yordam berishi, jinoyatni og'ir shaxsiy va oilaviy holatlar tufayli sodir etganligi kiradi. Nazarda tutish lozimki, sud tomonidan aybdor shaxsga ta'sir etuvchi boshqa holatlar aniqlansa, ular sud hukmida keng ifodalangan bo'lishi lozim.

JK 86-moddasi 2- va 3-qismlari sodir etilgan bir necha jinoyatlar uchun jazo tayinlash qoidalarini nazarda tutadi. Bu holatlarning farqlovchi xususiyatlari, ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlashda javobgarlikka tortilayotgan voyaga yetmaganni ma'lum yosh davriga bog'liq ravishda va sodir etgan jinoyatining og'irlik darajasini hisobga olgan holda pasaytirilgan eng ko'p chegaralarni belgilashdan iboratdir. **JK 86-moddasi 2-qismiga** muvofiq, «o'n uch yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan vaqtda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyatlar majmui tariqasida jazo tayinlanganda ozodlikdan mahrum qilishning eng ko'p muddati o'n yilgacha, agar sodir etgan jinoyatlarining bittasi o'ta og'ir jinoyat bo'lsa, o'n ikki yilgacha tayinlanadi». **JK 86-moddasi 3-qismiga** muvofiq, «o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan vaqtda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyatlar majmui tariqasida ozodlikdan mahrum qilish jazosi – o'n ikki yilgacha muddatga, agar sodir etgan jinoyatlarining bittasi

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 15 сентябрдаги «Вояга етмаганларнинг жиноятлари хақидаги ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 21-сонли қарори, 7 ва 8-бандлари // Тўплам, 2-жилд. – 26–27-б.

o'ta og'ir jinoyat bo'lsa, o'n besh yilgacha muddatga tayinlanishi mumkin».

Boshqa holatlar bo'yicha 18 yoshgacha jinoyat sodir etgan shaxslarga bir necha jinoyatlar uchun jazo tayinlash qoidalari JK 59-moddasida ko'rsatilganidan hech ham farq qilmaydi.

(Bu haqda kengroq ushbu tom III bobining «Sodir etilgan bir necha jinoyatlarda jazo tayinlash» deb nomlanuvchi 6-§ ga qarang.)

JK 86-moddasi 4-qismi sud tomonidan voyaga yetmaganlarga qo'llanishi mumkin bo'lgan bir necha hukmlar bo'yicha ozodlikdan mahrum etish ko'rinishidagi jazoning eng ko'p chegarasini belgilaydi. Ushbu me'yorga muvofiq, «jinoyat sodir etish paytida o'n uch yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan bir necha hukm yuzasidan tayinlanadigan ozodlikdan mahrum qilish jazosining muddati o'n besh yildan oshmasligi kerak».

Umuman olganda, 18 yoshgacha bo'lgan yoshda jinoyat sodir etgan shaxslarga jazo tayinlash qoidalari JK 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalar bilan bir xildir.

JK 86-moddasi 5-qismi voyaga yetmagan shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlanganda sud ushbu Kodeksning 72-moddasida nazarda tutilgan asos va shartlar mavjud bo'lsa, shartli jazo belgilashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi ko'rsatmalariga muvofiq, «voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilingan jinoyat ishlari yuzasidan hukm chiqarishda ularning jinoiy qilmishlariga xolisona baho berilishi, ularga nisbatan JK 72, 87-moddalarini qo'llash masalasini sudlar atroflicha, har tomonlama muhokama qilishlari lozim.

Sudlar voyaga yetmaganlarga nisbatan JK 72-moddasini qo'llaganlarida sudlangan shaxsga sinov muddati davrida qanday muayyan majburiyatlar yuklatilishini (o'qishni yakunlashi, ishga joylashishi va hokazolar) hukmda aniq ko'rsatishlari shart»¹.

(«Shartli hukm» tushunchasi va uni qo'llash to'g'risida kengroq ushbu tom V bobining «Shartli hukm» deb nomlanuvchi 5-§ ga qarang.)

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 15 сентябрдаги «Вояга етмаганларнинг жиноятлари хақидаги ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 21-сонли қарори, 10-банд, 1 ва 2-хатбошилари // Тўплам, 2-жилд. – 27-б.

Shuni ham qayd etish lozimki, JPK 563-moddasiga muvofiq, voyaga yetmagan sudlanuvchiga nisbatan hukm chiqarishda sud, ushbu Kodeksning 457-moddasida ko'rsatilgan masalalardan tashqari, basharti voyaga yetmagan shaxs shartli hukm qilinsa, unga ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlansa, voyaga yetmagan shaxsga jamoat tarbiyachisi tayinlash zarurligini muhokama qilishga majbur.

4-§. Voyaga yetmaganlarni majburlov choralari qo'llagan holda javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish

Voyaga yetmaganlarga javobgarlikdan ozod etish to'g'risidagi umumiy qoidalar yoki JK 64–76-moddalarida nazarda tutilgan jazolar va **JK 87-moddasida** nazarda tutilgan jazo va javobgarlikdan ozod qilish tartibini belgilovchi qoidalar tarbiyaviy ta'sir choralari qo'llash orqali tatbiq etilishi mumkin. Har bir alohida vaziyat uchun qo'llashda mos holatlarni tanlash vakolatli idoralar tomonidan jinoyat sodir etgan shaxsning uni javobgarlikka tortgan vaqtdagi yoshi, aybdor shaxsi, yengillashtiruvchi, og'irlashtiruvchi va boshqa holatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

JK 87-moddasi 1-qismiga muvofiq, «ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan voyaga yetmagan shaxs, agar sodir etgan qilmishining xususiyatlari, aybdorning shaxsi va ishning boshqa holatlarini e'tiborga olib, uni jazo qo'llamasdan turib ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelinsa, javobgarlikdan ozod qilinib, ish voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyada ko'rishga topshirilishi mumkin».

Ko'rib chiqilayotgan asos bo'yicha, faqat bu shartlar har birining birgalikda mavjudligi voyaga yetmaganni jinoiy javobgarlikdan ozod etish imkoniyatini beradi.

JK 87-moddasi holatlarini, faqat shunday vaziyatlarda, jinoyat sodir etilgan vaqtdagina emas, balki tegishli qaror chiqarilganida yoki javobgarlikdan ozod etish to'g'risida qaror (ajrim) chiqarilayotganida 18 yoshga to'lmagan bo'lsa ham qo'llash mumkin. Xuddi shu vaziyatda, **JK 87-moddasi 1-qismida** ko'rsatilgan javobgarlikdan ozod etish asoslari

mavjud bo'lganda, biroq qaror (ajrim) chiqarilganida aybdor 18 yoshga to'lsa, bunday shaxsni javobgarlikdan ozod etish masalasi JK 64–68-moddalari tartibida umumiy asoslarda hal qilinishi lozim.

Materiallarini voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaga ko'rib chiqish uchun o'tkazib, sodir etgan jinoyati uchun javobgarlikdan ozod etish faqat bir shart bilan, ya'ni qilmish voyaga yetmagan tomonidan birinchi marta sodir etilgan va jamiyat uchun katta xavf tug'dirmasagina yo'l qo'yiladi.

Agar, shaxs tomonidan avval umuman boshqa jinoyat sodir etilmagan bo'lsa hamda avval sodir etilgan jinoyatga nisbatan sudlanganlik holati tugallangan yoki o'rnatilgan tartibda olib tashlangan bo'lsa yoxud JK 64, 65, 66, 66¹, 68, 69, 70, 71, 76, 87- moddalariga muvofiq, shaxs jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod etilgan bo'lsa, jinoyat **birinchi marta** sodir etilgan deb topiladi¹.

JK 15-moddasi 2-qismiga muvofiq, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxsni javobgarlikdan ozod qilishning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masala, ishning holatlarini va aybdorning shaxsini har tomonlama o'rganish asosida yechilishi mumkin.

JK 87-moddasi 1-qismi mazmunida **sodir etilgan qilmishning xususiyatlari** deyilganda, jamiyatga xavfli qilmishlar xususiyatlarini, jinoyat qonuni bilan himoyalangan u yoki bu jamoat munosabatlariga zarar yetkazishga yo'naltirilgan hamda jinoiy istakka erishish usullarini (kuch ishlatib yoki ishlatmay) tushunish zarur.

(Jazo tayinlashda aybdorning shaxsini hisobga olishning xususiyatlari to'g'risida ushbu tom III bobining «Jazo tayinlashning umumiy asoslari» deb nomlanuvchi 1-§ ga qarang.)

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2006 йил 3 февралдаги «Судлар томонидан жиноят учун жазо тайинлаш амалиёти тўғрисида»ги 1-сонли қарори, 10-банд // Тўплам, 2-жилд. – 228-б.

Voyaga yetmaganni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish to'g'risidagi masalani hal qilishda hisobga olinadigan **ishning boshqa holatlariga** o'smirning jinoyat sodir etgunicha bo'lgan ijobiy axloqi, yetkazilgan zararni o'z xohishi bilan qoplashi, jinoyatni ochish uchun faol yordam ko'rsatishi, ilgari qo'llanilgan tarbiyaviy tavsifdagi majburlov choralari, kasallikning mavjudligi, o'smirning oiladagi, o'quv yurtidagi tarbiyaviy sharoitlari, yolg'on o'rtoqlik hissiyoti oqibatida, kattalarning ta'siri ostida sodir etgan jinoyati va boshqalarni kiritish mumkin. Bunda, JK 87-moddasi 1-qismi tartibida, agar voyaga yetmaganning avvalgi jinoyati va keyingi axloqi salbiy tavsiflansa, agar 18 yoshga yetmagan shaxs alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikdan aziyat cheksa va jamiyat tartibini buzganligi to'g'risida bir necha marta javobgarlikka tortilgan bo'lsa, ichki ishlar idoralari hisobida tursa va shunga o'xshash vaziyatlarda, voyaga yetmaganni javobgarlikdan ozod qilish to'g'risidagi masalaga juda ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim. Qoida bo'yicha, bunday shaxslarga nisbatan javobgarlikdan ozod qilish faqat istisno tarzida qo'llanilishi mumkin.

Qonunning to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatishiga muvofiq, voyaga yetmaganni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tegishli materiallarni voyaga yetmaganning turar joyi bo'yicha voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha tuman (shahar) idoralararo komissiyasiga taqdim qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shunga o'xshash holat, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiya Nizomining 22-bandida belgilanib, tuman (shahar) idoralararo komissiyalariga «tergovchining yoki prokurorning qarori asosida yoxud sud ajrimi asosida ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etganlarida javobgarlikdan ozod qilingan» voyaga yetmaganlar to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish yuklatiladi¹.

Bunda, tuman (shahar) idoralararo komissiyalari ushbu Nizomning 22-bandida nazarda tutilgan hollarda voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan quyidagi ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llashlari, ya'ni:

¹ См.: Положение о комиссиях по делам несовершеннолетних (Приложение № 1 к Постановлению Кабинета Министров Республики Узбекистан от 21 сентября 2000 г. № 360 «О совершенствовании деятельности комиссий по делам несовершеннолетних»), п. 22 // Собрание постановлений Правительства Республики Узбекистан, 2000 г., № 9, ст. 60.

– voyaga yetmaganga jabrlanuvchidan uzr so‘rash majburiyatini yuklash to‘g‘risida tuman (shahar) sudiga taqdimnoma kiritishi;

– ogohlantirib qo‘yishi;

– 15 yoshga to‘lgan voyaga yetmagan shaxs zimmasiga, agar u mustaqil ish haqiga ega bo‘lsa va zarar miqdori belgilangan eng kam oylik ish haqidan ortiq bo‘lmasa moddiy zararining o‘rnini qoplash yoki uni bartaraf etish majburiyatini yuklashi yoki belgilangan eng kam oylik ish haqidan ortiq bo‘lmagan moddiy zararni o‘z mehnati bilan qoplash majburiyatini yuklashi;

– 16 yoshga to‘lgan va mustaqil ish haqiga ega bo‘lgan voyaga yetmagan shaxsga O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida, Qoraqalpog‘iston Respublikasining davlat hokimiyati va boshqaruvining oliy organlari chiqargan hujjatlarda, viloyatlar va Toshkent shahar davlat boshqaruvi organlari qarorlarida ko‘zda tutilgan hollarda va miqdorlarda jarima solishi;

– voyaga yetmagan shaxsni o‘z ota-onasi yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxslar yoxud jamoat tarbiyachilari nazoratiga, shuningdek, ularning roziligi bilan mehnat jamoasi yoki jamoat tashkiloti kuzatuviga topshirishi;

– voyaga yetmagan shaxs jamiyat uchun xavfli xatti-harakatlar qilgan yoki ijtimoiy axloq qoidalarini qasddan va muntazam ravishda buzib kelgan taqdirda komissiya ichki ishlar organlari bilan birgalikda voyaga yetmaganni maxsus o‘quv-tarbiya muassasasiga yuborish masalasini ko‘rib chiqish to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritadi. 11 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan shaxs maxsus maktab-internatga yuborilishi, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan shaxs esa maxsus kasb-hunar kollejiga yuborilishi mumkin. Har bir aniq holat bo‘yicha qabul qilingan ta‘sir choralari to‘g‘risida komissiyalar voyaga yetmaganning yashash, o‘qish yoki ish joyi bo‘yicha huquqbuzarlikni oldini olish bo‘linmalari tomonidan voyaga yetmaganlar huquqbuzarligini oldini olish ishlari doimiy ta‘minlanishi uchun ichki ishlar organlarining tegishli hududiy organlarini xabardor qilishga majburdir.

Ushbu Nizomning 23-bandida ko‘zda tutilgan ta‘sir ko‘rsatish choralari qo‘llanilayotganida tuman (shahar) idoralararo komissiyasi huquqbuzarlik

holatining xususiyatini va sabablarini, voyaga yetmagan shaxsning yoshini va uning hayot sharoitlarini, uning huquqbuzarlik qilishda qay darajada ishtirok etganligini, shuningdek, uning turmushidagi, maktabdagi va ishdagi xulq-atvorini, albatta, hisobga olishi lozim¹.

Komissiyaning voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha ogohlantirish berish to'g'risidagi qarori bir yil mobaynida amal qiladi. Basharti, ta'sir ko'rsatish chorasi qo'llanilgan voyaga yetmagan shaxs ana shu muddat ichida yangi huquqbuzarlik sodir etmasa, ta'sir ko'rsatish chorasi tugallangan deb hisoblanadi. Ta'sir ko'rsatish chorasini qo'llagan komissiya o'z qaroriga binoan, basharti ana shunday ta'sir ko'rsatish chorasi qo'llanilgan voyaga yetmagan shaxs namunali axloqi bilan o'zining tuzalganligini ko'rsatgan taqdirda, jazoni bir yil o'tmasdan ham olib tashlashi mumkin.

Agar voyaga yetmaganga nisbatan tanlangan tarbiyaviy ta'sir choralari muvaffaqiyatsiz bo'lsa, komissiya bunday shaxsga o'rnatilgan tartibda ko'rsatilgan qattiqroq choralar qo'llash huquqiga ega.

18 yoshga to'lmagan shaxslarni JK 87-moddasi 1-qismi holatlariga muvofiq jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, avval belgilab o'tilganidek, faqat dastlabki tergov jarayonida tergovchining yoki prokurorning qarorlariga asosan yoki sudning ajrimi bo'yicha – ishni tinglashga tayinlash bosqichida amalga oshirilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi «Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida» gi qarorida belgilaydi: «ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan voyaga yetmagan shaxsni sud, agar sodir etilgan qilmishining xususiyati, aybdorning shaxsi va ishning boshqa holatlarini e'tiborga olib, uni jazo qo'llamasdan turib ham tuzatish mumkin, degan xulosaga kelsa, ishni sudda ko'rish uchun tayinlash bosqichida ishni tugatish va voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyada ko'rishga yuborish haqida ajrim chiqaradi»².

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 29 сентябрдаги «Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида»ги ЎРҚ–263-сон Қонуни, 9-модда, 27-банд, 1-хатбоши.

// Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2010 й., 39-сон, 341-модда.

² Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 15 сентябрдаги «Вояга етмаганларнинг жиноятлари хақидаги ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 21-сонли қарори, 6-банд, 3-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 25–26-б.

Bunday holatda jinoyat ishi voyaga yetmaganning roziligi bilan uning aybdorligi masalasini hal qilmasdan turib to'xtatilishi lozim.

Voyaga yetmaganni javobgarlikdan ozod qilish surishtiruvchi tomonidan yoki boshqa idora tomonidan, lavozimli shaxs tomonidan, yuqorida ko'rsatilganidan boshqalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin emas.

JK 87-moddasi 2-qismiga muvofiq, «besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlash nazarda tutilgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan yoki ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni takroran sodir etgan voyaga yetmagan shaxsni, mazkur moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lsa, sud jazodan ozod qilish va unga nisbatan majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart».

Ushbu holatlarning tahlilidan ko'rinib turibdiki, JK 87-moddasi 2-qismi tartibida voyaga yetmaganni jazodan ozod qilish xususiyati shu moddaning birinchi qismiga muvofiq uni javobgarlikdan ozod qilish xususiyatiga juda o'xshaydi.

Voyaga yetmagan sud tomonidan majburlov choralari qo'llanib quyidagi holatlarda jazodan ozod qilinishi mumkin:

– ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan voyaga yetmagan shaxs, agar sodir etgan qilmishining xususiyatlari, aybdorning shaxsi va ishning boshqa holatlarini e'tiborga olib, uni jazo qo'llamasdan turib ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelinsa, javobgarlikdan ozod qilinib, ish voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyada ko'rishga topshirilishi mumkin;

– besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlash nazarda tutilgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan yoki ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni takroran sodir etgan voyaga yetmagan shaxsni, mazkur moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lsa, sud jazodan ozod qilish va unga nisbatan majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart;

– voyaga yetmagan shaxs rivojlanishda o‘z yoshiga nisbatan ancha orqada qolgan bo‘lsa va sodir etgan qilmishining ahamiyatini to‘la ravishda anglab yetmasa, sud jazo o‘rniga majburlov chorasi qo‘llash maqsadga muvofiqligi masalasini ko‘rib chiqishi shart.

Esga solamiz, javobgarlikdan ozod qilish shaxsni jinoyat sodir qilishda aybdor deb topish bilan bog‘liq, shuning uchun u faqat sud tomonidan amalga oshirilishi mumkinligi qonunda bevosita ko‘rsatilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlariga muvofiq, «Jinoyat kodeksi 87-moddasining 2-qismida ko‘rsatilgan asoslar bilan voyaga yetmaganni jazodan ozod etish va unga nisbatan shu Kodeksning 88-moddasida ko‘rsatilgan majburlov choralari qo‘llash yuzasidan sud jazo tayinlamasdan turib jazodan ozod etish haqida hukm chiqaradi».

Bunda nazarda tutish lozimki, sud tomonidan faqat bitta majburiy chora qo‘llanilishi mumkin, bu haqda **JK 87-moddasi 2-qismi** dispozitsiyalarining tahlili guvohlik beradi: «...va unga nisbatan majburlov choralari qo‘llash».

Jinoyatni sodir qilishda aybdor deb topilgan voyaga yetmaganga tarbiyaviy tavsifdagi majburlov chorasining aniq turini tanlashda, sud, faqat JK 88-moddasida mustahkamlangan ro‘yxatni asos qilib oladi. Sud tomonidan bu moddada ko‘rsatilmagan boshqa choralarni tayinlash noqonuniy hisoblanadi.

JK 87-moddasi 3-qismiga muvofiq, 18 yoshga yetmagan shaxsga jazo o‘rniga majburlov choralari qo‘llanadi. Voyaga yetmagan shaxs rivojlanishda o‘z yoshiga nisbatan ancha orqada qolgan bo‘lsa va sodir etgan qilmishining ahamiyatini to‘la ravishda anglab yetmasa, sud jazo o‘rniga majburlov chorasi qo‘llash maqsadga muvofiqligi masalasini ko‘rib chiqishi shart (**JK 87-moddasi 3-qismi**).

Yosh bo‘yicha rivojlanishdan orqada qolish deb, kalendar yoshi bilan shaxs aqliy rivojlanish darajasining mos emasligi, aqliy rivojlanish darajasi shu yoshdagi intellektning umumiy darajasidan past bo‘lgan holatiga aytiladi. Aqliy rivojlanish darajasini aniqlashda shaxsning tarbiyalanish sharoitlari, ma‘lum ijtimoiy guruhga taalluqliligi, moddiy ta‘minlanganligi va boshqalarni e‘tiborga olish zarur bo‘ladi.

«Voyaga yetmagan sudlanuvchining aqli norasoligidan dalolat beruvchi ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda, voyaga yetmaganning aqliy rivojlanishida ortda qolgani yoki ortda qolmagani haqidagi masalaga aniqlik kiritish uchun kompleks sud-ruhiyatshunoslik ekspertizasi tayinlanishi lozim»¹.

Voyaga yetmaganning ruhiy rivojlanishdagi qoloqligi uni aqli rasolikdan mahrum etmaydi. Shaxsning qoloqligi qandaydir ruhiy buzilish bilan shartlashilmaydi, balki individual yosh xususiyatlari inobatga olinadi. Shu munosabat bilan, voyaga yetmaganning jinoiy javobgarligi va jazo mustasno qilinmaydi, biroq har bir holatda sud jazo o'rniga majburlov chorasini qo'llash maqsadga **muvofigligi** to'g'risidagi masalani yechishi lozim.

Bu masalani yechishda shaxsning aqliy qoloqlik darajasi katta ahamiyatga ega. Shu sababli, kompleks psixologik ekspertizaga voyaga yetmaganning aqliy qoloqlik darajasi, yoshiga mos bo'lmagan intellektual rivojlanishi to'g'risidagi savollar qo'yilishi lozim.

Jazo o'rniga majburlov choralari faqat, sodir qilgan qilmishi ahamiyatini to'la hajmda anglash xususiyatidan mahrum etadigan darajada, yoshdagi rivojlanishi orqada qolgan sharoitlardagina qo'llaniladi. Belgilab qo'yish kerakki, ayrim toifadagi jinoyatlar uchun pasaytirilgan yosh bo'sag'asi o'rnatilgan (13 va 14 yosh), chunki ularning jamiyatga xavfli tavsifi yaqqol ko'rinadi.

Yoshi bo'yicha rivojlanishdan ancha orqada qolayotgan voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jazo o'rniga tarbiyaviy tavsifdagi majburlov choralari qo'llab, sud hukm chiqaradi, unda shaxsning aybdor deb topilganini, tayinlangan jazoning turi va miqdorini hamda jazo o'rniga majburlov choralari qo'llash ko'rsatiladi. Hukmning tavsif qismida, albatta, qabul qilingan qaror keng asoslab berilishi lozim.

Belgilab qo'yish lozimki, sud yosh bo'yicha rivojlanishdan orqada qolayotgan voyaga yetmaganga majburlov choralari tayinlashda, qilmishining og'irligi ahamiyatga ega emas. Biroq qilmishning jamiyatga xavflilik darajasi va tavsifi majburlov choralari tanlashda hisobga

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 15 сентябрдаги «Вояга етмаганларнинг жиноятлари хақидаги ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 21-сонли қарори, 6-банд, 5-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 26-б.

olinishi lozim. Bunda sud JK 88-moddasida ko'rsatilgan tarbiyaviy tavsifdagi tarbiyaviy choralar ro'yxati bilan bog'langan, biroq faqat bir turdagi chorani tayinlash talabi bilan bog'lanmagan. Lozim bo'lib qolganda, voyaga yetmaganga bir vaqtning o'zida, bir-birini takrorlamaydigan va istisno qilmaydigan bir necha ta'sir choralari qo'llanishi mumkin.

JK 88-moddasi 1-qismiga muvofiq, quyidagilar voyaga yetmaganlarga qo'llaniladigan **majburlov choralari** bo'lib hisoblanadi:

a) sud belgilaydigan shaklda jabrlanuvchidan uzr so'rash majburiyatini yuklash;

b) o'n olti yoshga to'lgan shaxs zimmasiga yetkazilgan zararni o'z mablag'i hisobidan yoki mehnati bilan to'lash yoki bartaraf qilish majburiyatini yuklash. Ushbu chora agar yetkazilgan zarar belgilangan eng kam oylik ish haqining o'n baravaridan oshib ketmagan bo'lsa qo'llaniladi. Boshqa hollarda yetkazilgan zarar fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida undiriladi;

v) voyaga yetmaganni maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish.

Aytish lozim, keltirilgan ro'yxat tizimli xususiyatlarga ega. Qisman, u tugallangan va kengaytirilgan muhokamaga qo'yilmaydi, unda ko'rsatilgan choralar yengilidan og'iriga qarab ketma-ketlikda joylashtirilgan. Shu munosabat bilan voyaga yetmaganga qattiq majburlov tavsifidagi choralarni faqat bir sharoitda, 18 yoshga yetmagan shaxsga qonunda nazarda tutilgan yengilroq ta'sir choralari samarasiz bo'lgandagina tayinlash mumkin. Bu kabi har bir holatda u yoki bu chorani qo'llash to'g'risidagi sud qarori, albatta, asoslangan bo'lmog'i lozim.

Majburlov chorasi sifatida voyaga yetmaganga qo'llaniladigan **JK 88-moddasi 1-qismi «a» bandida sud belgilaydigan shaklda jabrlanuvchidan uzr so'rash majburiyatini yuklash** ko'rsatilgan. Bu chora ko'rib chiqilayotgan moddalar ichidagi yengilroq choradir va voyaga yetmaganning o'z qilmishida aybdorligini tan olishi, jabrlanganga yetkazgan zarari uchun pushaymonligi va unga kechirim so'rab murojaat qilishidan iborat.

Jabrlanganga uzrni voyaga yetmagan og‘zaki yoki yozma, omma orasida yoki individual ravishda keltiradi. Uzr so‘rash joyi, vaqti va tartibi va uning shakli sud tomonidan aniqlanadi. Uzr so‘rash majburiyatini yuklash ko‘rinishidagi majburlov chorasining ijrosi to‘g‘risida tegishli hujjat tuziladi (JKning 195-moddasi). Qoida bo‘yicha, voyaga yetmaganga ushbu majburlov choralari, uning qilmishi asosan ma‘naviy zarar yetkazish, jamiyat tartiblarini buzish bilan sodir etilsa, jabrlanganning hayotiga, sog‘lig‘iga yoki mulkiga zarar yetkazilmagan vaziyatlardagina tayinlanadi.

JK 88-moddasi 1-qismi «b» bandi o‘n olti yoshga to‘lgan shaxs zimmasiga yetkazilgan zararni o‘z mablag‘i hisobidan yoki mehnati bilan to‘lash yoki bartaraf qilish majburiyatini yuklash kabi majburlov choralarini nazarda tutadi. Bu chora, faqat voyaga yetmagan shaxs 16 yoshga to‘lgandagina qo‘llanishi to‘g‘risida qonunda bevosita ko‘rsatilgan. Tarbiyaviy ta‘sirning bu chorasi yetkazilgan zararni qoplash yo‘li bilan yoki uni tuzatish yo‘li bilan ijro etiladi.

Bunda, **zararni qoplash** deganda, jinoyat sodir etilganda zararlangan yoki yo‘qolgan mulkka aynan o‘xshash bo‘lgan yangi mulk, pul mablag‘i, valyuta va boshqalarni taqdim etish tushuniladi. Zararni qoplash doimo xususiy mablag‘lar hisobiga amalga oshiriladi.

Zararni bartaraf etish zararlangan mulkni tuzatish, ta‘mirlash, tiklash, uni birlamchi holatiga keltirishga yordam berishdan iborat. Zararni bartaraf etish faqat voyaga yetmaganning mehnat faoliyati natijasida amalga oshirilishi mumkin. Zararni bartaraf etish zararlangan mulkni ta‘mirlashda, jabrlangan shaxsga xizmat qilish va boshqalarda ko‘rinadi.

Voyaga yetmaganga ko‘rilayotgan choralarni tayinlashda, sud uni individuallashtirishi, faqat mazkur choralarni aybdor bo‘lgan shaxsga qo‘llanishi zaruriyatidan kelib chiqishi lozim bo‘ladi. Shu munosabat bilan yetkazilgan zararni qoplash yoki bartaraf etish majburiyatlarini yuklayotganda, sud sudlanuvchining mulkiy ahvoli, undagi mehnat malakasi, yetkazilgan zararni qoplash yoki bartaraf etish istagi borligini chuqur tahlil etishi lozim bo‘ladi. Bunda, mulkiy ahvolini baholashda shaxsning mustaqil daromadi (jumladan, soliqdan ozod etilgani ham),

mulk yoki unga bo'lgan huquqi, xususiy mablag'larini boshqa shaxslarga taqdim etish majburiyatlarining mavjudligiga e'tibor berish lozim. Yetkazilgan zararni o'z mehnati bilan qoplash hech qachon mehnatga layoqatsiz shaxsga yuklatilmaydi. Bunday vaziyatlarda, qoidaga ko'ra, yo yetkazilgan zararni qoplash yuklatiladi yoki boshqa majburlov choralari tayinlanadi.

Yetkazilgan zararni qoplash faqat voyaga yetmaganning xususiy mablag'lari yoki xususiy mehnati hisobiga amalga oshirilishi mumkin. Zararni qoplashga boshqa shaxslarning mablag'i yoki yordamiga yo'l qo'yilmaydi.

Nazarda tutish lozimki, yetkazilgan zararni qoplash yoki uni bartaraf qilish majburiyati, faqat yetkazilgan zarar eng kam oylik ish haqining 10 baravaridan oshmagan vaziyatlardagina yuklanadi. Boshqa vaziyatlarda zararni qoplash fuqaroviy-huquqiy tartibda yechiladi, bu voyaga yetmaganga **JK 88-moddasida** nazarda tutilgan majburlov choralari qo'llashga to'sqinlik qilmaydi.

JK 88-moddasi 1-qismi «b» bandida nazarda tutilgan majburlov choralarining tartibi va ijro etish muddatlari sud tomonidan aniqlanadi. Uning ijrosi to'g'risida ham tegishli hujjat tayyorlanadi (JIK 196-moddasi).

JK 88-moddasi 1-qismi «v» bandi eng qattiq majburlov chorasini nazarda tutadi – **voyaga yetmaganni maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish** voyaga yetmaganning muloqot erkinligini ancha darajada cheklovchi, kun tartibiga, o'qishiga, mehnatni tashkil etish va davolashga maxsus talablar o'rnatilishi bilan amalga oshiriladi.

Bu chora faqat 18 yoshga yetmagan shaxsni boshqa choralar bilan tarbiyalash imkoniyati bo'lmagan vaziyatlarda qo'llanadi va albatta, hukmda aniq ish holati sabablari ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Uni ota-onasi yoki ularning o'rnidagi shaxsning nazoratidan chiqib ketgan aybdorga nisbatan tayinlash, u doimo yashayotgan muhitning salbiy ta'siridan uni ajratish maqsadga muvofiq bo'lgan taqdirdagina o'zini oqlaydi.

JK 88-moddasi 2-qismiga muvofiq, «voyaga yetmagan shaxslarni maxsus o‘quv-tarbiya muassasalarida bo‘lish muddati va shartlari O‘zbekiston Respublikasining qonunlari bilan belgilanadi».

11 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan shaxs maxsus maktab-internatga yuborilishi, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan shaxs esa maxsus kasb-hunar kollejiga yuborilishi mumkin¹.

Voyaga yetmagan shaxslar maxsus maktab-internatlarda 15 yoshga yetguncha saqlanadilar, maxsus kasb-hunar kollejlarda esa, 18 yoshga yetgunga qadar saqlanadilar.

Favqulodda hollarda bunday o‘quvchilarni maxsus maktab-internatlarda saqlash muddati ular 16 yoshga yetgunlariga qadar uzaytirilishi mumkin².

Voyaga yetmagan shaxslar maxsus o‘quv-tarbiya muassasalarida to axloqan tuzalgunlariga qadar saqlanadilar, lekin bu muddat uch yildan ortib ketmasligi kerak.

Maxsus o‘quv-tarbiya muassasalari joylashgan yerdagi tuman (shahar) komissiyasi o‘quvchiga ko‘rsatib o‘tilgan muassasalarda joriy o‘qish yilida o‘rta umumiy ta’lim maktabi yoki kasb-hunar kollejining tegishli sinfini tugallaguncha uch yildan ko‘proq muddatga qolishga ham ruxsat berishi mumkin.

Maxsus maktablarning 15 yoshga to‘lgan, ammo axloqan tuzalmagan o‘quvchilari shu maktablar joylashgan yerdagi tuman (shahar) komissiyasi tomonidan maxsus kasb-hunar kollejlarga yuborilishi mumkin.

Voyaga yetmagan shaxslar uchun belgilangan maxsus o‘quv-tarbiya muassasalariga kar-soqovlar, ko‘rlar, ruhiy kasallar, aqli zaif bo‘lgan voyaga yetmaganlar, shuningdek, maxsus o‘quv-tarbiya muassasalariga qabul qilish uchun tibbiyot nuqtai nazaridan to‘g‘ri kelmaydigan belgilab qo‘yilgan ro‘yxatda ko‘rsatilgan jismoniy kamchiligi va kasalliklari bo‘lgan bolalar hamda o‘smirlar yuborilishi mumkin emas.

Belgilab qo‘yish lozimki, JK 88-moddasida nazarda tutilgan majburlov choralari tarbiyaviy tavsifga ega. Boshqacha qilib aytganda, ular jinoiy jazo xususiyatiga ega emas, o‘zida qilmishga nisbatan jazoni nazarda

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 15 сентябрдаги «Вояга етмаганларнинг жиноятлари хақидаги ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 21-сонли қарори, 7-банд, 21-хатбоши // Тўплам, 2-жилд. – 26-б.

² Ўша жойда.

tutmaydi, balki voyaga yetmaganning ongiga o'z axloqiga nisbatan salbiy bahoni yetkazish uchun qo'llaniladi. Bundan tashqari, majburlov choralari qo'llash shakllangan shaxsning to'g'rilanishiga emas, uning rivojlanishiga, ya'ni uning tarbiyasiga ta'sir qiladi. Shu munosabat bilan, majburlov choralari qo'llash, ular qo'llangan shaxsning sudlanganligiga olib kelmaydi, ularni tayinlashda eng avvalo, aybdorning shaxsi va turmush sharoitlari hisobga olinishi lozim.

JK 87-moddasiga muvofiq, sud hukmi bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish tartibida voyaga yetmaganga tayinlangan majburlov choralari bo'yin tovlaganda, shaxsga ancha og'irroq majburlov choralari yoki tegishli jinoiy jazo qo'llanishi mumkin. Bunda, sudning jazo tayinlash to'g'risidagi ajrimida qonunda ko'rsatilgan majburlov choralari qo'llash imkoniyatining yo'qligi sabablari ko'rsatilishi lozim.

5-§. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish

JK 89-moddasida o'n sakkiz yoshga to'lmasdan sodir etgan jinoyati uchun sudlangan shaxsni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishni qo'llash masalasi tartibga solingan. Bu normani, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishning umumiy masalalari tartibga solingan JK 73-moddasiga nisbatan maxsus norma sifatida ko'rilishi lozim. Shu munosabat bilan ta'kidlash lozimki, **JK 89-moddasida** bevosita ko'rsatilmagan holatlar JK 73-moddasiga muvofiq hal qilinishi lozim.

JK 89-moddasida nazarda tutilgan holatlar, faqat **18 yoshgacha bo'lgan yoshda sodir etgan jinoyati uchun jazo o'tayotgan shaxslarga** qo'llaniladi. «o'n sakkiz yoshga to'lmasdan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxsga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish tartibi qo'llanilishi mumkin» (**JK 89-moddasi 1-qismi**).

JK 89-moddasi 2-qismiga muvofiq, «jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish ushbu moddaning birinchi qismida

ko'rsatilgan jazo turlari uchun belgilangan tartib-qoida talablarini bajargan mehnat va o'qishga halol munosabatda bo'lgan mahkumga nisbatan qo'llanilishi mumkin».

Mehnatga yoki o'qishga vijdonan munosabatda bo'lish ishlab chiqarish va o'qish tartiblariga rioya qilishni, ish vaqtining davomiyligiga, o'quv mashg'ulotlari jadvaliga va o'quv topshiriqlariga o'z imkoniyatlari darajasida, o'z mehnat ko'rsatkichlarini va o'qishdagi baholari ko'rsatkichlarini ko'tarishga intilish va h.k.larni taqozo etadi. Bunda, nazarda tutish lozimki, sudlangan shaxsning mehnatga va o'qishga vijdonan munosabati uning tuzalganligidan guvoh beradi, shuning uchun bu, nafaqat jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish masalasini ko'rib chiqish oldidan, balki uning axloqida jazo o'tash muddati davomida mavjud bo'lishi lozim.

JK 89-moddasi 3-qismida voyaga yetmagan yoshda jinoyat sodir qilgan shaxsga jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash uchun jazo o'tashning eng kam zarur muddati belgilangan. Bu muddatlar kattalar uchun o'rnatilgan muddatlarga nisbatan ancha qisqartirilgan hamda JK 73-moddasida qilmishning og'irligidan va qilmishda retsidiv xususiyat mavjudligidan kelib chiqib differensiyalangan. JK 89-moddasi 3-qismiga muvofiq, «jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida to'rt dan bir qismi;

b) og'ir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismi;

v) o'ta og'ir jinoyat uchun, shuningdek, qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, tayinlangan jazo muddatining kamida yarmini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llaniladi».

Shunday qilib, mahkumni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish ko'rib chiqilayotgan modda qoidalari bo'yicha, faqat quyidagi shartlarga rioya qilingan holda amalga oshirilishi mumkin:

– voyaga yetmagan yoshda sodir qilgan jinoyati uchun jazo o‘tayotgan bo‘lsa;

– axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan bo‘lsa;

– mahkum unga tayinlangan tartibga rioya qilsa, uning tuzalayotgani to‘g‘risida guvohlik beruvchi mehnatga yoki o‘qishga vijdonan munosabatda bo‘lsa;

– mahkum **JK 89-moddasi 3-qismida** belgilangan sodir etgan qilmishining og‘irligiga qarab tayinlangan jazoning eng kam zarur muddatini o‘tagan bo‘lsa.

Sud tomonidan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish mahkumni jazoni o‘tayotgan joyida jazo ijrosi bo‘yicha ma‘muriyatning voyaga yetmaganlar ishi bo‘yicha komissiya bilan birgalikdagi so‘roviga yoki mahkumni o‘zining yoki uning himoyachisining so‘roviga muvofiq qo‘llaniladi (JPK 541-moddasi 2-qismi, 536-moddasi 3-qismi).

JK 89-moddasi 4-qismiga muvofiq, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo‘llangan shaxs, jazoning o‘talmagan qismi davrida qasddan yangi jinoyat sodir qilsa, sud unga JK 60- va 86-moddalarida nazarda tutilgan qoidalar bo‘yicha jazo tayinlaydi. Bu davr ichida ehtiyotsizlikdan jinoyat sodir etsa, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinganligiga ta‘sir etmaydi.

JK 89-moddasida tartibga solinmagan masalalar JK 73-moddasiga muvofiq hal qilinishi lozim. Masalan, 18 gacha bo‘lgan yoshda sodir etgan jinoyati uchun, javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish, o‘n to‘rt yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo‘rlilik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish, O‘zbekiston Respublikasiga, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etish, yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa xildagi ommaviy qirg‘in qurollarini, shunday qurollarni ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkinligi ayon bo‘lgan material va uskunalarni kontrabanda qilish uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo‘llanilishi mumkin emas (JK 73-moddasi 4-qismi).

(Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish to'g'risida ushbu tom V bobining «Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish» deb nomlangan 6-§ ga qarang.)

JK 90-moddasida o'n sakkiz yoshga to'lguncha jinoyat sodir etib sudlangan shaxslarga jazoni yengilrog'i bilan almashtirish masalalari tartibga solingan. Bu moddaning **1-qismiga ko'ra**, «o'n sakkiz yoshga to'lguncha sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish, ozodliki cheklash yoki axloq tuzatish ishiga hukm qilingan shaxsga nisbatan jazoning o'talmagan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin».

Hamda, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan jazo turlari uchun belgilangan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnat yoki o'qishga halol munosabatda bo'lib kelayotgan mahkumga nisbatan qo'llanilishi mumkin (JK 90-moddasi 2-qismi). Har bir alohida holatda sud, dalillarning mavjudligiga va shu bilan birgalikda mahkumning tuzalish yo'liga o'tganligiga ishonch hosil qilishi lozim.

Ko'rsatilgan toifadagi shaxslarga jazoni yengilrog'iga almashtirish institutini qo'llashda qonunda o'talmagan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi uchun mahkum o'tashi lozim bo'lgan ancha qisqartirilgan muddatlar belgilangan. **JK 90-moddasi 3-qismida** ko'rsatilishicha, «jazoning o'talmagan qismini yengilrog'i bilan almashtirish:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida beshdan bir qismi;

b) og'ir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida to'rt dan bir qismi;

v) o'ta og'ir jinoyat uchun, shuningdek, qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini o'tab bo'linganidan keyin qo'llanilishi mumkin».

Bunda, sud voyaga yetmaganlar uchun jazo tizimini hamda jazoning bir-biriga nisbatan og'irligini belgilovchi JK 81-moddasi holatlaridan kelib chiqishi lozim. Ushbu moddada ko'rsatilgan jazolargina, shaxsga jazoning

o‘talmagan qismini yengilrog‘i bilan almashtirishda **JK 90-moddasiga** muvofiq tayinlanishi mumkin.

JK 90-moddasi 4-qismi qoidalari bo‘yicha «ozodlikdan mahrum qilish yoki ozodlikni cheklash tariqasidagi jazoning o‘talmagan qismi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish jazosi yoki ozodlikni cheklashning o‘talmagan qismi muddatiga tayinlanadi, ya’ni JK 83-moddasi 1-qismida belgilangan axloq tuzatish ishlarining cheklovidan mustaqil ravishda (bir oydan bir yilgacha) tayinlanadi. Bundan tashqari, bunday holatlarda tayinlanadigan axloq tuzatish ishlari muddati JK 46-moddasi 2-qismida shu turdagi jazo uchun belgilangan umumiy eng ko‘p chegarasidan (uch yil) ham oshishi mumkin. Masalan, 16 yoshida sodir etgan og‘ir jinoyati uchun olti yilga ozodlikdan mahrum etilgan shaxs (JK 85-moddasi 2-qismi «b» bandi holatlarini hisobga olib), JK 90-moddasi 3-qismi «b» bandiga muvofiq, unga tayinlangan jazoning bir yarim yilini amalda o‘taganidan so‘ng (olti yilning to‘rtidan bir qismi) qonunning qolgan talablariga rioya qilgan bo‘lsa, ozodlikdan mahrum qilish jazosining o‘talmagan qismini to‘rt yarim yil muddatga axloq tuzatish ishlari ko‘rinishidagi jazoning yengilroq turiga almashtirish huquqiga ega bo‘ladi».

Ko‘rinib turibdiki, bu vaziyatda JK 74-moddasi 4-qismi qoidalari bo‘yicha 18 yoshga to‘lgan shaxslar uchun ozodlikdan mahrum etish ko‘rinishidagi jazoning o‘talmagan qismini axloq tuzatish ishlari bilan almashtirish holatidagi kolliziya yuzaga keladi. Shu munosabat bilan, uni o‘xshash tarzda, ya’ni ikki variantdan birini qo‘llash bilan yechish mumkin bo‘ladi:

– JK 83-moddasi 1-qismini: «ushbu Kodeksning 90-moddasi to‘rtinchi qismi holatlarini mustasno qilganda» so‘zlari bilan to‘ldirib;

– JK 90-moddasi 4-qismini: «ammo bir yildan ko‘pga emas» so‘zlari bilan to‘ldirib.

(Bu haqda kengroq ushbu tom V bobining «Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish» deb nomlanuvchi 7-§ ga qarang.)

JK 90-moddasi 5-qismiga muvofiq, «jazo yengilrog‘i bilan almashtirilgan shaxslarga nisbatan yengilroq jazoning tegishli qismi o‘tab

bo‘linganidan keyin ushbu Kodeksning 89-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq, jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish qo‘llanilishi mumkin».

Agar shaxs, unga nisbatan jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish qo‘llanganida, jazoning o‘talmagan qismi davrida qasddan yangi jinoyat sodir qilsa, sud unga JK 86-moddasi holatlarini hisobga olib, 60-moddada nazarda tutilgan qoidalar bo‘yicha jazo tayinlaydi (**JK 90-moddasi 6-qismi**).

o‘n sakkiz yoshga to‘lguncha sodir etgan jinoyati uchun, shaxsga jazoni yengilrog‘i bilan almashtirganda nazarda tutish lozimki, JK 90-moddasi jazoni yengilrog‘iga almashtirishning umumiy asoslarini belgilovchi JK 74-moddasining tegishli holatlarini to‘ldiradi, shu munosabat bilan JK 90-moddasida yechilmagan masalalar JK 74-moddasiga muvofiq yechilishi lozim.

(Bu haqda kengroq ushbu tom V bobining «Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish» deb nomlanuvchi 7-§ ga qarang.)

«Voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar

1. Qanday maqsadda 1994 yili Jinoyat kodeksiga voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlarini belgilovchi bo‘lim kiritildi?

2. Voyaga yetmaganlar uchun jazo tizimi jazoning qanday turlarini nazarda tutadi?

3. Voyaga yetmaganlarga ozodlikdan mahrum etish ko‘rinishidagi jazo tayinlashning shartlari qanday?

4. Voyaga yetmaganlarga jazo tayinlashning xususiyatlari nimadan iborat? Voyaga yetmaganlarga nisbatan shartli hukm qo‘llanishiga yo‘l qo‘yiladimi?

5. Qanday hollarda voyaga yetmaganni jinoiy javobgarlikdan ozod qilib materiallarni voyaga yetmaganlar ishi bo‘yicha komissiyaga ko‘rib chiqish uchun topshiriladi?

6. Qanday holatlarda voyaga yetmaganlarga tarbiyaviy ta’sir etuvchi majburlov choralari qo‘llanib jazodan ozod etilishiga yo‘l qo‘yiladi?

7. Sodir etgan qilmishi ahamiyatini to'la o'lchamda anglash xususiyatidan mahrum etuvchi voyaga yetmaganni yoshi bo'yicha rivojlanishidan sezilarli orqada qolishi.

8. Voyaga yetmaganlarga qo'llaniladigan majburlov choralarining qanday turlari mavjud?

9. Jazoni o'tash muddatidan ilgari shartli ozod qilish to'g'risida qaror qabul qilinganda sudlangan shaxs voyaga yetgan taqdirda u qaysi qoidalar (JK 73- yoki 89- moddasi) bo'yicha ozod etiladi?

10. 18 yoshgacha bo'lgan yoshda sodir etgan jinoyati uchun sudlangan shaxsga jazoni yengilrog'i bilan almashtirishning qanday xususiyatlari mavjud?

11. JK Umumiy qismi XII va XIII boblarida nazarda tutilgan umumiy asoslarda voyaga yetmaganni javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish mumkinmi?

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Волгарева И.В., Шилов Н.К. Уголовная ответственность несовершеннолетних. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001. – 300 Б.

Кругликов Л.Л., Василевский А.В. Дифференциация ответственности в уголовном праве. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – 300 Б.

Лебединская К.С., Райская М.М., Грибанова Г.В. Подростки с нарушениями в аффективной сфере. – М.: 1988. – 106 Б.

Мельникова Э.Б. Ювенальная юстиция: Проблемы уголовного права, уголовного процесса и криминологии. – М.: 2000.

Пудовочкин Ю.Е. Ювенальное уголовное право: теоретико-методологические и историко-правовые аспекты. – М.: 2000. – 40 Б.

Старков О.В., Милюков С.Ф. Наказание: уголовно-правовой и криминологический анализ. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2001.– 560 Б.

Ilmiy maqolalar

Абдурасулова К.Р. Капкан для простока // – Правда Востока. – 17 апреля. – 1994.

Абдурасулова К.Р. Некоторые вопросы предупреждения правонарушений среды несовершеннолетних // Ж. Права ребёнка: международные и национальные стандарты. 2000. № 1. – 149–153-б.

Зуфаров Р.А., Абзалова М.Х. Некоторые вопросы либерализации уголовной ответственности несовершеннолетних // // Жиноят ва жиноят процессуал қонунчилигини такомиллаштириш масалалари: миллий ва хорижий тажриба. Халқаро илмий амалий конференция материаллари тўплами. – Тошкент, ТДЮУ, 2014. –Б. 54-62.

Махкамов О.М. Бола ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш – энг устувор вазифадир // Адвокат. (Ижтимоий-ҳуқуқий, илмий-оммабоп журнал). – 2016. № 1. – Б. 20-22

Миловидов Г.Е., Михайлов А.С. Спецшкола: социально-психологические особенности подростков и рецидивы // Социологические исследования. 1992. № 9.

VII BOB. TIBBIY YO‘SINDAGI MAJBURLOV CHORALARI

1-§. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari tushunchasi va maqsadlari

Jazodan farqli ravishda **tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari** jinoiy javobgarlik elementi hisoblanmaydi. Ular shaxslarga nisbatan qo‘llanilganda obyektiv ravishda, ularni jazoga, ularga aziyat keltirishga, ular huquqlaridan ma‘lum darajada mahrum qilish yoki cheklashni keltirib chiqarmaydi, ularga tuzatuvchi ta‘sir o‘tkazmaydi hamda umumiy va xususiy prevensiyani ta‘minlaydi; bu shaxslar tomonidan sodir etilgan qilmishlar davlat nomidan salbiy bahoda ifodalanmaydi va sudlanganlik muddatini aniqlashda hisobga olinmaydi. Agar jazo hamma vaqt sud tomonidan aniq miqdorda va konkret aniqlangan muddatga tayinlansa, ko‘rsatilgan chorani qo‘llash muddati butun va to‘la holda majburiy davolanishga jalb etilgan shaxs sog‘lig‘ining holatiga bog‘liq bo‘ladi.

Shu bilan birga tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarining jinoiy jazo bilan ma‘lum o‘xshash tomonlari bor. Jazolashga o‘xshab, ular davlat majburlov choralari hisoblanadi, chunki davlat nomidan, sud ajrimi bilan tayinlanadi va ularning qo‘llanishi qonunga qarshi sodir etilgan qilmishning huquqiy oqibatlaridan biri bo‘lib, ular tayinlangan shaxsning buyrug‘iga yoki xohishiga bog‘liq emas.

Ta‘kidlab o‘tish lozimki, alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlik kasalligiga yo‘liqqan shaxslarga qo‘llaniladigan majburlov choralari jinoyat qonunchiligi vazifalarini hal qilish va jazo maqsadiga erishishga yordam beruvchi sharoitlarni yaratadi. Ammo, umuman olganda tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari jazo maqsadlarini ta‘minlamaydi, balki asosan ruhiy kasallikka hamda alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka chalingan shaxslarni davolash uchun, salomatligini yaxshilash uchun va bu shaxslar tomonidan jamiyatga xavfli qilmish sodir etilishining oldini olish uchun mo‘ljallangan.

NOTA BENE !

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari davlat nomidan sud ajrimi bilan, ijtimoiy xavfli qilmish yoki jinoyat sodir etgan ruhiy kasallarga,

shuningdek, alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlik kasalligiga yo‘liqqan shaxslarga qo‘llanib, bu shaxslarga ruhiy va boshqa tibbiy yordamni majburlov tartibida ko‘rsatilishidan iboratdir (butunlay tuzalib ketgunicha yoki turg‘un yaxshilanish kelgunicha va kasal jamiyatga xavfliligini yo‘qotgunicha).

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llash orqali erishish ko‘zlangan maqsadlar (**JK 91-moddasi**) jinoyat qonunida har tomonlama tartibga solingan va kengaytirilgan tarzda sharhlanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

JK 91-moddasida ko‘ra, «tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari ruhiy kasallik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarga nisbatan ularni davolash va ularning yangi ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etishining oldini olish maqsadida qo‘llaniladi».

Shunday qilib, ruhiy kasallarga nisbatan qo‘llaniladigan majburlov choralari maqsadlari sifatida, qonun chiqaruvchi quyidagilarni belgilaydi:

- ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan ruhiy kasallarni davolash;
- ruhiy kasallar tomonidan yangi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishining oldini olish.

Kimni ruhiy kasal deb topish lozimligini qonun tushuntirmaydi, bu tushunchani aniqlashni, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llashning umumiy asoslarini tartibga soluvchi **JK 92-moddasi** holatlarining tahlilidan kelib chiqib shakllantirish mumkin. Aqli noraso shaxslarni, ya‘ni o‘z harakatlari mazmunini anglash imkoniyatidan mahrum bo‘lgan yoki bu holat paydo bo‘lish vaqtidan qat‘i nazar, o‘z harakatlarini boshqara olmaydigan ruhiy kasallik bilan og‘rigan shaxslarni ruhiy kasal deb topish lozim. Quyidagilar bunday shaxslar sifatida ko‘rib chiqiladi:

- aqli noraso holatda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganlar;
- hukm chiqarilguncha ruhiy kasallik bilan og‘rigan, o‘z harakatlari mazmunini anglash imkoniyatidan va ularni boshqarishdan mahrum bo‘lgan, ya‘ni aqli noraso bo‘lib qolgan;

– jazo o‘tayotgan vaqtda ruhiy kasallik bilan og‘rigan, o‘z harakatlari mazmunini anglash imkoniyatidan va ularni boshqarishdan mahrum bo‘lgan, ya’ni aqli noraso bo‘lib qolgan shaxslar.

JK 91-moddasi 1-qismi mazmunida **davolanish** deb, kasalga uni ijtimoiy tiklash va ruhiy holatini ijobiy o‘zgartirish uchun aniq ta’sir qilish jarayonini tushunmoq lozim. Bu holatda davolanish shaxsni butunlay tuzatish maqsadini ko‘zlamaydi, biroq ruhiy holatining o‘zi uchun ham, atrofdagilar uchun ham xavf tug‘dirmaydigan holatgacha yaxshilanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llashdagi davolanish uslublari va usullari, bunday davolash ushbu choralar bilan bog‘liq bo‘lmagan holda tayinlangan: ixtiyoriy tartibda yoki O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 31 avgustdagi 123-II-sonli «Ruhii yordam to‘g‘risidagi» Qonuni 27-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha noixtiyoriy gospitallashtirilgan kasallarga qo‘llaniladigan uslub va usullardan sezilarli farq qilmaydi. Qisman, ruhiy kasallik bilan og‘rigan shaxslarga ularning roziligisiz yoki ular qonuniy vakillarining roziligisiz, shaxslarga ruhiy yordam ko‘rsatish asoslaridan mustaqil ravishda, ruhiy kasallikni davolash uchun qaytarib bo‘lmas oqibatlariga olib keladigan jarrohlik va boshqa uslublarni qo‘llash, meditsina vositalari va uslublari sinovini o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi¹.

Jamiyatga xavfli qilmish sodir etgan ruhiy kasal shaxsga tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini tayinlashda, sud bu choralar davolashdan tashqari, **yangi, jamiyatga xavfli qilmish sodir etilishining oldini olish** maqsadini nazarda tutayotganidan kelib chiqishi lozim. Bunda, ko‘rsatilgan maqsadlarni amalga oshirish talablariga shaxs tuzalganidan keyin emas, balki davolanish jarayonida ham rioya qilinishi lozim. Sud shaxs tomonidan yangi, jamiyatga xavfli qilmish sodir etilishining oldini olish zaruriyatidan kelib chiqib, ruhiy kasal shaxsga tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasining aniq turini, bu chorani ijro etuvchi sog‘liqni saqlash muassasasi ularning davomiyligini aniqlaydi.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 31 августдаги «Психиатрия ёрдами тўғрисида»ги 123–II-сон Қонуни, 13-модда 4-қисми // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 7–8-сон, 215-модда.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan ruhiy kasal shaxsga tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasining aniq turini tanlashda sud belgilangan maqsadlarning hammasiga erishish zaruriyatidan kelib chiqishi lozim. Ushbu choralarni ijro etuvchi sog‘liqni saqlash idoralari ham shunday prinsiplarga rioya qilishlari lozim.

Shu bilan bir vaqtda, ruhiy kasal shaxs tomonidan yangi jamiyatga xavfli qilmish sodir etilishining oldini olish maqsadlariga katta ahamiyat berish lozim. Shu munosabat bilan, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarni ayrim kasalliklarga qarshi ko‘rsatma mavjudligida, natijasizligida yoki ayrim kasalliklarni faol davolash uslublari ishlab chiqilmaganligi uchun, zaruriyat tug‘ilganda o‘tkazilayotgan davolashda tanaffus qilib, tegishli davolash o‘tkazmasdan turib tayinlashga va qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi.

Bundan tashqari, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari sud tomonidan, ushbu choralar qo‘llangan shaxslarning sog‘lig‘i kasallikning rivojlanishi natijasida juda og‘irlashib, jamiyat uchun ham, o‘zi uchun ham xavf tug‘dirmay qo‘yganda bekor qilinadi.

JK 91-moddasi 2-qismi alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlik bilan aziyat chekkanlarga tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarni tayinlashda qo‘llanayotgan maqsadlarni belgilaydi: «Sud jazolash bilan bir qatorda alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlik kasalligiga yo‘liqqan shaxslarga nisbatan davolash uchun va jazolash maqsadiga erishishga ko‘maklashuvchi sharoit yaratish uchun tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarni tayinlashi mumkin».

Alkogolga nisbatan og‘riqli tortish, me‘yor hissini yo‘qotish, iste‘mol qilayotgan spirtli ichimlik miqdorini nazorat qila olmaslik, ruhiy va somatik kasalliklar va ijtimoiy axloq me‘yorlarini buzish mavjud bo‘lgan shaxs **alkogolizm** bilan og‘rigan shaxs deb topiladi ¹.

¹ См.: Приложение № 2 к Положению о медицинском освидетельствовании авиационного персонала гражданской авиации Республики Узбекистан (Утвержденному Приказом начальника Госавианадзора от 4 октября 2002 г. № 128, зарегистрированному Министерством юстиции Республики Узбекистан 2 ноября 2002 г. № 1186) ст. 3. // Бюллетень нормативных актов министерств, государственных комитетов и ведомств Республики Узбекистан, 2002 г., № 21; Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2004 г., № 48-49, ст. 498; 2006 г., № 48-50, ст. 496; 2007 г., № 22, ст. 229.

Giyohvandlik narkotik vositalarga psixojismoniy bog‘liqligi bilan shartlashilgan kasallikni o‘zida ifodalaydi¹.

Zaharvandlik – bu psixotrop moddalarga hamda ruhiy faol harakati bilan narkotik vositalarga o‘xshash bo‘lgan dori bo‘lmagan sun‘iy va tabiiy kelib chiqqan moddalarga psixofiziologik bog‘liqligi bilan shartlashilgan kasallikdir².

Ruhiy kasallarga tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini tayinlashdagi kabi, alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlik bilan og‘rigan shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini tayinlash ularni **davolash** maqsadini nazarda tutadi.

Bu kategoriyadagi shaxslarni davolash, ruhiy kasallarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini tayinlash maqsadlari **JK 91-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan** maqsadlardan hech ham farqlanmaydi.

Shu bilan bir vaqtda qonun ko‘rsatilgan shaxslar tomonidan jamiyatga xavfli qilmishlar sodir etilishining oldini olishni mustaqil maqsad sifatida qo‘ymaydi, chunki ko‘rib chiqilayotgan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilishi jinoiy jazo tayinlanishini va qo‘llanishini istisno qilmaydi. Shu munosabat bilan, bunday shaxslarga tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasi jinoiy jazo bilan bir vaqtda tayinlanib, yangi jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadini o‘z ichiga oladi.

(Jazo tayinlash maqsadlari to‘g‘risida ushbu tom I bobining «Jazolash maqsadlari» deb nomlanuvchi 2-§ ga qarang.)

Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlik bilan og‘rigan shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini qo‘llash jazoga nisbatan yordamchi vazifaga ega bo‘lib, jazo maqsadiga erishishga ta’sir ko‘rsatuvchi sharoitlar yaratadi.

2-§. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llashning umumiy asoslari

«Ijtimoiy xavfli qilmishni aqli norasolik holatida yoki hukm chiqarilgunga qadar yoxud jazoni o‘tash vaqtida ruhiy kasallikka

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 19 августдаги «Гийёхвандлик воситалари ва психотроп моддалар тўғрисида»ги 813–I-сон Қонуни, 3-модда, 8-хатбоши // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 9-сон, 210-модда.

² Ўша жойда.

chalinganligi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini anglamaslik va o'z harakatlarini boshqara olmaslik holatida sodir etgan shaxsga nisbatan, agar u ruhiy holati va sodir etgan qilmishining xususiyatiga ko'ra jamiyat uchun xavfli deb topilsa, sud tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlashi mumkin» (**JK 92-moddasi**).

JKda bayon etilgan me'yorlar shaxsga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash imkonini beradigan shunga o'xshash shartlar tizimini keltiradi:

– tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi masala hal qilinayotgan shaxs tomonidan, aqli noraso holatda yoki hukm chiqarilguncha kasal bo'lib qolgan yoki jazoni o'tash davrida o'z harakatlari ahamiyatini anglash va boshqara olish imkoniyatidan mahrum qiluvchi ruhiy kasal holatida bo'lib ijtimoiy xavfli qilmish sodir etsa;

– shaxsning ruhiy holati va sodir etgan qilmishi tavsifi bilan o'rnatilgan jamiyatdagi xavfliligi;

– bunday shaxsga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi sud qarori.

Bunda, shuni nazarda tutish lozimki, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlash zaruriyatini bilish uchun hal qiluvchi vaqt, shaxsni aqli rasoligidan mahrum qiluvchi kasallikning o'tkir namoyon bo'lgan vaqtidir.

Shaxsda, **o'z harakatlari ahamiyatini anglash va ularni boshqarish layoqatidan mahrum etuvchi ruhiy kasallikning** (aqli norasolik) mavjudligi sud tomonidan sud-psixiatriya ekspertizasi xulosasiga muvofiq belgilanadi.

Nazarda tutish lozimki, tergovchi yoki sud ayblanuvchining, sudlanuvchining yoxud ishga ayblanuvchi, sudlanuvchi tariqasida jalb qilinmagan shaxsning ruhiy kasalligi masalalari yuzasidan uning jinoyat sodir etganligi yoki Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganligi haqida ishonarli dalillar mavjud bo'lgan taqdirda, dastlabki tergovni yuritish va sud muhokamasi vaqtida mazkur shaxsning aqli norasoligi yoki ruhiy kasalligi to'g'risida asosli shubha tug'ilgan bo'lsa, sud-psixiatriya ekspertizasi tayinlaydi (JPKning 567-moddasi).

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini tayinlash, faqat ijtimoiy xavfli qilmish yoki jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan yo'l qo'yiladi. Bunda, layoqatsiz holatda jamiyatga xavfli qilmish sodir etgan shaxsga nisbatan faqat shularni aniqlash yetarli:

- jinoyat obyekti, jinoyatdan yetkazilgan zararining tavsifi va miqdori, jabrlangan shaxsni tavsiflovchi holatlar;

- vaqti, joyi, usuli hamda Jinoyat kodeksida ko'rsatilgan boshqa jinoyat sodir etish holatlari, qilmish bilan kelib chiqqan jamiyatga xavfli oqibatlar orasidagi sabablarning bog'lanishi;

- ayblanayotgan, sudlanayotgan shaxsni tavsiflovchi holatlar (JPK 56-moddasi 2-qismi 1-bandi).

Ko'rsatilgan toifadagi shaxslarning qilmishda aybdorligi dalillashga qo'yilmaydi. Shaxsning harakatida yoki harakatsizligida jinoyat tarkibi belgilari mavjud bo'lmasa, kasalning xavflilik darajasidan mustaqil ravishda tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini tayinlash mumkin emas. Ruhiy holati buzilgan va umumiy asosda davolanishga muhtoj bo'lgan shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi ishni yuritish tugatilgan taqdirda, sud bu haqda shaxsning turar joyidagi sog'liqni saqlash organiga darhol xabar qiladi (JPK 577-moddasi 6-qismi). Bunday vaziyatlarda, bu kabi shaxslarning davolanishini tashkil etish va huquqiy status tartibi O'zbekiston Respublikasining «Ruhiy yordam to'g'risida»gi Qonuni bilan reglament qilinadi.

Agar jamiyatga xavfli qilmish shaxs tomonidan layoqatsiz holatda sodir etilgan bo'lsa, hamma masalalar uchun sud tomonidan jinoyat tarkibining barcha elementlarini, JPK 82-moddasida ko'rsatilgan aybni ham qo'shganda, aniqlanishi talab etiladi. Bunda quyidagilarni hisobga olish lozim:

- agar shaxs, jinoyatni sodir etganidan so'ng, ammo sud hukmigacha o'z harakatlari ahamiyatini anglash va boshqara olish xususiyatidan mahrum qiluvchi ruhiy kasal bo'lib qolsa (JK 67-moddasi), shaxsning qilmishida jinoyat tarkibining elementlari mavjudligiga aloqador hamma masalalar tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi

sud qarorini aniqlashda yechilishi lozim bo‘ladi. Shaxsga nisbatan uni jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topib unga nisbatan hukm chiqarilsa va shu bilan bir vaqtda unga tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llash to‘g‘risida qaror chiqarilishi qonunchilik talablarini buzishdan iborat va u hukmni bekor qilishga olib keladi;

– agar shaxs, hukm qaroridan keyin tayinlangan jazoni ijro etish davrida, o‘z harakatlari ahamiyatini anglash va boshqara olish xususiyatidan mahrum qiluvchi ruhiy kasal bo‘lib qolsa (JK 75-moddasi 1-qismi), unda tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari tayinlash to‘g‘risidagi ajrimning sabablarini tushuntirish qismida, shaxs qaysi hukmga muvofiq, qachon sodir etgan jinoyati uchun aybdor deb topilgan va tayinlangan jazo turi va miqdori ko‘rsatilishi lozim. Bunday ajrimning rezolyutsiya qismida albatta, tegishli hukmga suyanib shaxsning jinoyatni sodir etgan deb topilganligi ko‘rsatiladi.

Alohida e‘tibor bermoq lozimki, shaxs jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan (JK 67-moddasi va 75-moddasi 1-qismi nazarga olinmaydi) jazoga tortish muddatining o‘tib ketganligi va hokazolar yoki aniqlangan qilmishni dekriminalizatsiyalashtiruvchi qonunchilikning o‘zgarishi tufayli amnistiya aktiga muvofiq ozod etiladi. Bunday vaziyatlarda tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari tayinlash to‘g‘risidagi masalani yechayotganda sud, jinoiy javobgarlikni amalda tatbiq etishda majburiy davolash, sodir etilgan jinoyatning huquqiy yakunidan biri ekanligidan kelib chiqishi lozim. Shu munosabat bilan, shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asosining mavjudligi tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llashga so‘zsiz to‘sqinlik qilmog‘i lozim. Bunday vaziyatda, agar tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishdan avval tayinlangan bo‘lsa (masalan, sodir etgan qilmishi keyinchalik jamiyatga xavfliligini yo‘qotsa yoki sud tomonidan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llash to‘g‘risida ajrim qabul qilinganidan ozroq vaqt o‘tganidan keyin dekriminalizatsiyalashtirilgan bo‘lsa), u holda, ular bekor qilinishi bilan bir vaqtda O‘zbekiston Respublikasining «Ruhiy yordam to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq,

shaxsning turar joyi bo'yicha sog'liqni saqlash idoralarida davolanishini tashkil etish va kuzatish uchun xabardor etilishi lozim.

Majburlov choralarining bekor qilinishi shaxsni faqat jinoiy javobgarlikdan ozod etilishiga olib keladi.

Shaxsning jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi yoki jazo muddatining qisman qisqartirilishi, jazodan ozod etish asoslaridan mustaqil ravishda majburlov choralarini qo'llashni bekor qilishga, to'xtatilishiga yoki qisqartirilishiga ta'sir etmaydi.

Sud faqat shaxs jamiyat uchun xavfni ifodalagan sharoitdagina majburiy davolanishni tayinlashi mumkin. Bunda shaxsni jamiyatga xavfliligini baholashda nafaqat uning ruhiy holatini, balki qilmishining og'irligini hisobga olish kerak. Sud tomonidan shaxsning jamiyatga xavfliligini aniqlashda ko'rsatilgan ko'rsatkichlar birgalikda tahlil qilinishi lozim, biroq asosan shaxsning ruhiy holati e'tiborga olinishi lozim, chunki xuddi o'shalar shaxsning xulqini, hatto anglanmagan xulqini aniqlaydi.

Belgilab qo'yish lozimki, sud tomonidan ruhiy holatni baholash tahlil etilayotganida, shaxsning sud muhokamasi vaqtidagi holatigina emas, uning avvalgi xulqi, shaxs tomonidan yangi, jamiyatga xavfli qilmishlar sodir etilishi mumkinligi ham ko'rib chiqilishi lozim.

Shuningdek, ko'rsatib o'tish zarurki, shaxsning jamiyatga xavfliligini aniqlashda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, xususan, O'zbekiston Respublikasi «Psixiatriya yordami to'g'risida»gi Qonuniga tayanish kerak.

Aytib o'tilgan qonunchilik aktining tahlilidan kelib chiqib, shaxs jamiyat uchun xavfliligining oshib ketgan darajasini «shaxsning ruhiy kasalligi og'ir bo'lgan holatlarda faraz qilinadi va quyidagicha shartlanadi:

- uning o'ziga va atrofdagilarga bevosita xavfliligi;
- uning yordamga muhtojligi, ya'ni mustaqil ravishda asosiy hayotiy talablarini qondira olish xususiyatining yo'qligi;
- agar shaxs ruhiy yordamsiz qoldirilsa, ruhiy holatining yomonlashuvi natijasida uning salomatligiga sezilarli zarar yetadi»¹.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 31 августдаги «Психиатрия ёрдами тўғрисида»ги 123–II-сон Қонуни, 27-модда // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 7–8-сон, 215-модда.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarni **faqat sud** tayinlashi mumkin. Bu masala bo'yicha ajrim sud tomonidan, unga nisbatan amalga oshirilayotgan jarayonda shaxsning huquqlariga va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini kafolatlaydigan va uning umumiy va maxsus qoidalariga rioya qilish bilan chiqariladi. Boshqa hech qanday idora yoki muassasa, lavozimli shaxs, ichki ishlar idoralari, prokuratura va boshqalar majburiy davolashni tayinlashlari mumkin emas.

Shunga e'tiborni qaratish lozimki, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari jinoiy jazo choralaridan biri bo'lib hisoblanmaydi va ularning tayinlanishi hukm bilan emas, balki sudning tegishli ajrimi bilan tayinlanadi. Bunda, sud tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini tayinlayotib, qabul qilingan qarorni aniqlashda, albatta, uning sabablarini tushuntirishi (JPK 467-moddasi 3-qismi), jamiyatga xavfli qilmishni sodir etganligini tasdiqlovchi dalillarni va uning majburiy davolashga ehtiyoji borligi to'g'risida, shaxsning ruhiy holati to'g'risidagi sud-psixiatriya ekspertizasi xulosasini keltirib asoslab berishi lozim (JPK 577-moddasi 3-qismi).

Jamiyatga xavfli qilmish sodir etgan shaxsga tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashda, sud bu choralarni amalga oshirish muddatini belgilamasdan, faqat tegishli majburiy davolash turini tanlaydi xolos. Majburiy davolash qaysi muassasada o'tkazilishi masalasi sog'liqni saqlash idoralari tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq mustaqil hal etiladi. Sog'liqni saqlash idoralari kasalning ruhiy holati jamiyatga xavflilik tug'dirmaydigan darajada o'zgarmaguncha davom etadigan majburiy davolash muddatini mustaqil belgilaydi.

Bir vaqtning o'zida layoqatsiz ruhiy kasal shaxsga nisbatan jinoiy jazo va tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ijro etilishiga yo'l qo'yilmaydi, chunki bunday vaziyatda jazo va majburiy davolash maqsadlariga erishish imkoniyatsizdir. Shu bilan bir vaqtda, bu qoida majburiy davolash ularning kasallik holati bilan bog'liq bo'lgan, ularning ixtiyoriy va maqsadga yo'naltirilgan harakatlari bilan chaqirilgan: alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikdan aziyat chekkan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi, chunki ulardagi ruhiy kasallik layoqatlilikni istisno qilmaydi.

Shaxsga nisbatan bir necha jinoyati uchun tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash bo'yicha olib borilayotgan vaziyatlarga sud alohida

e'tibor berishi lozim. Bunday vaziyatda majburlov choralarini tayinlashda quyidagilardan kelib chiqish zarur:

– bir necha jinoyatlarni ko'rishda, ularning hech biri uchun shaxs avval jinoiy javobgarlikka tortilmagan. Majburiy davolash hamma jinoyatlar uchun ish materiallarining hammasini o'rganish asosida, sud tomonidan qilmish layoqatli va layoqatsiz holatda sodir etilganligini ko'rsatish bilan tayinlanadi. Biroq oxirgi vaziyatda ajrimda jazo turi va miqdori ko'rsatilmaydi. Shu bilan bir vaqtda, majburlov choralarini bekor qilish umumiy tartibda shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish va u tomonidan layoqatli holatda sodir etilgan jinoyat uchun jinoiy jazo tayinlashda sud ishini yangidan boshlashga olib keladi;

– bir necha jinoyatlar, ulardan ayrimlari uchun shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan bo'lsa (bir necha hukmlar), bunday vaziyatda tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini tayinlash, yuqorida ko'rsatilgani kabi, ya'ni hamma jinoyatlar uchun sud ajrimida layoqatli va layoqatsiz bo'lgan holatda sodir etilganligining ko'rsatilishi bilan tayinlanadi. Shu bilan bir vaqtda, ajrimda avvalgi qilmishlari uchun shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgani va jazolangan jazo turini va miqdorini keltirish bilan hamda avvalgi qilmishlari uchun shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaganligi (bunday vaziyatlarda jazoning turi va miqdori to'g'risidagi masala ishda hal qilinishi lozim bo'lmaydi) alohida ko'rsatilishi lozim.

Majburiy davolashning bekor qilinishi oxirgi qilmishiga nisbatan umumiy tartiblarda jazoning turi va miqdorini aniqlash bilan (ushbu qilmish layoqatli holatda sodir etilgan bo'lsa) sud ishining tiklanishiga olib keladi. Bunda jazoning yakuniy miqdori, qoida bo'yicha, jazo barcha jinoyatlar va hukmlar jami bo'yicha tayinlanadi.

3-§. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining turlari

JK 93-moddasiga muvofiq, «tibbiy yo'sindagi majburlov choralariga quyidagilar kiradi:

a) majburiy ambulatoriya kuzatuvda bo'lish va ruhiy kasallik mutaxassisida davolanish;

b) umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasida majburiy davolanish;

v) umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasining sog‘liqni tiklash maxsus bo‘limida majburiy davolanish;

g) kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida yoki bo‘linmasida majburiy davolanish».

Qonun chiqaruvchi tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini ixtiyoriy tartibda emas, balki tizim bilan qat’iy ketma-ketlikdan kelib chiqib joylashtiradi. Bunda, ushbu ketma-ketlikni tashkil etish davolanishga jalb etilgan shaxslarning huquq va erkinliklarini cheklash shartlarini kamroq cheklanishidan ko‘proq cheklanishiga qarab joylash prinsiplariga asoslangan. Bu bilan qonun sudlarni tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarining ichidan kamroq cheklashga ega bo‘lganlarini qo‘llashda JK 91-moddasida belgilangan majburiy davolash uchun zarur va yetarli sonini aniqlashga yo‘naltiradi.

JK 93-moddasida ko‘rsatilgan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarining turlari tugallangan va kengaytirilgan talqinni taqozo etmaydi. Shu munosabat bilan, ushbu moddada ko‘rsatilmagan qaysidir choralarni tayinlash jinoyat qonunining buzilishi bo‘lib, sud ajrimini bekor qilishga olib keladi. JPK 467-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan, kasalga qarab turish vazifasini tayinlash tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari hisoblanmaydi.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari turlarining ro‘yxatini **majburiy ambulatoriya kuzatuvida bo‘lish va ruhiy kasallik mutaxassisida davolanish** ochib beradi (**JK 93-moddasi «a» bandi**).

Davolanishning bu turi shu bilan tavsiflanadiki, u kasalni maxsus muassasaga (statsionarga) ajratmasdan amalga oshiriladi va kasalning turar joyi bo‘yicha, kasal doimo borib turishi, davolovchi shifokorning hamma talablarini bajarishi lozim bo‘lgan sog‘liqni saqlash idorasining ruhiy-asab muassasasida amalga oshiriladi (JPK 181-moddasi 2-qismi). Amaldagi qonunchilikka muvofiq, ambulatoriya davolanishi maslahat-davolash yordami yoki dispanser kuzatuv ko‘rinishida o‘tkaziladi¹.

Davolashning bunday turini tanlash tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari tayinlangan shaxsga nisbatan, yaqinlari bilan muloqotni, uni

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 31 августдаги «Психиатрия ёрдами тўғрисида»ги 123–II-сон Қонуни, 23-модда // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 7–8-сон, 215-модда.

o‘rab turgan muhitni butunlay o‘zgartirmaslikni hamda ishni davom ettirishni va atrofdagilar bilan erkin muloqotni saqlab qolish imkoniyatini beradi.

JK 93-moddasi «b» bandi umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasida majburiy davolanishni nazarda tutadi.

Shifoxona deb, majburiy davolashni qo‘llash ma‘nosida alohida maxsuslashtirilgan tashkilot (shifoxona) emas, balki sog‘liqni saqlash idoralarining statsionar sharoitlarda ruhiy davolanishni amalga oshiruvchi har qanday muassasasi (markaz, institut, klinika, dispanser va boshqalar) tushuniladi.

Umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasida majburiy davolanish majburiy davolash tayinlangan shaxsga statsionar sharoitlarda jamiyat uchun xavfli qilmishlar sodir etmagan shaxslar bilan bir qatorda ruhiy yordam ko‘rsatishdan iboratdir. Bunday holatda, ushbu shaxsga boshqa ruhiy kasallarga qo‘llaniladigan tartib qo‘llaniladi, majburiy davolash tayinlangan shaxsning statusidan kelib chiqadigan cheklovlarni mustasno qilganda, ya‘ni tayinlangan davolanishni qabul qilish majburiyati (JPK 185-moddasi 4-qismi), shifoxonadan chiqish imkoniyati faqat majburiy davolanishni bekor qilish to‘g‘risidagi sud ajrimi va boshqalar¹ bilan amalga oshiriladi. Majburiy davolanishning afzallik tomonlari shundan iboratki, kasalga, unda mavjud bo‘lgan ruhiy kasallikdan, xulqining xususiyatlaridan, uning ruhiy va jismoniy holatidan, bo‘lim mutaxassislashganligidan, xizmat ko‘rsatish hududi doirasidan kelib chiqib davolash-reabilitatsiya qilish choralarini differensiyalash qo‘llaniladi.

Umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasining sog‘liqni tiklash maxsus bo‘limida majburiy davolanish (JK 93-moddasi «v» bandi) majburiy davolashning yana bir turi sifatida medikamentoz terapiyani qattiqroq cheklovchi shartlar bilan o‘tkazish orqali farqlanadi.

Majburiy choralarning bu turi umumiy tipdagi ruhiy shifoxona chegarasida, ammo qat‘iy belgilangan chegaralarda – reabilitatsiya bo‘limida o‘tkaziladi. Bunday bo‘lim maxsuslashtirilgan tavsifga, ya‘ni faqat sud tomonidan majburlov choralari tayinlangan kasallarni majburiy

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 31 августдаги «Психиатрия ёрдами тўғрисида»ги 123-П-сон Қонуни, 36-модда 4-қисми // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 7–8-сон, 215-модда.

davolash uchun mo'ljallangan. Boshqa kasallar bu bo'limda saqlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Reabilitatsiya bo'limining maxsuslashtirilgan tavsifi, mijozlarning qochib ketishlariga to'sqinlik qiluvchi maxsus choralarni hamda davolashning spetsifik dasturlarini va u yerga tushadigan mijozlar xususiyatlarini hisobga olgan yo'nalishdagi kasallarning ijtimoiy readaptatsiyasini o'z ichiga oladi. Bunday bo'limda, kasalga shifokorning ta'siri, uning ongida noilojlik hissini yengish maqsadida, davolanishning foydasizligi to'g'risidagi tasavvurni yengish maqsadida, davolashning muvaffaqiyatli tugashiga, ayniqsa, kasallikning sezilarli bo'lmagan siljishlarida ham ishonch paydo qilish maqsadida ta'sir etishiga asoslangan. Bunday masalalarning faqat shunday yechimi shaxs ruhiy kasalligini samarali davolashga, majburiy choralar qo'llanishining ijobiy natijasiga erishishga imkon beradi. Davolash asosan ruhiy korreksiyalash choralari va mehnat reabilitatsiyasi choralari yordamida amalga oshiriladi.

Bunday turdagi majburlov choralari, kasallarni qat'iyroq kuzatish sharoitlarida amalga oshiriladi va bunga bo'limlarda qorovullar hisobiga va o'tkazish tartibini yaratish hisobiga hamda nazorat va kuzatuv majburiyatlari yuklatilgan tibbiy xodimlar bilan yaxshi ta'minlanganligi hisobiga erishiladi.

JK 93-moddasi «g» bandida nazarda tutilgan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining qat'iyroq turi **kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida yoki bo'linmasida majburiy davolashdir**. Bunga o'xshash shifoxonada yoki bo'limda davolashni tashkil etish, har bir mijoz turli klinik holatdagi yoki turli xil terapiya bosqichlariga muvofiq, amalda ulardan ketma-ketlikda o'tishi lozim bo'lgan davolash jarayonini tor maxsuslashtirilishi va profillashtirilishi bilan farq qiladi.

Ruhiy kasalliklar shifoxonasida yoki intensiv kuzatuv bo'limida ham muassasaning tibbiy xodimlarini, ham kasallarning xavfsizligi va muhofazasini ta'minlash maqsadida maxsus vositalar o'tkaziladi. Umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonalarini qo'riqlash tibbiy xodimlar tomonidan, sud-psixiatriya ekspertizasi bo'linmalari va kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonalarida ichki ishlar organlari

tomonidan amalga oshiriladi (JIK 192-moddasi 2-qismi). Ular shifoxona yoki bo‘limning nafaqat tashqi aylanasi muhofaza qiladi, balki shifoxona va bo‘lim ichida, aylangani chiqqan vaqtlarda, kasallar ishtirokida o‘tkaziladigan turli tadbirlarda ular xulqining nazoratini va kuzatuvini amalga oshiradilar.

Ko‘rsatib o‘tish lozimki, sud tomonidan faqat bir turdagi majburiy davolash turi aniqlanishi mumkin, bir vaqtning o‘zida shaxsga ikki yoki undan ortiq davolash turini tayinlash qonunning buzilishi hisoblanib, ajrimning bekor qilinishiga olib keladi. Ruhiiy kasallarni majburiy davolash O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tashxis qo‘yish, davolash va sog‘liqni tiklash usullari qo‘llangan holda o‘tkaziladi (JIK 187-moddasi).

4-§. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini tayinlash

JK 94-moddasi JK 92-moddasida ko‘rsatilgan majburiy davolashni qo‘llashning umumiy asoslarini to‘ldiruvchi tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarining maxsus masalalarini muvofiqlashtiradi. Ushbu masalalarning maxsus tavsifi, **JK 94-moddasi** holatlari bilan tartibga solingan faqat qat’iy cheklangan shaxslar doirasida qo‘llanilishini talab qiluvchi majburiy davolashning aniq turi xususiyati bilan shartlangan.

JK 94-moddasida ko‘rsatilgan maxsus asoslar sud tomonidan, JK 92-moddasida belgilangan umumiy shartlar bilan bir qatorda tibbiy yo‘sindagi aniq majburlov choralarini tanlashda hisobga olinishi lozim. Bunda sud birinchidan, majburlov davolash tayinlashning shartlari mavjudligini aniqlashi, faqat ular mavjud bo‘lgandagina ko‘rsatilgan modda holatlariga muvofiq davolash turini tanlash masalasini yechishi lozim.

JK 94-moddasi 1-qismi majburiy ambulatoriya kuzatuv va ruhiy kasallik mutaxassisida davolanish ruhiy kasalligi zo‘rayib ketayotganligini ko‘rsatuvchi alomatlar bo‘lmagan, shuningdek, ruhiy holati vaqtincha buzilgan ruhiy kasallarga nisbatan, bunday kasallikning qaytarilmasligi va yangi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilmasligi uchun tayinlanishi mumkinligini belgilaydi. Bu majburlov chorasi kasallikning o‘tkirlashuv belgilari topilmagan hamda vaqtinchalik ruhiy kasallikni kechirgan

shaxslarga, kasallikning rivojlanishini va jamiyatga xavfli qilmish sodir etishni oldini olish uchun ruhiy kasallarga nisbatan qo‘llaniladi.

Kasallikning o‘tkirlashuvi, ko‘rib chiqilayotgan me‘yorlar ma‘nosida kasal sog‘lig‘ining umumiy yaxshilanish davrida xronik ruhiy kasallik belgilarini sezilarli namoyon bo‘lishidan iboratdir (remissiya). Bunda kasallikning o‘tkirlashuv belgilari har bir aniq ruhiy kasallikka bog‘liq ravishda turlicha bo‘lishi mumkin va sud-psixiatriya ekspertizasi o‘rnatilishini taqozo etadi.

Kasallikning o‘tkirlashuv belgilari topilmagan, ya‘ni hozirda va uzoq muddatli kelajakda kasallik belgilari namoyon bo‘lishi imkoniyati past bo‘lgan shaxslarga majburiy ambulatoriya kuzatuv va ruhiy kasallik mutaxassisida davolanish qo‘llanadi.

Ruhiy holati vaqtincha buzilgan ruhiy kasallik – bu shunday ruhiy kasallikki, u nisbatan tez o‘tishi va sog‘ayishi bilan tavsiflanadi, masalan: patologik mast bo‘lish, reaktiv simptomatik holat, ya‘ni og‘ir qalb kechinmalari va iztiroblari bilan chaqirilgan ruhiy kasallik. Ko‘pchilik vaziyatlarda, bu kasalliklar qo‘qqisdan paydo bo‘ladi va kasalning to‘la sog‘ayishi bilan tugaydi¹.

Nazarda tutish lozimki, majburiy ambulatoriya kuzatuv va ruhiy kasallik mutaxassisida davolanishni qo‘llash tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini qo‘llash maqsadlaridan tashqari, maxsus maqsadni – kasallik takrorlanishining oldini olishni ham maqsad qiladi.

Kasallikning takrorlanishi deb, uning tavsifidan mustaqil ravishda kasallik belgilarining takroriy namoyon bo‘lishini tushunmoq lozim: xronik kasallik yoki vaqtinchalik ruhiy kasallik.

Majburiy ambulatoriya kuzatuv va ruhiy kasallik mutaxassisida davolanish, shaxs o‘zining ruhiy holatini to‘g‘ri baholash xususiyatiga ega bo‘lsa, tayinlangan tartibga rioya qilishga, tibbiy xodimlar tomonidan doimiy nazoratni talab etmaydigan, yetarli tartiblangan va tashkillangan xulqqa ega bo‘lgan vaziyatda tayinlanadi. Davolashning bunday turi takrorlanishiga ishonch kam bo‘lgan, vaqtinchalik ruhiy kasallikka chalingan holatda qilmish sodir etgan shaxsga hamda avval statsionar

¹ Каранг: Большой юридический словарь. Под ред. А.Я. Сухарева, В.Е. Крутских. М., ИНФРА, 2000, стр. 504.

ruhiy terapiyadan o'tgan va kasallik xurujlanishi belgilari topilmagan shaxslarga nisbatan qo'llanganda samaralidir. Oxirgi vaziyatda, qoidaga ko'ra, ambulatoriya davolanishi, statsionar sharoitlarda ruhiy terapiya kursini o'tagan shaxsning ijtimoiy adaptatsiyasini yengillashtirish maqsadlarida tayinlanadi.

Umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasida majburiy davolanish, tibbiy yo'sindagi majburiy choralar turi sifatida **JK 94-moddasi 2-qismiga** muvofiq, «ijtimoiy xavfliligi ruhiy holati bilan bog'liq bo'lgan, umumiy asoslarda davolash talab etiladigan ruhiy kasallarga nisbatan tayinlanishi mumkin».

Umumiy asoslarda davolash talab etiladigan holat shu bilan tavsiflanadiki, shaxsning jamiyatga xavfliligi uning ruhiy kechinmalari bilan bevosita shartlashilgan: alahsirash, gallyutsinatsiya, o'zinikini ma'qullash holati, hushi-esi joyida emasligi yoki yengil darajada aqli pastlik. Ruhiy kechinmalaridan tashqarida, bu shaxslarning kasallik tavsiflaridan mustaqil ravishda axloqlarida aksi ijtimoiy an'analar topilmaydi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, bunday vaziyatlarda shaxsning jamiyatga xavfliligi, uning o'zi uchun va atrofida uchun bevosita xavfliligida namoyon bo'ladi; uning yordamsizligi, ya'ni asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil qondirish xususiyatlarining yo'qligi; agar shaxs ruhiy yordamsiz qoldirilsa, ruhiy holatining yomonlashuvi oqibatida uning sog'lig'iga sezilarli zarar yetishida namoyon bo'ladi¹.

Umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasida majburiy davolanish quyidagi kasallarga tayinlanishi lozim:

– ruhiy kasallik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan, ruhiy kasalligi takrorlanishi mumkin bo'lgan yoki o'z holatiga yetarli bo'lmagan darajada tanqidiy baho berganlarga;

– kelib chiqishi turlicha bo'lgan aqli pastlikdan va ruhiy kamchiliklardan aziyat chekkan, tashqi noqulay holatlar ta'siri oqibatida qilmish sodir etganlarga.

Ko'rsatilgan toifadagi ruhiy kasallarga majburlov choralarni tayinlash, faqat ularda tegishli sog'liqni saqlash muassasalari tartiblarini qo'pol

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 31 августдаги «Психиатрия ёрдами тўғрисида»ги 123-П-сон Қонуни, 27-модда // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 7-8-сон, 215-модда.

ravishda buzish hamda jamiyatga xavfli qilmish sodir etish an'analari yo'q bo'lgan sharoitlarda mumkin.

Kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida yoki bo'linmasida majburiy davolanish JK 94-moddasi 3-qismi holatlaridan kelib chiqib tayinlanishi mumkin, ya'ni «ijtimoiy xavfliligi ko'proq salomatlikni tiklovchi choralarni ko'rishni talab qiladigan, ularni esa ixtiyoriy tartibda o'tkazish mumkin bo'lmagan ruhiy kasallarga nisbatan umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasining sog'liqni tiklash maxsus bo'limida majburiy davolash tayinlanishi mumkin».

Bunday majburlov choralari, umumiy tipdagi ruhiy shifoxonalarga joylashtirilgan shaxslarga qaraganda jamiyatga xavfliligi ortiqroq bo'lgan shaxslarga nisbatan tayinlanadi. Ko'rsatilgan shaxslar jamiyatga xavfli bo'lgan, noagressiv qilmishlarni sodir etishga (inson hayoti va sog'lig'iga qarshi bo'lmagan qilmishlar), umumiy tipdagi ruhiy shifoxonaning standart sharoitlarida reabilitatsiya tadbirlarining o'tkazilishini imkoniyatsiz qiladigan davolash muassasasining tartibini buzishga ma'lum darajada moyil bo'ladilar. Bunda qonun alohida belgilaydiki, reabilitatsiya bo'limida majburiy davolash, faqat sog'lig'ining holati reabilitatsiya choralarni talab etadigan shaxslargagina qo'llanadi. Shunday vaziyatda, agar ruhiy kasal, sog'lig'ining holati bo'yicha yana majmualiy davolash choralarni o'tkazishga ehtiyojli bo'lsa, biroq bemor tomonidan qilinayotgan tartib buzishlar ularni amalga oshirishga imkon bermasa, unga **JK 94-moddasi 4-qismi** holatlariga muvofiq kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida yoki bo'limda majburiy davolash tayinlanishi zarur.

JK 94-moddasi 4-qismiga muvofiq, «Kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida yoki bo'limda majburiy davolash o'ta ijtimoiy xavfli bo'lgan yoki o'z xulqiga ko'ra umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasi sharoitida davolanishining imkoni bo'lmagan ruhiy kasallarga nisbatan tayinlanishi mumkin. Kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida yoki bo'limda ruhiy kasallar batamom ajratilgan holda saqlanadi va qo'riqlanadi».

Majburiy davolashning bunday turini qo'llash, kasalning jamiyatga alohida xavf tug'dirishi yoki umumiy tipdagi ruhiy shifoxona sharoitlarida

zaruriy davolash va rehabilitatsiya tadbirlarining o‘tkazilishini imkoniyatsiz qiladigan, uning axloq buzilishlari bilan shartlanadi va ruhiy shifoxonaga yoki intensiv kuzatuv ostidagi bo‘limga yo‘llanmalar kasallikning xususiyatlari bilan emas (tibbiy ko‘rsatkichlar), balki ruhiy kasallikning ijtimoiy namoyoni xususiyatlari bilan – kasalning jamiyatga alohida xavfliligi bilan chaqiriladi.

Ruhiy kasalning jamiyatga alohida xavfi – kasallikning ijtimoiy ko‘rinishi sifatida ushbu shaxsning jinoyat qonuni bilan og‘ir va o‘ta og‘ir deb topilgan qilmishlarni sodir etishida, unga avval qo‘llangan majburlov choralari tavsifiga qaramasdan, shaxs sodir etgan qilmishning tizimlilikida namoyon bo‘ladi.

Kasal umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasi tartibi talablarini unga davolash-rehabilitatsiya qilish tadbirlarini o‘tkazishga imkoniyat bermaydigan darajada buzganda shaxsga tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariidan ruhiy shifoxona yoki intensiv kuzatuv ostidagi bo‘limda majburiy davolash turi tayinlanadi. Bunda u sodir etgan qilmishning og‘irligi ahamiyatga ega emas. Shu bilan bir vaqtda alohida e‘tibor berish lozimki, bunday vaziyatlarda ko‘rilayotgan majburlov choralariini tayinlash nafaqat rehabilitatsiya qilish, balki davolash tadbirlarini o‘tkazish imkoniyatining yo‘qligini ko‘rsatadi. Boshqa vaziyatlarda, agar tartibning buzilishi faqat rehabilitatsiya tavsifidagi choralarni o‘tkazish imkoniyatini bermasa, **JK 94-moddasi 3-qismi** tartibida kasalga faqat umumiy tipdagi ruhiy shifoxonaning intensiv kuzatuv ostidagi bo‘limida majburiy davolash qo‘llanishi mumkin. Ushbu masalaning boshqacha yechimi jinoyat qonunining buzilishi hisoblanadi va ajrimning bekor qilinishiga olib keladi.

Ta’kidlash lozimki, ruhiy shifoxonalarda yoki intensiv kuzatuv ostidagi bo‘limlarda ruhiy kasallar **qat’iy ajratilgan va qo‘riqlangan sharoitlarda** saqlanadilar.

(Qat’iy ajratilgan va qo‘riqlangan sharoitlar to‘g‘risida kengroq ushbu bobning «Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariining turlari» deb nomlangan 3-§ ga qarang.)

Shaxsga u yoki bu tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariini qo‘llash zaruriyati, kasallikning tavsifi kabi sud-psixiatriya ekspertizasining

xulosasida aniq ko'rsatilishi lozim. Bunda majburiy davolashning aniq turini qo'llash zarurati, albatta asoslanishi lozim. Shu vaqtning o'zida, ekspertizaning xulosasi sud uchun o'rnatilgan dalil kuchiga ega bo'lmaydi va ishning boshqa holatlari bilan birgalikda sud tomonidan baholanishi lozim bo'ladi. Ishning boshqa holatlari bilan birgalikda sud jamiyatga xavfsizlik tavsifini boshqacha baholashi mumkin va o'z xohishi bo'yicha u yoki bu majburlov choralari qo'llashi (yoki qo'llamasligi) mumkin. Har bir holatda sud qarori, albatta asoslanishi lozim.

5-§. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari muddatini uzaytirish, o'zgartirish va bekor qilish

Qonun majburlov choralari qandaydir muddat bilan chegaralamaydi va shu bilan bir vaqtda, majburlov choralari qo'llanilgan shaxsga nisbatan uning uzaytirilishi, o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi uchun asos bo'lib, istisno tariqasida salomatligining holati hisoblanadi. Shunday qilib, jinoyat qonuni majburlov choralari tayinlangan shaxs huquqlariga rioya qilinishiga kafolat yaratib, majburiy davolashni jazo vositasiga ixtiyoriy modifikatsiya qilish imkoniyatini bermaydi.

JK 95-moddasi 1-qismiga ko'ra, «tibbiy yo'sindagi majburlov choralari muddatini uzaytirish, o'zgartirish va bekor qilish masalasini ruhiy kasalliklar shifokorlari komissiyasining xulosasiga asoslangan holda sud hal qiladi». Bunda kodeks, ko'rsatilgan choralarning uzaytirilishi, o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi qaysi tartiblarga asosan amalga oshirilishini aniqlamaydi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari muddatini uzaytirish o'zida avval tayinlangan majburiy davolash turini keyinchalik qo'llanishini ifodalaydi. Majburlov choralari muddatini uzaytirish aniq majburiy davolashning tayinlanishi uchun asos bo'lgan shaxsning fizik va psixik holati o'zgarmasdan qolsa yoki uning o'zgarishi sezilarsiz o'tayotgan bo'lsa, amalga oshiriladi. Nazarda tutish lozimki, kasal holatini baholash tekshirilayotgan vaqtdagi holatidan kelib chiqmasdan, uning kelgusidagi rivojlanishini ham hisobga olgan holda amalga oshirilmog'i lozim. Erishilgan xavfsiz holatning doimiyliги to'g'risida axborotning yo'qligi

sababli, tayinlangan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llashni davom ettirishni taqozo etadi.

Majburiy davolash muddatining uzaytirilishi kasal davolash o‘tayotgan ruhiy muassasa shifokor-psixiatrlaridan yig‘ilgan shifokor-psixiatrlar komissiyasining xulosasida ko‘rsatilgan tavsiyalar asosida amalga oshiriladi. Nazarda tutish lozimki, amaldagi qonunchilikka muvofiq, psixiatrik statsionarga joylab, majburiy davolashni uzaytirish maqsadlarida ruhiy kasalni maxsus tekshirish tartibi nazarda tutilgan¹. Ular:

– shaxsga majburiy davolash tayinlanganidan keyin olti oy davomida, biroq eng kamida bir oyda bir marta shaxsni gospitallashtirishni uzaytirish to‘g‘risidagi masalani yechish uchun shifokor-psixiatrlar komissiyasi, albatta tekshirishi lozim. Olti oy o‘tganidan so‘ng, xulosa psixiatrik statsionar ma‘muriyati tomonidan majburlov chorasini uzaytirish uchun sudga yuboriladi²;

– gospitallashtirish uzaytirilgan vaziyatda, keyingi tekshiruvlar olti oydan kam bo‘lmagan vaqtda bir marta amalga oshiriladi³. Bunda shifokor-psixiatrlar komissiyasining xulosasi har yili psixiatrik statsionar ma‘muriyati tomonidan majburlov chorasini uzaytirish uchun sudga yuboriladi. Agar psixiatrik muassasa, majburiy davolashning uzaytirilishi yoki o‘zgartirilishi to‘g‘risidagi sud ajrimidan bir yil o‘tganidan so‘ng ham majburiy davolashni amalga oshirishda davom etayotgan bo‘lsa, uning faoliyati noqonuniy deb topiladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan vaziyatlarda muddatlarni hisoblashni majburiy davolash uchun aniq shaxsga nisbatan tayinlangan, uzaytirilgan yoki o‘zgartirilganligi to‘g‘risidagi sudning oxirgi ajrimi kuchga kirgan vaqtdan amalga oshirish lozim.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasi qo‘llanilgan shaxs sog‘aygan taqdirda yoki sog‘lig‘i o‘zgarib, shaxs ruhiy kasal bo‘lsa-da, sud tomonidan dastlab belgilangan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralaridan boshqa xil davolanishga muhtoj bo‘lsa yoxud bu xildagi choralarga muhtoj

¹ Фикримизча, кўрсатилган қоидалар мажбурий амбулатория кузатуви ва рухий касаллик мутахассисида даволанишни узайтиришда ҳам қўлланилади.

² Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 31 августдаги «Психиатрия ёрдами тўғрисида»ги 123-П-сон Қонуни, 31-модда, 2 ва 3-қисмлар. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 7–8-сон, 215-модда.

³ Ўша жойда, 31-модда, 4-қисм.

bo'lmasa, sud tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini bekor qiladi yoki o'zgartiradi (JPK 578-moddasi).

Majburlov choralari tayinlangan kasal sog'lig'ining o'zgarishi, avval tanlangan davolash turiga rioya qilinganda davolash-reabilitatsiya qilish tadbirlarini o'tkazishni samarali davom ettirishga imkon bermaydigan darajada sezilarli bo'lishi lozim. Bunda, sog'lig'ining o'zgarishi yaxshilanish tomoniga yoki yomonlanish tomoniga bo'lishi mumkin, tanlangan davolash turi mos ravishda kamroq yoki ko'proq chegaralangan holda o'zgartirilishi lozim.

Nazarda tutish lozimki, unga nisbatan majburiy davolash qo'llanilgan shaxs sog'lig'ining holati yaxshilangan vaziyatda, majburiy davolash turini o'zgartirish imkoni boricha bosqichma-bosqich davolashning og'ir turini yengilrog'i bilan almashtirib o'tkazilishi lozim. Bunday vaziyatda, sud davolash turini birdaniga o'zgartirishdan qochib, imkon qadar, xatoga yo'l qo'ymaslik uchun, kasal holatining o'tkirlashuvini va dekompensatsiyasining oldini olish uchun, shaxsning barqaror va samarali ijtimoiy adaptatsiyasiga ta'sir ko'rsatib, davolash intensivligini ketma-ket bo'shashtirib borish zarurligini nazarda tutishi lozim. Shu vaqtning o'zida bu qoidalar sud uchun majburiy hisoblanmaydi.

Sog'lig'i holatining yomonlashuvi vaziyatlarida, ko'proq chegaralangan shartlar bilan majburiy davolash turini tanlash tartibi ushbu qoidalarga bo'ysunmaydi. Qoida bo'yicha, bunday vaziyatlarda sud, o'zgartirishning bosqichma-bosqich prinsiplarini qo'llamasdan, kasal holatining yomonlashuviga tez va amaliy javob berib, darhol zarur chora tayinlashi qo'llangan davolashning samarasiga ta'sir ko'rsatadi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashni bekor qilish aniq shaxsga nisbatan har qanday turdagi majburlov choralarining to'la bekor qilinishi bilan ifodalanadi. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashni to'xtatish uchun shaxsning tuzalishi asos bo'ladi, bunda u ruhiy kasal bo'lib qolib, tibbiy yo'sindagi majburiy choralarni qo'llashga ehtiyoj sezmaydi.

Tuzalish – shaxs ruhiy salomatligi holatining turg'un yaxshilanishi bo'lib, bu holatda unda ruhiy kasallik belgilari to'la yo'qoladi va u o'z harakatiga hisob berishga va uni boshqarishga qodir bo'ladi.

Salomatlik holatining o'zgarishida shaxs ruhiy kasal bo'lib qolib, tibbiy yo'sindagi majburiy choralarni qo'llashga ehtiyoj sezmasligi o'zida kasallik rivojlanishining shunday davrini ifodalaydiki, bunda shaxs o'zi va atrofdagilar uchun xavf tug'dirmay qo'yadi. Bunda sog'lig'i holatining o'zgarishi, ham yaxshilanish tomoniga, ham yomonlanish tomoniga bo'lishi mumkin, bu majburiy davolashni to'xtatishga ta'sir qilmaydi. Shu bilan bir vaqtda, sog'lig'ning o'zgarishi barqaror tavsifga ega va kasallikning o'tkirlashuvi mumkinligi darajasi, aksijtimoiy an'analar namoyon bo'lishi past ekanligiga ishonch hosil qilish lozim. Sog'lig'i holatining o'zgarishi shaxsning nafaqat ruhiy sog'lig'iga, balki uning jismoniy holatiga ham ta'sir etishini nazarda tutish lozim. Shu munosabat bilan, majburiy davolashni, yana ruhiy kasallik o'zgarmaydigan holatlarda, biroq shaxs tomonidan jamiyat uchun xavfli qilmish sodir etishga jismoniy imkoniyat qolmaganida ham to'xtatish mumkin (masalan, qandaydir shikastlanish paydo bo'lganida).

Shuni hisobga olish lozimki, jinoyat sodir etgan va keyin ruhiy kasallikka duchor bo'lib qolganligi tufayli tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxs sog'aygan taqdirda, sud ishni shaxs ruhiy kasal bo'lgan bosqichdan boshlab umumiy tartibda yuritishni tiklash masalasini hal qilishi lozim (JPK 579-moddasi). Bunday holatda, shu shart bilan, agar shaxsning qilmishida jinoyat tarkibi belgilari mavjud bo'lsa, qisman, jinoyat sodir etganda layoqatliligi belgilari, ya'ni qachon shaxs jinoyat sodir etganidan so'ng, biroq hukm chiqarilgunicha yoki jazoni o'tash davrida ruhiy kasallik bilan og'rib qolsa yo'l qo'yiladi. Aks hollarda shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi.

Shaxsning majburiy davolanishda bo'lgan davri, ushlab turish, qamoqqa olish yoki uy qamog'i muddatini hisoblash qoidalariga muvofiq jazoni ijro etishda hisobga olinishi lozim (JK 62-moddasi). Psixiatriya statsionarida bo'lgan bir kun ozodlikdan mahrum etilgan bir kunga tengligidan kelib chiqib hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda psixiatriya statsionarining turi ahamiyatga ega emas.

Majburiy davolashni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi masala ham davolashni tayinlash yoki uni kuchaytirish masalasi kabi sud

tomonidan shifokor-psixiatrlar komissiyasining xulosasiga binoan hal qilinishi lozim. Bunda amaldagi qonunchilik, davolashning o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi imkoniyati bo'yicha tegishli tekshiruvlar o'tkazilishiga qandaydir chegaralarni belgilamaydi. Shu munosabat bilan bunday vaziyatda, oxirgi tekshiruvlar muddatiga bog'lanmagan holda, tekshiruvlar shaxsning sog'ligi holatida sezilarli o'zgarish sodir bo'lgan zahoti amalga oshirilmog'i lozim.

Tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini bekor qilish yoki o'zgartirish rad qilingan taqdirda takroriy iltimosnoma rad etish haqida ajrim chiqqan kundan olti oy o'tgandan keyingina ko'rib chiqish uchun qabul qilinishi mumkin (JPK 580-moddasi 10-qismi).

Yana shuni e'tiborga olish lozimki, tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini ijro etayotgan sog'liqni saqlash muassasasi shifokor-psixiatrlari komissiyasining tavsiyasiga qaramasdan, majburiy davolashni uzaytirish, o'zgartirish yoki to'xtatish to'g'risidagi masalani faqat sud yechishi lozim. Agar sudning ajrimi yo'q bo'lsa, shifokorlar uning holatini qanday deyishlaridan qat'i nazar, u chiqarib yuborilishi yoki boshqa ruhiy shifoxonaga o'tkazilishi mumkin emas. Majburiy davolashni uzaytirish, o'zgartirish yoki to'xtatish to'g'risidagi masalani yechishda sud shifokor-psixiatrlar komissiyasi chiqargan xulosaning asosliligini tekshirib chiqishi lozim. Buning uchun sud o'tkazilgan davolashning natijalarini, tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi bekor qilinganidan keyin shaxs boradigan joy sharoitlarini hamda keyinchalik tibbiy kuzatuv va davolash zaruriyatini aniqlanmog'i lozim. Shu maqsadlarda, shaxsga nisbatan majburiy davolash qo'llashni bekor qilish to'g'risidagi masala yechilayotgan sud majlisiga tibbiy muassasa vakillarini, yaqin qarindoshlarini yoki shaxsning qonuniy vakili chaqirilishi lozim.

JK 95-moddasi 2-qismi agar ruhiy kasalga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburiy davolash choralari qo'llash zarurati bo'lmasa, shuningdek, bu choralar bekor qilingan bo'lsa, sud uni umumiy asoslarda davolash yoki ijtimoiy ta'minot muassasalariga yuborish masalasini hal etish uchun sog'liqni saqlash organlariga topshirishi mumkinligini nazarda tutadi.

Tushuntirish lozimki, JK 92-moddasida ko'rsatilgan majburlov choralari qo'llashning umumiy asoslari mavjud bo'lmagan ruhiy kasal shaxs, **majburiy davolashni qo'llashga ehtiyojsiz** deb topiladi.

JK 95-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan tartibda, shaxsni sog'liqni saqlash idoralariga topshirishda, uni davolash O'zbekiston Respublikasining «Ruhiy yordam to'g'risida»gi Qonuni holatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

6-§. Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka yo'liqqan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash

Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka yo'liqqan shaxslarga tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini tayinlash ularga qo'llangan jinoiy javobgarlik samaradorligini oshirishga, jinoyatchilik darajasining pasayishiga, fuqarolarni Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish ruhida tarbiyalashga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, ushbu shaxslar tomonidan sodir etilgan har bir holatda, sud, tibbiy xulosa mavjud bo'lganda, unga nisbatan jazo bilan bir qatorda majburiy davolashni tayinlash zaruriyati to'g'risidagi masalani ham muhokama qilishi lozim (JK 96-moddasi 1-qismi). Faraz qilinadiki, shu masala layoqatlilikni istisno qilmaydigan ruhiy kasal bo'lgan shaxslarga jazo tayinlashda ham muhokama etilishi lozim. Bunday shaxslarga tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining jazoni ijro etish bilan qo'shib tayinlanishi O'zbekiston Respublikasi «Ruhiy yordam to'g'risidagi» Qonunining 15-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan.

JK 96-moddasi holatlari majburiy davolashni qat'iy cheklangan doiradagi shaxslarga: alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka yo'liqqan shaxslarga qo'llanishi masalasini muvofiqlashtiradi. (Bu toifa shaxslarga kimlar kirishi to'g'risida ushbu bobning «Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining tushunchasi va maqsadlari» deb nomlanuvchi 1-§ qarang.)

Shuni hisobga olish lozimki, bunday shaxslarga nisbatan JK 96-moddasi holatlariga muvofiq, majburiy davolash choralarini qo'llashga, agar shaxsning kasalligi xronik tavsifli va u shaxsni o'z harakatlari ahamiyatini anglash va uni boshqarish imkoniyatidan mahrum etmagan vaziyatlarda

yo‘l qo‘yiladi. Boshqa vaziyatlarda majburiy davolashni jinoiy jazo bilan parallel tayinlash noqonuniy hisoblanadi. Ammo, alkohol, giyohvand va psixotrop moddalar iste‘mol qilishga hamda psixofaol harakati bo‘yicha giyohvand moddalarga o‘xshash, sun‘iy yoki tabiiy dori bo‘lmagan moddalarga bog‘liqligi, uni o‘z harakatlari ahamiyatini anglash va ularni boshqarish xususiyatidan mahrum qilsa, unga JK 96-moddasi tartibida emas, balki ruhiy kasal singari, tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llash zarur bo‘ladi.

Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka yo‘liqqan shaxslarga tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari tayinlashda, sud JK 92-moddasida belgilangan majburiy davolashni qo‘llashning umumiy asoslaridan kelib chiqib hamda JK 94-moddasida ko‘rsatilgan majburlov choralari u yoki bu turini qo‘llashning xususiy shartlaridan kelib chiqishi lozim. Bunda nazarda tutish lozimki, shaxsning ruhiy holati sud-narkologik ekspertiza xulosasi bilan tasdiqlanib, unda, albatta, quyidagi savollarga javob ifodalangan bo‘lishi lozim:

– shaxs xronik ichkilikboz, giyohvand va zaharvand bo‘lib hisoblanadimi;

– alkohol, giyohvand va psixotrop moddalar iste‘mol qilish hamda psixofaol harakati bo‘yicha giyohvand moddalarga o‘xshash, sun‘iy yoki tabiiy dori bo‘lmagan moddalarga og‘riqli bog‘liqligi uni o‘z harakatlari ahamiyatini anglash va ularni boshqarish xususiyatidan mahrum qiladimi;

– majburiy davolashni qo‘llash uchun shaxsda qandaydir qarshi ko‘rsatkichlar mavjudmi va bor bo‘lsa qaysilar.

Tibbiy xulosa sud uchun oldindan shartlashilgan daliliy kuchga ega emas va ishning boshqa holatlari bilan birgalikda baholanishi taqozo etiladi. Ammo, sudning sud-narkologik ekspertiza tavsiyalariga roziligi yoki noroziligi ajrimda, albatta asoslab berilishi lozim.

Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka yo‘liqqan shaxslarga majburiy davolashni qo‘llash sudlangan shaxs qilmishining tavsifi bilan kuzatilmaydi, ya‘ni qilmish sodir etganligi uchun sudlangan shaxs, uni mastlik holatida sodir etganmi yoki yo‘qmi, unga tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilishi mumkin. Faqat shaxsda alkohol,

giyohvand va psixotrop moddalar iste'mol qilish hamda psixofaol harakati bo'yicha giyohvand moddalarga o'xshash, sun'iy yoki tabiiy dori bo'lmagan moddalarni iste'mol qilishga xronik bog'liqligi borligini aniqlash muhim. Shu bilan bir vaqtda, shaxsni sudlashda har qanday majburlov choralari albatta qo'llash sharti bo'lishi shart (JK 92-moddasi).

Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka yo'liqqan shaxslarga majburiy davolash jinoiy jazo bilan birga tayinlanishi qonunda bevosita ko'rsatilgan. Bunda, sud majburiy davolashni qo'llash to'g'risidagi masalani hal qila turib, uni alohida ajrim bilan rasmiylashtirishi lozim. Bunday vaziyatda, sud ayblov hukmini chiqarayotib, unda shaxsga nisbatan majburiy davolash zarurligini ko'rsatmog'i, ammo unga tegishli masalalarni alohida ajrim bilan hal qilishi lozim.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlangan alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka yo'liqqan shaxslarga, majburiy davolashning hamma turlari qo'llanishi mumkin – bunga nisbatan qonunda hech qanday cheklovlar ifodalanmagan. Shu bilan bir vaqtda, ushbu shaxslar jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilganliklarini hamda ulardagi bog'liqlik xususiyati ularning layoqatligidan mahrum etishini inobatga olib, ularga qo'llanilgan majburiy davolash ruhiy kasallardan va jazo o'tayotgan layoqatli shaxslardan ajratilgan holda o'tkaziladi.

Belgilab qo'yish lozimki, alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka yo'liqqan shaxslarni majburiy davolash ularga tayinlangan jazo ijrosi bilan birgalikda amalga oshirilgani uchun, ushbu davolashni tashkil etishning ma'lum xususiyatari ham mavjud. Agar shaxs ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazo bilan sudlangan bo'lsa, JK 96-moddasi 2-qismiga muvofiq, u tibbiy muassasalarda majburiy davolanishi lozim. Bunday holatlarda, davolash amaldagi qonunchilikka muvofiq umumiy asoslarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining maxsus davolash-profilaktika muassasalarida tashkil etiladi¹.

¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 9 декабрдаги «Сурункали алкоғолизм, гиёҳвандлик ёки заҳарвандликка мубтало бўлган беморларни мажбурий даволаш тўғрисида»ги 753–ХП-сон Қонуни, 1-модда 1-қисми // Ўзбекистон Республикаси Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 й., 1-сон, 36-модда.

Ushbu shaxslar sudlangan bo‘lib, ularning davolanishi, bu muassasada davolash kursini o‘tayotgan, JK 96-moddasi tartibida bo‘lmagan boshqa shaxslardan alohida amalga oshirilishi lozim.

Agarda, alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka yo‘liqqan shaxslar, JK **96-moddasi 3-qismiga** muvofiq ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo‘lsa, u jazo o‘tash joylarida, ozod qilinganidan so‘ng esa, davolashni davom ettirish lozim bo‘lgan taqdirda, umumiy asoslarda tibbiy muassasalarda davolanishi lozim. Bunda, jazoni o‘taganlaridan keyin ular sudlangan sifatida ko‘rib chiqilmaydilar va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining maxsus davolash-profilaktika muassasalarida, ushbu davolash ko‘rib chiqilayotgan modda tartibida davolash qo‘llanmagan shaxslar bilan bir qatorda davolanadilar.

Nazarda tutish lozimki, qonun sud tomonidan tayinlangan majburiy davolashni uzaytirish tartiblarini nazarda tutmaydi. Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikdan davolanish kursi, uni har yili uzaytirish bilan emas, balki uni to‘la o‘tagunicha o‘tkaziladi. Alkogolizm yoki giyohvandlikdan to‘la majburiy davolash kursi tugaganidan so‘ng, jazoni ijro etish bo‘yicha muassasa ma‘muriyati, sog‘liqni saqlash muassasasi amaldagi qonunchilikka muvofiq, sudga sudlangan shaxsdan majburiy davolashni olib tashlash to‘g‘risidagi taqdimnomani yuborishga majbur. Avval tayinlangan majburiy davolash turini o‘zgartirish, JK 95-moddasi holatlariga muvofiq, umumiy tartiblarda amalga oshiriladi. Bunda, shaxsning ruhiy shifoxonada bo‘lgan vaqti, psixiatriya statsionaridagi bir kun ozodlikdan mahrum etilgan bir kunga tenglashtirib, jazo muddatiga hisoblanadi. Bu holatda psixiatriya statsionarining tipi ahamiyatga ega emas.

«Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari» mavzusi bo‘yicha yakuniy savollar

1. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari o‘zida nimani ifodalaydi?
2. Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari jinoiy jazodan nima bilan farq qiladi? Ushbu jinoyat-huquqiy institutlarning o‘xshashligi nimada?

3. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashning maqsadlari qanday? Ular qaysi toifa shaxslarga qo'llaniladi? Ruhiiy kasal deb kimlarga aytiladi?

4. Majburiy davolash layoqatliligi mustasno qilinmagan ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga qo'llanilishi mumkinmi?

5. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini tayinlashning umumiy asoslari qanday?

6. Majburlov choralarining qanday turlari mavjud?

7. Majburiy davolash muddatlari kim tomonidan va qanday aniqlanadi?

8. Kimga umumiy tipdagi ruhiy shifoxonaning maxsuslashtirilgan reabilitatsiya qilish bo'limida saqlash bilan majburiy davolash tayinlanadi?

9. Kasalni umumiy tartibli ruhiy shifoxonadan kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy shifoxonaga o'tkazishga yo'l qo'yiladimi?

10. Qanday sharoitlarda tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashni to'xtatish sodir etiladi? Qanday vaziyatlarda ushbu choralar uzaytiriladi? Majburiy davolashni uzaytirish tartiblari qanday?

11. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini o'zgartirish uchun nima asos bo'ladi?

12. Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka yo'liqqan, ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazo choralariga sudlangan shaxslarni majburiy davolash qayerda o'tkazilishi lozim?

13. Alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka yo'liqqan shaxslar ruhiy ahvolini tibbiy ekspertlar tomonidan belgilashda qaysi masalalarni aniqlash lozim?

Qo'shimcha adabiyotlar

O'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar

Михеев Р.И., Беловодский А.В., Воробей В.А., Михеев О.Р. Принудительные меры медицинского характера в уголовном праве – социальноправовые и медикореабилитационные меры безопасности. – Владивосток: Изд. Группа «ВИТ», 2000. – 292 Б.

Павлихин А.Н. Принудительные меры медицинского характера (уголовно-правовой аспект): Монография. – М.: ЮНИТИ-ДАНА: «Закон и право», 2007. – 144 Б.

Прохорова М.Л. Наркотизм: Уголовно-правовое и криминологическое исследование. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2002. – 287 Б.

Романова Л.И. Наркомания и наркотизм. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – 481 Б.

Спасенников Б.А. Принудительные меры медицинского характера в российском уголовном праве / Под ред. И.Я. Козаченко. – СПб.: «Юридический центр Пресс», 2003. – 500 Б.

Уголовное право и судебная психиатрия: Сборник научных трудов. – Архангельск: АГТУ, 2003. – 150 Б.

Ўразалиев М.Қ. Жиноятчилик билан алоқадор бўлган ижтимоий салбий ҳодисаларнинг сабаблари ва уларнинг олдини олиш. Монография. – Т.: ТДЮУ, 2017. – 194 б.

Ilmiy maqolalar

Ўразалиев М.Қ. Жиноят кодексидаги алкоголизм ва мастлик ҳолати // Ўзбекистон Республикаси Олий Судининг ахборотномаси. –2014. №2. – Б. 43-46.

Ўразалиев М.Қ. “Алкоголизм” ва “ичкиликбозлик” тушунчаси ва бундай иллатларнинг ҳуқуқий оқибатлари ҳақида // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг ахборотномаси. – Тошкент, 2014. №3. – Б. 51-56.

Ўразалиев М.Қ. Фоҳишаликнинг сабаблари ва унинг олдини олиш // Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили. Uzbek Law Review. Обзор законодательства Узбекистана. – 2014. №3-4.– Б. 33-35.

Ўразалиев М.Қ. Мастлик ҳолатида содир этилган жиноятлар уларнинг ҳуқуқий табиати// Ҳуқуқ ва Бурч. Ижтимоий-ҳуқуқий журнал. – 2015. №1. – Б.62-63.

RUSTAMBAYEV MIRZAYUSUP XAKIMOVICH

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist,
yuridik fanlar doktori, professor

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT HUQUQI
K U R S I**

II TOM

**UMUMIY QISM
JAZO HAQIDA TA’LIMOT**

Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik
(2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan)

«Complex Print» nashriyoti, Toshkent, 2018

Muharrir: O.Rahimov

Texnik muharrir: Murakayeva Z.I.

Korrektor: Qosimjonova D.R.

Dizayner: Gabbasov B.R.

Bosishga ruxsat berildi 12.12.2018. Buyurtma № 3-и Times New Roman
garniturasida bilan raqamli usuli bilan bosildi.

Hajmi: 22.61 sh-b.t. 16,42 n.-x.t. Adadi 80 nusxa

Nashriyot lisenziyasi Ai №004, 20.07.2018 y.

«Complex Print» nashriyoti, Toshkent sh., A.Navoiy ko‘ch., 24.

Tel.: +998 71 244 40 89

«Complex Print» bosmaxonasida chop etildi.

Lisenziya № 10-3606, 10.12.2016 y.

Toshkent sh., A.Navoiy ko‘ch., 24.

Tel.: +998 71 244 40 89